

## 1-variant

1. Ellik sakkizni rosa kutdim, kelmadi – piyoda ketdim. Ma’no ko’chishining turini toping.  
A) metafora                    B) sinekdoxa  
**C) metonimiya**                D) vazifadoshlik
2. «Agar mening ustimdan qo‘rroq deb yana bilsangiz, endi ajdarni tutib kelaman». Ushbu so‘zlar qaysi asar qahramoni tilidan aytilgan?  
A) «Kichkina shahzoda», Kichkina shahzoda  
B) «Hellados», Jamol C) «Me’mor», Zavrak  
**D) «Me’mor», G‘avvos Muhammad**
3. Boshimda o‘ynar qamchilar, qon ko‘zlarimdan tomchilar, bir benavo gul yanchilur, ozodkorim kelmasa. Ushbu gap...  
A) Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap  
**B) Bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap**  
C) Qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap  
D) Aralash murakkab qo‘shma gap
4. «...turk tilining o‘lgan jasadig‘a Masih anfosi bila ruh kiyardi va ul ruh topqonlarga turkiy oyin alfoz tor-i pudidan to‘qilgan hulla va harir kiyurdidi». Alisher Navoiy haqida aytilgan ushbu fikrlar quyidagi qaysi asarda keltirilgan?  
A) “Nasoyim ul-muhabbat”  
B) «Habib us-siyar» asarida  
**C) «Risola» asarida**      D) “Makorim ul-axloq” asarida
5. Navoiy Mehrning beqiyos go‘zalligini necha baytda chizib ko‘rsatgan?  
A) 5 B) 6 C) 7 **D) 8**
6. Quyidagi nechta gapda boshqa bo‘laklar bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan «bo‘lak»lar soni ikkita?  
1) **Darhaqiqat**, tepe ustidan diqqat bilan qaralsa, hali ham odamzod qo‘li bilan qurilgan kanalning izlari ko‘rinadi.  
2) **Og‘aynilar**, biz bu yerda qancha tortishmaylik, oramizda har qancha gap qochmasin, bu mehnat sarf qilsa arziyidigan ish ekanligi ravshan ko‘rinib turibdi. **3)** **Darhaqiqat, o‘g‘lim**, bizdan ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, xalqimiz inoq va serg‘ayrat, yuzlaringizni shuvut qilmaydigan xalq. 4) **Avvalo**, rosmana ilmiy loyiha kerak, shuni tushunasizmi? 5) **Yaxshi hamki**, Jalolov bilan birga xatoning oldini oldik, **uka**.  
**A) 2 ta** B) 1 ta C) 3 ta D) 4 ta
7. **Faqat** bitta tuyg‘u uxlamas **biroq**, // Uning to’shagida mix bor toabad. // Uni qiyab yotar omonsiz so‘roq, // **Faqat** uxlamaydi bir**gina** hasad. (A. Oripov)  
She’riy parchadagi yordamchi so‘z turkumlariga xos birliklar necha o‘rinda qo‘llanganini aniqlang.  
A) 2 B) 3 C) 5 **D) 4**
8. Uch mazlumning turmushi, o‘y-xayollari, ko‘ngil olami, qarashlari, tutumlari va taqdirdagi o‘zgarishlar aks etgan asar qaysi?  
A) A. Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romani  
B) A. Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romani  
**C) Oybekning “Qutlug” qon» romani**  
D) Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romani
9. Hali ko‘nglingiz g‘unchaday yosh ota dedi Sayramov Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini aniqlang.  
A) qo‘shtirnoq, qo‘shtirnoq, vergul, tire, nuqta  
**B) qo‘shtirnoq, vergul, qo‘shtirnoq, vergul, tire, nuqta**  
C) qo‘shtirnoq, vergul, qo‘shtirnoq, tire, nuqta  
D) qo‘shtirnoq, vergul, qo‘shtirnoq, tire, nuqta
10. «Vatan, istiqlol, ma’naviyat... Bu so‘zlar inson ongidagi

- eng buyuk tushunchalarni ifodalovchi purhikmat so‘zlardir. Agar insonda shu so‘zlarning birontasi yo‘q bo‘lsa, hayotning qayeridir kemtik bo‘lib turaveradi». Ushbu matn qaysi uslubga xos?  
A) Badiiy                    B) Rasmiy **C) Publitsistik** D) So‘zlashuv
11. To‘tini o‘z ismini **aytishga o‘rgatishadi**. Ismni ko‘p **qaytarishadi**. Keyin bir kuni, ehtimol, bexosdanmi yoki o‘z kayfiyatini **bildirish** uchunmi, u **talab qilinayotgan** so‘zni **aytib yuboradi** va shu ondayoq mukofot oladi.
- Berilgan parchada fe’l nisbatlarining necha turi qo‘llangan?  
A) 2 B) 3 C) 5 **D) 4**
12. Qaysi she’rdagi lirik qahramon, ya’ni shoir uning talpingan manzili «murodga qasd qilib yugurish»ni talab qilishi, «beg‘am, bemehnat tiriklik ne kerak»ligi haqida isyonkor misralar yaratadi?  
A) Musa Jalil, “Kechir, yurtim”  
B) Cho‘lpon, «Buzilgan o‘lkaga»  
C) Usmon Nosir, «Yurganmisiz birga oy bilan»  
**D) Usmon Nosir, «Yo‘lchi»**
13. «Cho‘ri» asari haqida berilgan to‘g‘ri hukmni toping.  
A) Mirmuhsinning xalqimiz o‘tmishini aks ettiruvchi qissasi  
B) Mirkarim Osimning tarixiy qissasi  
C) Mirmuhsinning o‘tmish mavzusida yozilgan romani  
D) O‘lmas Umarbekovning o‘tmish mavzusida yozilgan qissasi
14. Shoir Faxriyorning ikkitagina so‘zdan iborat she’ri qaysi javobda berilgan?  
**A) oy bolta**                B) oq va qora  
C) tush va yo‘l            D) gul tikan
15. «Agar yulduzlar odamga aylanib qolsa bormi, osmon ularga torlik qilib qolardi». Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asaridan olingen ushbu fikrlar kimning tilidan aytilgan?  
A) shoxdor ona bug‘u            B) bola  
C) Mo‘min chold **D) Cho‘tir Baymoq** kampir
16. Omonimik xususiyatiga ega so‘zlar kompozitsiyasidan hosil bo‘lgan qo‘shma otlarni belgilang.
- 1) otqulqoq; 2) qo‘ymijoz; 3) qovoqari; 4) oshqovoq; 5) qirqulloq; 6) surbet.
- A) 2, 4, 5                    B) 1, 4, 5, 6      **C) 1,3, 4, 5**      D) 1,2, 3,4
17. Ega ishtirot etgan gaplarni aniqlang.  
1) Burgaga achchiq qilib ko‘rpa kuydirish yaxshi emas; **2)** Sabr qilsang, g‘o‘radan **halvo** bitar; 3) Yaxshi bo‘lsang yasharsan, nasibangdan osharsan; **4)** Shakarning **ozi** shirin; **5)** Beli og‘rimaganning non yeyishini ko‘r.  
A) 3, 4, 5                    B) 2, 4, 5      **C) 1, 2, 3**      D) 1, 5
18. «Boburnoma»dan keltirilgan Samarqand (a) va Andijon (b) tasvirlari to‘g‘ri moslab ko‘rsatilgan javobni aniqlang.  
1) qovun mahalida poliz boshida qovun sotish rasm emas;  
2) ... ning noshpo‘tisidan yaxshirog‘i yo‘q; **3)** 9 tarnov suv keladi, bu yerdan chiqmaydi; **4)** “Baldayi mahfuza” derlar; **5)** olamda yaxshi qog‘oz shu yerdan chiqadi.
- A) a-2, 5; b-1, 3, 4      B) a-1, 4, 5; b-2, 3  
C) a-2, 4, 5; b-1, 3      **D) a-4, 5; b-1, 2, 3**
19. – Tozining terisini mening **dandon** sopli pichog‘imda shilasanlarmi? (G‘. G‘ulom)  
Tagiga chizilgan so‘z ma’nosи qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?  
**A) fil tishi**                B) kiyik shoxi  
C) qimmatbaho tosh      D) to‘g‘ri javob yo‘q
20. Uning o‘z bisotida bir shapaloqqina sholipoyasi bor; u ham marhum qaynatasidan tekkan... Ushbu ta’rif qaysi

adabiy qahramon haqida?

- A) O'sar aka («Jinlar bazmi» hikoyasi)
- B) Xolmat («Kecha va kunduz» romani)
- C) Egamberdi («Advokatlik osonmi?» dramasi)
- D) Ziyodulla kal («Ot kishnagan oqshom»)

21. Berilgan to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Ajratilgan bo'lak yozuvda vergul, tire va ba'zan **ikki nuqta** bilan ajratiladi.

**B)** Ajratilgan izohlovchilar, asosan, izohlanmishdan **keyin** keladi.

C) Ajratilgan izohlovchilar, ko'pincha, aniqlovchiga taalluqli bo'ladi.

D) Ajratilgan bo'lak yozuvda vergul, tire va ba'zan **qo'shtirnoq** bilan ajratiladi.

22. **Tishlarimni ko'rmaq istasang,**

**Tushlaringni marvaridga ayt,**

**Gar o'zimni ko'rmaq istasang,**

**Yovni yengib, tezroq qayt.** Ushbu parchadagi fonema(-lar)ni aniqlang.

- A) i, u, q      B) t, k, y      C) sh, k, t      D) a, i, o'

23. Tosh tuz tuy iladigan og'ir ichidan uzun **qayroqni** olib, pichoqni qayray **boshladi**. Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmlarni ajrating.

1) asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan 6 ta so'z qatnashgan; 2) fe'lidan yasalgan so'z qatnashgan; 3) so'zlar tarkibida til undoshlarining barcha turi mavjud; 4) bir so'z tarkibida o'zlik nisbat qo'shimchasi qatnashgan; 5) fonetik o'zgarishga uchragan yasama so'z mavjud; 6) 1 ta hol va 1 ta aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan; 7) 2 ta ko'makchi fe'l qatnashgan.

- A) 1, 2, 3, 5      B) 3, 4, 6, 7      C) 1, 3, 4      D) 2, 5, 6, 7

24. E. Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asarida ayg'irni aravaga bosib olib kelganga ming dollar berishni va'da qilgan kim edi?

- A) Foster      B) Montgomer chol

- C) Kurka Iz      D) Charli

25. "...yosh ijodkorlarga murabbiylit qildi... Qo'qondagi havaskor shoirlar, o'z davrining yosh shoirlari Amin Umariy, Nasrulla Davron, Ibrohim Nazir va shu satrlar muallifi – kamina kabi shoirlar uning ko'magidan bahramand bo'ldi...". Ushbu ma'lumot qaysi shoir haqida?

- A) Cho'lpox      B) Abdulla Qahhor

- C) Oybek      D) Usmon Nosir

26. Aytolmaganliklariningizdandir- da. Berilgan misol tarkibida nechta morfema qo'llangan?

- A) 8 ta      B) 10 ta      C) 7 ta      D) 9 ta

27. Bizda **ota-onha o'g'il-qizini** voyaga yetkazadi, **yelib-yugurib** ularni oilali qiladi, bir umr **bola-chaqasi** uchun umri o'tganini bilmay qoladi.

Ushbu gapdagagi juft so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.

- A) ega, vositali to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol

- B) ega, vositasiz to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi

- C) ega, vositasiz to'ldiruvchi, hol, hol

- D)** ega, vositasiz to'ldiruvchi, hol, vositali to'ldiruvchi

28. Ba'zi kishilar borki, tanqidni yoqtirmaydilar. Qo'shma gapning turini aniqlang.

- A) ega ergash gapli qo'shma gap

- B) kesim ergash gapli qo'shma gap

- C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

- D)** aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

29. **Yuzing visolig'a** yetsun desang ko'**ngillarni**, **Sochingni** boshdin **oyoq chin** ila shikan **qilg'il**. (N) Berilgan parchada asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan

so'zlar soni va ikkinchi bo'g'ini til orqa undoshi bilan boshlanuvchi so'zlar soni nechta?

- A) 2 ta, 1 ta B) 3 ta, 2 ta **C** 4 ta, 2 ta D) 5 ta, 1 ta

30. Ham ot, ham sifat yasovchi shakldosh qo'shimchalarni aniqlang.

- A) -li, -kash, -im      B) -lik, -zor, -ar

- C** -qi, -choq, -in      D) -kash, -eh, -la

31. Ikkinchi bo'g'inning birinchi tovushi shovqinlilar guruhiba mansub. Ushbu izohga mos keladigan so'zni toping.

- A) taroq      **B** fojia      C) yangi      D) shamol

32. «Advokatlik osonmi» (A. Avloniy) asari qahramonlari to'g'ri ko'sratilgan qatorni aniqlang.

- A) Davronbek, Mehriniso, Xushvaqt, Toshmurod, Tangriqul, Toshmurod, Davronbek, boy

- B) Tangriqul, Davlat

- C) Mehriniso, Egamberdi , *Liza*

- D**) Davronbek, Xudoyberdi, Rapoil, Mehriniso

33. «Axir, u, otmas, odam edi». Ushbu parcha kimning qaysi asaridan olingan?

- A) A. Qodiriy, «Uloqda» hikoyasi

- B**) T. To'la, "Do'nan" hikoyasi

- C) Tog'ay Murod, «Ot kishnagan oqshom» qissasi

- D) Seton Tompson, «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasi

34. **U** olmoshi qaysi gapda ko'rsatish olmoshi vazifasida kelgan?

A) Jamshid qilmishidan pushaymon bo'lib, uni soliqdan ozod qilibdi.

B) U Xorazm hokimligiga qarashli chorvadorlik bilan shug'ullangan Spitamen urug'idan edi.

**C**) "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, u kitobning ilk sahifalari Zardusht tomonidan VII asrning oxirlarida Amudaryo sohillarida yaratilgan.

D) Arablar unga Shohjahon deb nom berganlar.

35. Sakkokiy o'zining Ulug'bek madhida qanday san'atlarni ko'p qo'llagan?

- A**) tashbeh, istiora      B) tajnis, iyhom

- C) husni ta'lil, tashbeh      D) tazod, mubolag'a

36. «Abulfayzon» fojiasida Nodirshohning kishilari kimni Eronga olib ketmoqchi edi?

- A) Abdumo'minxonni      B) Farhod otaliqni

- C) Ibrohimbiyni      **D**) Abulfayzonni

### 2-variant

1. Qaysi so'zni talaffuz qilganimizda hosil bo'lish o'rniga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan undosh tovushlar o'zaro almashadi?

- A) kelganman      B) aslaha

- C) shanba      D) kitob

2. Quyida berilgan asarlardan qaysilari bir xil janrga mansub?

- 1) **O. Muxtor**, «Ayollar saltanati va mamlakati»; 2) **U.**

- Hamdam, "Yolg'izlik"; 3) **Sh. Xolmirzayev**, "Dinozavr"; 4)

- A. Nurmurod**,«Qon hidi»; 5) **N. Eshonqul**, «Quyun».

- A) 2, 3, 4      B) 1, 2, 3, 4, 5

- C**) 1, 3, 4      D) 1, 4, 5

3. «Oltin vodiyidan shabadalar» romani muallifini toping.

- A) Mirmuhsin      B) Abdulla Qahhor

- C**) Oybek      D) Pirimqul Qodirov

4. **Avvalo**, shuni ta'kidlab o'tish **kerakki**, biz u yoki bu masalada yuz beradigan kelishmovchiliklarni o'zaro keng muhokama qilish yo'li bilan bartaraf qiladigan bo'lib qoldik. **Ikkinchidan**, o'rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliyo xo'jalik jihatdan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladi.

(A. Qahhor) Berilgan parchadagi vergullarning qo'llanishi haqidagi fikrlardan nechtasi to'g'ri?

1) Qo'shma gap qismlarini ajratish uchun vergul qo'llangan.

2) Kirish so'zlar qo'llangani uchun vergul qo'llangan. 3)

Ajratilgan bo'lak mavjud bo'lgani uchun vergul qo'llangan.

4) Uyushiq bo'laklar mavjudligi uchun vergul qo'llangan. 5)

Undalma mavjudligi uchun vergul qo'llangan.

A) uchtasi      B) beshtasi      C) to'rttasi      D) ikkitasi

5. Yaxshi bo'lgin, hatto dushmaning oson // **Seni** deyolmasin yaramas-yomon. Tanburning ovozi soz chiqib tursa, // Qulog'in buramas sozchi hech qachon. (Sa'diy Sheroyzi) Ushbu misralardagi fonetik o'zgarishga uchragan portlovchi-jarangli undosh tovush(-lar) sonini aniqlang.

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

6. «Ol, deya bir Egam, osmonga uchsa ruhlarini, // Bir ajib moviy diyor bo'ynini quchsa ruhlarim, Ko'k mening ko'ksim bo'lur, // yulduzlar - anduhlarim, Gul o'pib, gul yopinib har dilda mozorim qolur, // Men ketarman bir kuni, navolarim, zorim qolu degan satrlar bitib, o'z muxlislari qalbida qolgan shoir kim?

A) Shavkat Rahmon      B) Cho'lpon

**C) Muhammad Yusuf**      D) Usmon Nosir

7. Tarkibida 4 ta ko'makchi morfema qatnashgan so'z berilgan qatorni toping.

A) Uzoqdan oqliqlarning - Alisher va uning hamrohlarining qorasi ko'rindi.

B) Kishilarning huquqiy bilimi yuksalsa, har kim o'z haq-huquqini ongli ravishda bilsa, himoya qila olsa, jamiyatda demokratiya rivojlanadi.

**C) Yosh-qari, erkak-ayol aralash-quralash bo'lib ko'cha boshida to'planishdi.**

D) Musavvirning bo'yog'ida hayot chiziqlari aniq ifodalangan edi.

8. Unsin ostonadan hatlashi bilan paranjisini **yig'ishtirib oldi**, qarhisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan **quchoqlashib ko'risha ketishdi**.

Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukm(-lar)ni toping.

1) ikkita yasama fe'l qo'llangan 2) ikkita ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qo'llangan; 3) bitta fe'lning yasalish asosi ot so'z turkumi; 4) fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalangan uchta ravish holi qo'llangan; 5) bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap; 6) sodda yoyiq gap; 7) ikki o'rinda nisbat qo'shimchasi qo'llangan.

A) 1, 4, 5, 7      B) 1, 2, 3, 4, 5, 7

C) 2, 4, 6      D) 1, 2, 3, 5, 7

9. Quyidagi qaysi gap(-lar) tarkibida qo'llanishiga ko'ra berilgan boshqa bog'lovchilardan farq qiluvchi bog'lovchi(-lar) ishtirok etgan?

1) haqiqat tikanli gulga o'xshaydi, shuning uchun ham hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi. 2) Aql va farosat quyoshga o'xshaydi, beparvolik tufayli tushishi mumkin bo'lgan dog'larga o'ren qoldirmaydi. 3) Mol-u davlatingiz bilan emas, ilki ilm-hunaringiz, go'zal xulq-atoringiz bilan faxrlaning. 4) Birov odob o'rgatsa, o'rganmagan kishi hayvon, ammo uzr so'rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir. 5) Muallifning Vatan, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyati shu qadar yuksakki, shaxsiy manfaat, mukofot ilinjiga o'ren qolmasin. 6) Uning goh yig'lagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostan-ustun qilib qo'shiq aytgisi kelardi.

A) 3, 4      B) 1, 2, 5      **C) faqat 6**      D) faqat 4

10. To'ra Sulaymon «Armon» she'rida armonni ketma-ket nimalarga o'xshatadi?

**A) nor, qor, tor, ro'zg'orga**      B ) nor, sor, g'or, qorga  
C) qor, tor, g'or, ro'zg'orga      D) nor, qor, tor, dorga  
11. «Kelin ichki-tashqi dang'illama hovlida, saroyday hashamatli, boy bezakli uylarda uni hech narsa qiziqtirmas, bu xonodonning odamlari ham, narsalari ham dashman, yot, sovuq ko'rinar edi». Ushbu parchadagi kelin kim?

A) Maryamxon («Zaharli hayot»)      **B) Gulnor** («Qutlug' qon»)

C) Zebi («Kecha va kunduz»)      D) Unsin («Dahshat»)

12. O'z tilingizda **fikrlashga**, toza **gapirishga**, nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga **harakat qiling**. Til **mavsumiy** libos emaski, ob-havoning o'zgarishiga qarab almashtirilsa. Kishi boshqa tilda **bilimli** bo'la oladi, ammo faqat o'z tilida **barkamol** bo'lishi mumkin. Ushbu gapdag'i yasama so'zlar sonini toping.

A) 9 ta B) 6 ta C) 8 ta **D) 7 ta**

13. Quyidagi gaplarning qaysi birida nuqtali vergul ishlatalidi? 157-mashq.

A) Obidjon borib pechkaning ichiga qo'l tiqadi nimanidir mahkam ushlaydi

**B) Oxirgi asrlardagina Shosh Toshga aylanadi Toshkent atala boshlandi.**

C) Qanoat qorin to'ydiradi beqanoat o'zini o'ldiradi.v  
D) Noo'rin aytilgan so'z boshga kulfat keltiradi.

14. Bog'langan qo'shma gaplarda qaysi bog'lovchilardan oldin nuqta qo'yilishi mumkin?

A) biriktiruvchi bog'lovchilardan

**B) zdilovchi bog'lovchilardan**

C) ayiruvchi bog'lovchilardan

D) inkor bog'lovchilardan

15. «*Gezi-gezi bilan Jizzaxga borib, ularga qo'nardim, bir hafta, ikki hafta turib, qadrdonlarimga qo'shiq aytib kelardim. Ular bilan dardlashib, o'zimning ham ko'nglimni yozib qaytardim*», - deb xalq baxshisi Fozil shoir kimning oilasi haqida gapirib o'tgan?

A) E. Vohidov      **B) H. Olimjon**

C) O'. Hoshimov      D) A. Oripov

16. - **Koyima**, qizim, - dedi ona, - o'rtog'ingni quruq jo'natmaymiz.

Quyidagi qaysi kesimlik ma'nolari ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapning ko'chirma gap qismidagi kesimlarda bir xil ifodalangan?

1) zamon ma'nosi; 2) mayl ma'nosi; 3) shaxs-son ma'nosi;  
4) tasdiq-inkor ma'nosi.

A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 4      C) 2, 3 **D) 1, 4**

17. - Bu safar qovun tanlashda adashgan ekanman, oq qovun deb olsam, **eski chopon** chiqib qoldi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi usulda ma'nosi ko'chganligini aniqlang.

A) metonimiya      B) sinekdoxa

**C) metafora**      D) vazifadoshlik

18. *Shuhratparastlik, takabburlik kabi illatlar qattiq qoralanadi. Erishgan muvaffaqiyatlardan boshi aylanib hech kimni pisand qilmaydigan kimsaga aylanadi, hatto xudoni ham tan olmaydi*. Qaysi asar qahramoni haqida gap boryapti?

**A) «Namrud», Namrud**

B) «Kecha va kunduz», Akbarali

C) «Ruhlar isyonii», Avrangzeb

D) «Abulfayzon», Abulfayzon

19. «Manzilim chin bo'ldi ushbu yil diyori Toshkand, Jon-u ko'nglim doim istar xor-xori Toshkand» matla'li g'azal muallifi kim?

- A) Ogahiy      B) Furqat  
 C) Zavqiy      D) Komil Xorazmiy
20. «Iskandar Zulqarnayn» ertak dostonida qamishlar kimga yok nimaga o'xshatilgan?
- A) Iskandarning shoxiga      B) pichoqqa  
 C) Rum lashkarlariga      D) qaychiga
21. Qaysi fikr noto'g'ri?
- A) **Sust, past** singari so'zlarga **-ay** yasovchi vositasi qo'shilganda, yasashga asos qismida mavjud bo'lgan oxirgi "t" undoshi tushib qoladi.  
 B) son, yosh, ong kabi so'zlarga fe'l yasovchi **-a** yoki **-la** qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismida tovush tushishi ro'y beradi.  
 C) **o'yin, qiyin** kabi ikki bo'g'inli so'zlarga **-a** yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda, yasashga asos qismning ikkinchi bo'g'inidagi «i» unlisi tushib qoladi.  
 D) **Qizil, sariq** kabi ikki bo'g'inl so'zlardan **-ar, -ay** yasovchi vositalari yordamida yangi so'z yasalganda, yasashga asos qism bo'lgan **qizilning** «il» qismi va **sariqning** ikkinchi bo'g'indagi "i" unlisi tushib qoladi.
- 22.** Berilgan fe'llardan nechtasi o'zlik nisbat shaklida qo'llana olmaydi?
- 1) qazimoq; 2) aniqloamoq; 3) harakatlanmoq; 4) buramoq;  
 5) hayron bo'lmoq; 6) anqaymoq; 7) uzmoq.
- A) 5 tasi      B) 6 tasi      C) 8 tasi      D) 4 tasi
23. Ikki oyoqli bilan to'rt oyoqli solishtirilgan doston qaysi?
- A) «Alpomish» B) «Rustamxon»  
 C) «Ravshan» D) «Kuntug'mish»
24. «Farhod va Shirin» dostonida Yunonistondagi to'rtinch manzil qaysi javobda berilgan?
- A) ajdaho yashaydigan g'or  
 B) Suqrot yashaydigan g'or  
 C) Ahraman dev yashaydigan manzil  
 D) tilsim yashiringan manzil
25. Sohilda o'tkir hidli qoramtilar yalpizlar, sershox jambillar o'sib yotibdi. Berilgan gapdag'i qo'shimchalarining turi va sonini aniqlang.
- A) 1 ta so'z yasovchi, 4 ta lug'aviy shakl yasovchi, 3 ta munosabat shakli  
 B) 2 ta so'z yasovchi, 5 ta lug'aviy shakl yasovchi, 3 ta munosabat shakli  
 C) 3 ta so'z yasovchi, 5 ta lug'aviy shakl yasovchi, 2 ta munosabat shakli  
 D) 4 ta so'z yasovchi, 4 ta lug'aviy shakl yasovchi, 2 ta munosabat shakli
26. Berilgan so'zlardan qaysi birining tarkibi o'zbek tilida asosga qo'shimcha qo'shilganda boshqasiga almashishi mumkin bo'lgan tovushlardangina iborat?
- A) choy      B) qora C) karam      D) ilon
27. Qaysi shoir halol rizq topish maqsadida zargarlik kasbini o'rganadi?
- A) Zavqiy      B) Sayfi Saroyi  
 C) Maxtumquli      D) Pahlavon Mahmud
28. Berilgan gaplardan tarkibida ikkita so'z yasovchi, ikkita lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchasi bor bo'lgan fe'l qaysi nisbatda ekanligini aniqlang.
- 1) Doshqozonga olov yoqilgan, kabobpaz sixlarini qo'raga tergan, boyagi qassob bola allaqachon qo'yni **tinchitgan** edi.  
 2) Karavot simlari asabiy g'ijirlab ketdi. 3) Shunda to'satdan yuragi tez-tez gursillab ura boshladi. 4)  
 Mustaqillikning zafarli qadami, huzurbaxsh nasimi bilan Andijonning Ko'makay qishlog'i ham o'zgartirildi.
- A) aniq      B) o'zlik      C) majhul D) orttirma
29. «U so'nggi nafasidagina onalik baxtidan bir lahma totindi-yu, dunyodan ko'z yumdi». U kim?
- A) "Oydinda yurgan odamlar", Oymomo  
 B) «Urushning so'nggi qurbanbi», Umri xola  
 C) «Dunyoning ishlari», Hakima aya  
 D) «Oq kema», Bo'key xola
30. «O'ksuz o'z kindigin o'zi kesar» maqoli kimning asarida uchraydi?
- A) Anbar Otin «Risolayi falsafayi siyohon»  
 B) Poshshoxoja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja  
 C) Gulxaniy "Zarbmasal"  
 D) Abulg'ozzi Bahodirxon «Shajarayi turk»
31. «Husayin Voiz Koshifi Sharqda ma'lum va mashhur shaxs, - deb yozadi Najmuddin Komilov "Tafakkur karvonlari" asarida. - **U** Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, **uning** mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do'sti edi» Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gapdag'i kishilik olmoshlari qaysi sintaktik vazifadagi so'zlarga ishora qilgan?
- A) Birinchi olmosh to'ldiruvchi vazifasidagi so'zga, ikkinchi olmosh ega vazifasidagi so'zga ishora qilgan.  
 B) Birinchi olmosh ega vazifasidagi so'zga, ikkinchi olmosh to'ldiruvchi vazifasidagi so'zga ishora qilgan.  
 C) Birinchi olmosh ega vazifasidagi so'zga, ikkinchi olmosh aniqlovchi vazifasidagi so'zga ishora qilgan.  
 D) Birinchi olmosh aniqlovchi vazifasidagi so'zga, ikkinchi olmosh to'ldiruvchi vazifasidagi so'zga ishora qilgan.
32. To'g'ri, u aravani quruq olib qochadigan maqtanchoqlardan emas. Berilgan gap qaysi qatorda to'g'ri tahlil qilingan?
- A) kiritma, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim.  
 B) kiritma, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim.  
 C) kiritma, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, to'ldiruvchi, kesim.  
 D) kiritma, ega, aniqlovchi, kesim.
33. «Yuzungni ko'rsa qilur gul o'zini yuz pora, // Xo'tan yozisida **ohu ko'zingdin** avvora». Qanday badiiy san'at qo'llangan?
- A) husni ta'lil      B) mubolag'a  
 C) tashbeh      D) tarse'
34. Sraosha - ... .
- A) Kuch-qudrat, baxt-saodat ramzi  
 B) namoz ishlarining noziri, odamlarga qabohat bilan kurashishlarida madad beradigan ma'bud  
 C) adolat va qonun-qoidalalar farishtasi. Narigi dunyoda so'roq chog'ida gunoh va savoblarni o'z tarozisida o'lchaydigan zot  
 D) Avestoda mazda dini peshvo
35. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilni 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi. U necha bo'lim, necha banddan iborat?
- A) 8 bo'lim, 82 band      B) 6 bo'lim, 72 band  
 C) 9 bo'lim, 52 band      D) 7 bo'lim, 82 band
36. Keyingi ma'lumotlarga binoan u endi poytaxtga kelmoqqa jazm qilgan.
- Berilgan gapda ishtiroy etgan so'z turkumlari va ularning tartibi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- A) sifat, ot, ko'makchi, olmosh, ravish, fe'l, fe'l  
 B) ravish, ot, modal so'z, olmosh, ravish, ot, fe'l, fe'l  
 C) modal so'z, ot, ko'makchi, olmosh, ravish, ot, fe'l, ot, fe'l  
 D) sifat, ot, ko'makchi, olmosh, ravish, ot, fe'l, fe'l
- 3-variant**

1. «Sayohatnoma» (Muqumiy) asarida “Zebo sanam, qoshi qalam (jonon)lari bisyor ekan” deya ta’riflangan qishloq nomini aniqlang.

A) Yakkatut    B) Rafqon    C) Chimyon **D) Yayfan**

2. 1) O’zbekiston Respublikasi **don** mahsulotlari konserni.

2) O’zbekiston Davlat Jahon **Tillari Universiteti**. 3)

Toshkent Aviatsiya instituti. 4) Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi. 5) Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti. 6) Yevropa Xavfsizlik va **hamkorlik** tashkiloti. 7) Fan va texnika davlat qo’mitasi. 8) Xalqaro Gumanitar **huquq**. 9) Jahon Intellektual **mulk** tashkiloti.

Barqaror birikmalarining qaysilari xato yozilgan?

A) 1, 2, 4, 6, 8, 9    B) 3, 5, 7

C) 2, 3, 4, 6, 8    D) 1, 2, 3, 4, 6, 8

3. **Shubhasiz, barkamol avlodning buguni va ertasi bor.** Berilgan gap tarkibida nechta grammatik bog’lanish bor ekanligini aniqlang.

**A) 3 ta** B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta

4. «Puankare» hikoyasining muallifi kim?

A) Zulfiya Qurolboy qizi    B) A. A’zam

**C) A. Yo’ldoshev**    D) J. Ergasheva

5. Abdulla Oripov bir she’rida “kiprikdagi yoshday” deb qaysi obrazga ta’rif bergan?

**A) dorbozga**    B) yosh bolaga

C) temir odamga    D) tilla baliqchaga

6. O’zing **boshla** maydonga, **boshla**, To’maris!

Qolsin bizdan tarixda **shonli porloq** iz –

Qo’li **bog’liq yashashdan o’lim** a’lodir,

**Bosqinchi** yov o’limga mahkum balodir. (Shuhrat)

Ushbu she’riy parchada yasama so’zlar necha o’rinda qatnashgan?

A) 7 B) 8 C) 10 **D) 9**

7. Ham otlashgan, ham fonetik o’zgarishga uchragan yasama so’z qatnashgan qatorni toping.

A) Og’ziga kelganni demoq - nodonning ishi.

B) Ikkalasi ham shahrimizdagi o’zgarishlarni ko’rib lol qolishdi.

**C) So’z bilan o’ynaydiganlardan** yuragim bezillaydi.

D) To’pidan ayrliganni bo’ri yer.

8. Ismlar guruhiga mansub bo’lgan, metafora usulida ma’nosi ko’chgan yasama so’z qatnashmagan gapni belgilang.

**A) Yuragi qattiq ura boshladi.**

B) Tiyrap Hamidning **nursiz hayotini** bezagan birdan-bir narsa onasi Komila opaning so’zlagan ertaklari bo’ldi.

**C) Loyqa xayolotlar** chashmaday tindi.

D) Har holda, Toshkent ustiga yana **qonli bulutlar** chiqdi, **ishning oxiri** nima bilan tinchlanar, bu bir xudoga ma’lumdir.

9. O’tdi **yoshlik** zavq bilan, gohi to’polon bilan,

Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,

Ayri ham tushdim ba’zan qalb bilan, imon bilan,

Lekin seni **yo’qotdim**, birinchi muhabbatim

Ushbu she’riy parchadagi yasama so’z(lar) quyidagi qaysi bo’lak(lar) ga nisbatan hokim bo’lak hisoblanadi?

1) ega; 2) to’ldiruvchi; 3) hol; 4) aniqlovchi.

**A) 3, 4**    B) 3    **C) 2**    D) 1, 2

10. Ega uyushib kelgan gapni aniqlang.

A) Ona-Vatanga muhabbat, xalq, millat birligi, uning kelajak istiqboli, hayot farovonligi va tinchligini dildan jo’shib kuyladilar.

**B) Ikki kundan so’ng** uning xonasiga hali yigirmaga to’limgan qiz bilan yoshi ellikdan oshgan, odmi kiyungan,

qotmadan kelgan ayol kirib keldi.

C) Sochlari jingalak, rangi oq-sariqqa moyil, ko’zları o’tkir boquvchi tabib yigit «Nima gap? Qayeringiz og’riyapti?» deb ham o’tirmay, avval Zaynabning ikki kaftini ko’rdi, tirnoqlarini ohista ezdi, so’ng bilak tomirini ushlab, boshini quyi egganicha, nimanidir ziyraklik bilan tinglayotganday jim qoldi.

D) Bevaning, ayniqsa, tirnoqqa zor bevaning zorli, g‘amli ohlariga zamin qanday chidar ekan, samo qanday chidar ekan?

11. Qaysi asarda “Ko’rga ishing tushsa, o’z qadr-u g‘ururingni saqlab qolishing qiyin” degan jumla keltirilgan?

**A) Robindranath Thokur** «Nur va soyalar»

B) U. Azim, «Bir qadam yo’l»

C) E. Samandar, «Arabmuhammad Bahodirxon

D) A. Oripov, «Sohibqiron»

12. Abdulla Oripov o’zining «Sarob» she’rida bu kun Toshkent ko’chalarida nimani izlayman, deb yozadi?

**A) she’r**    B) yoshlik

C) mehr-oqibat    D) sarob

13. *Qahr ila Xabbozni bardor etar*.

*Dor boshina oni sangsor etar.* Baytdagi dor so’zi qaysi ma’noda qo’llangan?

A) Kiyim-boshni ilish uchun shipga parallel ravishda tortiladigan ip yoki arqon.

B) Arqon va yog’ochlardan iborat dorvozlik qurilmasi

**C) Kishini osib o’ldirish** uchun o’rnataladigan maxsus qurilma

D) Kiyim quritish uchun tortiladigan arqon.

14. O’zbek atamasining unga qadar ishlataligil turk, sart, chig’atoy singari atamalarga nisbatan tilimizda barqaror bo’lib qolishi qaysi tarixiy shaxs nomi bilan bog’liq?

**A) Qoraxoniylar**    B) Shayboniyxon

C) Temuriylar D) Chingizlar

15. Sirli ishlarga uquvi yo’q qahramon kim?

A) Hoshimjon («Sariq devni minib» romani)

B) Tursunboy («Ufq» romani)

C) Anvar («Mehrobdan chayon» romani)

**D) Ali Qushchi** («Ulug’bek xazinasi» romani)

16. ... suzilib, buyiri-buyiriga qapishib, qorni qorniga yopishib ter bilan qotgan changlar yong’oqday dumaloq bo’lib... – qaysi ot ta’rifi?

A) Boychibor    B) G’irko’k

C) Ko’kdo’nan    D) Jiyronqush

17. Kim o’zining asarida Lutfiyni turkiy tilda Navoiygacha bo’lgan davrda ijod qilgan changlar yong’oqday dumaloq bo’lib... – qaysi ot ta’rifi?

**A) Xondamir**, “*Makorim ul-axloq*”

B) Fuzuliy, «Layli va Majnun»

C) A. Taroziy, «Funun ul-balog’a»

D) Sh.A. Yazdiy, “Zafarnoma”

18. «She’r har biri besh misradan tashkil topgan besh banddan iborat. Satrlar muallif uslubiga xos qisqa-qisqa». Ushbu parchadagi ta’rif Sergey Yeseninning qaysi she’ri haqidasi?

**A) “Xurosonda bir darboza bor”**

B) «Dog’lar ketmish majruh ko’ngildan»

C) «Singlimga xat»

D) “Bu dunyoda men bir yo’lovchi”

19. “Romanning kompozitsion tuzilishi boshqa asarlardan keskin farq qiladi, unda go’yo biri bilan bog’lanmaydigan qator hikoyalari, rivoyatlar, hatto qissalar aralash tartibda kelaveradi, ularda tasvirlangan voqeа-hodisalar ham

zamon, vaqt nuqtayi nazaridan izchil tizimga bo'ysunmaydi. Ammo bu «g'alatilik» faqat tashqi tomondan qaraganda shunday bo'lib, barcha voqelar bir qahramon taqdiriga borib taqaladi” Ushbu fikr quyidagi qaysi asar haqida?

- A) «Yetti zog'ora»      B) «Navoiy»  
C) «Chinor»              D) «Gulliverning sayohatlari»  
20. “Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek, Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek” baytida qaysi she'riy san'atlar qo'llangan?

- A) tashbih, tanosub      B) irsolı masal, tazod  
C) tajnis, mubolag'a      D) tashbih, tashxis  
21. Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi qaysi qahramon «lu'bati shang» - «sho'x qo'g'irchoq» deya ta'riflangan?

- A) Shirin      B) Layli      C) Dilorom      D)  
Mehr

22. **Elning bir so'zi bor: o'zingga ehtiyyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma.** Ushbu gapda ikki nuqtaning qo'llanish sababi nima?

- A) 2-qism 1-qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish sababini ko'rsatgani uchun  
B) 2-qism 1-qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish paytini ko'rsatgani uchun  
C) 2-qism 1-qism tarkibidagi otni izohlagani uchun  
D) 2-qism 1-qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish natijasini ko'rsatgani uchun

23. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gappa aylantirganda, darak gap shaklidagi ko'chirma gap kesimi qaysi kelishik shaklida va qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi?

- A) Gapning kesimi tushum kelishigidagi sifatdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to'ldiruvchiga o'zgartiriladi.  
B) Gapning kesimi qaratqich kelishigidagi sifatdosh bilan ifodalangan to'ldiruvchiga o'zgartiriladi.  
C) Gapning kesimi jo'naliш kelishigidagi sifatdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to'ldiruvchiga o'zgartiriladi.  
D) Gapning kesimi chiqish kelishigidagi harakat nomi bilan ifodalangan to'ldiruvchiga o'zgartiriladi.

24. «Sab'ai sayyor» dostonining «Mehr va Suhayl» hikoyatida Jobirga nisbatan “Zuhalvash” so'zini kim keltirgan?

- A) Suhayl      B) Mehr      C) Navdar      D) Nu'mon

25. Berilgan so'zlardan nechtasi sodda ravishlar sanaladi?

**atay, birin-ketin, bafurja, saharlab, olg'a, vaqtincha, u**

yerga, ertalabki, **qasddan, ochiqchasiga.**

- A) 8 tasi      B) 9 tasi      C) 7 tasi

D) 6 tasi

26. Ma'naviyat - **ajdodlarni avlodlarga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog'lovchi ko'pri.**

Ushbu gapda to'ldiruvchilarga nisbatan hokim bo'lgan bo'lak qaysi bo'lakka nisbatan tobe hisoblanadi?

- A) aniqlovchiga      B) hech qaysi bo'lakka nisbatan tobe emas

C) kesimga      D) egaga

27. Egasi qatnashmagان gaplarning qaysi birida harakat nomi murakkab kesim hosil qiladi?

- A) egasi ma'lum gap      B) egasi noma'lum gap  
C) egasi umumlashgan gap      D) murakkab kesim hosil bo'lmaydi

28. «Tortib olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!» «Alpomish» dostonidan olingen ushbu parcha kimning tilidan aytilgan?

- A) Yartiboy      B) Boysari  
C) Shohimardon pir      D) Boybo'ri

29. ... turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bila ruh kiyardi va ul ruh topqonlarg'a turkiy oyin alfov tor-u pudidan to'qilgan hulla va harir kiyduri. Alisher Navoiy haqida aytilgan ushbu fikrlar quyidagi qaysi asarda keltirilgan?

- A) “Habib us-siyar”      B) “Makorim ul-axloq” asarida  
C) “Risola” asarida      D) “Nasoyim ul-muhabbat” asarida

30. Men unga **javob berdim:** “**Mutolaa qilganlarga** safo, eshitganlarga shifo **baxsh etadigan** “**Guliston**” nomli kitob yozishim mumkin. Shu so'zlar og'zimdan chiqmasdan do'stim etagimga yopishib **xitob qildi:** “...odam va'da berdimi, va'dasiga **vafo qilmog'i lozim”**”. Ushbu matnda nechta yasama so'z bor?

- A) 7 ta      B) 6 ta      C) 5 ta      D) 8 ta

31. Ishq vodiysidin bir kecha men hay-haylab o'tdim, Monandi nayiston guliga o't qalab o'ttum. Mashrab qalamiga mansub ushbu baytda qanday san'at yetakchilik qiladi?

- A) tazod      B) tanosub      C) tashbeh      D) tajnis

32. “Qissasi Rabg'uziy”dagi qaysi hikoyatda quyidagi parcha uchraydi? “Qushlar go'shtni olurmiz, deb uchgan sari go'sht ham yuqori borur edi. Yana bir kecha-kunduz uchdi”.

- A) “Sulaymon ba chumoli hikoyati”  
B) “Uzum hikoyati”  
C) “Namrud hikoyati”

D) “Ilon va qarlung'och hikoyati”

33. Qaysi asarda “Senga jafo qiluvchiga sen vafo bilan javob qil, qonni qon bilan qancha yuvsu ham, u tozalanmaydi” degan g'oya ilgari surilgan?

- A) “Qutadg'u bilig”      B) “Yatimat ad-dahr”  
C) “Guliston bit-turkiy”      D) “Hibat ul-haqoqiq”

34. “O'n besh yilning daftari», «Zamon torlari», «Shu'la» kabi she'riy to'plamlarning muallifini aniqlang.

- A) Shuhrat      B) H. Olimjon  
C) Oybek      D) M. Shayxzoda

35. Kesimi shaklan 3-shaxs, mazmunan 1-shaxsga tegishli bo'lgan gap(-lar)ni aniqlang.

- A) Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.  
B) Kamina bu masala xususida huzuringizga bormoqchi edilar.

C) Onang o'lsin, bolam, seni bu yerga yolg'iz yubormay.  
D) B va C javoblar to'g'ri.

36. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir // tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz. // belgisi o'rniga qo'yiladigan tinish belgisini aniqlang.

- A) tire      B) vergul  
C) ikki nuqta      D) nuqtali vergul

**4-variant**

1. Bobo Qambar degan nom qaysi x alq dostonida uchraydi?

- A) «Ravshan»      B) «Kuntug'mish»  
C) «Rustamxon»      D) «Alpomish»

2. (1) Bir necha hazilkash **odamlar** bir qizg'anchiq, xasis odamning uyiga mehmonga bormoqchi bo'libdi, ammo darvozani taqillatganlarida xasis odamning xizmatkorini chiqdi. (2) U mehmonlarni ko'rib ichkariga kirib ketdi. (3) So'ng chiqdi va aytdi: (4) – Kechirasizlar, **xojamiz** kecha kechqurun o'lgan edilar. (5) Erta tongda dafn etib kelgan edik. (6) Hazilkash **mehmonlar** bunga ishonmadilar va aytdilar: (7) – Xojangiz biz uchun juda aziz, qadrli odam edilar. (8) Ularning janozasida bo'lish bizga nasib etmadni, endi uylariga kirib, fotiha o'qib ketmasak bo'lmas. (9) Boyagi xasis xojaning mehmonlarni qabul qilishdan boshqa iloji qolmabdi. (Faxriddin Ali Safiy) Matndagi qaysi gaplarda ega vazifasida kelgan shaxs otlari qatnashgan?

- A) 1,4,6,7,9    B) 1,2,4,7    C) 3,5,6,8    D) 1,4,6,7  
 3. Sharq musiqasining yozuvdag'i ifodasi uchun «Tanbur chizig'i» deb nom olgan notalar tizimini kim kashf qilgan?  
 A) Feruz    B) K. Xorazmiy  
 C) Munis    D) Huvaydo  
 4. Alisher Navoiy «Xamsa»sining qaysi qahramoni tilidan «Ishq ichra tengdur shoh-u darvesh» degan so'zlar aytilgan?  
 A) Majnun B) Dilorom C) Farhod D) Layli  
 5. Tarkibida otlashgan so'z ishtirok etmagan qatorni aniqlang.  
 A) Kattaga - hurmat, kichikka - izzat.  
**B)** Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat.  
 C) Yomonni tanqid qil, yaxshiga taqlid qil.  
 D) Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham soz so'zlar.  
 6. «...ijodining juda oz qismi - 400 misra atrofida 18 ta she' yetib kelgan. Ularning ko'pchiligi g'azal va muxammaslardan iborat. Bir g'azal va bir muxammasi tojik tilida bitilgan». Ushbu ma'lumot quyidagi qaysi ijodkor haqida?  
 A) Zavqiy    B) Gulxaniy    C) Muqimiyy    D) Turdi  
 7. Ketmoq, qaytmoq, oqmoq, aytmoq fe'llariga -ar omonim qo'shimchasi qanday grammatiq vazifalarni bajarish uchun qo'shila oladi?  
 A) ketmoq, oqmoq fe'llariga sifatdosh vazifa shakli, qaytmoq aytmoq fe'llariga orttirma nisbat va sifatdosh vazifa shakli sifatida qo'shila oladi  
 B) berilgan fe'llarga -ar qo'shimchasi fe'lning faqat zamon shakli sifatida qo'shila oladi  
 C) ketmoq, qaytmoq, oqmoq fe'llariga kelasi zamon sifatdosh shakli va orttirma nisbat shakli aytmoq fe'liga faqat kelasi zamon shakli sifatida qo'shila oladi  
**D)** ketmoq, oqmoq, aytmoq fe'llariga kelasi zamon sifatdoshi shakli, qaytmoq fe'liga kelasi zamon sifatdosh shakli va orttirma nisbat shakli sifatida qo'shila oladi.  
 8. Qaysi hukm noto'g'ri?  
 A) kesim -dir, bo'ladi bog'lamalari bilan kelsa, ega bilan kesim orasida tire qo'yilmaydi.  
 B) kesim kelishik qo'shimchalarini olgan bo'lsa, ega bilan kesim orasida tire qo'yilmaydi.  
**C)** kesim sifat, ravish, kishilik (egalik) olmoshi, tartib son bilan ifodalansa, ega bilan kesim orasida tire qo'yilmaydi.  
 D) barchasi to'g'ri.  
 9. Tobe va hokim qismi yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmalarini belgilang.  
**1)** bepoyon paxtazor; 2) g'oliblik uchun kurashish; **3)** chiroyli gapirmoq; 4) beqiyos o'lka; **5)** yozgi kiyim; 6) birga ishlamoq 7) o'tloq ko'm-ko'k.  
 A) 2, 4, 5    B) 1, 3, 5, 6, 7  
**C)** 1, 3, 5    D) 2, 4, 6, 7  
 10. Sovuqqa chidamlı Yo'lchi ham, egni yupun bo'lganidan, oyoqlarining holsizlanganini, gavdasining bujmayganini sezdi. Berilgan gapdan tovush o'zgarishlar soni va ismlar guruhiга kiruvchi so'zlar tarkibida qo'llangan munosabat shakli qo'shimchalarining miqdorini aniqlang.  
 A) 2 ta, 12 ta    B) 2 ta, 6 ta  
 C) 3 ta, 6 ta    D) 3 ta, 12 ta  
 11. Aytmaganning dasturxoniga borib qadrimni tushirmoqchi emasman.  
 Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi tur(lar)i qatnashgan?  
 A) faqat metafora    B) sinekdoxa, metafora  
**C)** metonimiya, metafora    D) vazifadoshlik,

- metonimiya  
 12. Quyidagi qo'shimchalardan nechtasi ayrim so'zlarga qo'shilib uning yetakchi morfemasida fonetik o'zgarish bo'lishiga sabab bo'la oladigan omonim so'z yasovchi qo'shimcha sanaladi?  
**-a, -q, -qi, -ar, -ay, -la, -illa, -ma, -y, -ing.**  
 A) 6 tasi    B) 8 tasi    C) 7 tasi  
 D) 9 tasi  
 13. (1) U etagini silkitsa, kulgi to'kilardi. (2) U kirgan xonadonda bir hovli kulgi qolardi. (3) U har bir xonodonning ko'pdan kutgan aziz mehmoni edi. (4) Qayerga borsa, o'sha yerda atrofini yosh-u qari o'rab olardi. (5) Donolar davrasida dono edi. (6) Bedilni, Hofizni, Jomiyni qiziqib o'qirdi. (7) Ozarbayjon, tojik, turkman, uyg'ur, qozoq, tatar, qirg'iz tillarida bemalol gaplasha olardi. (8) U hozirjavob odam edi. (Said Ahmad) Berilgan matndagi bitishuvli birikmalarini toping.  
**A)** 2, 3, 6, 7, 8    B) 1, 2, 3, 6, 7  
**C)** 1, 2, 4, 6, 7    D) 1, 2, 5, 6, 8  
 14. Besh o'rinda yasama so'z ishtirok etgan, yasama so'zlardan birining asosi ikki xil yuqori tor unlilaridan iborat bo'lgan gapni toping.  
 A) Uning goh yig'lagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostin-ustun qilib qo'shiq aytgisi kelardi.  
 B) Ipak kiyim-kechaklar dazmullanmasligi ma'qul, agar zarur bo'lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig'ir tolasidan to'qilgan mato qo'yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmullanadi.  
 C) Qo'zg'algan kasallikni yengish uchun tirik tanda «antitanacha»lar hosil bo'ladi, ammo bu kasallikni yengish uchun har doim ham mikroorganizmlarning samaradorligi sezilarli bo'lmasligi mumkin.  
**D)** Hamdardlik - bir odamning qayg'u-hasratlariga achinib, o'zida ham qayg'u hosil qilishidir, lekin quruq hamdardlik foyda bermaydi.  
 15. (1) G'afur G'ulom etagini silkitsa, kulgi to'kilardi. (2) U kirgan xonadonda bir hovli kulgi qolardi. (3) U har bir xonodonning ko'pdan kutgan aziz mehmoni edi. (4) Qayerga borsa, o'sha yerda atrofini yosh-u qari o'rab olardi. (5) Donolar davrasida dono edi. (6) Bedilni, Hofizni, Jomiyni qiziqib o'qirdi. (7) Ozarbayjon, tojik, turkman, uyg'ur, qozoq, tatar, qirg'iz tillarida bemalol gaplasha olardi. (8) U hozirjavob odam edi. (Said Ahmad) Berilgan matndagi qaysi gaplarda fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z(lar) ishtirok etgan?  
 A) 1, 2, 6, 7, 8    B) 1, 2, 3, 6, 7  
**C)** 1, 2, 4, 6, 7    D) 1, 2, 5, 6, 8  
 16. Quyidagi gapda qaysi usulda ma'no ko'chishi ro'y bergen?  
 Avtomobilning eshigini ochib, do'stini chiqarib oldi.  
 A) sinekdoxa    B) metonimiya  
 C) metafora    D) vazifadoshlik  
 17. Qaysi adib o'zining hayoti va ijodini «Ko'rgan-bilganlarim» deb nomlagan?  
 A) O'. Hoshimov    B) A. Oripov  
 C) T. Malik    D) G'. G'ulom  
 18. (1) Qadim zamonda kushoniylar davlatida pahlavon Shukriolloh ismli sarkarda yashagan va uning dovrug'i ellarda doston ekan. (2) Sarkarda janggasovut-dubulg'asiz, qalqonsiz kirar hamda bu jangda uning qo'shini hamisha g'alaba qilarkan. (3) Bir kuni temirchi sarkardaning iltimosiga ko'ra unga qalqon,sovut yasab beribdi va u navbatdagi jangda hammani hayron qoldirib, qalqon, sovut

kiygan holda qilich bilan paydo bo'libdi. (4) Shunda atrofdagilar ajablanib: «Ey sarkarda, bu holda hech jangga kirmas edingiz-ku?!» - deyishibdi. (5) Sarkarda bir xo'rsinib javob beribdi: «Janglarda meni duo qilib turguvchi onaizorim olamdan o'tdilar. U kishining duolari menga qalqon,sovut, dubulg'a edi. Endi u kishi yo'qlar...» Berilgan matndagi qaysi gaplarda sodda yasama fe'llar ishtirok etgan?

A) 2, 4 B) 1, 3 C) 2,5 D) 1, 4

19. -la qo'shimchasi otlarga qo'shib fe'l yasaganda, yashas asos qismidan anglashilgan narsa predmet bilan ta'minlash ma'nosini bildirgan javobni toping.

A) o'g'itla, moyla B) urug'la, bolala

C) qaychila, arrala D) ketmonla, tozala

20. Komil Xorazmiy o'zbek tiliga tarjima qilgan «Mahbub ul-qulub» asarining muallifi kim?

A) Farohiy B) A. Navoiy

C) Ogahiy D) Faxriddin Ali Safiy

21. «Farhod va Shirin» dostonida qaysi yurt qadimdan ajdodlarimiz tomonidan donishlik, san'at, naqsh va nafosat o'liasi sifatida qabul qilingan va e'tirof etilgan?

A) Arman B) Yaman C) Eron D) Chin

22. Darsliklarda qaysi chet el adibi «Ozodlik kuychisi» deya ta'riflangan?

A) Fitrat B) Musa Jalil C) R.Thokur D) S.Yesenin

23. Qaysi qatorda shakldoshlik xususiyatiga ega bo'limgan ibora qatnashgan?

A) boshga ko'tarmoq B) ko'z yummoq

C) dunyoga kelmoq D) qo'l ko'tarmoq

24. Berilgan gaplardan nechtasi aralash murakkab qo'shma gaplar hisoblanmaydi?

1) Agar traktor berilsa, yerlar traktor bilan haydalsa, menhat unumli bo'ladi va hosil mo'l bo'ladi. 2) Bilim shundayki, u yalang'och bo'lganingda ham o'zing bilan qoladi, uni suv bilan ham yo'qota olmaysan. 3) Reja bajarilsa, dasturxon mo'l bo'lsa, yor-u do'st, birodarlar qalin bo'lsa, tantanalar qishgacha davom etaveradi. 4) Shuni ta'kidlashlash lozimki, miyada jismoniy harakat yuzaga keladi, mushakchalar bilan boyitib boradi. 5) O'ziga aytgisi keladi-yu, singlisi iymanadi, xafa qilib qo'ysa-chi.

A) 1 tasi B) 4 tasi C) 3 tasi  
D) 2 tasi

25. «Xazoyin ul-maoniy»dagi to'rt devonda jami qancha qit'a mavjud?

A) 165 B) 210 C) 232 D) 240

26. Aniqlov bog'lovchilari haqidagi to'g'ri hukmni ajrating.

1) ajratilgan bo'laklarni ajratilmish bo'lakka bog'laydi; 2) ergash gapni bosh gappa bog'lab keladi; 3) oddiy so'zlashuv uslubida ko'proq ishlatiladi; 4) faqat yozma nutq uslubida qo'llaniladi.

A) 1, 2 B) faqat 2 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3

27. Qaysi satrda yashirin qarshilantirish borligini ko'rishimiz mumkin?

A) «Barig'lik turur bu ajun qalg'usiz,  
O'zung edgulik qil yitib barg'usiz»

B) «Boqib ko'z uchidin pinhon fosh etding tag'ofillar,  
Yo'q-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansun»

C) «Orzu qildim: "Tutarmen", - deb visoli domanin,  
Pora bo'ldi hajr ilgida giribon oqibat»

D) «Qovoq solib osmon ko'zi yosh sochar,  
Chechak-maysa quvnoq kulib yuz ochar»

28. Qaysi adib ijodini tinglagan hokim hatto etigini ham kiymasdan otga minadi va yurtga qaytish haqida farmon

beradi?

A) Xo'jandiy B) Rudakiy

C) Sayfi Saroyi D) Firdavsiy

29. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, baxt keltiradi.

B) U shunday qobiliyatga ega ediki, bir marta eshitgan narsani hech o'zgarishsiz qayta hikoya qilib beraverardi.

C) Oltin va kumushi bo'limgan odam kambag'al emas,

balki kasb-hunari bo'limgan odam kambag'aldir.

D) Jahl kelsa, aql qochadi.

30. Keyinroq ham ko'zimiz tushib turardi, biroq endi u shunday bir yuksaklikda va qamrovi shu qadar keng ediki, bu kengliklar bizga o'xhash jo'n odamlarning shuuriga sig'masdi. Ushbu gap...

A) Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap

B) Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap

C) Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

D) Aralash murakkab qo'shma gap

31. Darhaqiqat, o'g'lim, bizdan ko'nglingiz to'q bo'lsin, xalqimiz inoq va serg'ayrat, yuzlaringizni shuvut qilmaydi.

Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukm(-lar)ni aniqlang.

1) ikkita so'z boshqa bo'laklar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi; 2) gapda uyushgan sifatlovchi aniqlovchilar mavjud; 3) vositasiz to'ldiruvchi tarkibida uchta ko'makchi morfema qatnashgan; 4) ikkita yasama sifat ishtirok etgan; 5) ikkita so'z fonetik yozuv asosida yozilgan; 6) old qo'shimcha shakldoshlik xususiyatiga ega.

A) 2,4,5 B) 1,3,4,5,6 C) 1,3,5 D) 1,2,3,4,5

32. (1) Bir necha hazilkash odamlar bir qizg'anchiq, xasis odamning uyiga mehmonga bormoqchi bo'libdi, ammo darvozani taqillatganlarida xasis odamning xizmatkorini chiqdi. (2) - Sizga shuni ma'lum qilamanki, xojamiz kecha kechqurun o'lgan edilar. (3) - Ularning janozasida bo'lish bizga nasib etmadni, endi uylariga kirib, fotiha o'qib ketmasak bo'lmas. (Faxriddin Ali Safiy) Ushbu gaplarda vergul qo'yilishining har uchala gap uchun umumiyo bo'la oladigan sababini aniqlang.

A) undalma mavjudligi uchun qo'llangan

B) ajratilgan bo'laklar mavjudl uchun qo'llangan

C) uyushiq bo'laklar mavjudlig uchun qo'llangan

D) qo'shma gap qismlarini ajratish uchun qo'llangan

33. Qizilroq, kechroq, biroq,

Ertaroq, ko'kroq, quroq

Har so'z oxirida - roq

Turkumim toping tezroq.

A) qizilroq, ko'kroq, quroq - sifat, biroq - bog'lovchi, ertaroq, tezroq – ravish

B) qizilroq, ko'kroq, - sifat, quroq-ot, biroq - bog'lovchi, ertaroq, kechroq, tezroq – ravish

C) qizilroq, ko'kroq, quroq – sifat, biroq – modal so'z, ertaroq, tezroq – ravish

D) qizilroq, ko'kroq – sifat, quroq – ot, biroq – modal so'z, ertaroq, kechroq, tezroq – ravish

34. Uvaysiyning "Ki bulbul nola, afg'on aylamakni mendin o'rgandi" misralari bilan boshlanuvchi g'azalidagi raviy qaysi?

A) "d" B) "k" C) "n" D) "i"

35. Ushbu gapda ravish tukumiga oid so'z necha o'rinda qo'llangan?

U bugun juda charchagan edi, kechki taomda ham zo'rg'a o'tirdi, yostiqqa boshini qo'ydi-yu, darhol uyquga ketdi.

Bir mahal endigina orom olib uxbayotganda kimdir hovli

eshigini ochib **ohista** kirib keldi, garchi charchoq kuchli bo'lsa-da, **ozgina** shovqindan ham uyg'onib ketishga odatlangan yigitning bu ovozdan so'ng uyqusi **butunlay** qochdi, boyagi uyqu istagi uni **bir zumda** tark etdi.

A) 12 ta      B) 11 ta      C) 10 ta      D) 9 ta

36. «Yozuvchi sifatida bir narsani anglab yetganman va bu qoidaga qat'iy amal qilaman. Qalamkash, avvalo, Inson bolasining quvонch va izziroblarini, muhabbatni va nafratini, **buyukligi** va **turbanligini** haqqoniy tasvirlamoq'i lozim.

Shundagina uni kitobxon tan oladi, kitobini **bag'riga** bosib o'qiydi». Ushbu parchada yasama otlarning nechta fonetik o'zgarish asosida yozilgan?

A) 2 tasi      B) 5 tasi      C) 4 tasi      D) 3 tasi

### 5-variant

1. Qaysi ijodkor nujumshunoslik bilan ham shug'ullangan?

A) Zavqiy      B) Furqat      C) FitratD) Avaz O'tar

2. Quyidagi gapda nechta aniqlovchi bor?

Dunyoda **kechayotgan tabiat** tanazzulini o'ylasam, dilimdan **og'riqli** nido otilib chiqadi.

A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 2 ta

3. 1) Dam oladi kunduzi, xonadonning yulduzi. 2) Oyna emas jimirlar, tek turmasdan qimirlar. 3) Bir parcha patir, olamga tatir. 4) Kulib turar misoli oftob, hamrohidir chang, tor va rubob. 5) Qizdir sang ishlari, kiyim tekislar. Berilgan topishmoqlarning qaysi birida yopiq bo'g'inlar faqat jarangli undosh bilan tugagan?

A) 1,2,4      B) 1,3 C) 3,5 D) 1,2,5

4. Ro'paramnda esa kamida qirjni qoralab qolgan, chakka sochlariqa oq oralagan, ko'zlarida biror ma'no yo'q, lablari po'rsaldoq kimsa o'tirardi. Ushbu gap turini aniqlang.

A) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

B) uyushiq bo'lakli sodda gap

C) aralash murakkab qo'shma gap

D) bog'lovchisiz qo'shma gap

5. ... Issiq uyda, yumshoq to'shakda yotgan to'q bir odamni: och-yalang'och, to'shaksiz sovuqda qolgan kambag'alning holi nima kechdi ekan, deb o'yantirib, uni u yonidan bu yoniga ag'anatadigan, uyqusini qochirib, jonini achitadigan ham menman. Abayning «Nasihatlar» asaridan olingan ushbu parchada so'z yasovchi qo'shimchalar necha o'rinda qo'llanganini aniqlang.

A) 3 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 9 ta

6. 1) -chak; 2) -ar; 3) -ish; 4) -m; 5) -ik; 6) -k; 7) -don

Berilgan qo'shimchalardan qaysilari shakl yasovchi qo'shimcha sifatida o'zaro omonimlik hosil qila oladi?

A) 1, 2, 3, 4      B) 2, 3, 4

C) 2, 3, 4, 5      D) 1, 2, 4, 6, 7

7. Sog'lomlashtirish so'zini tarkibiga ko'ra to'g'ri tahlil qiling.

A) sog' - asos; -lom, -la - so'z yasovchi; -sh, -tir, -ish - shakl yasovchi

B) sog' - asos; -lom, -lash - so'z yasovchi; -tir, -ish - shakl yasovchi

C) sog'lom - asos; -la - so'z yasovchi; -sh, -tir, -ish - shakl yasovchi

D) sog'lom - asos; -lash - so'z yasovchi; -tir, -ish - shakl yasovchi

8. Voqealar tizimidan sal ilgarilab ketdim, shekilli, bu haqda maktubimning keyingi sahfalaridan birida alohida to'xtab o'tarman. Berilgan gapda mustaqil so'z turkumlaridan qaysi biri ishtiroy etmagan?

A) sifat B) son C) olmosh      D) mustaqil so'z turkumlarining barchasi ishtiroy etgan

9. «Sovetlarga qarshi targ'ibot qilgan»likda ayblanib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan adib kim?

A) Abdulla Qodiriy      B) Mirtemir

C) FitratD) Said Ahmad E) Mirkarim Osim

10. Qaysi qatorda imloviy xatoga yo'l qo'yilgan?

A) 9 may - Xotira va qadrlash kuni.

B) Jahon Tinchlik Kengashi.

C) Qor yog'di, don yog'di

D) Oy Yer atrofida aylanadi.

11. 1) Borliq jim // har bitta darchada zangor shu'lalar porlaydi. 2) Hasharda hamma ishladi // yoshlar ariq tozaladi, qizlar maydonni supurdi, kattalar mashinaga yukni ortdi. 3) Ahror ovoz egasini tanidi // Hasan naychi ekan. 4) Suv keldi // nur keldi. 5) Albatta, go'zallik ham har xil bo'ladi // kechasi qop-qora osmonda olovli iz qoldirib uchgan yulduz ham go'zal, kunduzi guldan gulga qo'nib yurgan kapalak ham go'zal... Qaysi gap(lar)dagi shartli belgilari o'rnila tire qo'yiladi?

A) 4 B) 2 C) 1, 2, 4 D) 3,5

12. «Podshoh deganning marhamatidan qahri ortiqdir. Podshoh bilan sherga yaqin yurmoq hikmatdan emasdir... Ushbu parcha uch og'ayni botirlarga kimning tilidan aytilgan?

A) kenja botirning      B) to'ng'ich botirning

C) o'ttancha botirning D) bir to'tining

13. Qaysi gapda qo'llanilgan bog'lovchining tahlili noto'g'ri?

A) Hamdardlik - bir odamning qayg'u-hasratlariga achinib, o'zida ham qayg'u hosil qilishidir, lekin quruq hamdardlik foyda bermaydi. Lekin - bog'lovchi, teng bog'lovchi, zidlov bog'lovchisi yakka holda qo'llangan, 2 ta gapni bog'lash uchun xizmat qilgan.

B) Aql va farosat quyoshga o'xshaydi, beparvolik tufayli tushish mumkin bo'lgan dog'larga o'rin qoldirmaydi; va teng bog'lovchi, biriktiruv bog'lovchisi yakka holda qo'llangan, ikki so'zni bog'lagan.

C) Mol-u davlatningiz bilan emas, balki ilm-hunaringiz, go'zal xulq-atvoringiz bilan faxrlaning. balki - teng (vazifadosh) bog'lovchi, zidlov bog'lovchisi yakka holda qo'llangan, 2 ta gapni bog'lash uchun xizmat qilgan.

D) Uning goh yig'lagisi, goh kulgisi, goh butun kechan ostin-ustin qilib qo'shiq aytgisi kelardi. Goh - teng bog'lovchi, ayiruv bog'lovchisi takror holda qo'llangan, 3 ta gap bo'lagini bog'lash uchun xizmat qilgan.

14. -ma, -dor, ser-, ba-, be-, -mand, -kor, -siz, -chak, -chan, -choq, -chiq, -qoq, -ag'on, -man, -ildoq, -namo, bad-, -don, -bop, -chil, xush-, -kash... Berilgan qo'shimchalardan nechta ot va sifat yasovchi qo'shimcha sifatida shakldoshlik xususiyatiga ega?

A) 10 B) 9 C) 8 D) 7

15. Undoshlarning uch tasnifiga ko'ra ham farqlovchi belgilari ega fonemalar ma'no farqlagan so'zlar qatorini toping.

A) ko'rik, katak

B) kerak, kesak

C) ko'sak, ko'mak

D) kepak, kesak

16. Qaysi gapda otdan hosil qilingan fonetik o'zgarish asosida yozilgan sodda yasama fe'l qatnashgan?

A) Yolg'iz sen emassan, otam, vujuddagi o'qdan qiynalib tolgan.

B) Saroy ahli hovli o'rtasiga **o'rnatilgan** so'rida choyxo'rlik qilishardi.

C) Shundoq chiroyli qiz ham bunaqa yig'loqi bo'ladimi?

D) U do'stining bu darajada astoydil harakat qilishidan juda

qvondi.

17.

18. ...Yig‘layman - ko‘zimga kelmaydi namlar,  
Murg‘ak vujudimda faqat zo‘r titroq!

Bo‘g‘zimda alamlar, achchiq alamlar,  
Yo‘ning o‘rtasida turibman...

E. Vohidovning «Nido» dostonidan olingen ushbu parchada fonetik yozuvning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan nechta qo‘shimcha shakldoshlik xususiyatiga ega emas?

A) barchasi shakldoshlik xususiyatiga ega      B) 2 ta

C) 4 ta D) bunday qo‘shimchalar berilmagan

19. 1) Borliq jum // har bitta darchada zangor shu‘lalar porlaydi. 2) Hasharda hamma ishladi // yoshlar ariq tozaladi, qizlar maydonni supurdi, kattalar mashinaga yukni ortdi. 3) Ahror ovoz egasini tanidi // Hasan naychi ekan. 4) Qor yog‘di // izlar bosildi. 5) Albatta, go‘zallik ham har xil bo‘ladi // kechasi qop-qora osmonda olovli iz qoldirib uchgan yulduz ham go‘zal, kunduzi guldan gulga qo‘nib yurgan kapalak ham go‘zal... Shartli belgililar o‘rnida ikki nuqta qo‘yiladigan barcha gaplarni aniqlang.

A) 3, 5      B) 1, 2, 4, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5

20. Bu cholni butun yurt izzat qilardi. Ushbu gapga oid to‘g‘ri ta‘riflarni ajrating.

1) 1 ta turlangan, 1 ta tuslangan so‘z qatnashgan; 2) 1 ta fe‘l, 2 ta ot, 1 ta olmosh, 1 ta sifat qatnashgan; 3) 1 ta fe‘l, 2 ta ot, 2 ta olmosh qatnashgan; 4) ismlar guruhiga mansub so‘zlar soni 4 ta; 5) 1 ta otlashgan so‘z qatnashgan; 6) 1 ta ko‘chma ma’noli so‘z qatnashgan; 7) asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan 1 ta so‘z qatnashgan; 8) asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan 2 ta so‘z qatnashgan; 9) aniqlovchi + to‘ldiruvchi + aniqlovchi + ega + kesim tartibli gap; 10) grammatik bog‘lanishlar soni 5 ta, so‘z birikmalar soni 3 ta.

A) 1, 2, 4, 5, 6, 8, 9, 10 B) 2, 4, 6, 8, 9, 10

C) 1, 3, 4, 5, 7, 9 D) 1, 3, 4, 6, 8, 9

21. Qaysi juftlikda shakldosh so‘z ma’nosini urg‘u farqlaydi?

A) mardlarcha - mardlar kabi.

B) yosh yigitcha - yigitcha ishladi.

C) qishloqcha bor - kichkina qishloqcha

D) yovuzlar singari – yovuzlarcha.

22. Quyidagi qatorda fe‘l asosida ifodalangan o‘timli-o‘timsizlik ma’nosini nisbat qo‘shimchasi ta’sirida o‘zgargan fe‘llar necha o‘rinda berilgan?

kuylatmoq, o‘ylanmoq, qaytarmoq, yedirmoq, silkinmoq, jimirlatmoq, bo‘shatmoq.

A) 7 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 6 ta

23. 1798-yilda yaratilgan Muhammad Xoksorning «Muntaxob-ul-lug‘at» asarida adabiyot faniga oid atamalar berilgan qatorni aniqlang.

A) bad‘e, ramz, radif, majoz, hijo, she‘r, tashbeh, nazm, fasohat

B) surud, ag‘oni, nag‘ma, nag‘amot, ohang, navo, musiqa, “Hijoz”, «Ajam», “Iraq”

C) mintaqqa, xatti ustuvo (ekvator)

D) sath, vatar

24. ... O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining boyvachchalari bilan yig‘ilib, mollarini semirtirib, bir yerga jam bo‘lib, bir baxmal o‘tovni tikib, shu o‘tovning ichida hamma boyvachchalari bilan qimiz ichib, o‘z kayf-safosi bilan o‘tirar edi. Ushbu gapda qatnashgan ravishdoshlar nisbatini aniqlang.

A) o‘zlik va orttirma      B) aniq va orttirma

C) majhul va aniq      D) o‘zlik, orttirma, aniq

25. Berilgan qaysi gapda vazifadosh ko‘makchi ishtirok etmagan?

A) Toshkentga qarab yurdi.

B) Devordan bo‘ylab qaradi.

C) Mehnatsevarligi uchun xalq o‘rtasida obro‘-e’tibor topdi.

D) Televizor ustida janjallahshdi.

26. O‘tkir Hoshimov va Murod Muhammad Do‘sijodiga mos keladigan asar qahramoni va janrini toping.

A) Hakima aya – qissa B) Ilhom samovarchi – hikoya

C) Hakima aya – hikoya D) Xadicha – hikoya

27. Ma‘lum bir narsani boshqa narsaga o‘xshatib, ularning nomini yonma-yon ishlatish orqali bir tushunchaning ikkita nomi vujudga keladi.

Ushbu qoidaga muvofiq keluvchi berilgan javobni belgilang.

A) Shu farzandlarning - ko‘zim qorasining - elning ardog‘ida bo‘lishini xohlayman.

B) Chin uyingda sen qolursan,

Qo‘sh qanotim, yaxshi qol!

C) Ikkalasi hovli sahnida - Kazangapning egasiz qolgan paxsa devorli kulbasi eshigi oldida uzoq yig‘lab turishdi.

D) Qo’llarim ko‘ksimda, betinch, betoqat Ta‘zimlar qilurman senga ushbu dam.

28. Bobom hassasiga suyanib, o‘pkasini tutolmay ho‘ng-ho‘ng yig‘laydi. Men bo‘zarib, bo‘ynimni egib qolaman.

Menga hamma yoq bo‘m-bo‘sh, souvuq tuyuladi... (O)

Berilgan parcha haqidagi noto‘g‘ri hukm(-lar)ni belgilang.

1) tovush o‘zgarishlarining ikki turi qatnashgan; 2) sodda yasama so‘zlar soni ikkita; 3) berilgan barcha gaplarda uyushgan hol mavjud; 4) hol vazifasida kelgan takroriy so‘zlar tarkibida o‘rniga ko‘ra undoshlarning barcha turi ishtirok etgan; 5) bir o‘rinda ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasining yetakchi qismi ibora bilan ifodalangan; 6) kesimga bilvosita bog‘langan 2 ta vositali to‘ldiruvchi mavjud; 7) shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan 2 ta fe‘l yasovchi qo‘shimcha mavjud.

A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 3, 7

C) 2, 4, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4

29. Qaysi qatorda omonim qo‘shimchalar qo‘llanmagan?

A) chiziq - tiniq, bosqin - sotqin

B) yozgi - qadimgi, otashin – erkin

C) qirg‘in - so‘lg‘in, chirik – elak

D) Dilafro‘zxon - kitobxon, do‘sti – boyi

30. 1) -chak; 2) -ar; 3) -ay; 4) -m; 5) -im; 6) -k; 7) -don

Berilganlardan so‘z yasovchi va shakl yasovchi sifatida o‘zaro omonimlik hosil qila oladigan barcha qo‘shimchalar to‘liq ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 B) 1, 2, 3, 5, 6

C) 2, 3, 4, 5, 6 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

31. ... shu qadar qizg‘in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongingin munavvarlashishini tasvirlagan, badiiy jihatdan yuksak asar «...ni yozib bitirdi» Adabiyotshunos olim Homil Yoqubov ushbu parchada qaysi ijodkor asari yaratilishi haqida fikr bildirgan?

A) Shuhrat, «Oltin zanglamas»

B) Oybek, «Qutlug‘ qon»

C) Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”

D) Abdulla Qodiriy, «O’tkan kunlar»

32. Qozon qaynab chiqsa, ovqatni pasaytirib qo‘y- Ma’no ko‘chish turini aniqlang.

A) metonimiya B) metafora

C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

33. Ko‘p nuqtaning ishlatalishi qaysi qatorda noto‘g‘ri izohlangan?

A) So‘zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun

B) Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gapdan so‘ng

C) Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida

D) Fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa

34. Sifatdoshlarning egalik qo‘sishimchalari bilan birkib,

gapda ega vazifasida kelishi fe’lga xos qanday shakl o‘rnida

qo‘llana olishimi ko‘rsatadi?

A) ravishdosh B) shaxs-son

C) zamon D) harakat nomi

35. Holat fe’llarini ajrating

1) yalinmoq; 2) semirmoq; 3) bo‘yamoq; 4) gavdalantirmoq

5) o‘ylamoq; 6) ranjimoq; 7) jovidramoq.

A) 1, 2, 4, 5, 6, 7 B) 1, 2, 3, 6, 7

C) 2, 6, 7 D) 1, 2, 3, 4, 6, 7

36. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasiga vergul

qo‘yilish holati qaysi javobda noto‘g‘ri berilgan?

A) bir paytda ro‘y beruvchi hodisalarni ifodalovchi

bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda

B) ketma-ket ro‘y beruvchi hodisalarni ifodalovchi

bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda

C) o‘xshatish munosabatlarni ifodalovchi bog‘lovchisiz

qo‘shma gaplarda

D) tuzilish jihatdan bir xil bo‘lib, sanash ohangi bilan

talaffuz qilinuvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda

## 6-variant

1. Abror qizni darrov tanidi u qo‘shti mahalladagi do‘konda ishlar edi. Ushbu gapda qaysi tinish belgi tushirib qoldirilgan?

A) vergul B) nuqtali vergul

C) ikki nuqta D) tire

2. “Avesto” so‘zining o‘zagini belgilang.

A) “to” B) “ave” C) “sto” D) “vest”

3. Berilgan ergash gapli qo‘shma gapning har ikkala

qismida ega ishtirok etgan javobni aniqlang.

A) Maktab deb qurdik bino, **hamma** ilm olsin deb.

B) Bug‘doy ekkan bug‘doy, arpa ekkan arpa o‘radi.

C) Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.

D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

4. Farzandlari tomonidan ko‘ziga mil tortilgan qahramon kim?

A) Muhammad Tarag‘ay

B) Arabmuhammad Bahodirxon

C) Ko‘chkinchixon

D) O‘g‘uzxon

5. Berilgan gaplardan nechtasida to‘rtta so‘z fonetik

o‘zgarish asosida yozilgan?

1) Sening ulug‘liging, ustuvorliging,

Bizni bilmaganga bo‘lsin **yorlig‘ing**.

2) **Ayrliq** o‘yiga **bag‘rini** dog‘lab,

Borayotir qalmoq elni **so‘roqlab...**

3) Eliboylar **bundan** ko‘chib boradi,

Qoldi endi **o‘ynab** o‘sgan elim deb.

4) **Dudog‘ing** guldan xushbo‘y, yuzlaring **undan** xushro‘y,

Kel **oppog‘im**, **bag‘rima** jippi boshginangni qo‘y.

A) uchtasida B) to‘rttasida

C) ikkitasida D) bittasida

6.

7. 0‘zbek so‘zi qachondan urug‘ nomidan butun xalq

nomiga aylandi?

A) XII asrdan B) XIII asrdan

C) XVI asrdan D) X asrdan

8. «Kuntug‘mish» dostonida Kuntug‘mish kimlarga «jonlarim» deb murojaat qiladi?

A) tomoshabinlarga B) farzandlariga

C) mirg‘azablarga D) arkoni davlatga

9. Qaysi baytda mutlaq tashbeh qo‘llanmagan?

A) Shabistonida tug‘di **yangi oy**,

Yangi oy yo‘qki, **mehri olamoroy**.

B) Hunar avji sori kelib anga mayl,

Yuzi andoqki, mehr, oti Suhayl.

C) Ul ulus jondin ayru yel yanglig’,

Sayr etib yer yuzida yel yanglig’.

D) Bor emish ravzadek havosi aning,

Charxi minu kibi fazosi aning.

10. «Bo‘talog‘im, sen bilan vidolashar ekanman, sening so‘zingni yana bir bor takrorlayman: «Salom, oq kema, **bumen!**» “Oq kema” qissasidan olingan ushbu parchada qo‘llangan ega(-lar)ni ajrating.

A) sen B) bo‘talog‘im, sen, oq kema, men

C) bu men D) bu

11. *Ollohga eng yomon ko‘rinadigan odam, avvalo, gina va adovatni uzoq saqlovchi odamdir. Kimningki g‘azabi kelsa, so‘zsiz, jum bo‘lsin. Birinchidan, olim (ilm beruvchi) bo‘lyoki ilm o‘rganuvchi bo‘l, yoki tinglovchi bo‘l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo‘l. Beshinchisi bo‘lma, afsuski, unda halok bo‘lasan.*

Ushbu matn haqidagi qaysi fikrlar to‘g‘ri?

1) Modal so‘zlarning uch turi qo‘llangan. 2) Vergulning qo‘yilishi faqat kirish so‘zlar hamda uyushiq bo‘laklar bilan bog‘liq. 3) Besh o‘rinda kesim grammatik shaklga ega. 4) Ergashgan qo‘shma gapning ikki turi qo‘llangan. 5)

Bog‘lovchilarning qo‘llanilishiga ko‘ra ikki turi mavjud.

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, (4), 5

C) 1, 4, 5 D) 3, 4, 5

12. She’riy didaktik asarlarga qaysi asarlar kiradi?

1) «Pantantra» - «Kalila va Dimna»; 2) «Ming bir kecha»; 3) Xojaning «Gulzor», «Miftoh ul-adl» asarlari; 4) Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari; 5) Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari; 6) Sa‘diyning “Guliston” asari; 7) Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari; 8) Haydar Xorazmiyning «Maxzan (Gulshan ) ul-asror» asari; 9) Navoiyning «Hayrat ul-abror» asari.

A) 5, 8, 9 B) 1, 2, 3 C) 4, 6, 7 D) 5, 8, 7, 9

13.

14. O‘lmas Umarbekovning syujet to‘qimasining murakkabligi, voqealar ta’sirining favqulodda keskinligi, ifoda maromining shiddatkorligi bilan e’tiborni tortadigan asarini belgilang.

A) «Urush farzandi» B) Oq qaldirg‘och»

C) «Yoz yomg‘iri» D) «Cho‘li iroq»

15. Ota // quyosh // ona // oy// Bu // men // oyijon // Tushi qolgan tinish belgilarining mosini toping.

A) vergul, tire, vergul, nuqta, tire, vergul, nuqta

B) tire, vergul, **tire**, nuqta, tire, vergul, nuqta

C) vergul, nuqtali vergul, vergul, nuqtali vergul, tire, vergul, nuqta

D) tire, nuqtali vergul, vergul, nuqta, tire, vergul, nuqta

16. Abay “Nasihatlar” asarida g‘ayratsiz jahl, qayg‘usiz oshiq, shogirdsiz olimlarni kimga yoki nimaga o‘xshatadi?

A) soyaga B) qahraton qishga

C) qurigan ko‘lga D) tulga

17. “To’rt o’g’il o’stirgan onang ham hayron, Soatlab bechora o’tirardi tek. Akang ketgan edi, ukang ham ketdi, Behassa bukridek qoldi egilib, Bu kumni ko’rguncha ming rozi edim, Kimdir badanimga tuz sepsa tilib”. Ushbu parcha qaysi asardan olingen?
- A) Mirtemir, «Betobligimda»  
 B) Mirtemir, «Onaginam»  
 C) X.Saloh, «Toshkent bilan suhbat»  
 D) E.Vohidov “Ruh bilan suhbat” (Saida Zunnunova)
18. Adabiyotimizda birinchi bo’lib voqeiy tarixiy doston yaratgan ijodkor kim?
- A) Sayfi Saroyi      B) Yusuf Xos Hojib  
 C) Muhamad Solih      D) A.Navoiy
19. A.Oripovning “Sohibqiron” dostonida kimning kamon o’qida “Bu – Temur uchun” degan yozuv bor edi?
- A) Amir Husayn      B) Kayxisrav  
 C) Barlos Bahodir      D) Yeldirim Boyazid
20. Qaysi qatorda ravishdosh gapning markazini ifodalab kelmagan?
- A) To’satdan onamning jahli chiqib ketdi.  
 B) Razm solsangiz, bu rastada ko’p narsani ko’ra olasiz.  
 C) Sen yig’lasang, men ham yig’lab yuboraman.  
 D) Mehmonlar hamma bilan quchoqlashib ko’rishdilar.
21. Uyga qaytishni istamadi, lekin **gapga borishga** hali vaqt **erta** edi. Berilgan gapda asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo’lgan so’zlar soni nechta?
- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta
22. “Shoir qalbidan sizib chiqayotgan ma’sum tuyg’ular go’yo sirli, sehrli so’zlarga aylanadi. Shoir upkarday mayin bu so’zlarni to’zg’itib o’ynaydi-yu, ulardan go’zal, o’ynoqi ohanglar yaratadi, so’ngra esa ular asta o’rni-o’rniga tushadi, xuddi dastgohdan chiqayotganday, quyma, betakror satrlar paydo bo’layotganday taassurot qoldiradi kishida”. Ushbu matn qaysi shoir haqida?
- A) Mirtemir      B) U.Nosir  
 C) A.Oripov      D) E.Vohidov
23. Murakkab ko’rinishdagi reja haqidagi qaysi fikr noto’g’ri?
- A) a), b), d) kabi harfiy shakllar bilan belgilangan reja qismlarining oxiriga nuqta qo’yiladi.  
 B) Insho rejalar yana ham murakkablashtirilib, «Asosiy qism»dagi arab raqamlari bilan belgilangan har bir band o’z ichida mayda bo’lakchalarga bo’lib yuborilishi mumkin.  
 C) a), b), d) kabi harfiy shakllar bilan belgilangan reja qismlarining oxirgi banddan boshqasiga nuqtali vergul qo’yiladi.  
 D) 1, 2, 3 singari arab raqamlaridan va har bir gapdan so’ng nuqta belgisi qo’yiladi.
24. Abdullatif otasining ketidan quvmadi uch kun Sheroda qolib ketdi.(3-kurs. 180-mashq)
- Ushbu gapda qaysi tinish belgisi tushirib qoldirilgan?
- A) vergul B) tire      C) ikki nuqta D) nuqtali vergul
25. Chumolilar xor qilishsa arslon rutbasin, Buzilgaydir o’rmonning ham qonuniyati.
- Ushbu misralar qaysi adabiy qahramon tilidan bayon qilingan?
- A) Abdurazzoq Samarqandiy («Mirzo Ulug’bek»)  
 B) Amir Temur («Sohibqiron»)  
 C) To’maris («Mardlik afsonasi»)  
 D) Mirzo Ulug’bek («Mirzo Ulug’bek»)
26. Hammamizning onamizdir **shu** Vatan,

- Yov qoldirgan siynasida ming **tikan**, Tirkimiz-ku, **uni tozalash** bizdan, **Yur**, o’g’lonim, **yurtni ko’tarish uchun**. Ushbu she’rda tarkibida faqat jarangli til undosh(lar)i va unli tovush(lar) qatnashgan so’zlar qanday sintaktik vazifa bajargan?
- A) ega, kesim      B) to’ldiruvchi, kesim  
 C) kesim      D) ega, kesim, undalma
27. Noto’g’ri yozilgan so’zni toping.
- A) kores      B) ukrain  
 C) nomzod      D) kariyes
28. Adabiyotshunoslikka «lirk qahramon» tushunchasini kim olib kirgan?
- A) Y.N. Tinyanov      B) M.Y. Lermontov  
 C) V. Toms      D) N.A. Dobrolyubov
29. Vazifasiga ko’ra 2 ta bir xil turdag morfema qo’shilganda 2 xil fonetik o’zgarishni kuzatish mumkin bo’lgan so’zlar ko’rsatilgan javobni aniqlang.
- 1) tara; 2) yig’i; 3) qiyin; 4) o’yin; 6) sariq.
- A) 1, 2, 3, 4, 5      B) 2, 3, 5  
 C) 1, 2, 3, 4      D) 2, 3, 4
30. Inson dunyoni qanchalik bilsa, **o’zligini** ham **shunchalik anglaydi**.
- Berilgan gapda fonetik o’zgarishga uchragan so’zlardagi jarangli undoshlar haqidagi to’g’ri fikrni aniqlang.
- A) oltitasi sirg’aluvchi undosh hisoblanadi  
 B) uchtasi til orqa undoshi hisoblanadi  
 C) oltitasi portlovchi undosh hisoblanadi  
 D) yettitasi til oldi undoshi hisoblanadi
31. Ot-arava va tuyalar bemalol kirib chiqa oladigan darvozasi lang ochilgan karvonsaroy sahni hali bo’mbo’sh. Ushbu gap qanday gap bo’laklaridan tashkil topgan?
- A) sifatlovchi aniqlovchi, ega, hol, kesim  
 B) sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, ega, hol, kesim  
 C) sifatlovchi aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, ega, hol, kesim  
 D) sifatlovchi aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, hol, qaratqich aniqlovchi, ega, hol, kesim
32. 1914-yilning 18-aprelida “Sadoyi Turkiston” gazetasida boshilgan “Turkistonli qarindoshlarimizga” she’ri muallifi kim?
- A) Abdurauf Fitrat      B) Abdulla Avloniy  
 C) Abdulhamid Cho’lpon      D) Hamza Hakimzoda Niyoziy
33. Inson ruhi ko’zga ko’rinmas, latif markazlardan iborat ekanligini kashf etgan, ya’ni “latoyif nazariyasi”ni ishlab chiqqan olim?
- A) N.Kubro      B) J.Rumi  
 C) A.Jomiy      D) A.Yassaviy
34. 1) tunamoq; 2) asabiylashtirmoq; 3) umumiylidka; 4) shildiroq; 5) yasovchi.
- Qaysi so’zlarda so’zga yangi ma’no beruvchi ikkita qo’shimcha ishtirot etgan?
- A) 2,3,4      B) 2,3      C) 1,4,5      D) 2,4,5
- 35.
36. Qaysi so’zdan fe’lning mayl shakllaridan biri bilan shakldosh bo’la oladigan qo’shimcha orqali fe’l yasash mumkin?
- A) suv B) ikki C) boy D) sava  
 7-variant.
1. Bir oyda ham eridan, ham o’g’lidan “qoraxat” olgan ayol qaysi asarda uchraydi?

- A) "Qiyomat qarz" qissasi Zebi  
 B) "Dunyoning ishlari" qissasi, Zebi  
 C) "Kecha va kunduz" romani, Zebi  
 D) "Ufq" romani, Zebi
2. Alisher Navoiy qaysi g'azalida o'sha paytlardagi bog' va hovlilar devori ustini tikanakli butalar bilan o'rab chiqish odatidan badiiy vosita sifatida foydalangan?  
 A) "Deyin" radifli g'azalida    B) "Qilg'il" radifli g'azalida  
 C) "Kelmadi" radifli g'azalida    D) "Yo'q" radifli g'azalida
3. Katta hovuzlardagi suvlarda ko'lankalar va shu'lalar jum o'ynashadi. Berilgan gapda ishtirok etgan so'z turkumlari va ularning tartibi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 A) sifat, ot, ot, ot, bog'lovchi, ot, ravish, fe'l  
 B) sifat, sifat, ot, ot, bog'lovchi, ot, fe'l  
 C) sifat, ot, ot, ot, bog'lovchi, ot, fe'l  
 D) sifat, sifat, ot, ot, bog'lovchi, ot, ravish, fe'l
4. Nihoyat, **shakli dutorga** o'xshagan bir nima yasadi. Keyin unga **ot qilidan tor** tortdi va **barmoqlari** bilan asta chertib ko'rdi. Yana chertdi... Yana... Shu kuni **ohang** tug'ildi. **Bola** uchun yangi, ohangli bir **olam** paydo bo'ldi. Ushbu parchada qo'llangan ot turkumiga mansub so'zlar soni nechta?  
 A) 7 ta    B) 9 ta    C) 10 ta    D) 8 ta
5. So'z yasash qoliplari va ularning ma'nolari qanday aniqlanadi?  
 A) bir xil yasovchi qo'shimchali so'zlarni ma'lum uyalarga birlashtirish orqali  
 B) ko'p ma'noli qo'shimchalarni aniqlash orqali  
 C) ma'nodosh qo'shimchalarni qo'shish orqali  
 D) shakldosh qo'shimchalarni aniqlash orqali
6. Bu yerda tayyorlanayotgan turli-tuman shirin milliy taomlar, qulay shart-sharoitlar va yuqori darajada ko'rsatilayotgan xizmatimiz sizga so'zsiz manzur bo'lishiga ishonchingiz komil bo'lsin. Ushbu gapdagagi fe'llar tarkibida lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar necha o'rinda qo'llangan?  
 A) 5    B) 6    C) 7    D) 4
7. Qaysi qatorda imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan so'z mavjud?  
 A) Tangri tanglayini qanday fazl-u karamlar bilan ko'tardi ekan?  
 B) Shu vajdankim, taxt tepasida bobolar-u otalar, otalar-u bolalar aksar qirpichoq.  
 C) U barqut bolishga **xorg'in** suyangan ko'yi asta o'yga toldi. Bu go'dakning manglayiga kotibi qudrat nimalarni yozdi ekan?  
 D) Sultanat dag'dag'asinimi, sarkardalik shavkatinimi, allomalik rutbasinimi, shoirlik qismatinimi?
8. Qaysi adibning tarjimayi holi «Mashaqqatl safar» deb nomlangan?  
 A) Muqimiy    B) 0°. Hoshimov  
 C) A. Muxtor    D) A. Qahhor
9. **Non-pon, choy-poy, dam-badam, uncha-muncha** so'zlarning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang?  
 A) takroriy so'zlar    B) qisqartma so'zlar  
 C) qo'shma so'zlar    D) juft so'zlar
10. O'zbekistonda 21-martda Navro'z bayrami shod-xurramlik bilan nishonlanadi. Ushbu gapda nechta tobe bog'lanish mavjud?  
 A) 4 ta    B) 5 ta    C) 2 ta    D) 6 ta
11. Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat qiladigan, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuchdir. Ushbu gapda uyushiq bo'laklar qaysi gap bo'laklariga tobelangan?  
 A) sifatlovchi aniqlovchi va vositasiz to'ldiruvchiga  
 B) sifatlovchi aniqlovchi va vositali to'ldiruvchiga  
 C) sifatlovchi aniqlovchi va kesimga  
 D) sifatlovchi aniqlovchi va maqsad holiga
12. Quyidagi so'zlarning nechta har xil so'z turkumi doirasida shakldosh bo'la oladi?  
**qo'zi**, oyoq, bel, **taxt**, **yengil**, **so'qmoq**, **bor**, **o'ch**, **burun**.  
 A) 6    B) 7    C) 9    D) 8
13. Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro iltimosi bilan tuzgan devonini aniqlang.  
 A) "Devoni Foniy"    B) "Chor devon"  
 C) "Navodir ush-shabob"    D) "Badoye' ul-bidoya"
14. Zulfiya "Bog'lar qiyg'os gullaganda" she'rida "orqa tog'" deb kimni yoki nimani aytadi?  
 A) o'tgan umrni    B) o'zbek xalqini  
 C) bog'dagi daraxtlarni D) yozgan she'rlarini
15. Alisher Navoiy quyidagi g'azal turlaridan qaysi birini qattiq tanqid qilgan?  
 A) yakpora g'azal    B) musalsal g'azal  
 C) parokanda g'azal    D) voqeaband g'azal
16. Quyidagi berilgan buyuk xamsanavislarning "Xamsa"laridagi birinchi doston qanday atalgan?  
 1) Nizomiy Ganjaviy; 2) Xusrav Dehlaviy; 3) Abdurahmon Jomiy; 4) Alisher Navoiy.  
 A) 1 – «Maxzan ul-asror»;  
 2 – «Tuhfatul-ahrор»;  
 3 – «Matla' ul-anvar»;  
 4 – «Hayrat ul-abror»  
 B) 1 – «Maxzan ul-asror»;  
 2 – «Matla' ul-anvar»;  
 3 – «Tuhfatul-ahrор»;  
 4 – «Hayrat ul-abror»  
 C) 1 – «Matla' ul-anvar»;  
 2 – «Maxzan ul-asror»;  
 3 – «Tuhfatul-ahrор»;  
 4 – «Hayrat ul-abror»  
 D) 1 – «Hayrat ul-abror»;  
 2 – «Matla' ul-anvar»;  
 3 – «Tuhfat ul-ahrор»;  
 4 – «Maxzan ul-asror»
17. Haynrix Haynening «She'rlar» deb nomlangan she'rini kim o'zbekchalashtirgan?  
 A) Xayriddin Saloh    B) Xayriddin Sulton  
 C) Ahmad Hojibek    D) Sirojiddin Ahmedov
18. Alisher Navoiyning «Jong'a chun dermen: Ne erdi o'lmakim kayifiyati?.. g'azali qaysi turda yozilgan?  
 A) yakpora g'azal    B) parokanda g'azal  
 C) musalsal g'azal    D) voqeaband g'azal
19. Navoiyning «G'aroyib us-sig'ar» devoniga kirgan g'azzallarni ajrating.  
 1) «Kelmadi»; 2) «Qilg'il»; 3) «Jong'a chun dermen»; 4) «Bo'ldum sanga»; 5) «Yo'q»; 6) «Deyin»; 7) «Bo'1».  
 A) 1, 3, 6, 7    B) 4, 5, 6, 7    C) 1, 2, 3, 4    D) 2, 4, 5, 7
20. Durroj yolg'on **so'zlagani**, **noto'g'ri gapirgani** uchun **tuzoqqa** tushdi. Berilgan gapda yasama so'zlar asosidagi portlovchi undosh tovushlar miqdori nechta?  
 A) 1 ta    B) 2 ta    C) 3 ta    D) 4 ta
21. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi antiteza uslubini yaratishga xizmat qiladi?

- A) zid ma'noli so'zlar B) shakldosh so'zlar  
 C) ma'nodosh so'zlar D) paronim so'zlar  
 22. Quyidagi gaplardan qaysilarida fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z yasovchi morfema qatnashgan?  
 1) Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi. 2) Butun xalqning istagi shu - tinchlik. 3) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi. 4) Hayajonlanganimdan tanamning og'rig'ini ham sezmabman.  
 A) 2, 3, 4      B) 1, 3, 4      C) 1, 2      D) 1, 2, 3, 4  
 23. Sodda ko'rinishdagi insho rejalar tuzilayotganda, undagi gaplar tarkibini raqamlash haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?  
 A) 1), 2), 3) ... shaklida arabcha raqamlar bilan belgilansa, ulardan keyin yopiluvchi qavsni qo'yish tavsiya etilmaydi.  
 B) a), b), d) tarzida belgilanib, ulardan keyin yopiluvchi qavsni qo'yish tavsiya etiladi.  
 C) Tartibni belgilashda arab raqamlarini qo'yib, ulardan so'ng nuqta ishlatish tavsiya etiladi.  
 D) a), b), d) tarzida belgilash tavsiya etilmaydi.  
 24. Qaysi gapda so'z qollash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud emas?  
 A) Sizning har bir so'zingiz biz uchun tilladan abzaldir.  
 B) Borlik go'yo suv quyganday jimjit.  
 C) Usta cho'g'day temirni toblab-tolblab olar edi.  
 D) Undan bir suratgina yodgor qolgan, xalos.  
 25. **Adolatparvarlik** so'zida, undosh tovushlar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) Hosil bo'lish usuliga ko'ra bir umumiyl guruhga mansub undoshlar 3 o'rinda qatnashgan  
 B) Jarangli juftiga ega bo'lgan 2 ta undosh qatnashgan.  
 C) Til oldi jarangli undoshlar 6 o'rinda qatnashgan.  
 D) Hosil bo'lish o'rniga ko'ra umumiyl guruhga mansub bo'lgan jarangli undoshlar 5 o'rinda qatnashgan.  
 26. Qaysi asar(-lar)da ilmoqda osilib turgan go'shtga (quyruqqa yetolmay «puuf, sassiq» degan mushuk holati misol tariqasida keltirilgan?  
 1) «Zarbulmasal» asarida; 2) «Bahor qaytmaydi» asarida; 3) “Rohati dil” asarida; 4) “Jamila” asarida; 5) “Alvido, bolalik” asarida  
 A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) faqat 5  
 27. ... Albatta .... dedi Anvar .... boshqalga kishi gunohi uchun gunohsizni tutib ... musulmonchiliqdan chiqqach ... men pusulmonchiliq bilan o'lishni o'bdan bildim...  
 Nuqtalar o'miga tinish belgilarini qo'ying.  
 A) tire, vergul, tire, vergul, vergul, nuqtali vergul, undov  
 B) tire, vergul, tire, vergul, tire, vergul, vergul, nuqta  
 C) tire, undov, undov, vergul, tire, vergul, vergul, nuqta  
 D) tire, undov, tire, vergul, tire, vergul, vergul, undov  
 28. “Bildimki, oni dushmani makkorai ayyor, «Lo» - tirnog'i birla yuzini tirmalab o'ttum» bayt kimning qalamiga mansub va unda qanday san'at qo'llangan?  
 A) Mashrab, kitobat B) Ogahiy, tazod  
 C) Furqat, iyhom D) Navoiy, mubolag'a  
 29. Berilgan juftliklarning qaysi ikkinchi so'zning ikkinchi bo'g'ini urg'uli hisoblanadi?  
 A) hozir (davracha keldi) – hozir (ketishga hozir bo'ldi)  
 B) yangi (yangi kitob) – yangi (yangi keldi)  
 C) etik (oyoq kiyim) – etik (axloq normalari)  
 D) akademik (shoir) – akademik (litsey)  
 30. Qaysi gap juftligida shakldosh so'z qo'llangan?  
 A) Tomog'i qora tovuq. Alim buva gapirmoqchi bo'lib tomog'ini qirib qo'ydi.

- B) Tulki tumshug'idan ilinar. Ko'zbo'yamachi tulki bo'ladi, xalq ichida kulgi bo'ladi.  
 C) Cholg'umning tori tarang, meni ko'rgan yov garang. Qo'lga olsam torimni, beixtiyor eslaydurman yorimni.  
 D) Suv ketar, tosh qolar.  
 Bektemirning yuragini ezgan qandaydir bir tosh go'yo erib ketdi.  
 31. Tovushlarning hidi, bo'yi bor.  
 Tovushlarning **sovuq, ilig'i**.  
 Tovushlarning rang-ro'yi bor.  
 Tovushlarning shirin-**achchig'i**,  
 Bordir hatto **yumshoq, qattig'i**,  
 Shoir rassom bo'lsa agar,  
 Chizar edi **shunday** lavhalar.  
 Berilgan parcha haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.  
 1) 6 o'rinda tovush o'zgarishi sodir bo'lgan; 2) 1-misrada shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan 2 ta so'z qo'llangan;  
 3) 4 ta yasama so'zda tovush almashinishi sodir bo'lgan; 4) qo'sh undoshlar soni 3 (4) ta; 5) 1 ta **ko'makchi**, 1 ta bog'lovchi, 1 ta yuklama ishtirot etgan; 6) 1 ta hol ergash gapli qo'shma gap mavjud; 7) jarangli undosh bilan tugagan yopiq bo'g'inlar 24 o'rinda qo'llangan; 8) til orqa, o'rtal keng, lablangan unli bilan tugagan ochiq bo'g'inlar 3 o'rinda qo'llangan; 9) 18 (23) o'rinda ko'makchi morfema ishtirot etgan; 10) 3 o'rinda otlashgan so'z ishtirot etgan.  
 A) 1, 4, 6, 7, 8, 9, 10      B) 2, 3, 4, 6, 7, 9  
 C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9      D) 4, 6, 7, 8, 9  
 32. Alar chun aylagach sayr-u safolar,  
 Esimg'a tushti yor-u oshnolar...  
 Ayo bodi sabo, Olloh uchun tur,  
 O'zingni Toshkand shahriga yetkur.  
 Furqat qalamiga mansub ushbu misra qaysi asaridan keltirilgan?  
 A) «Sabog'a xitob»      B) «Hammomi xayob  
 C) “To'y tavsif”      D) «Aza tavsif»  
 33. «Rustamxon» dostonida Momogul maston tilla tangalar evaziga Huroyim ustidan fitna-g'iybat to'la arznama yozdiradi, firib bilan kimga tasdiqlatadi?  
 A) Oqtosh ahliga      B) Sultonxonga  
 C) qozikalonlarga      D) uch yuz oltmish mastonga  
 34. **Vatan mening jon-u tanim sajdaxonamadir,**  
**U mening to'lin oyim, tinch-omonim,**  
**Izzatim, sharafim, Ka'bam, qiblam**  
**Hamda gulistonimdir.** Matnda nechta sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'llangan?  
 A) 12 (13)      B) 11      C) 10      D) 9  
 35. 1) Bek istar-istamas chiqib, yumshoq o'rindiqqa o'tirdi. Bu yumshoq muomala davradagilarni o'ziga qaratdi. 2) Tog'ning ko'rki - tosh bilan, odamning ko'rki - bosh bilan. Yarim toshdan mo'lroq yo'l yurildi hamki, bekat ko'rinxaydi. 3) Mol olasi tashda, odam olasi ichda. Ko'chat ola chiqsa, kimga foyda, kimga ziyon. 4) Uning matematikadan dumi bor. Bir kuni paxta chopib tursam, bitta qovun “meni ye!” deb dum berib turibdi. 5) Butun oilasi bu yerga pomidor, piyoz, rediska, karam va boshqa sabzavotlar ekishdi. Tangrining karamiga sig'inib, ularni Astrobothda jo'natdim. 6) Chapga burilib chap ko'zi - shisha ko'zini olib, ro'molchasi bilan artdi. O'qlardan biri chiroq shishasini sindirdi. 7) Sen gapirganda jum o'tirgan edi, kimdir luqma tashladi. Javob berishi lozimligini bilgan Usmon og'zidagi luqmani tez-tez yutib oldi.  
 Qaysi gap juftliklarda shakldosh so'zlar qo'llangan?  
 A) 1,3,4,6      B) 2,3,4,5      C) 2,5,7      D)

1,2,5,7

36. "Ajab zamona", "Kajdor zamona", "Dar mazammati zamona" satiralarini muallifi kim?

A) Muqumiy    B) Furqat    C) Maxmur    D) Zavqiy  
**8-variant.**

1. Saboq olib diyonatdan,  
Ezgu ishdan, matonatdan,  
**Qochib mudom** xiyonatdan,

Asragaymiz biz Vatanni. (A. Sobirov)

Ushbu she'riy parchada holning nechta ma'no turi ishtirok etgan?

A) 4    B) 3    C) 2    D) 1

2. Anbar Otin hasbi hol yo'nalihsida yozgan masnaviysida to'rt farzandi haqida ma'lumot beradi. Shoira ularidan qaysi birini "rohati jonim, anisim, g'ariblik, dardmanlik darmoni" deb ta'riflaydi?

A) Ominaxonni    B) Mo'minxo'jani  
C) Usmonxo'jani    D) Bibixonni

3. Asqad Muxtorning pyesasi berilmagan javobni aniqlang.

A) "Chin yurak"dan    B) "Yaxshilikka yaxshilik"  
C) "Samandar"    D) "Mardlik cho'qqisi"

4. Qaysi qatorda shakl yasovchi qo'shimchalar bilan omonimlik hosil qila oladigan ravish yasovchi qo'shimchalar berilgan?

A) -in, -ma, -an    B) -larcha, -in, -chak  
C) -siz, -cha, -viy    D) -siz, -lab, -larcha

5. Kumush qishdan, zumrad bahordan, **qolishmaydi** kuzning **ziynati**. Berilgan gapdagi tobe bog'lanishlar va bir so'z turkumiga mansub so'zlar soni teng kelgan javobni aniqlang.

A) 7    B) 5    C) 6    D) 4

6. Asqad Muxtorning og'ir xastalikka chalingan yillari yozgan asarlarini aniqlang.

A) "Yaxshilikka yaxshilik", "Uyqu qochganda"  
B) "Sizga aytar so'zim", "Insonga qulluq qiladurman".  
**C) "Insonga qulluq qiladurman", "Uyqu qochganda"**  
D) "Davr mening taqdirimda", "Rahmat, mehmonlarim"

7. M.Shayxzoda "Toshkentnoma" dostonida kimni "Asl shoir edi, she'ri – kurash, baxt va umid!", – deb ta'riflaydi?

A) G'.G'ulomni    B) Oybekni  
C) A.Muxtor    D) H.Olimjonni

8. Kimki qasd etsa anga, kiysin pushaymondan kafan.

Berilgan ergash gapli qo'shma gapning turini aniqlang.

**A) ega ergash gapli qo'shma gap**  
B) kesim ergash gapli qo'shma gap  
C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap  
D) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

9. Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birikmalarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik **til** birligi ... Tushib qolgan so'zni yozing.

A) so'z B) qo'shimcha C) gap D) fonema

10. Tarkibida gap bo'laklarining barcha turi ishtirok etgan sodda uyushiq bo'lakli gapni toping.

A) "Avesto"da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo'lishni, mol boqa olishni, chorvani hayvon va qaroqchilardan muhofaza qila bilishni o'rganishlari shartligi aytildi.

**B) Barchamiz milliy qadriyatlarimizning mazmuni va**

mohiyatini chuqur, batatsil o'rganishga harakat qilaylik.

C) Uning kulgisi ham o'ziga o'xshash shiringina edi, qonib, yoyilib kuldi.

D) Qalbingizga toshqinlarning g'uborlari hech qachon qo'nmasisin, gard yuqmasin.

11. Anvar **boyagi** uy eshigining tutqichini ushlab itarib ko'rди. Ushbu gapdagi ko'makchi morfemalar haqidagi noto'g'ri fikrlarni aniqlang.

1) So'z yasovchi qo'shimchalar ismlar guruhiga kiruvchi so'z turkumlariga qo'shilib yangi so'z yasagan. 2) Shakldoshlik xususiyatiga ega 2 ta so'z yasovchi morfema mayjud. 3) Tarkibida 3 ta shakl yasovchi qo'shimcha mavjud so'z qatnashgan. 4) So'z yasovchi qo'shimchalar ismlar guruhiga mansub so'zlarni yasagan.

A) 1, 3 B) 2, 3, 4    C) 2, 4 D) 1, 2

12.

13. 1) Mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turgan grammatic vositardir. 2) So'zlarining o'zaro grammatic va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlataladi. 3) Tarixan mustaqil so'zlar bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatic ma'no ifodalashga o'tgan so'zlardir. 4) Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra sof va vazifadoshga bo'linadi. 5) Gap bo'lagi va **gaplarni** qanday bog'lashiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Ko'makchilar haqidagi qaysi fikrlar to'g'ri?

A) 1, 2, 4    B) 1, 2, 3, 4 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

14. «Sulton Abulqosim Bobur so'zamol va hunarparvar podshoh edi. U ba'zi paytlarda A. Navoiy bitgan turkiycha, forsiycha she'rlarni mutolaa qilar, ta'bining quadrati va sharofatl so'zlarini shirinligidan hayratlanar, taajjubga tushar, ziyrakligi, muloyimligi uchun ofarinlar o'qir edi», Kimning qaysi asaridan olingan?

A) Xondamir "Makorim ul-axloq"  
B) Nizomiy Aruziy Samarcandiy "Majma' un-navodir"  
**C) Davlatshoh Samarcandiy «Tazkirat ush-shuar»**  
D) Homidjon Homidiy "Avesto fayzları"

15. «Ayollar sochi uzun, aqli qisqadur», degonlarg'a, Tovuqcha aqli yo'q, axlatni titkonlarg'a o't tushsin. "Xotunlar mol qatori sotilur" deb mushtiparlarni, Zulayho, Layli, Shirinni tan olmag'onlarga o't tushsin. Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?

A) Uvaysiy    B) Nodira  
C) Dilshodi Barno    D) Anbar Otin

16. O'tkir Rashidning quyidagi misralarida qaysi shoir haqida ma'lumot keltirilgan?

«...yosh ijodkorlarga murabbiylik qildi ... Qo'qondagi havaskor shoiralar, o'z davrining yosh shoirlari Amir Umariy, Nasrulla Davron, Ibrohim Nazir Davron, Ibrohim Nazir va shu satrlar muallifi – kamina kabi shoirlar uning ko'magidan bahramand bo'ldi...».

A) Oybek    B) Usmon Nosir  
C) Cho'lpon    D) Abdulla Qahhor

17. Qaysi javobdagи so'zlarda hosil bo'lish o'rniga ko'ra hamda hosil bo'lish usuliga farqlovchi, ovoz va shovqinning ishtirotiga ko'ra birlashtiruvchi belgilarga ega fonema qatnashgan?

A) dor-tor    B) toq-toq'    C) bo'r-ber    D) tom-tol

18. *Bu bodomqovoq qiz xushfe'l tabiatи bilan katta-yu kichikning olqishiga* sazovor bo'ldi. Ushbu parchada nechta so'z ham hokim, ham tobe qism vazifasini bajara oladi?

**A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta**

19. Asqad Muxtor qaysi asari orqali katta ijodkorlar nazariga tushadi va alqovlar eshitadi?

A) "Karvon qo'ng'irog'i"    B) "Daryolar tutashgan joyda"

C) "99 minatura"    D) "Po'lat qo'yuvchi"

20. Umr bo'yi g'oyat notinch va tartibsiz yashagan adib ...

A) Haynrix Hayne      B) Aleksandr Pushkin

C) Sergey Yesenin      D) Vilyam Shekspir

21. Shuhratparastlik, takabburlik kabi illatlar qattiq qoralanadi. Erishgan muvaffaqiyatlardan boshi aylanib hech kimni pisand qilmaydigan kimsaga aylanadi, hatto xudoni ham tan olmaydi. Qaysi asar qahramoni haqida gap boryapti?

A) «Namrud», Namrud

B) «Kecha va kunduz», Akbarali

C) «Ruhlar isyoni», Avrangzeb

D) «Abulfayzxon», Abulfayzxon

22. Qaysi gapda ikki xil gap bo'lagi fonetik o'zgarishga uchragan?

A) Jamiyatning eng kichik negizi bo'lgan oila boshlig'inining zimmasiga katta mas'uliyat yuklatilgan

B) Yaxshi niyat seni haqiqatga boshlaydigan muhim dastur ekanligini bilishingni istayman.

C) Quruq nasihat o'z nafsi yengolmagan ojiz kishiga kor qilmaydi.

D) Hayotda pokiza **yashashni** istaganlar o'tganlardan ibrat olishi, **bunday** yomon yo'llardan saqlanishi lozim.

23. **-kor, -dor, bo-, ba-, ser, -shunos, -kash, -siz, be-, no-**

Berilgan qo'shimchalardan nechtaşı -chi qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi?

A) 4 tasi      B) 2 tasi      C) 5 tasi      D) 3 tasi

24. Alisher Navoiyning qaysi g'azali maqta'sida «Navoiy» so'zi bilan o'zakdosh so'z vositasida ishtiyoq san'ati yaratilgan?

A) «Kelmadi» radifli g'azali

B) «Qilg'il» radifli g'azali

C) «Bo'1» radifli g'azalida

D) «Bo'ldum sanga» radifli g'azali

25. Berilgan to'gri hukmni aniqlang.

A) Ajratilgan bo'lak yozuvda vergul, tire va ba'zan ikki nuqta bilan ajratiladi.

B) Ajratilgan izohlovchilar, asosan, izohlanmishdan keyin keladi.

C) Ajratilgan izohlovchilar, ko'pincha, aniqlovchiga taalluqli bo'ladi.

D) Ajratilgan bo'lak yozuvda vergul, tire va ba'zan qo'shtirnoq bilan ajratiladi.

26. «...bilan basta eshikdur kushod,

... bilan topdi eranlar murod.

... sening dardingga darmon bo'lur.

... bilan xor guliston bo'lur»

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida keltirilgan ushbu ta'rifida qaysi so'z tushib qolganini toping.

A) mehnat      B) ishonch

C) g'ayrat      D) sabr

27. Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'mnida bo'g'iz undoshi yoziladi?

1) ja...d; 2) da...lsiz; 3) a...loq; 4) mu...okama; 5)

...ushyorlik; 6) a...moq.

A) 1, 2, 4, 5, 6      B) 1, 4, 5, 6

C) 1, 2, 3      D) 1, 3, 5, 6

28. **gulrez, gulpo'sh** so'zlarining ma'nolari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) gul bilan bezangan, yoqimli ovoz

B) gul to'kuvchi, gul yopingan, qip-qizil gulday kiyingan

C) bulbul ovozi, majozan quyosh nurlari

D) gul to'kuvchi, yoqimli ovoz

29. «Qanda» so'roq olmoshi, «anda» o'rin ravishi va

"banda" otlashgan sifatini o'zining g'azalida qo'llagan adib kim?

A) Lutfiy, "Jononima aytинг"

B) Atoiyl, "Jamoling vasfini"

C) Sakkokiy, «Kim ermas ul mubtalosi»

D) Atoiyl, "Ko'ngulni olg'ali"

30. Asqad Muxtorning nasrdagi birinchi asarini toping.

A) "Jar yoqasidagi chaqmoq"

B) "Opa-singillar"

C) "Daryolar tutashgan joyda"

D) "Bo'ronlarda bordek halovat"

31. Alisher Navoiyning qaysi maqta'sidan «ishq o'ti senga azalning qismati ekan» mazmunidagi misralar o'rinni o'rgan?

A) «Bo'1» radifli g'azali

B) «Yo'q» radifli g'azali

C) «Jonga chun dermen: «Ne o'lmakim kayfiyati» g'azali

D) «Bo'ldum sanga» radifli g'azali

32. Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq ko'chaga otildi. Berilgan gapda nechta hol qatnashgan va ular tuzilishiga ko'ra turi qanday?

A) 1 ta: 1 ta sodda      B) 3 ta: 3 tasi murakkab

C) 5 ta: 1 ta murakkab, 4 tasi sodda

D) 4 ta: 3 tasi murakkab, 1 tasi sodda

33. **-kor, -dor, bo-, ba-, ser, -shunos, -kash, -siz, be-, no-**

Berilgan qo'shimchalardan nechtaşı -li qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi?

A) 4 tasi      B) 2 tasi      C) 5 tasi      D) 3 tasi

34. "Hayit kelsa uyimizda hamisha g'avg'o bo'ladi, arafa qurbon kechasida ota-onam g'alayon ko'tardi, namoz kuni ikkisi ayrilishdi, hovlini sotishdi". Kimning hayoti tasvirlangan?

A) A.Otin      B) D.Barno      C) Muqumiyl      D)

M.Shayxzoda

35. O'zbek adabiyoti tarixida "Dedim... Dedi..." savol-javob tarzida ruboiy yozgan adib kim?

A) Lutfiy      B) A.Navoiy

C) Pahlavon Mahmud      D) Xo'jandiyl

36. **Mehnati bilan baholansa, yerning sohibi –**

**dehqonning hech kimdan kami bo'lmaydi.** Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) nomustaql kesim qatnashgan; 2) 1 ta sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan; 3) otlashgan ravish kesim vazifasida kelgan; 4) 2 ta turlangan so'z ega vazifasida kelgan; 5) qaratqich aniqlovchilar uyushib kelgan; 6) ajratilgan bo'lak qatnashgan; 7) ushbu gap hol ergash gapli qo'shma gapdir; 8) ichi bo'sh so'zlarga mansub 1 ta sodda so'z vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan; 9) narsa va hodisalarining ikkinchi nomi hisoblangan **so'zlar qo'shilmasi** ishtirot etgan; 10) yerning so'zidan keyin vergul tushib qolgan.

A) 2, 3, 5, 9      B) 1, (4,) 6, 7

C) 3, 5, 8, 9, 10      D) 1, 4, 6, 7, 8, 10

## 9-variant

1.

2.

3. Ismlar guruhiiga mansub bo'lgan, metafora usulida ma'nosi ko'chgan yasama so'z qatnashmagan gapni belgilang.

A) Yuragi qattiq ura boshladи.

B) Tiyrak Hamidning **nursiz hayotini** bezagan birdan-bir narsa onasi Komila opaning so'zlagan ertaklari bo'ldi.

C) **Loyqa xayolotlar** chashmaday tindi.

D) Har holda Toshkent ustiga yana **qonli bulutlar** chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlanar, bu bir xudoga

ma'lumdir.

4. Qaysi adib ijod maydonini bog' gulshaniga, shoirlarni shu bog'dagi qushlarga o'xshatadi?

- A) Lutfiy      B) Atoiy  
**C) S. Saroyi**    D) Xorazmiy

5. hoy, atigi, balli, dod, qurey- qurey, **avalambor**, tu-tu, **haqiqatan**, voy, **koshki**, **alqissa**

Ushbu qatorda necha o'rinda modal so'z berilgan?

- A) 5 o'rinda    **B) 4 o'rinda**  
C) 2 o'rinda    D) 3 o'rinda

6. «Bobumoma»dan olingen quyidagi parchada kim haqida ma'lumot berilgan?

«Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqolliq bo'lub edi, xushrang qizil, yashil abrishimni kiyar edi. Qora qo'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq. Ahyonan iydlarda kichik sepech dastorini yap-yassi yomon chirmon chirmab, qarqaro o'tag'asi sanchib, namozg'a borur erdi».

- A) Alisher Navoiy    **B) Husayn Bayqaro**  
C) Muzaffarmirzo    D) Abusaidmirzo

7. "Ko'zung balosi bilan jonga tegdi, Sakkokiy, Dag'i ne qilg'us bilmon, **oxir** bu makkora". **Qanday san'at** **qo'llangan?**

- A) mubolag'a    B) tasdir  
**C) iyahom**       D) tajnis

8. Har ikki qismi ham omonim xarakterga ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan juft otlar ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) ochko'z; 2) qo'y-qo'zi; 3) yor-do'st; 4) uzuq-yuluq; 5) gul-chechak.

- A) 2, 3, 5**    B) 3; 5 C) 1, 3, 4    D) 2, 4, 5

9. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lesi bir **mayin**.

Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.

Dudog'ing guldan **xushbo'y**, yuzlaring undan **xushro'y**.

Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y- (S. Zunnunova)

She'riy parchadagi ot kesimlarning nechtasi sifat turkumiga mansub so'zlar bilan ifodalangan?

- A) 5 B) 4 **C) 3** D) 6

10. ...Yig'layman - ko'zimga kelmaydi namlar,

Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq!

Bo'g'zimda alamlar, achchiq alamlar,

Yo'lning o'rtasida turibman...

E. Vohidovning «Nido» dostonidan olingen ushbu parchada fonetik yozuvning yuzaga kelishiga asos bo'lgan nechta qo'shimcha shakldoshlik xususiyatiga ega emas?

- A) barchasi shakldoshlik xususiyatiga ega**    B) 2 ta

- C) 4 ta D) bunday qo'shimchalar berilmagan

11. Qaysi javobdagi so'zlarda tilda hosil bo'lishiga ko'ra hamda portlovchi-sirg'aluvchiligidagi ko'ra birlashtiruvchi, jarangli-jarangsizligida ko'ra farqlovchi belgilarga ega fonema qatnashgan?

- A) dor-tor**    B) toq-toq'    C) bo'r-ber    D) tom-tol

12. Berilgan so'zlarning nechtasida til oldi, portlovchi undoshlar qo'llanilishi lozim?

**Mas..id**, *i..tido*, **g'i..jak**, **sara..jom**, *k..itansiya*, **oliy..anob**, *taa..suf*, **istibdo..** muto... aa, **krep..eshin**.

- A) 4 ta B) 3 ta C) 5 ta **D) 6 ta**

13. 1) Ezgulikning cheki yo'q. **2) Bahorgi harakat - kuzgi barakat.** 3) Go'zallik ilm-u ma'rifatda. 4) Mard maydonda bilinadi, nomard - ishda. **5) Do'stlik barcha boylikdan afzal.**

6) Qo'rqoqda uyat bo'limas. 7) Nomard non ustida ham nolishini qo'ymas. Novvoyga non aziz, tegirmonchiga - un.

8) Yo'ldoshini tashlagan yo'lda qolur. **9) Qalbaki do'st**

ochiq dushmandan yomon. Qaysi gaplarda ikkitadan yasama so'z bor?

- A) 1, 4, 6    B) 2, 4, 6, 8    C) 2, 4, 5, 8    **D) 2, 5, 7, 9**  
14.

15. Tarkibida fe'lidan yasalgan so'zning turlangan so'zga tobe bo'lib kelishi kuzatiladigan gapni aniqlang.

A) Donishmandlar yalqovlik muhtojlik eshigi ekanligini uqtirganlar.

B) Tog' etaklari hali ham ko'm- ko'k bo'lib, turli go'zalliklar bilan: sariq va qizg'ish tusdag'i boychechaklar, chuchmomalar, qoshlariga qop-qora o'sma qo'ygan lolalar bilan yasangan edi.

C) Bugungi kunda milliy g'urur tuyg'usi haqida ko'p gapiriladi.

**D) Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vazmin, maroqli gurunglari yo'l tanobini tortar, huvullagan, fayzsiz cho'lning o'lik manzarasiga** bir qadar jonlanish bag'ishlagandek bo'lar edi.

16. Berilgan gaplardan tarkibida ikkita so'z yasovchi, ikkita lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchasi bor bo'lgan fe'l qaysi nisbatda ekanligini aniqlang.

1) Doshqozonga olov yoqilgan, kabobpaz sixlarini qo'raka tergan, boyagi qassob bola allaqachon qo'yni **tinchitgan** edi.

2) Karavot simlari asabiy g'ijirlab ketdi. 3) Shunda to'satdan yuragi tez-tez gursillab ura boshladи. 4) Mustaqillikning zafarli qadami, huzurbaxsh nasimi bilan Andijonning Ko'makay qishlog'i ham o'zgartirildi.

- A) aniq      B) o'zlik      C) majhul      **D) orttirma**

17. Qaysi qatorda quyi tor unlilar fonema vazifasini bajargan?

A) sirop - serob, soliq - solih

B) sudxo'r - sutxo'r, so'kmoq - suqmoq

C) tang - tong, uzuk - uzik, urish - urush

**D) undash - undosh, ana - ona**

18. Ba'zi paytlarda **yoshligimning unutilmas** damlarini esga olaman. Bolalikdagи **o'ynoqi** damlarni eslab quvnayman.

**Meni** o'tloqlarda dumalatgan, chang ko'chalarda **o'ynatgan** damlarni **unutolmay qiyalaman**. Ushbu parchadagi tovush tarkibi o'zgargan so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub?

- A) ot, olmosh      B) fe'l, olmosh

- C) ot, fe'l, sifat, olmosh** D) ot, sifat, ravish

19. **Barcha jabr-u sitamlardan o'tgan, endigina**

**qo'lingdan tutgan, seni avaylab-asrash maqsadida**

**butun vujudi bilan yashayotganlarning orzusisan.**

Ushbu sodda gap tarkibidagi gap bo'laklari haqida berilgan to'g'ri hukm(lar)ni aniqlang.

1) qaratqich aniqlovchi uyushib kelgan; 2) sifatlovchi aniqlovchi otlashgan so'z bilan ifodalangan; 3) to'ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi fonetik o'zgarish asosida yozilgan; 4) qaratqich aniqlovchi otlashgan so'z bilan ifodalangan.

- A) 2    **B) 1, 3, 4**    C) 1, 2, 3    D) 2, 4

20. Navoiy Mehrning beqiyos go'zalligini necha baytda chizib ko'rsatgan?

- A) 5 B) 6 C) 7 **D) 8**

21. Choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yorib qo'ygan qahramon kim va u qaysi asarda uchraydi?

A) «Sariq devni minib» romanidagi Hoshimjon

B) «Yo, Jamshid» hikoyasidagi Islomboy

**C) «Shum bola» qissasidagi Sariboy**

D) «Yo, Jamshid» hikoyasidagi O'rionboy

22. **Jamila ... ga yeb qo'ygudek bo'lib qaradi, unga bir**  
**narsa demoqchi bo'lib og'iz justladi-yu, lekin «Shu ahmoq**  
**bilan aytishib nima obro' topdim», - deb o'yladi.**

- («Jamila», Ch. Aytmatov)** Kim nazarda tutilgan?
- A) Doniyor      **B)** Usmon      C) Sodiq      D) Seit
23. Barqaror birikmalar frazeologizmlar, maqol va matallar, aforizmlar qaysi xususiyatiga ko‘ra tasnif qilinadi?
- A) Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishiga ko‘ra  
 B) tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra  
**C)** ma’no butunligi nuqtayi nazaridan turlichaligiga ko‘ra  
 D) mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltirishiga ko‘ra
24. Barcha nisbat shakllarida qo‘llana oladigan fe’llar ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
- 1) ishlamoq, 2) o‘qimoq, 3) otmoq, 4) turmoq, 5) cho‘zmoq.  
**A)** 3, 5    B) 1, 2, 3, 4, 5    C) 2, 3, 5    D) 1, 3
25. Quyida berilgan so‘zlarning nechтasi o‘zaro omonim asoslarga omonim qo‘shimcha qo‘shilishidan hosil bo‘lgan omonim so‘zlarga misol bo‘la oladi?
- tilini, chekim, terim, oqar, bo‘g‘ma.**
- A) 4 tasi      B) 3 tasi      C) 5 tasi      D) 2 tasi
- 26.
27. Turdi Farog‘iyning «Tor ko‘ngullik beklar...» g‘azalining uchinchi baytida qaysi so‘z bir maromda besh marotaba takrorlangan?
- A) boshB) yaqo**C)** bir    D) yuz
28. Beg oti biling birla bag‘lig‘ turur,  
 Biling «lam»(i) ketsa, beg ati qalur. Ushbu misralar qaysi ijodkor qalamiga mansub, qanday she’riy san’at qo‘llangan?
- A) Yusuf Xos Hojib, tashbeh    B) Ahmad Yugnakiy, tashbeh  
 C) Ahmad Yugnakiy, harfiy san’at    **D)** Yusuf Xos Hojib, harfiy san’at
29. «U kishi, albatta, beraman desalar-ku qo‘llaridan keladi; har qalay katta zakunchining ishtahasini qondiradigan dunyolari bor. Faqat nechoraki, u kishi berib o‘rganmaganlar, olib o‘rganganlar...»  
 Ushbu parchada kim haqida so‘z boryapti va u qaysi asar qahramoni?
- A) Solih maxdum, «Mehrobdan chayon»  
**B)** Eshon bobo, «Kecha va kunduz»  
 C) Mirzakarimboy, “Qutlug‘ qon”  
 D) Akbarali mingboshi, «Kecha va kunduz»
30. Uyushiq aniqlovchining to‘ldiruvchiga tobelanishi kuzatilgan to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gapni ko‘rsating.
- A) Aniqki, ota-on, opa-singillar diliga xiralik solish o‘z diliجا keltiradi.  
**B)** Biroq esda tutish kerakki, haddan tashqari bo‘rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvarlik **millatning, xalqning jipslashuviga** xalaqit beradi.
- C) Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida vatan, yurt ishqisi jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi.  
 D) Kimki ilm urug‘ini sepsa, xalqning, millatning hurmatiga sazovor bo‘ladi.
31. Hamid Olimjon «O‘zbekiston» she’rida Yatanga muhabbat tuyg‘ulari ortida kimlar turganini va farovonlikning aksi bo‘lgan hodisalarni qanday san’at orqali ifodalaydi?
- A) tajnis      **B)** tazod      C) talmeh D) tashbeh
- 32.

33. Vazifadosh ko‘makchi qo‘llangan gapni toping.
- A) Yaxshi kitob muallifning odamzod uchun atalgan tortig‘idir.  
 B) Ilm va dinning mashhur kishilar o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar.  
 C) «Ey farzand, ilm olmoqning fazilatlari ko‘pdirkim, ilm orqali hayoting farog‘atda, yurish- turishing hurmatda bo‘lur».  
**D)** Xudbin odam adolat yuzasidan emas, shaxsiy manfaatlari, injiqligi va xudbinligidan kelib chiqib harakat qiladi.
34. Avval Vataningni yuragingda qur,  
 So‘ng yerga ko‘chirsin uni qo‘llaring.  
 She’riy parchada qaysi so‘z turkumi ishtirot etmagan?
- A) ravish      B) fe’l      C) ot      **D)** sifat
35. **Ulug‘larning aytishicha, tutunsiz o‘tin yo‘q, xatosiz-odam.** Berilgan gap haqidagi to‘g‘ri hukm(-lar)ni aniqlang.
- 1) aytishicha, yo‘q, odam so‘zlari gapda kesim vazifasida kelgan; 2) o‘tin, odam so‘zlari gapda ega vazifasida kelgan; 3) qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap; 4) bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap; 5) fikrning kimga qarashli ekanligini ifodalovchi kiritma ishtirot etgan; 6) kiritma tarkibida otlashgan so‘z mavjud.  
**A)** 2, 4, 5, 6    B) 1, 3, 4, 5, 6    C) 2, 3, 5, 6    D) 1, 2, 3, 5, 6
36. Quyidagi qaysi gap(-lar) tarkibida qo‘llanishiga ko‘ra berilgan boshqa bog‘lovchilardan farq qiluvchi bog‘lovchi(-lar) ishtirot etgan?
- 1) Haqiqat tikanli gulga o‘xshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi. 2) Aql va farosat quyosha o‘xshaydi, beparvolik tufayli tushishi mumkin bo‘lgan dog‘larga o‘rin qoldirmaydi. 3) Mol-u davlatingiz bilan emas, balki ilm-hunaringiz, go‘zal xulq-atvoringiz bilan faxrlaning. 4) Birov odob o‘rgatsa, o‘rganmagan kishi hayvon, ammo uzr so‘rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir. 5) Muallifning Vatan, davlat va jamiat oldidagi mas‘uliyati shu qadar yuksakki, shaxsiy manfaat, mukofot ilinjiga o‘rin qolmasin. 6) Uning goh yig‘lagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostin-ustun qilib qo‘sish aytgisi kelardi.  
**A)** 3, 4    B) 1, 2, 5      **C)** faqat 6      D) faqat 4

## **10-variant**

1. Ishq vodiysidin bir kecha men hay-haylab o'ttum, Monandi nayiston guliga o't qalab o'ttum. Mashrab qalamiga mansub ushbu baytda qanday san'at yetakchilik qiladi?

- A) tazod      B) tanosub      C) tashbeh      D) tajnis  
2.

3. Qaysi gapda ham qo'shma fe'l, ham ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi ishtirok etgan?

- A) Illatga ko'nish qabohatga olib keladi.  
B) Qish uzoq **davom etganligi** uchun bahorning birinchi chechaklari ham ko'z ochishga **chog'lanmayroq turibdi**.  
C) Xaridorlar chumoliday g'imirlashib kirib-chiqib turishardi.

D) Vatan oldidagi, o'tganlar ruhi oldidagi burchingizni yana bir bor eslatib o'tdi.

4. Ko'p yillar avval **nimadandir** qattiq iztirobga tushib, **hech kim** bilan gaplashmay qo'ydim. Bir kuni onam ko'zimga uzoq termilib o'tirib, hech yodimdan chiqmaydigan **shu** so'zlarni aytди: - O'g'lim, **sening** dog'ingda jon-u jahonim otash-alangaga aylanib yonib ketganida **birovlar** etagining uchi ham tutamaydi. **Nega meni** kuydirasan, bolam?!

Onamning o'sha gaplarini eslasam, har gal tomog'imga **bir nima** tiqilib qolaveradi.

Ushbu matndagi olmoshlarning sonini toping.

- A) 8      B) 11      C) 9      D) 10

5. O'zbek atamasining unga qadar ishlatilgan turk, sart, chig'atoj singari atamalarga nisbatan tilimizda barqaror bo'lib qolishi qaysi tarixiy shaxs nomi bilan bog'liq?

- A) Qoraxoniyalar      B) Shayboniyxon

- C) Temuriylar      D) Chingizlar

6. Beliga tilla kamar bog'lagan qalandar qiyofasidagi qahramon qaysi dostonda uchraydi?

- A) "Rustamxon"      B) «Ravshan»

- C) "Kuntug'mish"      D) «Alpomish»

7. **Oshiq o'ldim**, bilmadim, **yor o'zgalarga yor** emish, Ollohollohol, **ishq aro** mundoq balolar bor emish. (Navoiy)  
Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni aniqlang.

- A) tashxis      B) tarse'      C) tanosub      D) tashbeh

8. Raxshi himmat men tutub mahkam **yolin**,

Yor izidin yet, karam qil, deb **yolin**.

Yo'q-u borimni yoqib kul ayladi,

Ishq o'tidin ko'kka chirmoshg'on **yolin**.

Matndagi tagiga chizilgan so'zning ma'nolari ketma-ketligi to'g'ri berilgan qatorni toping.

- A) otning yoli, yalindim, olov

- B) yolqin, yosh bola, yalindim

- C) otning yoli, yosh, yorqin

- D) yoshlik, yolqin, olov

9. "Xalqini ko'rsang agar o'lsasi-yu, qoq-u xarob,

Ochlikdan egilib qomati misli kamalak.

Ajirig' tomirini o'g'urida mayda tuyub,

Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak».

Hapalak qishlog'ining sifatini bergen adib kim?

- A) Amiriyy      B) S. Olloyor

- C) Maximur      D) Huvaydo

10. Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan nechta manba negizida tarkib topgan?

- A) 4      B) 5      C) 6      D) 7

11. Mehr ko'p ko'rguzdum, ammo mehribone topmadim, Jon base qildim fido, oromijone topmadim.

Baytda qo'llangan she'riy san'at turlarini aniqlang.

- A) mubolag'a, tarse'      B) ishtiqoq, tazod

C) husni ta'lil, tazod      D) tashxis, tardi aks, istiora  
12. ... (1) fors-tojik tilida yozilgan. Adib ayni shu g'oyalarni turkiy tilda yoritish zaruratini sezganligi uchun ham asarni ... (2) nomi bilan boshqatdan yaratadi.

Berilgan parcha So'fi Olloyorning qaysi asarlari haqida?

- A) 1 - «Maslak ul-muttaqiyin», 2 - "Sabot ul-ojizin"

- B) 1 - «Maxzan ul-muteyin», 2 - "Maslak ul-muttaqiyin"

- C) 1 - «Murod ul-orifin», 2 - «Sabot ul-ojizin»

- D) 1 - «Maxzan ul-muteyin», 2 - «Murod ul-orifin»

13. Biringiz boqisiz, biringiz - balki puch,

Biringiz shodliksiz, biringiz - o'kinch,

Biringiz baxtlisiz, biringiz - baxtsiz.

Biringiz yarador, o'lgansiz vaqt siz.

Berilgan she'riy parchada -siz so'z yasovchi qo'shimchasi necha o'rinda qo'llangan?

- A) 3      B) 2      C) 4      D) 5

14. «Farhod va Shirin» dostonida qaysi yurt qadimdan ajdodlarimiz tomonidan donishlik, san'at, naqsh va nafosat o'lkasi sifatida qabul qilingan va e'tirof etilgan?

- A) Arman      B) Yaman      C) Eron      D) Chin

15. Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh, Siringni fosh etma, **kerak bo'lsa bosh**.

Berilgan parchada **faqat** ega va kesimdan tashkil topgan nechta gap ishtirok etgan?

- A) bunday gap ishtirok etmagan

- B) 2 ta      C) 1 ta      D) 3 ta

16. Quyidagi gaplardan qaysilarida fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z yasovchi morfema qatnashgan?

1) Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi. 2) Butun xalqning **istagi** shu - tinchlik. 3) Dangasa va yalqovlar hech qachon **sanoqda** bo'lmaydi. 4) Hayajonlanganimdan tanamning **og'rig'ini** ham sezmabman.

- A) 2, 3, 4      B) 1, 2, 3, 4      C) 1, 3, 4      D) 1, 2

17. Nutqda jarangli undoshlarning jarangsizlashishi natijasida yuzaga keladigan omofonlar qatnashgan gapni toping.

- A) Erkin yettiga yetdi. B) Tursun tomda tursin.

- C) Guvoh sudga ketdi, qo'shni sutga ketdi. D) A, C

18. Birinchi qismida faqat tor unli, ikkinchi qismida faqat keng unli qatnashgan qo'shma otmi toping.

- A) xushovoz      B) huzur-halovat

- C) ildizpoya      D) shirinsuxan

19. Keyingi ma'lumotlarga binoan u endi poytaxtga kelmoqqa jazm qilgan.

Berilgan gapda ishtirok etgan so'z turkumlari va ularning tartibi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) sifat, ot, ko'makchi, olmosh, ravish, fe'l, fe'l

- B) ravish, ot, modal so'z, olmosh, ravish, ot, fe'l, fe'l

- C) modal so'z, ot, ko'makchi, olmosh, ravish, ot, fe'l, ot, fe'l

- D) sifat, ot, ko'makchi, olmosh, ravish, ot, fe'l, fe'l

20. Abdulla Oripov o'zining «Sarob» she'rida bu kun Toshkent ko'chalarida nimani izlayman deb yozadi?

- A) she'r      B) yoshlik      C) mehr-oqibat D) sarob

21. **Ikkinci bo'g'inning birinchi tovushi shovqinlilar guruhi** mansub. Ushbu izohga mos keladigan so'zni toping.

- A) taroq      B) fojia      C) yangi      D) shamol

22. «Nafohot ul-uns» asarining muallifi kim?

- A) N. Kubro      B) A. Navoiy

- C) A. Jomiy      D) A. Yassaviy

23. guloroy, gulbang so'zlarining ma'nolari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) gul bilan bezangan, yoqimli ovoz  
B) gul to'kuvchi, gul yopingan, qip-qizil gulday kiyungan  
C) bulbul ovozi, majozan quyosh nurlari  
D) gul to'kuvchi, yoqimli ovoz

24. Odamning kuchli quroli **aql va zakovat hisoblanadi.**

Olamning cheksiz sirlarini **bilish**, inson ehtiyojlarini **qondirish** hech qanday kuch tenglasha olmaydigan aqlni talab qiladi. Ushbu parchada qaysi gap bo'laklari uyushib kelgan?

- A) ega, to'ldiruvchi, hol B) ega, ega, to'ldiruvchi  
C) ega, ega, hol D) kesim, ega

25. Berilgan gap haqida to'g'ri ma'lumot keltirilgan javobni toping. **Bu olim riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan.**

- A) 3 ta aniqlovchili, 1 ta to'ldiruvchili, 1 ta holli birikma mavjud  
B) 4 ta aniqlovchili, 1 ta to'ldiruvchili, 1 ta holli birikma mavjud  
C) 5 ta aniqlovchili, 1 ta to'ldiruvchili birikma mavjud  
D) 4 ta aniqlovchili, 1 ta to'ldiruvchili birikma mavjud  
26. Tasavvuf adabiyotida komil inson timsoli sifatida qaysi istiloh ishlatilgan?

- A) may B) ko'z C) jom D) lab

27. «Men ... ko'chasida To'xtab turdim hayajonli. Xiyobonning chekkasida Ko'rdim Hamid Olimjonni», - deb shoirni kim va qayerda ko'rishganini aytadi?

- A) M. Shayxzoda, Salomobod  
B) Mirtemir, Chotqol  
C) M. Shayxzoda, Lohutiy  
D) Oybek, Samarcand darvoza

28. Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasida uloqning boshlanishini kutayotganlar "...ular kelsa, uloq qizimay qolmas" deb kimlarni nazarda tutishadi?

- A) Mahkam va Turg'un chavandozni  
B) Salim va Murod chavandozni

- C) Orif sarkor va Esonboy chavandozni  
D) Nurxon, Haydar Shokir chavandozni

29. Kimyoviy tolalardan to'qilgan matolar dazmullanayotganda dazmol qattiq qizdirilmasligi kerak. Ushbu gap haqidagi fikrlarning nechta xato?

1) gapda 3 ta yasama so'z ishtirok etgan; 2) kesimi murakkab ot kesim; 3) 2 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan; 4) 1 ta tub, 1 ta yasama sifat ishtirok etgan; 5) egasi nomalum gap.

- A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

30. "Mutlaq oqil" zotga sig'ingan ma'nosini beruvchi so'zni belgilang.

- A) Mitra B) Visprad  
C) Mustahiq D) Mazdayasna

31. Tishlarimni ko'rmak istasang,

Tushlaringni marvaridga ayt,

Gar o'zimni ko'rmak istasang,

Yovni yengib, tezroq qayt.

Ushbu parchadagi fonema(-lar)ni aniqlang.

- A) i, u, q B) t, k, y C) sh, k, t D)  
a, i, o'

32. Berilgan qaysi g'azallarda Sulaymon payg'ambar nomi keltirilib, talmeh san'ati yaratilgan?

- A) Ogahiyning «Ustina» radifli g'azali va Nodiraning «Kel, dahrni imtihon etib ket» matla'li g'azalida

B) Ogahiyning «Ustina» radifli g'azali va Navoiyning "Qilg'il" radifli g'azalida

- C) Ogahiyning «Ustina» radifli g'azali va Nodiraning "Vasl uyin obod etdim, buzdi hijron oqibat" matla'li g'azalida  
D) Nodiraning «Vasl uyin obod etdim, buzdi hijron oqibat» va "Kel, dahrni imtihon etib ket" matla'li g'azallarida  
33. To'g'ri javoblarni ajrating.

- 1) Xorazmda birinch bosmaxona Komil Xorazmiy nomi bilan bog'liq; 2) Komil Xorazmiy Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib toshbosmaxona tashkil qiladi; 3) Feruz Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib toshbosmaxona tashkil qiladi; 4) Feruz Markaziy Osiyoda fotografiya ishlarini yo'lga qo'yishda bosh-qosh bo'ladi; 5) Furqat o'zbek publisistikasining asoschilaridan biridir; 6) Furqat Toshkentga borib ilm-fan, texnika va san'atdagi yangiliklarni ko'radi.

- A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 4, 5, 6  
C) 2, 3 D) 1, 3, 4, 5, 6

34. "Garchand, frontda muntazam ijod etolmagan bo'lsam ham, qachonlardir bu sevimli hunarimga qaytish ishtiyogi bir lahma ham xayolimdan ketgani yo'q. Ba'zan zav-shavqimni yoki dushmanga nafratimni qog'ozga tushirib qo'yar edim".

Kimning hayoti va ijodiga tegishli?

- A) M. Jalil B) Shuhrat  
C) E. Vohidov D) O. Yoqubov

35. Yo'liqmaslik. Ushbu so'z qaysi qatorda asos va qo'shimchalarga to'g'ri ajratilgan?

- A) Yo'l-iq-maslik B) Yo'l-iq-maslik  
C) Yo'liq-mas-lik D) Yo'liq-maslik

36. Berilgan gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar miqdorini aniqlang.

Do'stlik g'alabaga yangi mazmun baxsh etadi, u ko'maklashganda barcha omadsizliklar barham topadi.

- A) 6 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 4 ta

### 11-variant

1. «G'azallari sho'fangiz (olamga g'avg'o soluvchi, ya'ni ushida kuchli his va hayajon iyg'otuvchi), baytlari lutfomiz (lutfga boy)».

Abdurahmon Jomiy haqida aytilan ushbu fikr quyidagi qaysi asarda keltirilgan?

- A) «Nasoyim ul-muhabbat»da  
B) «Habib us-siyar»da

- C) «Risola»da

- D) «Makorim ul-axloq»da

2. «Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning asoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim» Ushbu keltirilgan nutq qaysi qahramonga tegishli?

- A) "Ulug'bek xazinasi" romanida Mirzo Ulug'bekka

- B) «Sohibqiron» dramasida Amir Temurga

- C) «Abulfayzxon» dramasida Abulfayzxonga

- D) «O'tkan kunlar» romanida Yusufbek hojiga

3. Bolalikdan boshlangan do'stlik insonning keyingi ulg'aygan va kamolga erishgan davrida ortitirgan barcha do'stlari orasida alohida ahamiyatga ega. Gapdag'i fe'lning vazifa shakllaridan nechta tarkibida nisbat qo'shimchalarini mayjud?

- A) 3 B) 1 C) 4 D) 2

4. 1) Butun dunyoga ma'lumki, siz ham unutmangki, Orolni saqlab qolish hammamizing burchimiz. 2) Kimning qalbi pok bo'lsa, uning ishlari o'z-o'zidan yurishib ketaveradi, hamma unga madadkor bo'ladi. 3) Kimki umid bilan daraxt

o'tqazsa, olqish-u rahmatlarga sazovor bo'ladi, bir kuni kelib bu daraxt unga shig'il meva beradi. 4) Kimki ota-onasini hurmat qilsa, u boshqalardan izzat topadi, el orasida yaxshi deb nom qozonadi. Ushbu bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplarning nechtasida ergash gap bosh gaplarning turli bo'laklarini izohlagan?

- A) 1 tasida    B) 2 tasida    C) 3 tasida    D) 4 tasida  
5. Tabiatdagi insondan tashqarida paydo bo'lgan barcha tovushlar qanday tovushlar sanaladi?

- A) tarixiy    B) tabiiy    C) mexanik    D)  
vazifaviy  
6.

7. Najmuddin Kubroning yaqin shogirdlaridan bo'lib, «Sulton ul-ulamo» darajasiga erishgan kim?

- A) Bahouddin Valad    B) Jaloliddin Rumi  
C) Najmuddin Komil    D) Nizomiy Aruziy

8. «Davlat tili haqida»gi Qonunning nechanchi moddasida «Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrлari, tamg'alar, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida amalga oshiriladi» deb yozib qo'yilgan?

- A) 2-moddada    B) 10-moddada  
C) 14-moddada    D) 19-moddada

9. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir // tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz. // belgisi o'rniqa qo'yiladigan tinish belgisini aniqlang.

- A) tire    B) vergul    C) ikki nuqta D) nuqtali vergul  
10. Meniki-seniki deb tortishib, necha marta **burni** qonadi hamki, **og'zini tiyolmasdi**. Ushbu gapda nechta o'rinda tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

- A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta (7 ta)

11. Bobur qaysi g'azalida «radd ul-matla» she'riy san'atidan foydalangan?

- A) «Mening ko'nglumki...»    B) «Yaxshilig»  
C) «Xazon yafrog'i yanglig'...» D) «Topilmas»

12. Qaysi javobdagi gaplarda chaqmoq fe'li bir so'zning turli ma'nolari sifatida qatnashgan?

- A) Iboralarning ma'nolari ko'p, har birini chaqish kerak. U yong'og'ini chaqish uchun tosh qidirib ketdi.  
B) O'zi yoqadi, puli chaqadi. Osmon gumburlab, chaqmoq chaqdi.

C) Odamlarni gapi bilan chaqib oladi-ya. Shu payt osmonda yashin chaqdi.  
D) Hamma narsani pulga chaqish yaxshi emas, do'stim. Bu meni ko'rsa bir gap bilan chaqaman deydi.

13. Rasmiy uslub haqidagi noto'g'ri fikrni toping.

- A) Bu uslubda matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs

majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalanganadi.

B) Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatic xususiyatlari mavjud.

- C) Buyruqda faqat da'vat etish o'z aksini topgan bo'ladi.

D) Ma'lumotnomada birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

14. 1) Bek istar-istamas chiqib, yumshoq o'rindiqqa o'tirdi. Bu **yumshoq muomala** davradagilarni o'ziga qaratdi. 2)

Tog'ning ko'rg'i - tosh bilan, **odamning ko'rg'i - bosh bilan**.

Yarim toshdan mo'lroq yo'l yurildi hamki, bekat

ko'rinxaydi. 3) Mol olasi tashda, **odam olasi ichda**. Ko'chat ola **chiqsa**, kimga foya, kimga ziyon. 4) Uning **matematikadan dumi** bor. Bir kuni paxta chopib tursam, bitta qovun «meni ye!» deb **dum berib** turibdi. 5) Butun oilasi bu yerga pomidor, piyoz, rediska, karam va boshqa sabzavotlar ekishdi. **Tangrining karamiga** sig'inib, ularni Astroboqda jo'natdim. 6) Chapga burilib chap ko'zi - **shisha**

ko'zini olib, ro'molchasi bilan artdi. O'qlardan biri chiroq shishasini sindirdi. 7) Sen gapirganda hamma jim o'tirgan edi, kimdir **luqma tashladi**. Javob berishi lozimligini bilgan Usmon og'zidagi luqmani tez-tez yutib oldi. Qaysi gap juftliklarida ko'p ma'noli so'zlar qo'llangan?

- A) 1, 3, 4, 6    B) 2, 3, 4, 5    C) 2, 5, 7    D) 1, 2, 5, 7

15. Mirtemirning boshdan oyoq ohanglari almashinib turadigan she'rini belgilang.

- A) «Toshbu»    B) «Betobligimda»

C) «Onaginam» D) «Bulut»

16. Navoiy qaysi g'azalining to'rtinchı baytida radifga olingan so'zda balog'at usulini yuzaga keltirgan?

- A) «Ko'rgali husningni zor-u mutbalo bo'ldum sanga»

B) «Kecha kelgumdur debon, ul sarvi gulro' kelmadi»

- C) «Yordin ayru ko'ngul mulkidurur sultoni yo'q»

D) «Qaro ko'zum, kel-u mardumlug' emdi fan qilg'il»

17. Qaysi qatorda fonema so'z turkumini o'zgartirmagan?

- A) sirop - serob, soliq - solih

B) sudxo'r - sutxo'r, so'kmoq - suqmoq

- C) tang - tong, uzuk - uzik, urish - urush

D) undash - undosh, ana - ona

18. - Tozining terisini mening **dandon** sopli pichog'imda shilasanlarmi? (G'. G'ulom)

Tagiga chizilgan so'z ma'nosи qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) fil tishi    B) kiyik shoxi

C) qimmatbaho tosh    D) to'g'ri javob yo'q

19. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida shart munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi. Berilgan qoidaga quyidagi maqollardan qaysi biri mos keladi?

A) Nodonga ishora - donoga kaltak.

B) Vataning tinch - sen tinch.

C) Aytilgan so'z - otilgan o'q.

D) Suv keldi - nur keldi.

20. «Vatan, istiqlol, ma'naviyat... Bu so'zlar inson ongidagi eng buyuk tushunchalarni ifodalovchi purhikmat so'zlardir. Agar insonda shu so'zlarining birontasi yo'q bo'lsa, hayotning qayeridir kemtik bo'lib turaveradi».

Ushbu matn qaysi uslubga xos?

- A) Badiiy    B) Rasmiy

C) Publisistik    D) So'zlashuv

21. Sraosha - ....

A) Kuch-qudrat, baxt-saodat ramzi

B) namoz ishlarining noziri, odamlarga qabohat bilan kurashishlarida madad beradigan ma'bud

C) adolat va qonun-qoidalar farishtasi. Narigi dunyoda so'roq chog'ida gunoh va savoblarni o'z tarozisida o'lchaydigan zot

D) Avestoda mazda dini peshvosi

22. Qaysi gapdagi barcha yasama so'zlarining yetakchi morfemalari bir xil so'z turkumiga kirmaydi?

- A) Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar.

B) Do'stlik barcha boylikdan afzal.

C) Aysiz do'st axtargan do'stsiz qolar.

D) O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir.

23. «Qo'yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo'q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdin yovuzroq yo'q». Parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Sulaymon va chumoli»    B) «Zarbulmasal»

C) «Luqmon va uning xojasи» D) «Ilon va qarlung'och»

24. Biringiz boqisiz, biringiz - balki puch,

Biringiz shodliksiz, biringiz - o'kinch,

Biringiz baxt**lisiz**, biringiz - baxts**siz**.

Biringiz yarador, o'lgansiz vaqtsiz.

Berilgan she'riy parchada sifat yasovchi qo'shimchalar necha o'rinda qo'llangan?

A) 6    B) 3    C) 4    D) 5

25. Eng buyuk jihod insonning nafsi bilan - shayton bilan qilgan jihoddir. Sen ham doim ularga qarshi kurash.

Berilgan misol tarkibida nechta sintagma (takt), so'z, bo'g'in va tovushlar borligini aniqlang.

A) 6 ta sintagma, 16 ta so'z, 33 ta bo'g'in, 82 ta tovush

**B)** 7 ta sintagma, 16 ta so'z, 33 ta bo'g'in, 82 ta tovush

C) 8 ta sintagma, 16 ta so'z, 32 ta bo'g'in, 84 ta tovush

D) 9 ta sintagma, 16 ta so'z, 31 ta bo'g'in, 80 ta tovush

26. Til **shirinligi** - ko'ngilga yoqimli, **yumshoqligi** foydali;

**Chuchuk til achchiqlikka** aylansa, zarari umumiy bo'lur.

Berilgan parchadan fonetik o'zgarish asosida yozilgan yasama so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.

A) ega, to'ldiruvchi, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi

B) ega, kesim, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi

**C)** ega, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi

D) ega, ega, to'ldiruvchi

27. Qaysi ravish yasovchi qo'shimchalar shakldoshlik

xususiyatiga ega qo'shimchalar sanaladi?

**1)** -lab; **2)** -larcha; **3)** -lay; **4)** -siz; **5)** -chasiga; **6)** -ligicha.

**A)** 1, 2, 4    B) 1, 2, 3, 4, 6    C) 1, 2, 5    D) 1, 2, 6

28. Shoir Faxriyorning ikkitagina so'zdan iborat she'ri

qaysi javobda berilgan?

**A)** oy bolta    B) oq va qora    C) tush va yo'l    D) gul tikan

29. **1) Halol ish - lazzatli yemish.** **2) Vaqting ketdi -**

**baxting ketdi.** **3) Erga navbat - sherga navbat.** **4) Bilim -**

**kuchda, kuch - bilimda.** **5) Olamni quyosh yoritadi,**

**insonni - ilm.** **6) Ilm - yorug'lik, jaholat - zulmat.** **7) -**

**Tinchlik, - dedi Samandarov.** **8) O'zbek, qirg'iz, qozoq,**

**sturkman, tojik - barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.**

**9) Mard bir o'lar, nomard - ming.**    **10) Biz - yoshlar -**

**millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz.**

Ushbu gaplarning nechtasida tire ega va kesim o'rtasida

qo'yilmagan?

**A) 5 tasida    B) 6 tasida    C) 3 tasida    D) 4 tasida**

30. Bolalar quvonchli xabarni mahalladoshlariga **yetkazish uchun yugurishib** Usmonlarning **uyi tomon jo'nashdi.**

Ushbu gapda nechta holli so'z birikmasi tarkibida omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan morfema qatnashgan?

**A) 3 ta B) 2 ta C) 4 ta D) 1 ta**

31. Biz - yoshlar - yurtimiz kelajagimiz. Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri hukmlarni toping.

**1)** gapda ajratilgan bo'lak qatnashgan; **2)** gapda uyushiq bo'lak qatnashgan; **3)** qaratqich aniqlovchi kesimga

tobelangan; **4)** aniqlovchi va kesim tarkibida o'zaro shakldosh qo'shimchalar ishtirok etgan; **5)** aniqlovchi va kesim tarkibida egalik qo'shimchasi qatnashgan.

**A) 1, 3, 4    B) 2, 3, 4    C) 1, 3, 4, 5    D) 1, 3, 5**

32. Ma'no ko'chishining qaysi turi fikrimizni lo'nda, ifodali, ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi?

**A) metonimiya    B) sinekdoxa**

**C) metafora    D) vazifadoshlik**

33. Turdi Farog'iy «Tor ko'ngullik beklar...» g'azalida o'zidan kechib maydotalab bo'lomaydigan, ammo turli gap va ig'volar bilan el orasini buzadigan kimsalarni nimaga o'xshatadi?

**A) satang ayollarga    B) ko'chmanchi qabilaga**

**C) omonat binoga    D) quyon va tulkilarga**

34. Hans Kristian Andersen ertaklarini kim o'zbek tiliga

mahorat bilan o'girgan?

**A) Usmon Qo'chqor    B) Tog'ay Murod**

**C) Maqsud Shayxzoda    D) Mirkarim Osim**

35. **Hoziroq onangdan kechirim so'ra. Kechirsa-ku yaxshi, kechirmasa yalinib ko'r-da.** Berilgan gaplar tarkibida so'z turkumlarining nechta turi ishtirok etganini va yuklamalar sonini aniqlang.

**A) 5 ta so'z turkumi, 4 ta yuklama**

**B) 6 ta so'z turkumi, 3 ta yuklama**

**C) 6 ta so'z turkumi, 4 ta yuklama**

**D) 5 ta so'z turkumi, 3 ta yuklama**

36. O'zi dumaloq, to'ni ko'k, belbog'i qizil, do'ppisi oq. Topishmoqning javobi tarkibidagi oxirgi tovushning juftini toping.

**A) p    B) d    C) z    D) k**

## 12-variant

1. Bu odamlarni na issiq, na suvsizlik yenga oladi, balki ular o'z jasoratlari, mehnatlari bilan tabiatni zabt etadilar. Gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalar sonini aniqlang.

**A) 2 B) 5 C) 4 D) 3**

2. Quyidagilardan tobe qismi yasama so'zga bog'langan bitishuvli so'z birikmalarini belgilang.

**1)** birdan yig'lab yubordi; **2)** ilk tomchilar; **3)** issiqqa quymoqlar; **4)** mazali qaymoq; **5)** otdek baquvvat; **6)** og'ir xo'rsinmoq.

**A) 3, 4, 5, 6    B) 1, 2, 5, 6    C) 1, 2, 3, 5    D) 2, 3, 4**

3. Oqqo'rg'on, makkajo'xori, bodomnusxa, izzattalab, tinchliksevar. Berilgan so'zlardan qator undoshli so'zlar sonini uniqlang.

**A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta**

4. Alisher Navoiy nimani jon degan, ammo shunday jonki, oddiy jonlar unga jasad sanaladi, deb ifrot darajasiga chiqarib, mubolag'a qilgan?

**A) hilmi    B) tilni C) tabassumni **D) so'zni****

5. **Odamlar kasal bo'laveribdi, ulardan qanchasi o'laveribdi-yu, sen bu dorilarni bosib yotaveribsan-da, noinsof!** Ushbu gap haqida berilgan hukmlarning qaysi biri notog'ri hukm sanaladi?

**A) tarkibida vazifadosh yuklama qatnashgan bog'langan qo'shma gap**

**B) tarkibida yuklama qatnashgan aralash murakkab qo'shma gap**

**C) tarkibida vazifadosh bog'lovchi qatnashgan aralash murakkab qo'shma gap**

**D) tarkibida undalma qatnashgan aralash murakkab qo'shma gap**

6. Movarounnaharda birinchi bo'lib hadislarni jamlagan muhaddis kim?

**A) Al-Buxoriy B) At-Termizi**

**C) Al-Marvazi    D) Xalifa Umar**

7. **Aytilmagan bir qo'shiqsan, Jayxundirsan, Sayxundirsan, Sen-da Sug'dsan, Sen-da Shoshsan, Ko'hna Turon - ona tilim.**

Ushbu matnda qo'llanilishi lozim bo'lgan urg'ular haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

**A) 1-, 2-, 3-misradagi barcha so'zlarda urg'u birinchi bo'ginga tushgan.**

**B) 1-, 2-, 3-misradagi barcha so'zlarda urg'u oxirgi bo'ginga tushgan.**

**C) faqat 3-misradagi barcha so'zlarda urg'u birinchi bo'ginga tushgan.**

**D) 2- va 3-misradagi barcha so'zlarda urg'u birinchi bo'ginga tushgan.**

8. Berilgan so‘zlardan qaysi birining tarkibi o‘zbek tilida asosga qo‘sishimcha qo’shilganda boshqasiga almashishi mumkin bo’lgan tovushlardangina iborat?
- A) choy                    B) *qora* C) karam D) ilon
9. Alisher Navoiy o‘zining qaysi g‘azalida boshdan oxir qiyos usulidan foydalanib, uning zamirida ajib bir badiiy go‘zallik, ayricha zavq-shavqni tarannum etadi?
- A) «Deyin» radifli g‘azalida  
B) «Kelmadi» radifli g‘azalida  
C) «Bo‘ldum sanga» radifli g‘azalida  
D) “Qilg‘il” radifli g‘azalida
10. Tarkibida 4 ta ko‘makchi morfema qatnashgan so‘z berilgan qatorni toping.
- A) Uzoqdan otliqlarning - Alisher va uning hamrohlarining qorasi ko‘rindi.  
B) Kishilarning huquqiy bilimi yuksalsa, har kim o‘z haq-huquqini ongli ravishda bilsa, himoya qila olsa, jamiyatda demokratiya rivojlanadi.  
C) Yosh-qari, erkak-ayol aralash- quralash bo‘lib ko‘cha boshida **to‘planishdi**.  
D) Musavvirning bo‘yog‘ida hayot chiziqlari aniq ifodalangan edi.
11. «Bolaning ko‘ngli podsho» hikoyasida kimning “Ah, shirin handalak” degan maqtovidan keyin “poq-poq” o‘ynab o‘tirgan Muso Mirahmad otaning uyiga otilib kirib ketadi?
- A) Qosim cho‘loq            B) Ahmad  
C) A’zam                    D) Turg‘un
12. Quyidagi fe’llarning qaysi turlarini qo’shib yozish mumkin?
- A) a tovushi bilan tugagan fe’lga o unlisi bilan boshlanuvchi ko‘makchi fe’l qo’shilsa  
B) ko‘makchi fe’l oxiridagi b tovushi v kabi talaffuz qilinsa  
C) qo’shma fe’llar ikkita fe’ldan iborat bo’lsa  
D) A, B
13. “Turk zuhurudir ajunda bu kun, boshla ulug’ yir bila tarkona un». **Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?**
- A) H. Xorazmiy            B) Xorazmiy            C) Gadoiy            D) Durbek
14. 1) So‘zni ko‘nguldan chiqarmaguncha tilga keltirma va har nekim ko‘ngulda bor - tilga urma. 2) Bilim, ma’rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatilmogi lozim. 3) Bilim qaytarish va tahrorlash mevasidir. 4) Ilm qog’ozga chizish va yozish bilan emas, balki uqmoq va o’qimoq bilandir. Ushbu fikrlarning mualliflarini aniqlang.
- a) Navoiy; b) Abu Nasr Forobi; c) Abu Rayhon Beruniy; d) Zamashshariy.
- A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d      B) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a  
C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d      D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b
15. «Puankare» hikoyasining muallifi kim?
- A) Zulfiya Qurolboy qizi      B) A. A’zam  
C) A. Yo‘ldoshev              D) J. Ergasheva
16. Bog‘langan qo’shma gaplarda qaysi bog‘lovchilardan oldin nuqta qo‘yilishi mumkin?
- A) biriktiruvchi bog‘lovchilardan  
B) zidlovchi bog‘lovchilardan  
C) ayiruvchi bog‘lovchilar  
D) inkor bog‘lovchilardan
17. *Mudir xalatinining tugmalarini yechib yuborgan, ingichka bo‘ynidagi guldar galstugining bog‘ichini bo‘shatib qo‘ygan*, tez yurib kelganidan bo’lsa kerak, yonoqlari *turtib chiqqan*, yuzi *qizarib ketgan* edi. Matnda nechta ko‘makchi fe’l ishtirok etgan?
- A) 2      B) 3      C) 4      D) ko‘makchi fe’l qatnashmagan
18. Bu o’lkada iqlim o‘rtacha, suv mo‘l, yer unumli, quyosh nuri yetarli. Ushbu gapdagisi bitishuv munosabatlari so‘z birikmasining hokim qismi qaysi so‘z turkum(lar) bilan ifodalangan?
- A) ot, ot                    B) ot, ravish, ot  
C) ot, sifat, ot            D) ot
19. Bu falokatga *yo‘liqqan* odamning jon a**chchig‘idagi qichqirig‘i** edi, ammo Bill *qayrilib* ham qaramadi. (Jek London). Ushbu gapda nechta so‘z fonetik o‘zgarish asosida yozilgan?
- A) 3 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 2 ta
20. **Bobom hassasiga suyanib, o’pkasini tutolmay, ho‘ng-ho‘ng yig‘laydi. Men bo‘zarib, bo‘ynimni egib qolaman. Menga hamma yoq bo‘m-bo‘sh, sovuq tuyuladi...** (O) Berilgan parcha haqidagi noto‘g‘ri hukmlari belgilang.
- 1) tovush o‘zgarishlarining ikki turi qatnashgan; 2) sodda yasama so‘zlar soni ikkita; 3) berilgan barcha gaplarda uyushgan hol mavjud; 4) hol vazifasida kelgan takroriy so‘zlar tarkibida o‘rniga ko‘ra undoshlarining barcha turi ishtirok etgan; 5) bir o‘rinda ko‘makchi fe’lli so‘z qo’shilmasining yetakchi qismi ibora bilan ifodalangan; 6) kesimga bilvosita bog‘langan 2 ta vositali to‘ldiruvchi mavjud; 7) shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan 2 ta fe’l yasovchi qo‘sishimcha mavjud.
- A) 2, 4, 5, 6      B) 1, 3, 7      C) 2, 4, 5, 6, 7      D) 1, 3, 4
21. Imlosiga ko‘ra xato yozilgan so‘zni toping.
- A) slavyan      B) fortepiano      C) premyera      D) sellofan
22. Qaysi gapda bo‘lishsizlik qo‘sishchasi ko‘makchi fe’l tarkibida kelgan?
- A) Inson sirliligicha qolaveradi, ammo odamzod bir-birini anglab yetmaguncha, olam tinch bo‘lmaydi.  
B) Bu shunchaki bir hikoyat va yo rivoyat, yoxud tiriklik ko‘yida aytildi.  
C) Bo‘lmasa ishq ikki jahon bo‘lmasin, ikki jahon demaki jon bo‘lmasin.  
D) Odam o‘zidan ketmasligi kerak.
23. Qaysi asarda tonug‘luq, dalil; aql, xirad; pand, nasihat, o‘git singari sinonimlardan o‘rinli foydalaniilgan?
- A) «Hibat ul-haqoyiq»      B) «Devonu lug‘ot it-turk»  
C) «Gulistonni bit-turkiy»      D) «Yatimat ad-dahr»
24. Bu manhus toj-u taxt... bu saltanat... insonlar ustidan hokimlik qilmoq **istagi shunday** shirin ekanki, uning niyati **pokligiga** kim ishonadi... Ushbu gapda fonetik o‘zgarish asosida yozilgan so‘zlarda ishtirok etgan til undoshlar haqida berilgan to‘g‘ri hukmni toping.
- A) sirg‘aluvchi undoshlarining soni 4 ta  
B) jarangli sirg‘aluvchi undoshlar soni 3 ta  
C) jarangli undoshlar yetakchi va ko‘makchi morfema tarkibida qo’llangan  
D) portlovchi undoshlar soni 8 ta.
25. Muniso, to‘kmay yigirma yetti yosh (1), Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh (2), Yosh kibi mashg‘ulliq qilmoq nedur, (3) Har qachonkim suhbatingg‘a yetti yosh (4). Ushbu she’rdagi raqamlangan so‘zlardan qaysi(lar) sifat turkumiga mansub?
- A) 1, 2, 3      B) 1, 3 C) 1, 2 D) faqat 3
26. Quyida berilgan nechta gapda paronimlarni qo’llash bilan bog‘liq xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan?
- 1) Jayron tog‘dan tog‘ga o‘tib, qayerga borishini bilmadi.  
2) Mahsulot o‘ramiga yaroqlilik muddati yozib qo‘yilgan. 3)

Shiroq **xiyla** bilan dushmanni mag'lub qildi. 4) Quyosh hamal yulduzlar **burchiga** o'tishi bilan kunlar isiy boshladi.

A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 1 ta

27. "Bo'lmas edi ikki oning bir so'zi".

Ushbu xususiyat qaysi asardagi shohga tegishli?

A) «Dahshat» Dodxo Olimbek

B) "Kuntug'mish" Buvraxon

C) «Yusuf va Zulayho» Taymus shoh

D) «Abulfayzxon» Abulfayzxon

28. Bu yerda tayyorlanayotgan turli-tuman shirin milliy taomlar, qulay shart-sharoitlar va yuqori darajada ko'rsatilayotgan xizmatimiz sizga manzur bo'lismiga ishonchning komil bo'lsin. Ushbu gapdag'i so'z yasovchilar sonini toping.

A) 4 ta B) 3 ta C) 5 ta D) 6 ta

29. Nihoyat, shakli dutorga o'xshagan bir nima yasadi.

Keyin unga **ot qilidan** qilingan tor tortdi va barmoqlari bilan asta chertib ko'rdi. Yana chertdi... Yana... Shu kuni ohang tug'ildi. Bola uchun yangi, ohangli bir olam paydo bo'ldi.

Ushbu parchada qo'llangan ot turkumiga mansub so'zlar necha o'rinda ot turkumiga nisbatan tobe bo'lak vazifasini bajargan?

A) 4 o'rinda B) 1 o'rinda C) 2 o'rinda D) 3 o'rinda

30. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasi bir mayin.

Kel, **oppog'im**, kel, erkam, men **seni** allayin.

**Dudog'ing** guldan xushbo'y, yuzlaring **undan** xushro'y,

Kel, **oppog'im**, **bag'rimga** jajji boshginangni qo'y. (S. Zunnunova)

She'riy parchada fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar tarkibida sirg'aluvchi tovushlar necha o'rinda ishtirok etgan?

A) 5 B) 6 C) 7 D) 8

31. Sirli ishlarga uquvi yo'q qahramon kim?

A) Hoshimjon («Sariq devni minib» romanı)

B) Tursunboy («Ufq» romanı)

C) Anvar ("Mehrobdan chayon" romanı)

D) Ali Qushchi ("Ulug'bek xazinasi" romanı)

32. Bu bog'da qushlarning chug'ur-chug'uri **eshitilmasdi**.

Ushbu gapda nechta so'z tobe bo'lak vazifasini bajara olmaydi?

A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 1 ta

33. Qaysi adib "men Pushkinning ko'p she'rlarini yoddan bilardim va ularni o'z o'rtoqlarimga o'qib berardim", - deb aytadi?

A) H. Olimjon B) A. Qahhor C) M. Yusuf D) Oybek

34. Boshni fido ayla ato boshig'a,

Jismni qil sadqa ano qoshig'a.

Tun-kuningga aylagali nur fosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh.

Berilgan misralarda qanday she'riy san'at qo'llangan?

A) tanosib B) tajnis C) takrir D) tarse'

35. «Kichik-kichik, tushunib bo'lmaydigan qora harflar, yelkalarida "i", «o», va «r» harflarining belgilarini ko'tarib, go'yo sirli bir olamning darvozasi oldidagi qorovullarday yonma- yon turardilar...»

Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

A) «Hayrat ul-abror», Navoiy

B) "Nur va soyalar" Robindranath Thokur

C) «Zarbulmasal», Gulxaniy D) "Nasihatlar", Abay

36. Qaysi adib o'z adabiy qahramoniga qo'shilib og'ir-og'ir, ayni choqda yozuvchi uchun xavfli-xavfli o'ylarga cho'madi?

A) Tohir Malik B) Nazar Eshonqul

C) Pirimqul Qodirov D) Tog'ay Murod

### 13-variant

1. Agar sizga salom berilsa, siz undan yaxshiroq **yoki xuddi** o'zidek qilib **javob qiling**.

Berilgan gapda yordamchi so'z turkumiga mansub nechta birlik ishtirok etganini va bosh gap kesimi qaysi nisbatda ekanligini aniqlang.

A) 3 ta, aniq nisbatda B) 3 ta, majhul nisbatda

C) 4 ta, aniq nisbatda D) 3 ta, o'zlik nisbatda

2. Cho'pon: «Ey xoja, men senga sutga suv **qo'shmagin degan edim**, mening so'zimni aslo **eshitmading**. O'tgan kechasi sutga qo'shgan suvlaring hammasi **yig'ilib**, sel **bo'lib oqdi** va qo'ylarni **oqzib ketdi**», deb javob berdi. Ushbu parchada qaysi nisbatagi fe'llar qatnashgan?

A) aniq, birgalik, o'zlik nisbat

B) aniq, o'zlik, orttima nisbat

C) birgalik, majhul, orttirma nisbat

D) aniq, majhul, o'zlik nisbat

3. **Ushbu gapda ravish turkumiga oid so'z necha o'rinda qo'llangan? U bugun juda charchagan edi, kechki taomda ham zo'rg'a o'tirdi, yostiqqa boshini qo'ydi-yu, darhol uyquga ketdi. Bir mahal endigina orom olib uxlayotganda kimdir hovli eshigini ochib ohista kirlid, garchi charchoq kuchli bo'lsa-da, ozgina shovqindan ham uyg'onib ketishga odatlangan yigitning bu ovozdan so'ng uyqusi butunlay qochdi, boyagi uyqu istagi uni bir zumda tark etdi.**

A) 12 ta B) 11 ta C) 10 ta D) 9 ta

4. **Shaharda zamonaviy baland binolar qurish avj olgan.**

Ushbu gap haqida to'g'ri fikrlar nechta?

1) qator undoshli so'z boshqa so'zga boshqaruv usulida ergashgan so'zga tobelangan; 2) gapdag'i yasama so'z egaga bitishuv usulida bog'langan; 3) tobe qismi hol bo'lib kelgan fe'lli so'z birikmasi qatnashgan; 4) yasama so'z bilan ifodalangan tobe so'z hokim qismiga bitishuv usulida bog'langan.

A) 4 ta B) 2 ta C) 1 ta D) 3 ta

5. To'g'ri, u aravani quruq olib qochadigan

maqtanchoqlardan emas. Berilgan gap qaysi qatorda to'g'ri tahlil qilingan.

A) kiritma, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim. B) kiritma, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim. C) kiritma, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, to'ldiruvchi, kesim.

D) kiritma, ega, aniqlovchi, kesim

6. Quyidagi qaysi asar o'rta epik janrga mansub?

A) "Tengdoshlar" (Odil Yoqubov)

B) «Shodligim» (Turob To'la)

C) «Qo'shchinor chiroqlari» (Abdulla Qahhor)

D) «Muhabbat» (O'tkir Hoshimov)

7. **Hammamizing onamizdir shu Vatan,**

**Yov goldirgan siynasida ming tikan.**

**Tirikmiz-ku, uni tozalash bizdan,**

**Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.** Ushbu she'riy parchada nechta sodda gap mavjud?

A) 6 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta

8. Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan rasmiy xulosalarni qisqacha bayon etish maqsadidagi uchrashuv ma'nosini beradigan terminni toping.

A) terror (lot)

B) ekstremizm (r)

C) investitsiya (nem) D) briefing (ing)

9. Qaysi qatorda chiziqcha bilan yozilgan yasama so'zlar berilgan?

- A) Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam  
 B) Qop-qora, yam-yashil, to'ppa- to'g'ri  
 C) qing'ir-qiyishiq, tog'-tog', sekin-tez  
 D) erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh  
 10. Bobo Qambar degan nom qaysi xalq dostonida uchraydi?  
 A) «Ravshan»              B) “Kuntug‘mish”  
 C) “Rustamxon”            D) «Alpomish»  
 11. Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, ularni jam etgan holda bir kitob yozmog‘ingiz darkor.  
 Ushbu ergashgan qo'shma gap haqidagi fikrlarning nechtasi to'g'ri?  
 1) bosh va ergash gap nisbiy so'z orqali bog‘langan; 2) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap; 3) bosh gap qismi egasi yashiringan gap; 4) ergashgan qo'shma gap qismlarini bog‘lovchi nisbiy so'zlar hokim qismga bitishuv va boshqaru usulida bog‘langan.  
 A) ikkitasi              B) bittasi              C) uchtasi              D) to'rttasi  
 12. O'z tilini unutgan xalqning Bog‘larida o'sgan gullarin  
**Chirmab** uxlari zaharli ilon. (Xurshid Davron)  
 Berilgan she'riy parchada fe'l turkumiga mansub so'zlarning nechtasi kesimga bevosita tobelangan?  
 A) uchtasi              B) bittasi  
 C) to'rttasi              D) ikkitasi  
 13. **Dam oladi** kunduzi, xonadonning yulduzi. Kechasi ochilur, osmonga sochilur.  
 Osmonda u **yaraqlab**, kulib turar **charaqlab**. Ushbu gap(lar)dagi ismlar guruhiqa kirmaydigan yasama so'z(lar) qaysi gap bo'lak(lar)i vazifasini bajargan?  
 A) hol, hol              B) kesim, hol, kesim  
 C) kesim, hol, hol      D) kesim  
 14. Qavsi fikr noto'g'ri?  
 A) Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda, muallif gapining egasi o'zlashtirma gap egasi bo'lib gap boshida keladi.  
 B) Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda, so'roq, buyruq shaklidagi ko'chirma gaplar darak gap shakliga aylantiriladi.  
 C) Muallif gapining kesimi vazifasidagi aytdi so'zi dedi so'zi bilan almashtiriladi.  
 D) Ko'chirma gap tarkibidagi undov, kirish so'zlar tushirib qoldiriladi.  
 15. Cho'pon: «Ey xoja, men senga sutga suv **qo'shmagin degan edim**, mening so'zimni aslo **eslamading**. O'tgan kechasi sutga **qo'shgan** suvning hammasi **yig'ilib**, sel **bo'lib oqdi** va qo'yarni **oqizib ketdi**», deb **javob berdi**. Ushbu parchada fe'lning vazifa shakllaridan qaysilari qatnashgan?  
 A) sof fe'l, sifatdosh, ravishdosh  
 B) ravishdosh, harakat nomi  
 C) sof fe'l, sifatdosh, harakat nomi  
 D) sof fe'l, harakat nomi, ravishdosh  
 16. Hokkey, muxojir, **nadomat**, tutiriqsiz, **vakuum** hashorat, **fuqaro**. Mazkur so'zlardan nechtasi to'g'ri yozilgan?  
 A) 3 tasi              B) 4 tasi              C) 1 tasi              D) 2 tasi  
 17.  
**[18] Dadamlar:- Xo'sh qalay bu yerlar yoqdimi Hamma yoq sokin Qushlar baliqlar-bizniki-dedilar.**  
 Ushbu gapda necha o'rinda vergul qo'llaniladi?  
 A) 5 o'rinda            B) 4 o'rinda  
 C) 3 o'rinda            D) 6 o'rinda  
 19. Qaysi qatorda harakatga nisbatan ma'nosi ko'chgan so'z qatnashgan?

- A) oltin kuz              B) temir intizom  
 C) jannati inson          D) qo'li gul  
 20. Humoyun Nizomga «...hozir siz menga tug'ishgan inimdan ham azizroqsiz» deb, nomingizni kim kabi ulug'lasam arziyi deydi?  
 A) Bobur              B) Xo'ja Husayn  
 C) Amir Bahlul **D** Nizomiddin avliyo  
 21. Uning o'z bisotida bir shapaloqqina sholipoyasi bor; u ham marhum qaynatasidan tekkan... Ushbu ta'rif qaysi adabiy qahramon haqida?  
 A) O'sar aka («Jinlar bazmi» hikoyasi)  
**B** Xolmat («Kecha va kunduz» romani)  
 C) Egamberdi («Advokatlik osonmi?» dramasi)  
 D) Ziyodulla kal («Ot kishnagan oqshom»)  
 22. To'ra Sulaymon «Armon» she'rida armonni ketma-ket nimalarga o'xshatadi?  
 A) nor, qor, tor, ro'zg'orga      B) nor, sor, g'or, qorga  
 C) qor, tor, g'or, ro'zg'orga      D) nor, qor, tor, dorga  
 23. «Kul tigin», «To'nyuquq» kabi yodgorliklar tili o'zbek adabiy tili taraqqiyotining qaysi davriga mansub?  
 A) Qadimgi turkiy til              B) Eski turkiy til  
 C) Eski o'zbek adabiy tili        D) Hozirgi o'zbek tili  
 24. **Uyga kirishi bilan** gapirayotganlar **birdan to'xtab qolishdi**. Ushbu gapdag'i so'z birikmalari haqida berilgan nechta hukm to'g'ri emas?  
 1) 4 ta holli so'z birikmasi qatnashgan; 2) 4 ta fe'lli so'z birikmasi qatnashgan; 3) 2 ta so'z birikmasining ham tobe, ham hokim qismlari fe'l bilan ifodalangan; 4) ushbu gapda otli so'z birikmasi qatnashmagan.  
 A) 3 ta      B) 2 ta      C) 4 ta      D) 1 ta  
 25. Bulutlar **haydar shamol**, Goh yo'gib **o'tar yomg'ir**. Barglar pokiza, zilol,  
 Goh quyosh **to'kadi nur**. She'riy parchadagi nechta gapda gap bo'laklari tartibi almashgan?  
 A) 4 ta      B) 1 ta      C) 2 ta      D) 3 ta  
 26. Kishi moliga suq podsholarni ko'p ko'rgan **Binoiy** o'n olti yoshli Boburning bunchalik **halolligidan** juda qattiq **ta'sirlandi**. Ushbu parchada ot turkumiga mansub so'z necha o'rinda kesimga tobelangan?  
 A) 1 ta      B) 2 ta      C) 3 ta      D) 4 ta  
 27. Qahr ila Xabbozni bardor etar. Dor boshina oni sangsor etar. Baytdagi dor so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?  
 A) Kiyim-boshni ilish uchun shipga parallel ravishda tortiladigan ip yoki arqon.  
 B) Arqon va yog'ochlardan iborat dorvozlik qurilmasi.  
**C** Kishini osib o'ldirish uchun o'rnatiladigan maxsus qurilma.  
 D) Kiyim quritish uchun tortiladigan arqon.  
 28. «Kuntug‘mish» dostonida Kuntug'mish kimlarga “jonlarim” deb murojaat qiladi?  
 A) tomoshabinlarga      B) farzandlariga  
 C) mirg'azablarga      D) arkoni davlatga  
 29. **Bu cholni butun yurt izzat qilardi**. Ushbu gapga oid to'g'ri ta'riflarni ajrating.  
 1) 1 ta turlangan, 1 ta tuslangan so'z qatnashgan; 2) 1 ta fe'l, 2 ta ot, 1 ta olmosh, 1 ta sifat qatnashgan; 3) 1 ta fe'l, 2 ta ot, 2 ta olmosh qatnashgan; 4) ismlar guruhiqa mansub so'zlar soni 4 ta; 5) 1 ta otlashgan so'z qatnashgan; 6) 1 ta ko'chma ma'noli so'z qatnashgan; 7) asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan 1 ta so'z qatnashgan; 8) asosi

shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan 2 ta so'z qatnashgan; 9) aniqlovchi + to'ldiruvchi + aniqlovchi + ega + kesim tartibli gap; 10) **grammatik bog'lanishlar** soni 5 ta, so'z birikmalar soni 3 ta.

A) 1, 2, 4, 5, 6, 8, 9, 10 B) 2, 4, 6, 8, 9, 10

C) 1, 3, 4, 5, 7, 9 D) 1, 3, 4, 6, 8, 9

30. Quyida ko'rsatilganlardan qaysi biri ayrim undoshlarni harf birikmasidan farqlash uchun ishlatalidi?

A) urg'u B) vergul

C) qavs D) tutuq belgisi

31. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi antiteza uslubini yaratishga xizmat qiladi?

A) zid ma'noli so'zlar B) shakldosh so'zlar

C) ma'nodosh so'zlar D) paronim so'zlar

32. Cho'lponning milliy dramaturgiyamiz rivojiga hissa bo'lgan asarlarini aniqlang.

A) «Halil farang», «Hujum», “Yana uylanaman”  
B) «Yorqinoy», «O'rtoq Qarshiboyev», “Uyg'onish”  
C) «Yorqinoy», «Halil farang», “Do'xtur Muxammadiyor”  
D) «Cho'rining isyonii», “Yana uylanaman”, «Qurbanji jaholat»

33. Tarkibida otlashgan so'z ishtirok etmagan qatorni aniqlang.

A) Kattaga - hurmat, kichikka - izzat.

B) Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat.

C) Yomonni tanqid qil, yaxshiga taqlid qil.

D) Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham soz so'zlar.

34. Qaysi asar(-lar)da ilmoqda osilib turgan go'shtga (quyruqqa) yetolmay «puf, sassiq» degan mushuk holati misol tariqasida keltirilgan?

1) «Zarbulsal» asarida; 2) «Bahor qaytmaydi» asarida;  
3) «Rohati dil» asarida; 4) «Jamila» asarida; 5) «Alvido, bolalaik» asarida.

A) 1, 2 B) 1, 3 C) 1, 4 D) faqat 5

35. Qaysi qatordagi eskirgan so'zlarning ma' nosi **yaqin, notiq?**

A) bitik, cherik B) yog'iy, fiqh

C) firqa, handasa D) yovuq, fasohat

36. Chiltanlar vositasida oshiq va ma'shuqa ruhan uchrashadigan xalq dostonlarini aniqlang.

A) «Alpomish» va «Kuntug'mish» dostoni

B) “Kuntug'mish” va “Ravshan” dostoni

C) «Alpomish» va «Rustamxon» dostoni

D) «Rustamxon» va «Ravshan» dostoni

#### 14-variant

1. Shafqat ila

**Kim** non-u **kim**

Chaqo tashlab ketardi.

**Men** ham shunga ko'ngan edim,

Menga **shu** ham yetardi. (E. Vohidov)

Ushbu she'riy parchada olmosh turkumiga mansub so'zlar necha o'rinda ega vazifasida kelgan?

A) 1 B) 4 C) 3 D) 2

2. **Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar,**

**Sha'niga barcha el rahmatlar aytar,**

**Yomon bag'rini tosh aylasa, yaxshi –**

**Yurak qo'ri bilan toshni eritar.**

Berilgan she'riy parchadagi sifatlar qanday gap bo'laklari vazifasida kelgan?

A) vositali to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, ega, ega

B) vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, ega, ega

C) vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, kesim

D) vositali to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, kesim

3. Dunyo yasanib, jilva qilib oldimga keldi, «Borgil nariga!» - deb ketig'a shattalab o'ttum. Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni toping.

A) tashxis B) talmeh C) tarse' D) tardi aks

4. «Uloqda» (Abdulla Qodiriy) hikoyasidagi biya minib o'rtoqlariga kulgi bo'lgan qahramon nomini toping.

A) Salim B) Nurxon

C) Haydar soqov D) Shokir mishiqi

5. Boshimda o'ynar qamchilar, qon ko'zlarimdan tomchilar, bir benavo gul yanchilur, ozodkorim kelmasa.

Ushbu gap...

A) Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap

B) Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap

C) Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

D) Aralash murakkab qo'shma gap

6. Dunyo qadim-qadimdan sharq ayoli, turkiy ayollarni yaxshi **tanigan**. Tarixning barcha bosqichlarida ular o'zining borligini goh mardlik, jasorat bilan, goh tadbir-u oqilalik bilan, goh she'riyat bilan **bildirib, tanitib, tan oldirib kelganlar**. Ushbu parchanening kesimlari fe'lning qaysi nisbat shakllari bilan ifodalangan?

A) 2 o'rinda aniq nisbat, 1 o'rinda orttirma nisbat shakli bilan

B) 2 o'rinda aniq nisbat, 2 o'rinda orttirma nisbat shakllari bilan

C) 1 o'rinda aniq nisbat, 1 o'rinda orttirma nisbat shakli bilan

D) 1 o'rinda aniq nisbat, 3 o'rinda orttirma nisbat shakllari bilan

7. Berilgan ergash gapli qo'shma gapning har ikkala qismida ega ishtirok etgan javobni aniqlang.

A) Maktab deb qurdik bino, hamma ilm olsin deb.

B) Bug'doy ekkan bug'doy, arpa ekkan arpa o'radi.

C) Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.

D) Barcha javoblar to'g'ri.

8. Berilgan qaysi so'zlarda “i” cho'ziqroq aytildi?

A) ommaviy, Lutfiy B) bilim, tilak

C) har xil, badiiy D) qism, bilan

9. **Darhaqiqat, o'g'lim, bizdan ko'nglingiz to'q bo'lsin, xalqimiz inoq va serg'ayrat, yuzlaringizni shuvut qilmaydi.** Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukm(-lar)ni aniqlang.

1) ikkita so'z boshqa bo'laklar bilan grammatic aloqaga kirishmaydi; 2) gapda uyushgan sifatlovchi aniqlovchilar mavjud; 3) vositasiz to'ldiruvchi tarkibida uchta ko'makchi morfema qatnashgan; 4) ikkita yasama sifat ishtirok etgan; 5) ikkita so'z fonetik yozuv asosida yozilgan; 6) old qo'shimcha shakldoshlik xususiyatiga ega.

A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 4, 5, 6 C) 1, 3, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

10. **U** olmoshi qaysi gapda ko'rsatish olmoshi vazifasida kelgan?

A) Jamshid qilmishidan pushaymon bo'lib, uni soliqdan ozod qilibdi.

B) U Xorazm hokimligiga qarashli chorvadorlik bilan shug'ullangan Spitamen urug'idan edi.

C) «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, u kitobning ilk sahifalari Zardusht tomonidan VII asrning oxirlarida Amudaryo sohillarida yaratilgan.

- D) Arablar unga Shohjahon deb nom berganlar.
11. 12. Qaysi ijodkorning birinchi kitobi «Istar ko'ngil» nomi bilan bosmadan chiqqan?
- A) Saida Zunnunova    B) Muhammad Yusuf  
C) Xayriddin Saloh    D) To'ra Sulaymon
13. 14. Undoshlarning uch tasnifiga ko'ra ham farqlovchi belgilariga ega fonemalar ma'no farqlagan so'zlar qatorini toping.
- A) ko'rik, katak    B) kerak, kesak  
C) ko'sak, ko'mak    D) kepak, kesak
15. «Nafohot ul-uns» asarining muallifi kim?
- A) N. Kubro    B) A. Navoiy  
C) A. Jomiy    D) A. Yassaviy
16. **Anovi** kungi yosh mehmonni **senga** maqtasam, achchig'landing, ammo kelib-kelib bu kun **seni o'shang** berdilar.
- Berilgan gapda olmoshning necha ma'no turi ishtirok etgan?
- A) 2 B) 4 C) 1 D) 3
17. «Bo'talog'im, sen bilan vidolashar ekanman, sening so'zingni yana bir bor takrorlayman: «Salom, oq kema, bu men!» «Oq kema» qissasidan olingan ushbu parchada qo'llangan ega(-lar)ni ajrating.
- A) sen    B) bo'talog'im, sen, oq kema, men  
C) bu men    D) bu
18. «Axir, u, otmas, odam edi». Ushbu parcha kimning qaysi asaridan olingan?
- A) A. Qodiriy «Uloqda» hikoyasi  
B) T. To'la «Do'nан» hikoyasi  
C) Tog'ay Murod «Ot kishnagan oqshom» qissasi  
D) Seton Tompson «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasi
19. Donoga ishora // nodonga kaltak. Ushbu gapda // belgisi o'niga qaysi tinish belgisi qo'yiladi? (8-s. Kirish. 3-topshiriq)
- A) tire    B) vergul    C) ikki nuqta D) nuqtali vergul
20. Darsliklarda qaysi chet el adibi «Ozodlik kuychisi» deya ta'riflangan?
- A) Fitrat    B) Musa Jalil  
C) R. Thokur    D) S. Yesenin
21. *opsion* so'zining ma'nosini qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?
- A) Birjada yetkazib berish vaqt o'tib ketgan tayyor molni sotish va sotib olish bitimlari. (forvord)  
B) Bir qolipdag'i mollarni sotish yoki sotib olish bitimlari. (fyuchers)  
C) Kelajakda sotib olish bo'yicha oldi-sotdi bitimlari.  
D) Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi.
22. Men **seni esladim entikib, yonib**,  
Men **seni izladim baridan tonib...** (Nazira as-Salom)  
Ushbu she'riy parchada fe'lli so'z birikmalarining soni nechta?
- A) 5    B) 6    C) 3    D) 4
23. Bir oyda ham eridan, ham o'g'lidan «qoraxat» olgan ayol qaysi asarda uchraydi?
- A) «Qiyomat qarz» qissasi, Zebi  
B) «Dunyoning ishlari» qissasi, Zebi  
C) «Kecha va kunduz» romani, Zebi  
D) «Ufq» romani, Zebi
24. Dantening «Ilohiy komediya»sini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan?
- A) Usmon Nosir    B) G'. G'ulom  
C) Oybek    D) A. Oripov
25. Qaysi qatorda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi ishtirok etmag'an?
- A) Ko'z milklari yallig'lanishi va ko'z olmasining qizarishi vitaminlar yetishmasligi natijasida paydo bo'lishi mumkin  
B) Tog'lar loqayd bir ulug'verlik bilan sukul saqlashar va bag'ridagi odamlarning yaxshi-yomon ishlariiga tilsiz **guvoh bo'lib turishar** edi.
- C) Yerdan aziz narsa yo'q! Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan narilar - hammasi bir shapaloq yerdan rizqini **chiqarib kelgan...**
- D) Shundoq bekat ro'parasida ikki qavatlari univermag oynavand eshiklarini ochgan, xaridorlar chumoliday g'imirlashib **kirib-chiqib turishardi**.
26. *Bir qop un, ichida ustun.* Topishmoqning javobi tarkibidagi birinchi tovushga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.
- A) til oldi, o'rta keng, lablangan unli tovush  
B) lab-lab, potlovchi, jarangsiz undosh tovush  
C) til oldi, potlovchi, jarangli undosh tovush  
D) til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush
27. Quyidagi so'zlardan nechtasida nuqtalar o'rnida chuqur til orqa sirg'aluvchi undosh yoziladi?  
ishta...a, ji...oz, e...son, ehtiyyotkor, za...matkash, ...oqon, mar...amat, mu...ojir, sul...  
A) to'rttasida    B) bittasida  
C) ikkitasida    D) uchtasida
28. Kesimi shaklan 3-shaxs, mazmunan 1-shaxsga tegishli bo'lgan gap(-lar)ni aniqlang.
- A) Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.  
B) Kamina bu masala xususida huzuringizga bormoqchi edilar.  
C) Onang o'lsin, bolam, seni bu yerga yolg'iz yubormay.  
D) B va C javoblar to'g'ri.
29. **Ayl sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq ko'chaga otildi.** Berilgan gapda nechta hol qatnashgan va ularning tuzilishiga ko'ra turi qanday?
- A) 1 ta: 1 ta sodda    B) 3 ta: 3 tasi murakkab  
C) 5 ta: 1 ta murakkab, 4 tasi sodda    D) 4 ta: 3 tasi murakkab, 1 tasi sodda
30. Dor qurilgan maydonda bolalar arqonlarga osilib o'ynamoqda.
- Ushbu gapda nechta ko'makchi morfema bor?
- A) 10 ta    B) 9 ta C) 11 ta    D) 8 ta
31. Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy va siyosiy atamalarni joriy etish hisobini ta'minlaydi.
- Gapda bir tovushdan iborat so'z yasovchi(lar) miqdori nechta?
- A) 2 ta B) 4 ta C) 1 ta D) 3 ta
32. *Yuzing visolig'a yetsun, desang, ko'ngillarni, Sochingni boshdin oyoq chin ila shikan qilg'il.* (N)
- Berilgan parchada asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar soni va ikkinchi bo'g'ini til orqa undoshi bilan boshlanuvchi so'zlar soni nechta?
- A) 2 ta, 1 ta    B) 3 ta, 2 ta  
C) 4 ta, 2 ta    D) 5 ta, 1 ta
33. «Rustamxon» dostonida Momogul maston tilla tangalar evaziga Huroyim ustidan fitna-g'iybat to'la arznomasi yozdiradi, firib bilan kimga tasdiqlatadi?
- A) Oqtosh ahliga    B) Sultonxonga

- C) qozikalonlarga      D) uch yuz oltmis mastonga
- 34. Voqealar tizimidan sal ilgarilab ketdim, shekilli, bu haqda maktubimning keyingi sahifalaridan birida alohida to'xtab o'tarman.** Berilgan gapda mustaqil so'z turkumlaridan qaysi biri ishtirok etmagan?
- A) sifat B) son C) olmosh      D) mustaqil so'z turkumlarining barchasi ishtirok etgan
- 35. Tut, yut, oq, rasm, yot, qovoq, chop, uch.** Ushbu shakldosh so'zlarning nechtasi qo'shimcha qo'shilgandan keyin ham shakldoshlik xususiyatini saqlab qolishi mumkin?
- A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
- 36. Aniqlov bog'lovchilari haqidagi to'g'ri hukmni ajrating.**
- 1) ajratilgan bo'laklarni ajratilmish bo'lakka bog'laydi; 2) ergash gapni bosh gapga bog'lab keladi; 3) oddiy so'zlashuv uslubida ko'proq ishlataladi; 4) faqat yozma nutq uslubida qo'llaniladi.
- A) 1, 2      B) faqat 2      C) 1, 2, 4      D) 1, 2, 3

- 15-variant**
- Faqat sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar ishtirok etgan maqolni toping.
  - A) Sinamagan otning sirtidan o'tma!
  - B) Maqtanma g'oz, hunaring oz!
  - C) O'g'li borning o'rni bor,  
Qizi borning qadri bor.
  - D) 0'ylamay qilingan ish,  
Boshga keltirar tashvish.
  2. «Yuzungni ko'rsa qilur gul o'zini yuz pora,  
Xo'tan yozisida ohu ko'zingdin avvora».
  - Qanday badiiy san'at qo'llangan?
  - A) husni ta'lil      B) mubolag'a
  - C) tashbeh      D) tarse'
  3. Sovuqqa chidamli Yo'lchi ham, egn*i* yupun bo'lganidan, oyoqlarining holsizlanganini, gavdasining bujmayganini sezdi. Berigan gapdan tovush o'zgarishlar soni va ismlar guruhiga kiruvchi so'zlar tarkibida qo'llangan munosabat shakli qo'shimchalarining miqdorini aniqlang.
  - A) 2 ta, 12 ta      B) 2 ta, 6 ta
  - C) 3 ta, 6ta      D) 3 ta, 12 ta
  4. Komil Xorazmiy o'zbek tiliga tarjima qilgan «Mahbub ul-qulub» asarining muallifi kim?
  - A) Farohiy      B) A. Navoiy
  - C) Ogahiy      D) Faxriddin Ali Safiy
  5. Qaysi javobda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilmagan?
  - A) Kimning farzandlari undan yuz o'girsa, uning taskin topishi amrimahol.
  - B) Kimki oilani muqaddas bilmasa, u uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q.
  - C) Kimki nuqul o'tmishidan nolisa, uning kelajagi ham barbod bo'ladi.
  - D) Kim ko'zguga ko'p qarasa, xotirasi susayib ketarkan.
  6. *Yalangoyoq* so'zi tarkibida quyida tavsiflangan undosh tovushlardan qaysilari ishtirok etgan?
  - 1) til o'rtalari jarangli sirg'aluvchi undosh; 2) til oldi sirg'aluvchi sonor yon tovush; 3) til oldi portlovchi burun sonori; 4) til orqa portlovchi jarangli undosh; 5) chuqr til orqa portlovchi jarangsiz undosh.
  - A) 1, 2, 3      B) 1, 2, 3, 5
  - C) 1, 2, 4, 5      D) 1, 2, 3, 4
  7. **Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati.** Berilgan gapdagi tobe bog'lanishlar va bir so'z turkumiga mansub so'zlar soni teng kelgan javobni aniqlang.
  - A) 7      B) 5      C) 6      D) 4
  8. Aytolmaganliklaringizdandir- da. Berilgan misol tarkibida nechta morfema qo'llangan?
  - A) 8 ta B) 10 ta      C) 7 ta D) 9 ta
  9. Quyidagi nechta qo'shimcha sifat, ravish va ot yasovchi sifatida o'zaro omonim bo'la oladi?  
-lik, -lab, -siz, -in, -larcha, -ona, -ki.
  - A) 3 ta B) 4 ta C) 1 ta D) 2 ta
  10. *Bu bodomqovoq qiz xushfe'l tabiat bilan katta-yu kichikning olqishiga* sazovor bo'ldi. Ushbu parchada nechta so'z ham hokim, ham tobe qism vazifasini bajara oladi?
  - A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta
  11. **Uyga** qaytishni istamadi, lekin **gapga** **borishga** hali vaqt erta edi. Berilgan gapda asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar soni nechta?
  - A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta

12 . Shubhasiz, barkamol avlodning buguni va ertasi bor. Berilgan gap tarkibida nechta grammatik bog‘lanish bor ekanligini aniqlang.

A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta

13. Qozon qaynab chiqsa, ovqatni pasaytirib qo‘y- Ma’no ko‘chish turini aniqlang.

A) metonimiya              B) metafora  
C) sinekdoxa              D) vazifadoshlik

14. *gulrez, gulpo’sh* so‘zlarining ma’nolari qaysi qatorda to‘g‘ri ko’rsatilgan?

A) gul bilan bezangan, yoqimli ovoz  
B) gul to‘kuvchi, gul yopingan, qip-qizil gulday kiyigan  
C) bulbul ovozi, majozan quyosh nurlari  
D) gul to‘kuvchi, yoqimli ovoz

15. Ishq o’tida yuzi oltinni yashirganligi, shu ishq sabab, yuzi oltinga aylanganligi haqida g‘azal yozgan shoir(-lar) kim?

A) Lutfiy              B) Lutfiy, Sakkokiy  
C) Atoyi              D) Sakkokiy, Atoyi

16. Hali ko‘nglingiz g‘unchaday yosh ota dedi Sayramov Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini aniqlang.

A) qo‘shtirnoq, qo‘shtirnoq, vergul, tire, nuqta  
B) qo‘shtirnoq, vergul, qo‘shtirnoq, vergul, tire, nuqta  
C) qo‘shtirnoq, vergul, qo‘shtirnoq, tire, nuqta  
D) qo‘shtirnoq, vergul, qo‘shtirnoq, vergul, nuqta

17. «Jafachi bu dimya, jafa qil angar, Jafa qilsa o‘tru yarashur sengar». (Yu.X. Hojib) Ushbu misrada qaytarish san‘atining qaysi turi qatnashgan?

A) radus-sadr ilal-hashvB) radd-us-sadr ilal-ibtido  
C) radd-us sadr ilal-ajuz D) radd-ul-aruz ilal-ibtido

18. Faxriddin Ali Safiyning “Latoyif at-tavoyif” (“Turli toifalarning latifalar”) asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan ijodkor kim?

A) Furqat              B) Komil Xorazmiy  
C) Munis              D) Ogahiy

19. E’tibor ber ganmisiz yoki yo‘qmi, sizning sadoqatda **tengsiz** do‘stingiz bor. **Shodligingizda quvonchingizga quvonch** qo‘shadi, **g‘amgin** pallada dardingizni oladi. Ushbu parchada yasama so‘zlar necha o‘rinda qatnashgan?

A) 4    B) 5    C) 3    D) 6

20. Leksemalar...

1) leksemalar so‘zlar va grammatik qo‘srimchalarga bolinadi; 2) lug‘atlarda bosh so‘z sifatida beriladi; 3) leksema atamasi ham grammatik, ham leksik ma’no bildiruvchi til birligi uchun qo‘llanadi; 4) ma’lum ma’no bilan bog‘langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi leksema sanaladi; 5) leksema-leksikologiya birligi.

A) 1, 2, 3, 5    B) 3, 4, 5    C) 2, 5 D) 3, 4

21. – Bu safar qovun tanlashda adashgan ekanman, oq qovun deb olsam, eski chopon chiqib qoldi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qaysi usulda ma’nosini ko‘chganligini aniqlang.

A) metonimiya B) sinekdoxa  
C) metafora              D) vazifadoshlik

22. *Bola o‘z hayotida xotirada qoladigan hech nima ko‘rmadi*. Ushbu gapda nechta otli so‘z birikmasi bor?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

23. Navoiyning “G‘aroyib as-sig‘ar” devoniga kirgan g‘azallarni ajrating.

1) «Kelmadi»; 2) «Qilg‘il»; 3) «Jong‘a chun dermen»; 4) «Bo‘ldum sanga»; 5) «Yo‘q»; 6) «Deyin»; 7) «Bo‘l».

A) 1, 3, 6, 7    B) 4, 5, 6, 7

C) 1, 2, 3, 4    D) 2, 4, 5, 7

24. *Ey farzand, aqlli, farosatlari va ilm-u hunarli kishilar bilan do‘st bo‘l. Mehnatdan, ilm-u hunar o‘rganishdan uzoqlashma*. Ushbu parchada mustaqil lug‘aviy ma’no ifodalamaydigan so‘z turkum(lar)iga xos birliklar necha o‘rinda kelgan?

A) 9 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 5 ta

25. Chindan ham men uni hammadan qizg‘anib rashk qilardim, uning quvnoqligi, o‘zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. Nega shundayligini o‘sim ham bilmagandim. Berilgan gaplardagi so‘zlar imlosida nechta o‘rinda fonetik o‘zgarish kuzatilgan?

A) 8 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 6 ta

26. O‘zing **boshla** maydonga, **boshla**, To‘maris!

Qolsin bizdan tarixda **shonli porloq** iz –  
Qo‘li **bog‘liq yashashdan** o‘lim a‘lodir,  
**Bosqinchi** yov o‘limga mahkum balodir. (Shuhrat)

Ushbu she’riy parchadagi yasama so‘zlarining yasalish asosi qaysi so‘z turkumlariga mansub?

A) 6 o‘rinda ot turkumiga, 2 o‘rinda fe‘l turkumiga  
B) 3 o‘rinda ot turkumiga, 2 o‘rinda fe‘l turkumiga, 4 o‘rinda sifat turkumiga

C) 5 o‘rinda ot turkumiga, 3 o‘rinda fe‘l turkumiga

D) 6 o‘rinda ot turkumiga, 3 o‘rinda fe‘l turkumiga

27. 1) Bek istar-istamas chiqib, yumshoq o‘rindiqa o‘tirdi. Bu yumshoq muomala davradagilarni o‘ziga qaratdi.

2) Tog‘ning ko‘rki - tosh bilan, odamning ko‘rki - bosh bilan. Yarim toshdan mo‘lroq yo‘l yurildi hamki, bekat ko‘rinmaydi.

3) Mol olasi tashda, odam olasi ichda. Ko‘chat ola chiqsa, kimga foyda, kimga ziyon.

4) Uning matematikadan dumi bor. Bir kuni paxta chopib tursam, bitta qovun «meni ye!» ; deb dum berib turibdi.

5) Butun oilasi bu yerga pomidor, piyoz, rediska, karam va boshqa sabzavotlar ekishdi. Tangrining karamiga sig‘inib, ularni Astrobodga jo‘natdim.

6) Chapga burilib chap ko‘zi - shisha ko‘zini olib, ro‘molchasi bilan artdi. 0‘qlardan biri chiroq shishasini sindirdi.

7) Sen gapirganda hamma jim o‘tirgan edi, kimdir luqma tashladi. Javob berishi lozimligini bilgan Usmon og‘zidagi luqmani tez-tez yutib oldi.

Qaysi gap juftliklarida shakldosh so‘zlar qo‘llangan?

A) 1, 3, 4, 6    B) 2, 3, 4, 5

C) 2, 5, 7    D) 1, 2, 5, 7

28. Fonetik o‘zgarish asosida yozilgan so‘z qo‘llangan maqolni aniqlang.

A) Qarisi bor uyning parisi bor.

B) Aybsiz do‘sit axtargan do‘stsiz qolar.

C) O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozir.

D) Qalovini topsang, qor yonar.

29. Abayning «Nasihatlar» nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan «Naqliya so‘zlar» asarini o‘zbekchaga kim tarjima qilgan?

A) Turob To‘la              B) Nosir Fozilov

C) Mirtemir              D) Mirkarim Osim

30. Odamlar g‘urur, foydasiz manmansirash tufayli juda ko‘p kulfatlarga yo‘liqishgan, shuning uchun islam tafakkurining buyuk natijasi bo‘lgan tasavvufda inson kibrdan kechmay turib o‘zligini anglamaydi, Ollohoi tanimaydi degan aqida bor edi. Ushbu gapdagisi so‘z yasovchi qo‘srimchalalar haqida berilgan hukmlardan nechtasi noto‘g‘ri?

1) otdan sifat yasashga xizmat qilgan; 2) sifatdan fe'l yasashga xizmat qilgan; 3) olmoshdan fe'l yasashga xizmat qilgan; 4) olmoshdan ot yasashga xizmat qilgan; 5) otdan fe'l yasashga xizmat qilgan.

- A) 2 tasi      B) 1 tasi      C) 3 tasi      D) 4 tasi  
31. Alisher Navoiyning «Xamsa» asaridagi qaysi qahramon «lu'bat shang» - «sho'x qo'g'irchoq» deya ta'riflangan?  
A) Shirin      B) Layli      C) Dilorom      D) Mehr

32. Ega qatnashgan ajratilgan bo'lakli gapni toping.

- A) Bu dam quyosh kuladi - shodon va quvnoq.  
B) Paxtakor o'zbekman - zabardast, mag'rur!  
C) Zero, mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yguvchilar uchun eng birinchi galda onalarning ma'naviy qiyofasi, muloqot madaniyati, axloqiy olami namuna maktabidir.  
D) Bog'imizda turli mevalar: olma, o'rik, giloslar gulladi.  
33. «Ayollar sochi uzun, aqli qisqadur», degonlarg'a, Tovuqcha aqli yo'q, axlatni titkonlarga o't tushsin. «Xotunlar mol qatori sotilur», deb mushtiparlarni, Zulayho, Layli, Shirinni tan olmag 'onlarg 'a o't tushsin». Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?

- A) Uvaysiy      B) Nodira  
C) Dilshodi Barno      D) Anbar Otin  
34. Dunyoda birinchi **haydovchilik** guvohnomasi Germaniyada 1910-yildan boshlab joriy etilgan. Tovush o'zgarishiga uchragan so'z haqida to'g'ri fikrni aniqlang.  
A) portlovchi tovush tushgan  
B) bir quyi keng unli boshqa keng unliga o'zgargan  
C) tor unli keng unliga o'zgargan  
D) jarangli undosh jarangsizga o'zgargan  
35. «Davlat tili haqida»gi Qonunning nechanchi moddasida «Respublikaning ma'muriy-hududiy birlklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi» deb yozib qo'yilgan?  
A) 4-moddada      B) 6-moddada  
C) 14-moddada      D) 22-moddada

36. Qaysi asarda «Ko'rga ishing tushsa, o'z qadr-u g'ururingni saqlab qolishing qiyin» degan jumla keltirilgan?  
A) Robindranath Thokur, «Nur va soyalar»  
B) U. Azim, «Bir qadam yo'l»  
C) E. "Samandar, "Arabmuhammad Bahodirxon"  
D) A. Oripov, «Sohibqiron»

## 16-variant

1. Oydin Hojiyeva tarixning imtihonidir deb nimani aytadi?  
A) qomusimizni      B) istiqlolni  
C) yoshlikni      D) kelajakni  
2. Gavhar osqon halqlar siymin banogo'shinda band, Ko'rinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang. (Furqat) Baytda qo'llangan badiiy san'atni toping.  
A) tashbeh      B) talmeh      C) tajnis      D) tarse'  
3. Ba'zi kishilar borki, tanqidni yoqtirmaydilar. Qo'shma gapning turini aniqlang.  
A) ega ergash gapli qo'shma gap  
B) kesim ergash gapli qo'shma gap  
C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap  
D) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap  
4. Quyida berilgan nechta so'zga shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilganda asosda tovush o'zgarishi bo'lishi mumkin? ishtirotk, ravnak, ulug', qulun, **qayir**, **qo'yin**.  
A) 6 ta      B) 2 ta      C) 3 ta      D) 4 ta  
5. Sharq musiqasining yozuvdag'i ifodasi uchun «Tanbur chizig'i» deb nom olgan notalar tizimini kim kashf qilgan?  
A) Feruz      B) K. Xorazmiy  
C) Munis      D) Huvaydo

6. «Yulduzli tunlar» romanida Mirzo Boburning butun mamlakatda may ichishni man etuvchi amri haqida «bizga ma'qul kelmadi» deb munosabat bildirgan qahramon kim edi?

- A) Ismoil Safaviyning elchisi  
B) Shayboniyxonning elchisi  
C) Ko'chkinchixonning elchisi  
D) Shoh Taxmaspning elchisi  
7. Vilyam Shekspirning gersog Sautgemptonga bag'ishlangan asari berilgan javobni aniqlang.  
A) «Lukresiya» B) «Venera va Adonis»  
C) «Seyan»      D) "O'ziga yetguncha"  
8. Inson boshi to'kinlikni ham, ochlikni ham, sevinch va dahshatni ham, **kulgi** va yig'ini ham ko'rар ekan. Berilgan gapdag'i yasama so'zlarning yopiq bo'g'in(-lar)i tarkibida shovqinlilar guruhiga kiruvchi undosh tovushlar soni nechta?  
A) 3 ta      B) 5 ta      C) 7 ta      D) 9 ta  
9. «Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostonida qamishlar kimga yoki nimaga o'xshatilgan?  
A) Iskandarning shoxiga      B) pichoqqa  
C) Rum lashkarlariga      D) qaychiga  
10. Ellik sakkizni rosa kutdim, kelmadi - piyoda ketdim. Ma'no ko'chishining turini toping.  
A) metafora      B) sinekdoxa  
C) metonimiya      D) vazifadoshlik  
11. Abdulla Oripov qalamiga mansub quyidagi misralarda qaysi kuy nazarda tutilgan?  
Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga  
Qanday chiday oldi ekan odamzod?!  
A) «Munojot»      B) "Tanova"  
C) "Dilxiroj"      D) «Cho'li iroq»  
12. «Menga qolsa, ijod jarayonida qandaydir ilohiyot bor, degan bo'lur edim. Haqiqiy ijodkor Xudo ko'ngliga solganda qo'liga qalam oladi. Chinakam badiiy asar yozilmaydi, tug'iladi!»  
Ushbu misralar qaysi adib qalamiga mansub?  
A) Odil Yoqibov      B) Abdulla Qahhor  
C) O'tkir Hoshimov      D) Asqad Muxtor  
13. Gulchehra va Abdulla singari sevishgan ikki yoshning fojeasi aks ettirilgan O'. Umarbekov asarini aniqlang.  
A) «Fotima va Zuhra»      B) «Odam bo'lish qiyin»  
C) «Sevgim sevgilim»      D) «Urush farzandi»  
14. «U so'nggi nafasidagina onalik baxtidan bir lahma totindi-yu, dunyodan ko'z yumdi». U kim?  
A) «Oydinda yurgan odamlar», Oymomo  
B) «Urushning so'nggi qurboni», Umri xola  
C) «Dunyoning ishlari», Hakima aya  
D) «Oq kema», Bo'key xola  
15.  
16. Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lesi bir mayin. Kel, oppog'im, kel, erkam, men **seni** allalayin.  
**Dudog'ing** guldan xushbo'y. yuzlaring undan xushro'y. Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y (S. Zunnunova)  
She'riy parchada fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar tarkibidagi ochiq bo'g'inlar sonini aniqlang.  
A) 7      B) 9      C) 8      D) 6  
17. **Gezi-gezi bilan Jizzaxga borib, ularga qo'nardim, bir hafta, ikki hafta turib, qadrdonlarimga qo'shiq aytib kelardim. Ular bilan dardlashib, o'zimning ham ko'nglimni yozib qaytardim**, - deb xalq baxshisi Fozil shoir kimning oilasi haqida gapirib o'tgan?

- A) E. Vohidov      **B)** H. Olimjon      C) O'. Hoshimov      D) A. Oripov
18. Gul bag'ini nasim **tildi** - to'kildi,  
Saboga **hikoyat qildi** - to'kildi. (Umar Xayyom) Ushbu she'riy parchada necha o'rinda o'timli fe'l ishtirot etgan?  
A) 4    B) 1    **C)** 2    D) 3
19. Hamid Olimjonning hikoyalari to'plami nomi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
A) "Ikki muhabbat"    B) «Daryo kechasi»  
**C)** «Tong shabadasi»    D) «Ikki qizning hikoyasi»
20. «Sovetlarga qarshi targ'ibot qilgan»likda ayblanib 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan adib kim?  
A) Abdulla Qodiriy    B) Mirtemir  
C) Fitrat    D) Said Ahmad **E)** Mirkarim Osim
21. Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan nechta manba negizida tarkib topgan?  
A) 4    **B)** 5    C) 6    D) 7
22. Quyidagi gaplarning qaysi birida nuqtali vergul ishlataladi?  
A) Obidjon borib pechkaning ichiga qo'l tiqadi nimanidir mahkam ushlaydi.  
**B)** Oxirgi asrlardagina Shosh Toshga aylanadi Toshkent atala boshlandi.
- C) Qanoat qorin to'ydiradi beqanoat o'zini o'ldiradi.  
D) Noo'rin aytilgan so'z boshga kulfat keltiradi.
23. Qizilroq, kechroq, biroq,  
Ertaroq, ko'kroq, quroq.  
Har so'z oxirida -roq  
Turkumim toping tezroq.  
A) qizilroq, ko'kroq, quroq - sifat, biroq - bog'lovchi, ertaroq, tezroq – ravish  
**B)** qizilroq, ko'kroq, - sifat, quroq - ot, biroq - bog'lovchi, ertaroq, kechroq, tezroq – ravish  
C) qizilroq, ko'kroq, quroq - sifat, biroq - modal so'z, ertaroq, tezroq – ravish  
D) qizilroq, ko'kroq, - sifat, quroq - ot, biroq - modal so'z, ertaroq, kechrpq, tezroq – ravish
24. Tohir Malikning fantastik asarini belgilang.  
**A)** «Falak»    B) «Bir ko'cha, bir kecha»  
C) «Charxpalak»    D) «Alvido, bolalik»
25. Furqatning fors tilidan qilgan tarjimalari nomlarini aniqlang.  
**A)** «Chor darvesh», «Nuh manzar»  
B) «Nuh manzar», «Haft paykar»  
C) «Ilmi ash'orning qoidai avzoni», «Chor darvesh», «Nuh manzar»  
D) «Chor darvesh», «Hammomi xayol», «Shoh va gado»
26. Ega ishtirot etgan gaplarni aniqlang.  
1) Burgaga achchiq qilib ko'rpa **kuydirish** yaxshi emas; 2) Sabr qilsang, g'o'radan **halvo** bitar; 3) Yaxshi bo'lsang yasharsan, nasibangdan osharsan; 4) Shakarning **ozi** shirin; 5) Beli og'rimaganning non yeishini ko'r.  
A) 3, 4, 5    **B)** (1) 2, 4    C) 1, 2, 3    D) 1, 5
27. Ot-arava va tuyalar bemalol kirib chiga oladigan darvozasi lang ochilgan karvonsaroy sahni hali bo'm-bo'sh. Ushbu gap qanday gap bo'laklaridan tashkil topgan?  
A) sifatlovchi aniqlovchi, ega, hol, kesim  
**B)** sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, ega, hol, kesim  
C) sifatlovchi aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, ega, hol, kesim  
D) sifatlovchi aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, hol,
- qaratqich aniqlovchi, ega, hol, kesim
28. Ikki oyoqli bilan to'rt oyoqli solishtirilgan doston qaysi?  
A) "Alpomish"    B) «Rustamxon»  
C) "Ravshan"    D) «Kuntug'mish»
29. Sakkokiyl o'zining Ulug'bek madhida qanday san'atlarni ko'p qo'llagan?  
**A)** tashbeh, istiora    B) tajnis, iyhom  
C) husni ta'lil, tashbeh    D) tazod, mubolag'a
30. Unsin ostonadan hatlashi bilan paranjisini yig'ishtirib oldi, qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketishdi.  
Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukm(-lar)ni toping.  
(Yaroqsiz)
- 1) ikkita yasama fe'l qo'llangan; 2) ikkita ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qo'llangan; 3) bitta fe'lning yasalish asosi ot so'z turkumi; 4) fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalangan uchta ravish holi qo'llangan; 5) bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap; 6) sodda yoyiq gap; 7) ikki (uch) o'rinda nisbat qo'shimchasi qo'llangan.
- A) 1, 4, 5, 7    B) 1, 2, 3, 4, 5, 7    C) 2, 4, 6 **D)** (1), 2, 3, 5, 7
31. Ham ot, ham sifat yasovchi shakldosh qo'shimchalarni aniqlang.  
A) -li, -kash, -im    B) -lik, -zor, -ar  
**C)** -qi, -choq, -in    D) -kash, -eh, -la
32. Gap bo'laklari tartibi haqida berilgan quyidagi fikrlarning nechtaisi to'g'ri emas?  
1) **ilmiy asarlar uslubi uchun gap bo'laklarining odatdag'i tartibi mos;** 2) **badiiy uslub uchun gap bo'laklarining o'zgargan tartibi mos;** 3) **gapdan ko'zda tutilgan umumiylik fikrga qo'shimcha ma'no, uslubiy yuk berish uchun gap bo'laklari tartibi o'zgarishi mumkin;**  
4) **gapda kesimning o'rni o'zgarmaydi.**
- A) 3 tasi    **B)** 1 tasi    C) 2 tasi    D) 4 tasi
33. Har ikki qismi ham omonim xarakterga ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan juft otlar ko'rsatilgan javobni toping.  
1) ochko'z; 2) qo'y-qo'zi; 3) yor- do'st; 4) uzuq-yuluq;  
5) **gul-chechak.**
- A)** 2, 3, 5    B) 3, 5 **C)** 1, 3, 4    D) 2, 4, 5
34. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi. U necha bo'lim, necha banddan iborat?  
A) 8 bo'lim, 82 band    B) 6 bo'lim, 72 band  
C) 9 bo'lim, 52 band    D) 7 bo'lim, 82 band
35. Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi... Tushib qolgan so'zni yozing.  
A) so'z B) qo'shimcha C) gap **D)** fonema
36. Furqatning qaysi g'azalida Yusuf va Zulayho ismlari talmeh san'atini vujudga keltirgan?  
A) «Fasli navbahor o'ldi...»  
B) «Surmadin ko'zlar qaro...»  
C) «Bormasmiz»  
**D)** Ul qaro ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur...
- 17-variant**
1. Ertasi ertalab Nayman ona yana yo'lga tushdi. Uyur bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Uyurni izlab, aylanma yo'llardan ehtiyyotkorona o'tib uzoq yo'l bosdi.

Ushbu gapda ishtirok etgan ravish yasovchi qo'shimchalar sonini toping.

A) 3 ta B) 2 C) 1 ta D) 4 ta

2. Etikdo'zning «**Biroz sabr qiling**» deyishiga ham qaramay, qiziqqon **savdogar** masalani **uzil-kesil hal qilishga qaror qilib** uni o'zi bilan **olib keldi**.

Mazkur gap tarkibidagi yasama so'zlar sonini aniqlang.

A) 9 ta B) 8 ta C) 6 ta D) 10 ta

3. Ishonch ma'nosini ifodalovchi sof modal so'z qatnashgan egasi noma'lum gap keltirilgan javobni aniqlang.

A) Siz bilan suhbatlashishdan oldin shu qarorga kelgan edim.

B) Demak, tushuntirishga hojat yo'q.

C) Albatta, o'yamasdan berilgan topshiriqni bajarish shart emas.

D) Avvalo, topshiriqni vijdonan bajar.

4. Furqat «Sabog'a xitob» she'rida Istanbuldagi qanday joyni «nasimi fayzi rab» deb ataydi?

A) Yozuvchilar uyushmasini B) Milliy bog'ni

C) dengiz bo'yini D) teatrni

5. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda, darak gap shaklidagi ko'chirma gap kesimi qaysi kelishik shaklida va qaysi gap bo'lagi vazfasida keladi?

A) Gapning kesimi tushum kelishigidagi sifatdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to'ldiruvchiga o'zgartiriladi.

B) Gapning kesimi qaratqich kelishigidagi sifatdosh bilan ifodalangan to'ldiruvchiga o'zgartiriladi.

C) Gapning kesimi jo'nalish kelishigidagi sifatdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to'ldiruvchiga o'zgartiriladi.

D) Gapning kesimi chiqish kelishigidagi harakat nomi bilan ifodalangan to'ldiruvchiga o'zgartiriladi.

6. Ishga tushdi sonsiz **asir, me'mor, naqqosh, sangtarosh**,

Zanji qullar og'och tashir, Fillar tashir xarsangtosh (E. Vohidov) Ushbu she'riy parchadagi uyushiq egalar tarkibida sonor undoshlar necha o'rinda ishtirok etgan?

A) 7 B) 6 C) 5 D) 8

7. -la qo'shimchasi otlarga qo'shilip fe'l yasaganda, yasashga asos qismidan anglashilgan narsa-predmet bilan ta'minlash ma'nosini bildirgan javobni toping.

A) o'g'itla, moyla B) urug'la, bolala

C) qaychila, arrala D) ketmonla, tozala

8. Sifatdoshlarning egalik qo'shimchalari bilan birikib, gapda ega vazifasida kelishi uning fe'lga xos qanday shakl o'rniда qo'llana olishini ko'rsatadi?

A) ravishdosh B) shaxs-son

C) zamon D) harakat nomi

9. Qaysi fikr noto'g'ri?

A) Sust, past singari so'zlarga -ay yasovchi vositasi qo'shilganda, yasashga asos qismida mavjud bo'lgan oxirgi "t" undoshi tushib qoladi.

B) Son, yosh, ong kabi so'zlarga fe'l yasovchi -a yoki -la qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismida tovush tushishi ro'y beradi.

C) O'yin, qiyin kabi ikki bo'g'inli so'zlarga -a yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda, yasashga asos qismning ikinchi bo'g'indagi «i» unlisi tushib qoladi.

D) Qizil, sariq kabi ikki bo'g'inli so'zlardan -ar, -ay yasovchi vositalari yordamida yangi so'z yasalganda, yasashga asos qism bo'lgan qizilning «il»qismi va sariqning ikinchi bo'g'indagi «i» unlisi tushib qoladi.

10. O'zi dumaloq, to'ni ko'k, belbog'i qizil, do'ppisi oq.

Topishmoqning javobi tarkibidagi oxirgi tovushning juftini toping.

A) p B) d C) z D) k

11. Husayin Voiz Koshifiy Sharqda ma'lum va mashhur shaxs deb yozadi Najmiddin Komilov «Tafakkur karvonlari» asarida U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan uning mehrini qozongan yaqin kishisi muxlisi do'sti edi Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gapda muallif gapidan keyin qaysi tinish belgilari qo'llanadi?

A) ikki nuqta B) tire C) nuqta, tire D) vergul, tire

12. Tarkibida til undoshlari va tor unli(lar) ishtirok etgan yasama so'zlar berilgan javobni aniqlang.

A) xizmatkor, kiymoq B) ishqala, qaramlik

C) gulchi, tilik D) qing'ir, tirik

13. Tovushlarning hidi, bo'yи bor.

Tovushlarning sovuq, ilig'i.

Tovushlarning rang-ro'yи bor.

Tovushlarning shirin-achchig'i,

Bordir hatto yumshoq, qattig'i,

Shoir rassom bo'lsa agar,

Chizar edi shunday lavhalar.

Berilgan parcha haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) 6 o'rinda tovush o'zgarishi sodir bo'lgan; 2) 1-misrada shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan 2 ta so'z qo'llangan;

3) 4 ta yasama so'zda tovush almashinishi sodir bo'lgan; 4) qo'sh undoshlar soni 3 (4) ta; 5) 1 ta ko'makchi, 1 ta bog'lovchi, 1 ta yuklama ishtirok etgan; 6) 1 ta hol ergash gapli qo'shma gap mavjud; 7) jarangli undosh bilan tugagan yopiq bo'g'inlar 24 o'rinda qo'llangan; 8) til orqa, o'ra keng, lablangan unli bilan tugagan ochiq bo'g'inlar 3 o'rinda qo'llangan; 9) 18 (23) o'rinda ko'makchi morfema ishtirok etgan; 10) 3 o'rinda otlashgan so'z ishtirok etgan.

A) 1, 4, 6, 7, 8, 9, 10 B) 2, 3, 4, 6, 7, 9

C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9 D) 4, 6, 7, 8, 9

E) Javobni hosil qiling: 2,3,6,7

14. 1) O'zbekiston Respublikasi don mahsulotlari konserni.

2) O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti. 3)

Toshkent Aviatsiya instituti. 4) Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi. 5) Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti. 6)

Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti. 7) Fan va texnika davlat qo'mitasi. 8) Xalqaro Gumanitar huquq. 9)

Jahon Intellektual mulk tashkiloti.

Barqaror birikmalarning qaysilari xato yozilgan?

A) 1, 2, 4, 6, 8, 9 B) 3, 5, 7

C) 2, 3, 4, 6, 8 D) 1, 2, 3, 4, 6, 8

15. "mushukning bo'yи shiftga osig'liq turgan go'shtga yetmay, puf, sassiq, degan ekan".

Bu maqol qaysi asarlarda uchraydi?

A) "O'tkan kunlar", «Mehrobdan chayon»

B) «Jamila», «Zarbulmasal»

C) «Hayotga muhabbat», «Alvido, bolalik!»

D) "Qutlug" qon», «Kecha va kunduz»

16. Agar sen go'daklik zamoningda onang sen bilan qanday hayot kechirganini, o'zingning esa osmon bilan yerning farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganiningni bilishni

**istasang**, atrofingdagi onalarga **qara**, ularning qo'llaridagi chaqaloqlarga **nazar sol**, shunda sen o'z go'dakliginingni yorqin **tasavvur qilasan** va o'zing bundan **xulosa chiqarib olasan**. Ushbu murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlari haqida berilgan qaysi hukmlar to'g'ri emas?

1) barcha kesimlar sof fe'l bilan ifodalangan; 2) shart,

buyruq- istak, xabar mayli fe'llari bilan ifodalangan; 3)

barcha kesimlar mustaqil kesimlarga mansub; 4) barcha kesimlar kelasi zamon ina'nosini ifodalagan; 5) kesimlar

har xil shaxs-son ma'nosidagi fe'lllar bilan ifodalangan.

A) 3, 4, 5      B) 3, 5      C) 1, 2, 3      D) 3, 4

17. Qaysi adib ijodini tinglagan hokim hatto etigini ham kiymasdan otga minadi va yurtga qaytish haqida farmon beradi?

A) Xo'jandiy    B) Rudakiy

C) Sayfi Saroyi D) Firdavsiy

18. Bizda **ota-on a o'g'il-qizini** voyaga yetkazadi, **yelib-yugurib** ularni oilali qiladi, bir umr **bola-chaqasi uchun** umri o'tganini bilmay qoladi.

Ushbu gapdag'i juft so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.

A) ega, vositali to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol

B) ega, vositasiz to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi

C) ega, vositasiz to'ldiruvchi, hol, hol

D) ega, vositasiz to'ldiruvchi, hol, vositali to'ldiruvchi

19. **Inson tarixning** yaratuvchisi, ishtirokchisi va uni

dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligi rad etib bo'lmas haqiqatdir.

Ushbu gapda qaratqich aniqlovchi qaysi gap bo'lak(lar)iga bog'langan?

A) vositasiz to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchiga

B) egaga

C) sifatlovchi aniqlovchi, egaga

D) qaratqich aniqlovchi, egaga

20. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, baxt keltiradi.

B) U shunday qobiliyatga ega ediki, bir marta eshitgan narsani hech o'zgarishsiz qayta hikoya qilib beraverardi.

C) Oltin va kumushi bo'lman odam kambag'al emas, balki kasb-hunari bo'lman odam kambag'aldir.

D) Jahl kelsa, aql qochadi.

21. **-ma, -dor, ser-, ba-, be-, -mand, -kor, -siz, -chak, -chan, -choq, -chiq, -qoq, -ag'on, -man, -ildoq, -namo, bad-, -don, -bop, -chil, xush-, -kash...**

Berilgan qo'shimchalardan nechta ot va sifat yasovchi qo'shimcha sifatida shakldoshlik xususiyatiga ega?

A) 10    B) 9    C) 8    D) 7

22. Besh **yuz yil yangradi** tog'day Vatanda,

Ulug' Alisherning asriy **nidosi**. Ushbu misralarda jarangsiz juftiga ega bo'lman jarangli undosh bilan boshlanuvchi nechta bo'g'in mavjud?

A) 8 ta    B) 9 ta    C) 6 ta    D) 7 ta

23. ... Issiq uyda, yumshoq to'shakda yotgan to'q bir odamni: och-yalang'och, to'shaksiz sovuqda qolgan kambag'alning holi nima kechdi ekan, deb o'ylantirib, uni u yonidan bu yoniga ag'anatadigan, uyqusini qochirib, jonini achitadigan ham-menman. Abayning «Nasihatlar» asaridan olingan ushbu parchada so'z yasovchi qo'shimchalar necha o'rinda qo'llanganini aniqlang.

A) 3 ta    B) 5 ta    C) 7 ta    D) 9 ta

24. Har kishikim topsa davron ichra johu e'tibor,

– Kim aning zotida bedod-u sitam bo'lg'ay qilig'.

Yaxshilig' gar qilmasa, bori yomonlig' qilmasa,

– Kim yamonlig' qilmasa, qilg'ancha bordur yaxshilig'.

Ushbu misralar muallifi kim, qaysi she'riy janrda yozilgan?

A) Alisher Navoiy, qit'a

B) Bobur, qit'a

C) Bobur, g'azal

D) Alisher Navoiy, ruboiy

25. Yo'liqmaslik so'zi tarkibida nechta ko'makchi morfema mavjud?

A) 1 ta    B) 2 ta    C) 3 ta    D) 4 ta

26. Haynrix Hayne bir she'rida isyon to'la qalbimda nima(-lar) yashar deydi?

A) qo'shiq

B) navo

C) kulgu, ehtiros

D) barchasi to'g'ri

27. **Yaxshiga** yaxshi nom fe'lidan yetar,

Sha'niga barcha el rahmatlar aytar,

**Yomon** bag'tini tosh aylasa, **yaxshi** –

Yurak qo'ri bilan toshni eritar. Berilgan she'riy parchadagi otlashgan sifatlar qanday gap bo'laklari vazifasida kelgan?

A) vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, kesim

B) vositasiz to'ldiruvchi, ega, ega

C) vositali to'ldiruvchi, ega, ega

D) vositali to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, kesim

28. Yaxshi bo'lgin, hatto dushmaning oson

**Seni** deyolmasin yaramas-yomon.

Tanburning ovozi soz chiqib tursa

Qulog'in buramas sozchi hech qachon. (Sa'diy Sheroziy)

Ushbu misralardagi fonetik o'zgarishga uchragan portlovchi-jarangli undosh tovush(-lar) sonini aniqlang.

A) 1 ta    B) 2 ta    C) 3 ta    D) 4 ta

29. Qaysi qatorda imloviy xatoga yo'l qo'yilgan?

A) 9 may - Xotira va qadrlash kuni

B) Jahon Tinchlik Kengashi

C) Qor yog'di, don yog'di

D) Oy Yer atrofida aylanadi

30. **Insoniyat** tarixi o'zligimizni ko'rsatadigan, **bizning olis** shajaramizni, nasl-nasabimizni, **insoniy** qadr-qimmatimizni belgilaydigan **muqaddas** va **mo'tabar** voqelikdir.

Otli so'z birikmalarida tobe qism , qaysi gap bo'laklari vazifasini bajargan?

A) qaratqich aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi

B) qaratqich aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, hol

C) ega, qaratqich aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi

D) ega, qaratqich aniqlovchi, nifatlovchi aniqlovchi, to'ldiruvchi

31. Hokim qismi ham, tobe qismi ham fonetik hodisaga uchragan so'z birikmasi qatnashgan gapni toping.

A) Men shunaqa yig'loqroqman, hamma biladi.

B) Men shu damlarni sira unutolmayman.

C) Sohibdilim, nega kunda yig'layverasan?

D) Faqat o'lsam yig'lamayman, uyat bo'ladi.

32. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga vergul qo'yilish holati qaysi javobda noto'g'ri berilgan?

A) bir paytda ro'y beruvchi hodisalarini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda

B) ketma-ket ro'y beruvchi hodisalarini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda

C) oxshatish munosabatlarni ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda

D) tuzilish jihatdan bir xil bo'lib, sanash ohangi bilan talaffuz qilinuvchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda

33. O'tkir Hoshimov va Murod Muhammad Do'st ijodiga mos keladigan asar qahramoni va janrini toping.

A) Hakima aya – qissa    B) Ilhom samovarchi – hikoya

C) Hakimaya aya – hikoya    D) Xadicha – hikoya

34. Ega uyushib kelgan gapni aniqlang.

A) Ona-Vatanga muhabbat, xalq, millat birligi, uning kelajak istiqboli, hayot farovonligi va tinchligini dildan jo'shib kuyladilar.

B) Ikki kundan so'ng uning xonasiga hali yigirmaga to'lman qiz bilan yoshi ellikdan oshgan, odmi kiyingan, qotmadan kelgan ayol kirib keldi.

A) Sochlari jingalak, rangi oq- sariqqa moyil, ko'zlar o'tkir boquvchi tabib yigit «Nima gap? Qayeringiz og'riyapti?» deb ham o'tirmay, avval Zaynabning ikki kaftini ko'rdi,

tirnoqlarini ohista ezdi, so'ng bilak tomirini ushlab, boshini quyi egganicha, nimanidir ziyraklik bilan tinglayotganday jim qoldi.

D) Bevaning, ayniqsa, tirnoqqa zor bevaning zorli, g'amli ohlariga zamin qanday chidar ekan, samo qanday chidar ekan?

35. Tosh tuz tuyiladigan o'g'ir ichidan uzun qayroqni olib, pichoqni qayray boshladi. Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmlarni ajrating.

1) asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan 6 ta so'z qatnashgan; 2) fe'lidan yasalgan so'z qatnashgan; 3) so'zlar tarkibida til undoshlarining barcha turi mavjud; 4) bir so'z tarkibida o'zlik nisbat qo'shimchasi qatnashgan; 5) fonetik o'zgarishga uchragan yasama so'z mavjud; 6) 1 ta hol va 1 ta aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan; 7) 2 ta ko'makchi fe'l qatnashgan.

A) 1, 2, 3, 5      B) 3, 4, 6, 7

C) 1, 3, 4      D) 2, 5, 6, 7

36. ... suzilib, buyiri-buyiriga qapishib, qorni qorniga yopishib ter bilan qotgan changlar yong'oqday dumaloq bo'lib... - qaysi ot ta'rifi?

A) Boychibor    B) G'irko'k  
C) Ko'kdo'nан D) Jiyronqush

### 18-variant

1. Janni Rodarining "Uchtadan oxiri bor ertaklar" turkumiga mansub ertaklari to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) «Sehrli nog'ora»; 2) «Kumush tangacha»; 3) «Ayyor Buratino»; 4) «Bronza to'ng'iz»; 5) «Sahrodagi uy»; 6) «Milanda yog'gan shlyapa yomg'iri»; 7) «Rinaldoning sarguzashtlari»

A) 1, 3, 5, 6, 7      B) 1, 3, 4, 5

C) 2, 3, 5, 6, 7      D) 1, 2, 3, 4, 5

2. So'z yasash qoliplari va ularning ma'nolari qanday aniqlanadi?

A) bir xil yasovchi qo'shimchali so'zlarni ma'lum uyalarga birlashtirish orqali

B) ko'p ma'noli qo'shimchalarni aniqlash orqali

C) ma'nodosh qo'shimchalarni qo'shish orqali

D) shakldosh qo'shimchalarni aniqlash orqali

3. Hamid Olimjon «O'zbekiston» she'rida Vatanga muhabbat tuyg'ulari ortida kimlar turganini va farovonlikning aksi bo'lgan hodisalarini qanday san'at orqali ifodalaydi?

A) tajnis      B) tazod      C) talmeh D) tashbeh

4. Qaysi satrda yashirin qarshilantirish borligini ko'rishimiz mumkin?

A) «Barig'lik turur bu ajun qalg'usiz,

O'zung edgulik qil yitib barg'usiz»

B) «Boqib ko'z uchidin pinhon fosh etding tag'ofillar, Yo'q-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansun»

C) «Orzu qildim: «Tutarmen», - deb visoli domanin, Pora bo'ldi hajr ilgida giribon oqibat»

D) «Qovoq solib osmon ko'zi yosh sochar, Chechak-maysa quvnoq kulib yuz ochar»

5. Qaysi ijodkor hasbi hol yo'nalishida yozilgan g'azalida o'zini «Jahon - og'uga kelgan...», «G'am-u qayg'uga kelgan...», deb tasvirlaydi?

A) Anbar Otin      B) Uvaysiy

C) Nodira      D) Dilshodi Barno

6. **Gulxan yoqdi.** Mazkur gapning kesimi majhul nisbatdagi fe'lga aylantirilganda ushbu gapda bo'ladigan grammatik o'zgarishlar xato ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) zamон ма'нози о'згаради; 2) то'лдирувчи егага айланади; 3) о'tимли фе'l о'tимсизга айланади; 4) со'зловчанинг фе'lдан anglashilgan harakatga munosabati о'згаради.

A) 1, 3 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 4

7. Ota // quyosh // ona // oy //

Bu // men // oyjon // Tushib qolgan tinish belgilarining mosini toping.

A) vergul, tire, vergul, nuqta, tire, vergul, nuqta

B) tire, vergul, tire, nuqta, tire, vergul, nuqta

C) vergul, nuqtali vergul, vergul, nuqtali vergul, tire, vergul, nuqta

D) tire, nuqtali vergul, vergul, nuqta, tire, vergul, nuqta

8. Berilgan so'zlardan qaysi birining tarkibi o'zbek tilida asosga qo'shimcha qo'shilganda boshqasiga almashishi mumkin bo'lgan tovushlardangina iborat?

A) choy      B) qora C) karam      D) ilon

9. Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, **Avaz ham bundan shunday quvonadi.**

Ushbu gap haqida noto'g'ri fikrlarni aniqlang.

1) ergash gapga havola qiluvchi bo'lak tarkibida jarangli til va lab undoshlari qatnashgan; 2) bir-birini taqozo qilgan bo'laklar (nisbiy so'zlar) bir xil gap bo'lagi vazifasida kelgan; 3) bir-birini taqozo qilgan bo'laklar har xil gap bo'lagi vazifasida kelgan; 4) ergash gapga havola qilgan bo'lak nomustaqil kesimga ergashgan.

A) 2, 4 B) 1, 3, 4      C) 1, 2 D) 1, 4

10. Keyinroq ham ko'zimiz tushib turardi, **biroq** endi u shunday bir yuksaklikda va qamrovi shu qadar keng edi**ki**, bu kengliklar bizga o'xhash jo'n odamlarning shuuriga sig'masdi. Ushbu gap...

A) Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap

B) Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap

C) Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

D) Aralash murakkab qo'shma gap

11. Qaysi juftlikda shakldosh so'z ma'nosini urg'u farqlaydi?

A) mardlarcha - mardlar kabi

B) yosh yigitcha - yigitcha ishladi

C) qishloqcha bor - kichkina qishloqcha

D) yovuzlar singari — yovuzlarcha

12. «Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek, Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek» baytida qaysi she'riy san'atlar qo'llangan?

A) tashbih, tanosub      B) irlisol masal, tazod

C) tajnis, mubolag'a      D) tashbih, tashxis

13. Holat fe'llarini ajrating.

1) yalinmoq; 2) semirmoq; 3) **bo'yamoq**; 4) gavdalantirmoq;

5) o'yalamoq; 6) ranjimoq; 7) joydiramoq.

A) 1, 2, 4, 5, 6, 7      B) 1, 2, 3, 6, 7

C) 2, 6, 7      D) 1, 2, 3, 4, 6, 7

14. Quyidagi gaplardan qaysilarida fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z yasovchi morfema qatnashgan?

1) Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi. 2) Butun xalqning istagi shu - tinchlik. 3) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi. 4) Hayajonlanganimdan tanamning og'rig'ini ham sezmabman.

A) 2, 3, 4      B) 1, 3, 4      C) 1, 2 D) 1, 2, 3, 4

15. Tobe va hokim qismi yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmalarini belgilang.

1) bepoyon paxtazor; 2) g'oliblik uchun kurashish; **3) chiroqli gapirmoq**; 4) beqiyos o'lka; **5) yozgi kiyim**; 6) birga ishlamoq; 7) o'tloq ko'm-ko'k.

A) 2, 4, 5      B) 1, 3, 5, 6, 7

**C) 1, 3, 5      D) 2, 4, 6, 7**

16. She'riy didaktik asarlarga qaysi asarlar kiradi?  
1) "Pantachantra" - «Kalila va Dimna»; 2) «Ming bir kecha»; 3) Xojaning «Gulzor», «Miftoh ul-adl» asarlari; 4) Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari; 5) Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari; 6) Sa'diyning "Guliston" asari; 7) Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari; 8) Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» asari; 9) Navoiyning «Hayrat ul-abror» asari.

**A) 5, 8, 9      B) 1, 2, 3**

**C) 4, 6, 7      D) 5, 8, 7, 9**

17. Zulfiya «Bog'lar qiyg'os gullaganda» she'rida «orqa tog» deb kimni yoki nimani aytadi?

**A) o'tgan umrni      B) o'zbek xalqini**

**C) bog'dagi daraxtlarni      D) yozgan she'rlarini**

18. Javoblardan To'ra Sulaymonning satirik va yumoristik asarlar to'plami nomini toping.

**A) «Sarvinoz»      B) «Hamqishloqlarim»**

**C) «Jahongashta»      D) "Alhazar"**

19. Istanbul universitetida tahsil olgan, ma'lum vaqt

Hindistonda o'qituvchilik qilgan, o'zbekcha, forscha, ozarcha tillarda ijod qilgan shoir kim?

**A) Abdurauf Fitrat      B) Mahmudxo'ja Behbudiy**

**C) Abdulla Avloniy      D) Muhammad Sharif So'fizoda**

20. Kesimi majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan gaplarda qaysi gap bo'lagini tushirish mumkin emas?

**A) egani      B) to'ldiruvchini**

**C) holni      D) barcha gap bo'lagini tushirish mumkin**

21. Uvaysiyning «Ki bulbul nola, afg'on aylamakni mendin o'rgandi» misralari bilan boshlanuvchi g'azalidagi raviy qaysi?

**A) "d"      B) «k»      C) «n»      D) «i»**

22. «Bildimki, oni dushmani makkorai ayyor, "Lo" - tirnog'i birla yuzini tirmalab o'ttum» Ushbu bayt kimning qalamiga mansub va unda qanday san'at qo'llangan?

**A) Mashrab, kitobat      B) Ogahiy, tazod**

**C) Furqat, iyhom      D) Navoiy, mubolag'la**

23. Abay «Nasihatlar» asarida g'ayratsiz jahl, qayg'usiz oshiq, shogirdsiz olimlarni kimga yoki nimaga o'xshatadi?

**A) soyaga      B) qahraton qishga**

**C) qurigan ko'lga      D) tulga**

24. Jahonda **nimaiki** oq bo'lsa, unga ona suti timsol; **nimaiki** jo'shqin bo'lsa, unga ham ona mehri timsol; **nimaiki** chidamli, sabr-toqatli bo'lsa, ona irodasi timsol; **kimki** pok muhabbat, mehridaryolik da'vo qilsa, onaning pok qalbi timsol. Berilgan parchada nechta gapning egasi olmosh bilan ifodalangan?

**A) 5      B) 6      C) 4      D) 3**

25. Jek Londonning burjua jamiyatini qattiq tanqid ostiga olib yozgan romani nomini aniqlang.

**A) «Qirq mil narida»      B) "Tubanlik kishilar"**

**C) «Oq sukunat»      D) «Martin Iden»**

26. **O'z tilini unutgan xalqning**

**Bog'larida o'sgan gullarin**

Chirmab **uxlar** zaharli ilon. (Xurshid Davron)

Berilgan she'riy parchada nechta so'z kesimga bilvosita tobelangan?

**A) 5      B) 8      C) 6      D) 7**

27. Qaysi qatorda ravishdosh gapning markazini ifodalab kelmagan?

**A) To'satdan onamning jahli chiqib ketdi.**

**B) Razm solsangiz, bu rastada ko'p narsani ko'ra olasiz.**

**C) Sen yig'lasang, men ham yig'lab yuboraman.**

**D) Mehmonlar hamma bilan quchoqlashib ko'rishdilar.**

28. Javoblarning qaysi birida berilgan gapda ham mustaqil, ham nomustaqlil to'ldiruvchi qatnashgan?

**A) Qo'shni xonadan qizlarning quvnoq qahqahasini eshitdim.**

**B) Bolakay derazani zo'rg'a ochib baqira boshladи.**

**C) Sen keyingi vazifangni hozir o'ylab ko'r.**

**D) O'rtog'im dilkash odamlar bilan suhbatlashishni yoqtirar edi.**

29. Qaysi gapda uchta yordamchi so'z qatnashgan?

**A) Olam shu qadar torki, olgan nafasing aks-sado beradi.**

**B) Koshki, yoshligingda keksalar kabi donishmand, keksayganda yoshlар singari baquvvat bo'lsang.**

**C) Tun xastalar va so'qqaboshlarni sinash **uchun** Tangri **tomoni**idan yuborilgan elchidir.**

**D) Quyosh buloq suviga ham, mag'zavaga ham baravar nur sochaveradi.**

30. **Saboq olib diyonatdan,**

**Ezgu ishdan, matonatdan,**

**Qochib mudom xiyonatdan,**

**Asragaymiz biz Vatanni.** (A. Sobirov)

Ushbu she'riy parcha tarkibida faqat hokim qismi fe'l bilan ifodalangan nechta so'z birikmasi mavjud?

**A) 4 B) 3 C) 5 D) 6**

31. **Sohilda o'tkir hidli qoramtrir yalpizlar, sershox jambililar o'sib yotibdi.** Berilgan gapdagi

qo'shimchalarining turi va sonini aniqlang.

**A) 1 ta so'z yasovchi, 4 ta lug'aviy shakl yasovchi, 3 ta munosabat shakli**

**B) 2 ta so'z yasovchi, 5 ta lug'aviy shakl yasovchi, ta munosabat shakli**

**C) 3 ta so'z yasovchi, 5 ta lug'aviy shakl yasovchi, 2 ta munosabat shakli**

**D) 4 ta so'z yasovchi, 4 ta lug'aviy shakl yasovchi, 2 ta munosabat shakli**

32. Iskandar, dilingni ilm bilan **obod qil, ilmsiz** kishilar bilan **suhbatlashma, yutuqlaringga mag'rurlanma**, senga **hasad qilganlarni** uyingga kiritma, **gina qilishdan** saqlan, **yomonlik** va **ochko'zlikdan** qoch, **saxiylikka** intil. Ushbu gapda necha o'rinda yasama so'z qatnashgan?

**A) 8      B) 9      C) 11      D) 10**

33. «Avesto» so'zining o'zagini belgilang.

**A) «to»      B) «ave»      C) «sto»      D) «vest»**

34. Ishq vodisidin bu kecha men hay-haylab o'ttum, Monandi nayiston guliga o't qalab o'ttum. Mashrab ijodidan olingan ushbu baytdagi «nayiston» so'zi qanday ma'noni beradi?

**A) qamishzor B) bog' C) dunyo D) gulzor**

35. Egasi qatnashmagan gaplarning qaysi birida harakat nomi murakkab kesim hosil qiladi?

**A) egasi ma'lum gap**

**B) egasi noma'lum gap**

**C) egasi umumlashgan gap**

**D) murakkab kesim hosil bo'lmaydi**

36. **Mehnati bilan baholansa, yerning sohibi -**

**dehqonning hech kimdan kami bo'lmaydi.** Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.

**1) nomustaqlil kesim qatnashgan;** 2) 1 ta sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan; 3) otlashgan ravish kesim vazifasida kelgan; 4) 2 (1) ta turlangan so'z ega vazifasida kelgan; 5) qaratqich aniqlovchilar uyushib kelgan; **6) ajratilgan bo'lak**

qatnashgan; 7) ushbu gap hol ergash gapli qo'shma gapdir; 8) ichi bo'sh so'zlarga mansub 1 ta sodda so'z vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan; 9) narsa va hodisalarning ikinchi nomi hisoblangan so'zlar qo'shilmasi ishtirok etgan; 10) yerning so'zidan keyin vergul tushib qolgan.  
A) 2, 3, 5, 9                    B) 1, (4,) 6, 7  
C) 3, 5, 8, 9, 10              D) 1, 4, 6, 7, 8, 10

### 19-variant

1. Uch mazlumning turmushi, o'y-xayollari, ko'ngil olami, qarashlari, tutumlari va taqdiridagi o'zgarishlar aks etgan asar qaysi?
- A) A. Qodiriyning "0'tgan kunlar" romani  
B) A. Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani  
**C) Oybekning "Qutlug' qon" romani**  
D) Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani
2. Kumush qishdan, zumrad bahordan qolishmaydi kuzning ziynati. Ushbu gapdagi so'z birikmalari soni nechta?
- A) 7 ta B) 4 ta C) 6 ta **D) 5 ta**
3. «...bilan basta eshikdur kushod,  
... bilan topdi eranlar murod.  
... sening dardingga darmon bo'lur.  
... bilan xor guliston bo'lur»
- Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarida keltirilgan ushbu ta'rifida qaysi so'z tushib qolganini toping.
- A) mehnat B) ishonch C) g'ayrat **D) sabr**
4. Quyida berilgan ertaklardan nechta Janni Rodarining «Uchtadan oxiri bor ertaklar» turkumiga mansub emas?
- 1) "Hech qayoqqa olib bormaydigan yo'l"; 2) «Hurishni explomagan kuchukcha»; 3) «Qutbdagi gunafsha»;  
4) «Sahrodagi uy»; 5) «Sehrli nog'ora»; 6) «Rinoldoning sarguzashtlari».
- A) bittasi      B) uchtasi      C) to'rttasi **D) ikkitasi**
5. Berilgan qaysi gapda vazifadosh ko'makchi ishtirok etmagan?
- A) Toshkentga qarab yurdi.  
B) Devordan bo'ylab qaradi.  
**C) Mehnatsevarligi uchun xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi.**  
D) Televizor ustida janjallahdi.
6. O'z tilini unutgan **xalqning**  
**Bog'larida** o'sgan **gullarin**
- Chirmab uxlari zaharli **ilon**. (Xurshid Davron)  
Berilgan she'riy parchada aniqlovchilar tobelangan bo'laklar ketma-ketligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
- A) to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, hol, to'ldiruvchi, ega**  
B) to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, hol, ega, to'ldiruvchi  
C) qaratqich aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, to'ldiruvchi, ega  
D) sifatlovchi aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, to'ldiruvchi, ega
7. U o'z **xalqiga** muhabbatini va yurt **taqdiri haqida** yozilgan fikrlarini, falsafiy-badiiy mushohadalarini she'riy **satrarda** ushbu **to'plamiga** jamlagan. Ushbu gapdagi vositali to'ldiruvchilar sonini toping.
- A) 6 ta B) 5 ta C) 7 ta **D) 4 ta**
8. Ishq o'tida yuzi oltinni yashirganligi, shu ishq sabab, yuzi oltinga aylanganligi haqida g'azal yozgan shoir(-lar) kim?
- A) Lutfiy      B) Lutfiy, Sakkokiy  
C) Atoyi      D) Sakkokiy, Atoyi
9. Choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasiini yorib qo'yan qahramon kim va u qaysi asarda uchraydi?
- A) "Sariq devni minib" romanidagi Hoshimjon  
B) «Yo, Jamshid» hikoyasidagi Islomboy  
**C) «Shum bola» qissasidagi Sariboy**  
D) «Yo, Jamshid» hikoyasidagi O'rionboy
10. O'zbek adabiyoti yarixida «Dedim... Dedi... «savol-javob tarzida ruboiy yozgan adib kim?»
- A) Lutfiy      B) A. Navoiy  
**C) Pahlavon Mahmud D) Xo'jandiy**

11. Qaysi gap(lar)da birinchi qo'shimchasi shakl yasovchi qo'shimcha bilan, ikkinchi qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan so'z(lar) aniqlovchi vazifasida kelgan?

1) Bilimdon va tadbirkor raqobatbardosh yoshlari Vatanimizning kelajagi hisoblanadi. 2) Ishsizlik ildiziga bolta urdir. 3) Sizga jo'shqinlik yetishmayapti. 4) Hasharga yig'ilganlar fidokorona ishladi.

A) 2,3 B) 1,2 C) 1,2,3,4 D) 2

12. Etikdo'zning «Sabr qiling» deyishiga ham qaramay, qiziqqon savdogar masalani shu zahoti uzil-kesil hal qilishga qaror qilib, uni qo'yarda-qo'ymay o'zi bilan olib ketdi.

Mazkur gap tarkibidagi yasama so'zlarning nechta ismlar guruhiga mansub?

A) 1 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 3 ta

13. Madaniy axloq kishining yurishida, so'zlashishida, ovqatlanishida, odamlar bilan xayrlashishida, hamrohini raqsga taklif etishida namoyon bo'ladi.

Gapdagi uyushgan bo'laklarning nechta yasama so'z ekanligini aniqlang.

A) 4 B) 5 C) 2 D) 3

14. Farzandlari tomonidan ko'ziga mil tortilgan qahramon kim?

A) Muhammad Tarag'ay B) Arabmuhammad Bahodirxon  
C) Ko'chkinchixon D) O'g'uzxon

15. Lablangan va lablanmagan unlilar yonma-yon kelgan so'z(lar)ni toping.

1) okean; 2) tabiat; 3) muallim; 4) material; 5) beaql.

A) 1, 5 B) 1, 3, 4 C) 3 D) 2, 4

16. 1) U akalari bilan ariq qazib, suvsiz cho'lga suv chiqaribdi. 2) Yozning issiq kunlari g'animat ekanligini esdan chiqarmanglar. 3) Shamol toy ekan, Kuchga boy ekan, yengil ko'charkan, Ko'kka ucharkan. 4) Qovun navlarining atalish usullari xilma-xil.

Ushbu gaplarning nechta yasama so'z(shimchasi qatnashgan?)

A) 2 tasida B) 4 tasida C) 1 tasida D) 3 tasida

17. Til shirinligi - ko'ngilga yoqimli, yumshoqligi foydali; Chuchuk til achchiqlikka aylansa, zarari umumiyl bo'lur.

Berilgan parchadan fonetik o'zgarish asosida yozilgan yasama so'zlarning sintaktik vazifasini aniqlang.

A) ega, to'ldiruvchi, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi

B) ega, kesim, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi

C) ega, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi

D) ega, ega, to'ldiruvchi

18. Madaniy axloq kishining yurishida, so'zlashishida, ovqatlanishida, odamlar bilan xayrlashishida, ularni raqsga taklif etishida aks etadi.

Gapdagi yasama so'zlar sonini aniqlang.

A) 5 B) 2 C) 4 D) 3

19. Qayrilmaganga qayishma. Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) Tuzilishiga ko'ra buyruq gap; 2) Egasi umumlashgan gap; 3) Tarkibida bitta otlashgan so'z mavjud; 4) Tarkibida fonetik yozuv asosida yozilgan so'z mavjud emas; 5) Tarkibida bitta yasama so'z mavjud; 6) so'zlar tarkibida ikkita nisbat qo'shimchasi mavjud; 7) Gapda turlangan so'z mavjud emas.

A) 2, 3 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 5, 6, 7 D) 4, 5, 6, 7

20. Ham otlashgan, ham fonetik o'zgarishga uchragan yasama so'z qatnashgan qatorni toping.

A) Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi.

B) Ikkalasi ham shahrimizdag'i o'zgarishlarni ko'rib lol qolishdi.

C) So'z bilan o'ynaydiganlardan yuragim bezillaydi.

D) To'pidan ayrilganni bo'ri yer.

21. Besh o'rinda yasama so'z ishtirok etgan, yasama so'zlardan birining asosi ikki xil yuqori tor unlilaridan iborat bo'lgan gapni toping.

A) Uning goh yig'lagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostin-ustun qilib qo'shiq aytgisi kelardi.

B) Ipak kiyim-kechaklar dazmullanmasligi ma'qul, agar zarur bo'lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig'ir tolasidan to'qilgan mato qo'yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmullanadi.

C) Qo'zg'algan kasallikni yengish uchun tirik tanda "antitanacha"lar hosil bo'ladi, ammo bu kasallikni yengish uchun har doim ham mikroorganizmlarning samaradorligi sezilarli bo'lmasligi mumkin.

D) Hamdardlik – bir odamning qayg'u-hasratlariga achinib, o'zida ham qayg'u hosil qilishidir, lekin quruq hamdardlik foyda bermaydi.

22. Durroj yolg'on so'zlagani, noto'g'ri gapirgani uchun tuzoqqa tushdi. Berilgan gapda yasama so'zlar asosidagi portlovchi undosh tovushlar miqdori nechta?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

23. Quyidagilardan tobe qismi yasama so'zga bog'langan bitishuvli so'z birikmalarini belgilang.

1) birdan yig'lab yubordi; 2) ilk tomchilar; 3) issiqliqna quymoqlar; 4) mazali qaymoq; 5) otdek baquvvat; 6) og'ir xo'rsinmoq.

A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 5, 6 C) 1, 2, 3, 5 D) 2, 3, 4

24. Quyidagi qaysi badiiy qahramon o'z ma'shuqasini ilk bora tushida ko'radi?

A) Ravshan («Ravshan»)

B) Rustamxon («Rustamxon»)

C) Suhayl («Suhayl va Guldursun»)

D) Farhod ("Farhod va Shirin")

25. Jomiyning «Xamsa»si qanday nomlangan?

A) "Hasht behisht" B) "Haft avrang"

C) "Fani sani" D) «Haft paykar»

26. Quyida ko'rsatilganlardan qaysi biri ayrim undoshlarni harf birikmasidan farqlash uchun ishlatalidi?

A) urg'u B) vergul C) qavs D) tutuq belgisi

27. Qaysi gapda ham qo'shma fe'l, ham ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi ishtirok etgan?

A) Illatga ko'nikish qabohatga olib keladi.

B) Qish uzoq davom etganligi uchun bahorning birinchi chechaklari ham ko'z ochishga chog'lanmayroq turibdi.

C) Xaridorlar chumoliday g'imirlashib kirib-chiqib turishardi.

D) Vatan oldidagi, o'tganlar ruhi oldidagi burchingizni yana bir bor eslatib o'tdi.

28. Katta hovuzlardagi suvlarda ko'lankalar va shu'lalar jim o'ynashadi.

Berilgan gapda ishtirok etgan so'z turkumlari va ularning tartibi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

A) sifat, ot, ot, bog'lovchi, ot, ravish, fe'l

B) sifat, sifat, ot, ot, bog'lovchi, ot, fe'l

C) sifat, ot, ot, bog'lovchi, ot, fe'l

D) sifat, sifat, ot, ot, bog'lovchi, ot, ravish, fe'l

29. Umr bo'yi g'oyat notinch va tartibsiz yashagan adib...

A) Haynrix Hayne B) Aleksandr Pushkin

C) Sergey Yesenin D) Vilyam Shekspir

30. Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasida uloqning

boshlanishini kutayotganlar “...ular kelsa, uloq qizimay qolmas” deb kimlarni nazrda tutishadi?

- A) Mahkam va Turg'un chavandozni
- B) Salim va Murod chavandozni**
- C) Orif sarkor va Esonboy chavandozni
- D) Nurxon, Haydar Shokir chavandozni

31. O'zbekistonda 21-martda Navro'z bayrami shod-xurramlik bilan nishonlanadi. Ushbu gapda nechta tobe bog'lanish mavjud?

- A) 4 ta
- B) 5 ta**
- C) 2 ta
- D) 6 ta

32.

33. Sog'lomlashtirish so'zini tarkibiga ko'ra to'g'ri tahlil qiling.

- A) sog' - asos; -lom, -la - so'z yasovchi; -sh, -tir, -ish - shakl yasovchi
- B) sog' - asos; -lom, -lash - so'z yasovchi; -tir, -ish - shakl yasovchi**
- C) sog'lom - asos; -la - so'z yasovchi; -sh, -tir, -ish - shakl yasovchi
- D) sog'lom - asos; -lash - so'z yasovchi; -tir, -ish - shakl yasovchi

34. Tarkibida gap bo'laklarining barcha turi ishtirok etgan *sodda uyushiq* bo'lakli gapni toping.

- A) «Avesto»da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo'lishni, mol boqa olishni, chorvani hayvon va qaroqchilardan muhofaza qila bilishni o'rganishlari shartligi aytildi.
- B) Barchamiz milliy qadriyatlarimizning mazmuni va mohiyatini chuqur, batafsil o'rganishga harakat qilaylik.**
- C) Uning kulgisi ham o'ziga o'xshash shiringina edi, qonib, yoyilib kului.
- D) Qalbingizga toshqinlarning g'uborlari hech qachon qo'nmasin, gard yuqmasin.

35. Qaysi adib o'zining hayoti va ijodini «Ko'rgan-bilganlarim» deb nomlagan?

- A) O'. Hoshimov
- B) A. Oripov**
- C) T. Malik
- D) G'. G'ulom

36. Jo'shadi buloqning kumush yoshlari, Ham mungli, ham shirin *jildirashlari* (1),

Buralib, ko'katlar ustidan chopar,

Uzilgan marvarid *yarqirashlari* (2)...

She'riy parchadagi yasama fe'llarning yasalishi haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) 1-holatga taqlid so'zdan, 2-tovushga taqlid so'zdan yasalgan
- B) 1, 2-tovushga taqlid so'zdan yasalgan
- C) 1-tovushga taqlid so'zdan, 2-holatga taqlid so'zdan yasalgan**
- D) 1, 2-holatga taqlid so'zdan yasalgan

**1.** Berilgan gapda necha o'rinda imlo va tinish belgisi bilan bog'liq xatolar mavjud?

Bir odagi bor - jahli **chiqganda** kattaga ham, kichikka ham - xullas - **xammaga** ayamay **zaxrini sochadida** keyin afsuslanib o'tiradi.

- A) 3 o'rinda imlo, 5 o'rinda tinish belgisi bilan bog'liq xato
- B) 5 o'rinda imlo, 2 o'rinda tinish belgisi bilan bog'liq xato
- C) 3 o'rinda imlo, 2 o'rinda tinish belgisi bilan bog'liq xato
- D) 4 o'rinda imlo, 2 o'rinda tinish belgisi bilan bog'liq xato**

2. Berilgan so'zlardan nechta yasama ravishlar sanalmaydi. **atay, birin-ketin, saharlab, olg'a, har gal, vaqtinch, birdaniga, tiriklayin.**

- A) 3 ta
- B) 4 ta**
- C) 2 ta
- D) 5 ta

3. “Men o'smirlar va yoshlarning jinoyat ko'chasiga kirib qolayotganligiga befarq qarab tura olmayman”, degan adib kim edi?

- A) J. London
- B) Ch. Aytmatov**
- C) T. Malik
- D) X. To'xtaboev

4. Kishig'a ishq o'tidin zarraye yetsa, bo'lur giryon, Bo'lub besabr-u betoqat, yurak- bag'ri chunon o'rtar. Baytda qo'llangan she'riy san'atni toping.

- A) tarse'
- B) talmeh**
- C) kitobat
- D) tadrij**

5. Qaysi hukm noto'g'ri?

A) kesim -dir, bo'ladi bog'lamalari bilan kelsa, ega bilan kesim orasida tire qo'yilmaydi.

**B) kesim kelishik qo'shimchalarini olgan bo'lsa, ega bilan kesim orasida tire qo'yilmaydi.**

C) kesim sifat, ravish, kishilik (egalik) olmoshi, tartib son bilan ifodalansa, ega bilan kesim orasida tire qo'yilmaydi.

D) barchasi to'g'ri.

6. **Men** gilosman, quloq sol,

**Rangim** ol-u, **totim** bol.

Topsang qo'shalog'imni,

Qulog'ingga taqib ol. (E. Vohidov)

Ushbu she'riy parchada ega ishtirok etgan gap nechta?

- A) 4 ta
- B) 2 ta**
- C) 5 ta
- D) 3 ta**

7. Qaysi qatorda chiziqcha bilan yozilgan yasama so'zar berilgan?

**A) Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam**

B) Qop-qora, yam-yashil, to'ppa- to'g'ri

C) qing'ir-qiyshi, tog'-tog', sekin-tez

D) erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh

8. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga nuqtali vergul qo'yilish holati qaysi javobda noto'g'ri berilgan?

A) qo'shma gap qismlarining o'z ichida verguli bo'lsa

**B) qo'shma gap qismlari biri ikkinchisini izohlasa**

C) qo'shma gap qismlari ancha mustaqil bo'lsa

D) qo'shma gap qismlarining o'z ichida tiresi bo'lsa

9. .... *Albatta* .... .... *dedi Anvar*

.... .... *boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib ... musulmonchiliqdan chiqqach ... men musulmonchiliq bilan o'lishni o'bdan bildim...*

Nuqtalar o'rniga tinish belgilarini qo'ying.

A) tire, vergul, tire, vergul, tire, vergul, nuqtali vergul, undov

B) tire, vergul, tire, vergul, tire, vergul, vergul, nuqta

C) tire, undov, undov, vergul, tire, vergul, vergul, nuqta

**D) tire, undov, tire, vergul, tire, vergul, vergul, undov**

10. Elning bir so'zi bor: o'zingga ehtiyyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma. Ushbu gapda ikki nuqtaning qo'llanish sababi nima?

- A) 2-qism 1-qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish sababini ko'rsatgani uchun  
 B) 2-qism 1-qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish paytini ko'rsatgani uchun  
**C**) 2-qism 1-qism tarkibidagi otni izohlagani uchun  
 D) 2-qism 1-qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish natijasini ko'rsatgani uchun  
 11. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek"  
 tragediyasida Abdurazzoq sarbadorlar haqida kimdan eshitganligini aytgan?  
 A) Bek Arslondan      B) Mirzo Ulug'bekdan  
**C**) Hofiz Abrudan      D) Qozi Miskindan  
 12. Yerimiz, suvimiz, farzandimiz deb,  
 Xotin, bola-chaqa, dilbandimiz deb,  
 Birma-bir jonimiz **etamiz fido**,  
 Vatanni dushmanga **bermaymiz** aslo!  
 She'riy parchada fe'l turkumiga mansub so'zlar necha o'rinda qo'llangan?  
 A) 3    **B**) 2    C) 4    D) 1  
 13. Qaysi javobdag'i so'zlarda hosil bo'lish o'rniga ko'ra birlashtiruvchi, hosil bo'lish usuliga hamda ovoz va shovqinning ishtirotkiga ko'ra farqlovchi belgilari ega fonema qatnashgan?  
 A) dor-tor      **B**) toq-tog'  
 C) bo'r-ber      D) tom-tol  
 14. Tarkibida fe'lidan yasalgan so'zning turlangan so'zga tobe bo'lib kelishi kuzatiladigan gapni aniqlang.  
 A) Donishmandlar yalqovlik muhtojlik eshigi ekanligini uqtirganlar.  
 B) Tog' etaklari hali ham ko'm- ko'k bo'lib, turli go'zalliklar bilan: sariq va qizg'ish tusdagi boychechaklar, chuchmomalar, qoshlariga qop-qora o'sma qo'ygan lolalar bilan yasangan edi.  
 C) Bugungi kunda milliy g'urur tuyg'usi haqida ko'p gapiriladi.  
 D) Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vazmin, maroqli gurunglari yo'l tanobini tortar, huvullagan, fayzsiz cho'lning **o'lik manzarasiga** bir qadar jonlanish bag'ishlagandek bo'lar edi.  
 15. **Berilgan so'zlarning nechtasida til oldi, portlovchi undoshlar qo'llanilishi lozim?**  
*Mas..id, i..rido, g'i..jak, sara..jom, k..itansiya, oli..anob, taa..suf, istibdo.., muto..aa, krep..eshin.*  
 A) 4 ta B) 3 ta C) 5 ta **D**) 6 ta  
 16. Qaysi javobda keltirilgan fe'llar fe'lidan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatning ifodalanishiga ko'ra farqlanadi?  
 A) bordim, boarding, bordi  
 B) bordim, boraman, boryapman  
**C**) bordi, borildi, borishdi  
 D) boraman, borsam, boray  
 17. **Yo'liqmaslik.** Ushbu so'z qaysi qatorda asos va qo'shimchalarga to'g'ri ajratilgan?  
 A) Yo'l-iq-mas-lik      **B**) Yo'l-iq-maslik  
 C) Yo'liq-mas-lik      D) Yo'liq-maslik  
 18. O'zbek atamasining unga qadar ishlataligan turk, sart, chig'atoy singari atamalarga nisbatan tilimizda barqaror bo'lib qolishi qaysi tarixiy shaxs nomi bilan bog'liq?  
 A) Qoraxoniyilar      **B**) Shayboniyxon  
 C) Temuriylar      D) Chingizlar  
 19. **Mashrab va So'fi Olloyorning asarlari bir-biriga hamohang edi.** Ushbu gapda moslashuvli tobe bog'lanishlar miqdori nechta?

- A) 2 ta B) 4 ta C) 5 ta **D**) 3 ta  
 20. Hans Kristian Andersen ertaklarini kim o'zbek tiliga mahorat bilan o'girgan?  
**A**) Usmon Qo'chqor      B) Tog'ay Murod  
 C) Maqsud Shayxzoda D) Mirkarim Osim  
 21. **Oqqush, har yerda, har kim, sheryurak, achchiqtosh, bir payt, bir narsa, borib kelmoq, bora olmoq, biroz.**  
 Berilgan so'zlarning nechtasini kompozitsion usulda yasalgan so'zlar sanaladi?  
 A) 10 ta      **B**) 7 ta      C) 8 ta      D)  
 9 ta  
 22. Tarjiband janriga oid asarlar to'liq sanab o'tilgan javobni toping.  
 1) «Ketur soqiy, ul mayki subhi alast...» deb boshlanuvchi (Navoiy); 2) «So'yla menga ey sanam, kimning yorisan...» deb boshlanuvchi (Komil Xorazmiy); 3) «Qil amon, yo rab, aduvalr mojarosidin meni...» deb boshlanuvchi (Uvaysiy); 4) «Xating ishtiyoqin savod ayladim...» deb boshlanuvchi (Nodira).  
**A**) 1, 3, 4      B) 2, 3, 4      C) 3, 4 D) 1, 2, 3, 4  
 23. Qaysi yozuvchi «O'zing bilmagan narsani yozma», «Boshqalar yurgan yo'lidan yurma, o'z yo'lingni top» degan qoidaga hamisha amal qilgan?  
 A) Ch. Aytmatov      B) M. Yusuf  
 C) S. Sheroyziy      D) T. Malik  
 24. Mana shu tirranchalarni **himoya qilmaganim uchun boy'a rosa** po'stagimni qoqishdi.  
 Ushbu gapda kesim nechta gap bo'lagiga nisbatan bevosita hokim qism vazifasini bajargan?  
 A) 3 ta B) 5 ta C) 2 ta D) 4 ta  
 25. Jon do'sting jonidan kechsa ham, Mol do'sting molidan kechmas. Ushbu gapda necha o'rinda ismlarning munosabat shakli qo'llangan?  
 A) 4 ta B) 5 ta **C**) 6 ta D) 7 ta  
 26. Qaysi qatorda shakldoshlik xususiyatiga ega bo'limgan ibora qatnashgan?  
 A) boshga ko'tarmoq      B) ko'z yummoq  
**C**) dunyoga kelmoq      D) qo'l ko'tarmoq  
 27. «O'zi qirgani ozmidi,  
 Oti ham urush boshladni,  
 Necha odamning kallasini  
 Oti uzib tashladni»,  
 Qaysi qahramon va uning oti yovni ana shunday tahlikaga soladi?  
**A**) Hasanxon, G'irko'k B) Ravshan, Jiyronqush  
 C) Rustam, Raxsh D) Alpomish, Boychibor  
 28. Qaysi so'zdan fe'lning mayl shakllaridan biri bilan shakldosh bo'la oladigan qo'shimcha orqali fe'l yasash mumkin?  
**A**) suv B) ikki C) boy D) sava  
 29. ...**(1) fors-tojik tilida yozilgan. Adib ayni shu g'oyalarni turkiy tilda yaratish zarurligini tezganligi uchun ham asarni ...**(2) nomi bilan boshqatdan yaratadi. **Berilgan parcha So'fi Olloyorning qaysi asari haqida?**  
 A) 1 - «Maxzan ul-muteyin», 2 - «Maslak ul-muttaqiyin»  
 B) 1 - «Murod ul-orifin», 2 - «Sabot ul-ojizin»  
 C) 1 - «Maxzan ul-muteyin», 2 - «Murod ul-orifin»  
**D**) 1 - «Maslak ul-muttaqiyin», 2 - «Sabot ul-ojizin»

30. Masturaning sevgisi, chidami, hijron dog'lari uning o'zi kabi pok, chiroyli, samimi, ehtimol, shuning uchundir, Mashrab vafosizlik haqida kitoblarni o'qisa yoki o'rtoqlari og'zidan xotin-qizlar haqida yomon gaplarni eshitsa, esiga hamisha Mastura tushadi-yu, bor vujudi isyon ko'taradi, bu kabi gaplarning hech biriga ishonmaydi.

Ushbu murakkab qo'shma gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha mavjud?

A) 6 ta B) 7 ta C) 4 ta D) 5 ta

31. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalangan inson shunday **insonki**, u shariat, tariqat va haqiqat borasida **mukammaldir**. Uning dili **pok** va tili **pok**, ishi va niyatları ham **pokdir**. Berilgan parchada nechta ot kesim ishtirot etgan?

A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta

32. Qaysi asarda «Senga jafo qiluvchiga sen vafo bilan javob qil, qonni qon bilan qancha yuvsaga ham, u tozalanmaydi», degan g'oya ilgari surilgan?

A) «Qutadg'u bilig» B) «Yatimat ad-dahr»

C) «Guliston bit-turkiy» D) «Hibbatul-haqoyiq»

33. Haynrix Hayne bir she'rida isyon to'la qalbimda nima(-lar) yashar deydi?

A) qo'shiq B) navo

C) kulgu, ehtiros D) barchasi to'g'ri

34. Ulug'larning aytishicha, tutunsiz o'tin yo'q, xatosiz-odam.

Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukm(-lar)ni aniqlang.

1) aytishicha, yo'q, odam so'zlarini gapda kesim vazifasida kelgan; 2) o'tin, odam so'zlarini gapda ega vazifasida kelgan;

3) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap; 4) bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap; 5) fikrning kimga qarashli ekanligini ifodalovchi kiritma ishtirot etgan; 6) kiritma tarkibida otlashgan so'z mavjud.

A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 3, 4, 5, 6

C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 2, 3, 5, 6

35. Quyidagi fe'llarning qaysi turlarini qo'shib yozish mumkin?

A) a tovushi bilan tugagan fe'lga o'unlisi bilan

boshlanuvchi ko'makchi fe'l qo'shilsa

B) ko'makchi fe'l oxiridagi b tovushi v kabi talaffuz qilinsa

C) qo'shma fe'llar ikkita fe'lidan iborat bo'lsa

D) A, B

36. Kimki qasd etsa anga, kiysin pushaymondan kafan.

Berilgan ergash gapli qo'shma gapning turini aniqlang.

A) ega ergash gapli qo'shma gap

B) kesim ergash gapli qo'shma gap

C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

D) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

## 21-variant

1. Mirmuhsinning xalqimizning o'tmish tarixiga bag'ishlangan qissalarini belgilang.

1) «Oq marmar»; 2) «Cho'ri»; 3) «Chodrali ayol»; 4) «Tungi chaqmoqlar»; 5) «Qamar»; 6) «Me'mor»

A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 2, 3, 5, 6 D) 2, 3, 5

2. "Sulton Abulqosim Bobur so'zamol va hunarparvar podshoh edi. U ba'zi paytlarda A. Navoiy bitgan turkiycha, forsiycha she'rlarni mutolaa qilar, ta'bining quadrati va sharofatli so'zlarining shirinligidan hayratlanar, taajjubga tushar, ziyrakligi, muloyimligi uchun ofarinlar o'qir edi". Kimning qaysi asaridan olingan?

A) Xondamir «Makorim ul-axloq»

B) Nizomiy Aruziy Samarqandiy «Majma' un-navodir»

C) Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuar»

D) Homidjon Homidiy «Avesto fayzlari»

3.

4. Qaysi fikr noto'g'ri?

A) Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda, muallif gapining egasi o'zlashtirma gap egasi bo'lib gap boshida keladi.

B) Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda, so'roq, buyruq shaklidagi ko'chirma gaplar darak gap shakliga aylantiriladi.

C) Muallif gapining kesimi vazifasidagi *aytdi* so'zi dedi so'zi bilan almashtililadi.

D) Ko'chirma gap tarkibidagi undov, kirish so'zlar tushirib qoldiriladi.

5. O'lmas Umarbekovning yoshgina go'zal ayolning sirli o'limi sabablarini ochish, fojia manbalarini o'rganish, qotillarni aniqlash barobarida asar qahramonlarining ma'naviy qiyofalari oydinlasha boradigan, o'sha paytga qadar o'zbek adabiyotida deyarli qo'l urilmagan detektiv yo'nalishda yozilgan qissasini belgilang.

A) "Kimning tashvishi yo'q" B) «Yoz yomg'iri»

C) «Sevgim, sevgilim» D) «Oq qaldirg'och»

6. Lermontovni tashlamadim hech,

So'ngra qo'lga oldim Hofizni. (H. Olimjon)

Ushbu she'riy parchada ma'no ko'chishining qaysi usuli qo'llangan?

A) vazifadoshlik B) sinekdoxa

C) metafora D) metonimiya

7. Yo'liqmaslik so'zi tarkibida chta ko'makchi morfema mavjud?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

8. Ikkinci bo'g'inning birinchi tovushi shovqinlilar guruhiqa mansub. Ushbu izohga mos keladigan so'zni toping.

A) taroq B) fojia C) yangi D) shamol

9. Berilganlardan tarkibida jarangsiz portlovchi undoshlar ishtirot etmagan yasama otlarni belgilang.

1) sharshara; 2) soatsoz; 3) guruh; 4) vafodor; 5) bosim; 6) yig'in.

A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 5, 6 C) 2, 3, 4 D) 1, 4, 6

10. Berilgan juftliklarning qaysi birida ikkinchi so'zning ikkinchi bo'g'ini urg'uli hisoblanadi?

A) hozir (davraga keldi) - hozir (ketishga hozir bo'ldi)

B) yangi (yangi kitob) - yangi (yangi keldi)

C) etik (yoq qiyim) - etik (axloq normalari)

D) akademik (shoir) - akademik (litsey)

11. Leksemalar...

1) leksemalar so'zlar va grammatic qo'shimchalarga bo'linadi; 2) lug'atlarda bosh so'z sifatida beriladi; 3) leksema atamasi ham grammatic, ham leksik ma'no bildiruvchi til birligi uchun qo'llanadi; 4) ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi leksema sanaladi; 5) leksema-leksikologiya birligi.

A) 1, 2, 3, 5 B) 3, 4, 5 C) 2, 5 D) 3, 4

12. Eng buyuk jihod insonning nafsi bilan shayton bilan qilgan jihod(i)dir. Sen ham doim ularga qarshi kurash. Berilgan misol tarkibida nechta sintagma (takt), so'z, bo'g'in va tovushlar borligini aniqlang.

A) 6 ta sintagma, 16 ta so'z, 33 ta bo'g'in, 82 ta tovush

B) 7 ta sintagma, 16 ta so'z, 33 ta bo'g'in, 83(2) ta tovush

C) 8 ta sintagma, 16 ta so'z, 32 ta bo'g'in, 84 ta tovush

D) 9 ta sintagma, 16 ta so'z, 31 ta bo'g'in, 80 ta tovush

13. «Davlat tili haqida»gi Qonunning nechanchi moddasida «Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi» deb yozib qo'yilgan?

- A) 4-moddada B) 6-moddada  
C) 14-moddada D) 22-moddada

14. Alisher Navoiy nimani jon degan, ammo shunday jonki, oddiy jonlar unga jasad sanaladi, deb ifrot darajasiga chiqarib, mubolag'a qilgan?

- A) hilmni B) tilni C) tabassumni D) so'zni

15. Qaysi adib ijod maydonini bog' gulshaniga, shoirlarni shu bog'dagi qushlarga o'xshatadi?

- A) Lutfiy B) Atoiy  
C) S. Saroyi D) Xorazmiy

### 16. Kimyoiy tolalardan to'qilgan matolar

#### dazmollanayotganda dazmol qattiq qizdirilmasligi

kerak. Ushbu gap haqidagi fikrlarning nechta xato?

1) gapda 3 ta yasama so'z ishtirok etgan; 2) kesimi murakkab ot kesim; 3) 2 ta majhul nisbatdagi fe'l ishtirok etgan; 4) 1 ta tub, 1 ta yasama sifat ishtirok etgan; 5) egasi nom'a'lum gap.

- A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

17. *Qayrilmaganga qayishma*. Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) Tuzilishiga ko'ra buyruq gap; 2) Egasi umumlashgan gap; 3) Tarkibida bitta otlashgan so'z mavjud; 4) Tarkibida fonetik yozuv asosida yozilgan so'z mavjud emas; 5) Tarkibida bitta yasama so'z mavjud; 6) so'zlar tarkibida ikkita nisbat qo'shimchasi mavjud; 7) Gapda turlangan so'z mavjud emas.

- A) 2, 3 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 5, 6, 7 D) 4, 5, 6, 7

18. Mumtoz she'riyatda qaysi janrdagi she'rlarda mukammal hajm 7 va 9 baytli hajm deb qabul qilingan?

- A) g'azal B) masnaviy  
C) qit'a D) tarje' band

19. Mirmuhsinning «Me'mor» romani qahramonlari keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Zulfiqor, Ma'suma, Badia, Zulkumor  
B) Zulfiqor, Husayn, Muhtaram, Muborak  
C) Zulfiqor, Ma'suma, Badia, Horunbek  
D) Zulfiqor, Bug'uboy, Ma'suma, Zavrak

20. Ko'p nuqtaning ishlatalishi qaysi qatorda noto'g'ri izohlangan?

A) So'zlovchining cheksiz his- hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun

B) Kuchli his-hayajon bilan aytigan gapdan so'ng

C) Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida

D) Fikr bo'lib-bo'lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa

21. 1) Bek istar-istamas chiqib, yumshoq o'rindiqqa o'tirdi.

Bu yumshoq muomala davradagilarni o'ziga qaratdi. 2)

Tog'ning ko'rki - tosh bilan, odamning ko'rki - bosh bilan.

Yarim toshdan mo'lroq yo'l yurildi hamki, bekat ko'rinxaydi. 3) Mol olasi tashda, odam olasi ichda. Ko'chat

ola chiqsa, kimga foyda, kimga ziyon. 4) Uning

matematikadan dumi bor. Bir kuni paxta chopib tursam,

bitta qovun «meni ye!» deb dum berib turibdi. 5) Butun

oilasi bu yerga pomidor, piyoz, rediska, karam va boshqa

sabzavotlar ekishdi. Tangrining karamiga sig'inib, ularni

Astrobodga jo'natdim. 6) Chapga burilib chap ko'zi - shisha

ko'zini olib, ro'molchasi bilan artdi. 0'qlardan biri chiroq

shishasini sindirdi. 7) Sen gapirganda hamma jim o'tirgan

edi, kimdir luqma tashladi. Javob berishi lozimligini bilgan

Usmon og'zidagi luqmani tez-tez yutib oldi.

Qaysi gap juftliklarida ko'p ma'noli so'zlar qo'llangan?

- A) 1, 3, 4, 6 B) 2, 3, 4, 5

- C) 2, 5, 7 D) 1, 2, 5, 7

22. Kesimi majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan gaplarda qaysi gap bo'lagini tushirish mumkin emas?

- A) egani B) to'ldiruvchini

- C) holni D) barcha gap bo'lagini tushirish mumkin

23. Hamid Olimjonning hikoyalar to'plami nomi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) "Ikki muhabbat" B) «Daryo kechasi»

- C) «Tong shabadasi» D) «Ikki qizning hikoyasi»

24. Mirmuhsinning ilk qissasini toping.

- A) «Ovchi bolalari» B) «Qamar»

- C) «Jamila» D) "Sheralining bolaligi"

25. Qaysi gapda tinish belgilaringin qo'llanish qoidalariga rioya qilingan?

- A) Bog'imizda turli mevalar; olma, o'rik, giloslar pishdi.

- B) Do'sting mingta bo'lsa ham oz: dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p.

C) Sulton Abusaid otasining izidan quvmadi - uch kun Sherozda qolib ketdi.

D) O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik, barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.

26. Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'zda sinekdoxa usulida ma'no ko'chishi ro'y bergan?

- A) Mehmonni ochiq chehra bilan qarshi oldi.

- B) Navbatim sumka ko'targan "jinsi"dan keyin.

- C) Gunohi ne edi bu tilla boshning...

D) Yanvarning o'n beshlarida butun qishloq to'g'on qurilishiga otlandi.

27. Oydin Hojiyeva tarixning imtihonidir deb nimani aytadi?

- A) qomusimizni B) istiqlolni

- C) yoshlikni D) kelajakni

28. na inkor bog'lovchisi qaysi javobda sodda gaplarni bog'lamagan?

- A) Na so'zlarida ma'no bor, na Ishlarida unum bor.

- B) Ilmsiz odam yog'och kabitidir: undan na o'ziga, na xalqiga foyda bor.

- C) Na turmushida halovat bor, na yemishida rohat bor.

- D) Na bironta odamning sharpasi ko'rindi, na bir shitirlagan ovoz eshitildi.

29. Martaba berganda fe'l ham bersa keng,

Adl-u muruvvatdan qilmasa judo.

**Dargohi kattalar** bor bo'lsin, lekin

Kichik **kattalardan** asrasin xudo. Ushbu she'riy parchada otlashgan sifatlar necha o'rinda qo'llangan?

- A) 1 B) 2 C) 4 D) 3

30. Yaris dashtida o'n tuman lashkar yig'ilganini eshitib, pokiza uyat yaxshi deya orqaga qaytishni aytgan beklarga qarata quyidagi mardona so'zlarni aytgan qahramon kim va u qaysi asar qahramoni?

«Oltin yishni oshib keldik, Irtish daryosini kechib keldik. Jangchilarining kelgani qahramon, deganlar.

Dushman sezmay qoldi. Tangri, Umay, muqaddas yer-suv dushmani bosib bergen ko'rindi. Nega chekinamiz, dushmani ko'p deb, nega qo'rquamiz, o'zimizni oz deb.

Qani bosaylik, hujum qilaylik»

- A) «Kul Tigin»da Kul Tigin

- B) «To'nyuquq»da To'nyuquq

- C) «To'nyuquq»da Eltarish

- D) «Kul Tigin»da Bilga xoqon

31. O'lmas Umarbekovning syujet to'qimasining

murakkabligi, voqealar ta'sirining favqulodda keskinligi, ifoda maromining shiddatkorligi bilan e'tiborni tortadigan asarini belgilang.

A) "Urush farzandi"    B) "Oq qaldirg'och"

C) "Yoz yomg'iri"    D) "Cho'li iroq"

32. Mirmuhsin qalamiga mansub dostonlarni aniqlang.

1) «Qalb va falsafa»; 2) «Do'nан»; 3) «Irmoqlar»; 4)

«Yashil qishloq»; 5) «Nevara»; 6) «Vatandoshlar»;

7) «Usta G'iyos»

A) 1, 3, 5, 6    B) 1, 4, 5

C) 2, 3, 6, 7    D) 2, 4, 5, 7

33. "mushukning bo'yи shiftga osig'liq turgan go'shtga yetmay, puf, sassiq, degan ekan".

Bu maqol qaysi asarlarda uchraydi?

A) «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon»

B) «Jamila», «Zarbulmasal»

C) «Hayotga muhabbat», «Alvido, bolalik!»

D) «Qutlug' qon», «Kecha va kunduz»

34.

35. Bola o'z hayotida qoladigan hech nima

ko'rmadi. Ushbu gapda nechta otli so'z birikmasi bor?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

36. "Hayit kelsa uyimizda hamisha g'avg'o bo'ladi, arafa qurbon kechasida ota-onam g'alayon ko'tardi, namoz kuni ikkisi ayrilishdi, hovlini sotishdi".

Kimning hayoti tasvirlangan?

A) A. Otin    B) D. Barno

C) Muqimiya    D) M. Shayxzoda

A) sultonsiz mamlakatga

B) oysiz qorong'i kechaga

C) guli rayhonsiz qora tuproqqa

D) sarchashmasi yo'q zulmatga

3. Berilgan gaplardan tarkibida ikkita so'z yasovchi, ikkita lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchasi bor bo'lgan fe'l qaysi nisbatda ekanligini aniqlang.

1) Doshqozonga olov yoqilgan, kabobpaz sixlarini qo'raka tergan, boyagi qassob bola allaqachon qo'yni **tinchitgan** edi.

2) Karavot simlari asabiy g'ijirlab ketdi. 3) Shunda to'satdan yuragi tez-tez gursillab ura boshladi. 4)

Mustaqillikning zafarli qadami, huzurbaxsh nasimi bilan Andijonning Ko'makay qishlog'i ham o'zgartirildi.

A) aniq B) o'zlik C) majhul    D) orttirma

4. Qaysi gapda ham tub sifatdan, ham yasama sifatdan yasalgan otlar mavjud?

A) Ilk sevgi bahor osmonidagi bulut kabitdir.

B) Mehrga bemehrlik bilan javob berish - odamzodga teggan kasal.

C) Maqtanchoqlik qarilikning birinchi belgisidir.

D) O'z vaqtida qilinmagan yaxshilik yomonlikka yo'1 ochadi.

5. Sirli ishlarga uquvi yo'q qahramon kim?

A) Hoshimjon ("Sariq devni minib" romani)

B) Tursunboy ("Ufq" romani)

C) Anvar ("Mehrobdan chayon" romani)

D) Ali Qushchi ("Ulug'bek xazinas" romani)

6. Qaysi gapda yasama so'z vazifadosh ko'makchi bo'lib kelgan?

A) Bobur o'z hayoti haqida bu qadar ochiqchasiga yozgani Xondamirni hayron qoldirdi.

B) Bobur xastaligi ustiga ko'p ishlab o'zini juda toliqtirib qo'ygandi.

C) Bobur tufayli mana shu qorong'ulikni bo'yniga olib kelmoqda edi.

D) Bobur Agradan Kobulga yuborgan bu maktub Mohimga atab yozilgani sezilib turardi.

7. Qaysi muallif o'z asarida o'zi haqida "...bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonini kezgan, oz ozuqliq, ko'p yoziqlu..." deb qayd etgan?

A) Nosiruddin Rabg'uziy    B) Ahmad Yugnakiy

C) Yusuf Xos Hojib    D) Mahmud Qoshg'aray

8.1) So'zni ko'nguldan chiqarmaguncha tilga keltirma va har nekim ko'ngulda bor - tilga urma. 2) Bilim, ma'rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatilmog'i lozim. 3) Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir. 4) Ilm qog'ozga chizish va yozish bilan emas, balki uqmoq va o'qimoq bilandir. Ushbu fikrlarning mualliflarini aniqlang.

a) Navoiy; b) Abu Nasr Forobi; c) Abu Rayhon Beruniy; d) Zamaxshari.

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d    B) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d    D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b

9. Abdulla Oripovning «Sarob» she'rida bugun Toshkent ko'chalarida nimani izlayman deb yozadi?

A) she'r    B) yoshlik    C) mehr-oqibat D) sarob

10. Bir oyda ham eridan, ham o'g'lidan «qoraxat» olgan ayol qaysi asarda uchraydi?

A) «Qiyomat qarz» qissasi, Zebi

B) "Dunyoning ishlari" qissasi, Zebi

C) «Kecha va kunduz» romani, Zebi

D) "Ufq" romani, Zebi

11. Qaysi javobda yasalish asosi bilan bir xil so'z turkumiga mansub bo'lмаган yasama so'zlar ko'rsatilgan?

**Namuna: Eng buyuk jihod: insonning nafsi bilan: shayton bilan qilgan: jihodidir: Sen ham: doim: ularga qarshi kurash.**

**Izoh: Sintagmalardan so'ng ikki nuqta qo'yilgan.**

**Bu gap 7 ta sintagma (takt) dan iborat bo'lib, 16 ta so'zga, so'zlar esa 33 ta bo'g'in va 82 ta tovushga bo'linadi.**

**22-variant**

1. Najmaddin Kubroning yaqin shogirdlaridan bo'lib, «Sulton ul-ulamo» darajasiga erishgan kim?

A) Bahouddin Valad    B) Jaloliddin Rumiy

C) Najmaddin Komil    D) Nizomiy Aruziy

2. Navoiy «Yo'q» radifli g'azalida jonsiz jismni nimaga o'xhatgan?

1) ilmparvarlik; 2) chayqa 3) zargarlik; 4) unumdar; 5) uquvsizlik; 6) notejis.

A) 1, 4, 5      B) 1, 2, 3, 4, 5, 6

C) 2, 3, 6      D) 1, 3, 4, 5, 6

12. Qaysi g‘azal radd ul-qofiya asosida yozilgan?

A) «Yo‘q» radifli g‘azal (Navoiy)

B) «So‘r» radifli g‘azal (Fuzuliy)

C) «Vasl uyin obod qildim...» deb boshlanuvchi g‘azal (Nodira)

D) «Mani jondin o‘sondurdi...» deb boshlanuvchi g‘azal (Fuzuliy)

(Mani jondan o‘sondirdi, jafodan yor o‘sonmazmi?)

►► So‘ringkim, bu na savdodir, bu savdodan o‘sonmazmi?)

13. Nodiraning qaysi g‘azali mumtoz she‘riyatimizda ko‘proq ruboiy bitiladigan an‘anaviy hazaji musaddasi axrabi maqbizi mahzuf vaznida yozilgan?

A) «Fig‘onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin...»

B) «Kel, dahrni imtihon etib ket...»

C) «Vasl uyin obod qildim...»

D) «Doda keldim...»

14. Murakkab ko‘rinishdagi reja haqidagi qaysi fikr noto‘g‘ri?

A) a), b), d) kabi harfiy shakllar bilan belgilangan reja qismlarining oxiriga nuqta qo‘yiladi.

B) Insho rejalar yana ham murakkablashtirilib, «Asosiy qism»dagi arab raqamlari bilan belgilangan har bir band o‘z ichida mayda bo‘lakchalarga bo‘lib yuborilishi mumkin.

C) a), b), d) kabi harfiy shakllar bilan belgilangan reja qismlarining oxirgi banddan boshqasiga nuqtali vergul qo‘yiladi.

D) 1, 2, 3 singari arab raqamlaridan va har bir gapdan so‘ng nuqta belgisi qo‘yiladi.

15. Navoiyning «Kelmadi» radifli g‘azali qaysi taqte‘daligini aniqlang.

A) – V – – // – V – – / – V – – / – V – –

B) V – – – / V – – – / V – – – / V – –

C) – V – / – V – / – V – / – V – / – V –

D) – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~)

16. «Bir qancha yo‘l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog‘, bir yog‘i chorborg‘, juda katta – kalondimog‘, ko‘rganlar farog‘ ...»

Bog‘ tasviri berilgan ushbu parcha quyidagi qaysi dostondan olingan?

A) «Ravshan»dan      B) «Alpomish»dan

C) «Kuntug‘mish»dan      D) «Rustamxon»dan

17. Tabiatdagi insondon tashqarida paydo bo‘lgan barcha tovushlar qanday tovushlar sanaladi?

A) tarixiy      B) tabiiy

C) mexanik      D) vazifaviy

18. Nodira qaysi g‘azalida «Mag‘rur tik qomatli sarvdek yorim, sendan uzoqda xurmo daraxtidek tik ohim xam bo‘ldi, qomating hajrida shamshod shoxidek shoxim sindi» deya go‘zal tasvir yaratadi?

A) «Doda keldim» g‘azalida

B) «Vasl uyin obod qildim» g‘azalida

C) «Kel, dahrni imtihon etib ket» g‘azalida

D) «Qilmag‘il zinhor izhor ehtiyoj...» g‘azalida

19. Kim o‘zining asarida Lutfiyni turkiy tilda Navoiygacha bo‘lgan davrda ijod qilgan eng yirik shoir sifatida ta’riflaydi?

A) Xondamir, «Makorim ul-axloq»

B) Fuzuliy, “Layli va Majnun”

C) A. Taroziy, «Funun ul-balogs‘a»

D) Sh.A. Yazdiy, «Zafarnoma»

20. «Kul tigin», «To‘nyuquq» kabi yodgorliklar tili o‘zbek udabiy tili taraqqiyotining qaysi davriga mansub?

A) Qadimgi turkiy til      B) Eski turkiy til

C) Eski o‘zbek adabiy tili      D) Hozirgi o‘zbek tili

21. – Tozining terisini mening dandon sopli pichog‘imda shilasanlarmi? (G‘. G‘ulom) Tagiga chizilgan so‘z ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) fil tishi      B) kiyik shoxi

C) qimmatbaho tosh      D) to‘g‘ri javob yo‘q

22. «Rustamxon» dostonida Momogul maston tilla tangalar evaziga Huroyim ustidan fitna- g‘iybat to‘la arznama yozdiradi, firib bilan kimga tasdiqlatadi?

A) Oqtosh ahliga      B) Sultonxonga

C) qozikalonlarga      D) uch yuz oltmis mastonga

23. Imlosiga ko‘ra xato yozilgan so‘zni toping.

A) slavyan      B) fortepiano

C) premyera      D) sellofan

24. Qaysi javobda tarkibidagi birinchi qo‘shimcha shakl yasovchi qo‘shimcha bilan, ikkinchi qo‘shimcha ot yasovchi qo‘shimcha bilan omonimlik hosil qila oladigan yasama so‘zlar ko‘rsatilgan?

1) qaynatma; 2) qayg‘urma; 3) sotqinlik; 4) chidamsiz; 5) o‘chirg‘ich; 6) bilimdon.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6      B) 1, 2, 6

C) 2, 6      D) 2, 4, 5, 6

25. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo‘shma sifatlar qo‘shib yoziladi. Ushbu qoidaga mos keluvchi so‘z ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Uyasi tomon sudralgan toshbaqani sekin turtib ko‘rdi.  
B) Ariq bo‘yida otquloqlar endigina ko‘ringan edi.

C) Hovlida o‘sgan sadarayhonlar shamolda mayin tebranardi.

D) Senga o‘xshash quyonyuraklar bilan do‘stlashmayman.

26. Vatan mening jon-u tanim sajdaxonamdir,

U mening to‘lin oyim, tinch- omonim,

Izzatim, sharafim, Ka‘bam, qiblam Hamda gulistonimdir. Matnda nechta sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘llangan?

A) 12      B) 11      C) 10      D) 9      E) 13

27. “Garchand, frontda muntazam ijod etolmagan bo‘lsam ham, qachonlardir bu sevimli hunarimga qaytish ishtyoqi bir lahma ham xayolimdan ketgani yo‘q. Ba’zan zavq- shavqimni yoki dushmanha nafratimni qog‘ozga tushirib qo‘yar edim”.

Kimning hayoti va ijodiga tegishli?

A) M. Jalil      B) Shuhrat

C) E. Vohidov      D) O. Yoqubov

28. Ollohga eng yomon ko‘rinadigan odam, *avvalo*, gina va adovatni uzoq saqlovchi *odamdir*. Kimningki g‘azabi *kelsa*, *so‘zsiz*, *jim bo‘lsin*. *Birinchidan*, olim (ilm beruvchi) bo‘l yoki ilm o‘rganuvchi bo‘l, yoki tinglevchi bo‘l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo‘l. *Beshinchisi bo‘lma*, *afsuski*, *unda halok bo‘lasan*.

Ushbu matn haqidagi qaysi fikrlar to‘g‘ri?

1) Modal so‘zlarning uch turi qo‘llangan. 2) Vergulning qo‘yilishi faqat kirish so‘zlar hamda uyushiq bo‘laklar bilan bog‘liq. 3) Besh o‘rinda kesim grammatic shaklga ega. 4) Ergashgan qo‘shma gapning ikki turi qo‘llangan. 5) Bog‘lovchilarning qo‘llanilishiga ko‘ra ikki turi mavjud.

A) 1, 2, 3, 4, 5      B) 1, 3, (4), 5      C) 1, 4, 5      D) 3, (4), 5

29.

30. Hoziroq onangdan kechirim so'ra. Kechirsa-ku yaxshi, kechirmasa yalinib ko'r-da. Berilgan gaplar tarkibida so'z turkumlarining nechta turi ishtirok etganini va yuklamalar sonini aniqlang.

- A) 5 ta so'z turkumi, 4 ta yuklama  
B) 6 ta so'z turkumi, 3 ta yuklama  
C) 6 ta so'z turkumi, 4 ta yuklama  
**D) 5 ta so'z turkumi, 3 ta yuklama**

31. "Jafachi bu dunya, jafa qil angar,

Jafa qilsa o'tru yarashur sengar". (Yu.X. Hojib)  
Ushbu misrada qaytarish san'atining qaysi turi qatnashgan?

- A) radus-sadr ilal-hashv  
B) radd-us-sadr ilal-ibtido  
C) radd-us sadr ilal-ajuz  
**D) radd-ul-aruz ilal-ibtido**

32. Navoiy "Xamsa"sidagi qaysi qahramonning o'g'li bo'lsa-da, shohlikka yaraydigan emas edi, shuning uchun shoh yana bir tagli-tugli qizga uylanib o'g'il ko'rish orzusida edi?

- A) shoh Bahrom                    B) Zayd ibn Zahhob  
**C) Xusrav Parviz**                D) Sa'd

33. 1798-yilda yaratilgan Muhammad Xoksorning «Muntaxob-ul-lug'at» asarida adabiyot faniga oid atamalar berilgan qatorni aniqlang.

- A) bad'e, ramz, radif, majoz, hijo, she'r, tashbeh, nazm, fasohat**  
B) surud, ag'oni, nag'ma, nag'amot, ohang, navo, musiqa, «Hijoz», «Ajam», "Iroq"  
C) mintaqqa, xatti ustuvu (ekvator)  
D) sath, vatar

34. To'g'ri javoblarni ajrating.

1) Xorazmda birlinchi bosmaxona Komil Xorazmiy nomi bilan bog'liq; 2) Komil Xorazmiy Markaziy Osiyoda birlinchilardan bo'lib toshbosmaxona tashkil qiladi; 3) Feruz Markaziy Osiyoda birlinchilardan bo'lib toshbosmaxona tashkil qiladi; 4) Feruz Markaziy Osiyoda fotografiya ishlarini yo'lga qo'yishda bosh-qosh bo'ladi; 5) Furqat o'zbek publitsistikasining asoschilaridan biridir; 6) Furqat Toshkentga borib ilm-fan, texnika va san'atdagi yangiliklarni ko'radi.

- A) 2, 4, 5, 6    B) 1, 4, 5, 6    C) 2, 3    **D) 1, 3, 4, 5, 6**

35. Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan rasmiy xulosalarini qisqacha bayon etish maqsadidagi uchrashuvi ma'nosini beradigan terminni toping.

- A) terror (lot)                    B) ekstremizm (r)  
C) investitsiya (nem)            **D) brifing (ing)**

36. Navoiy «Xamsa» asari qahramonlaridan qaysi birini «Jamlolida vafo tug'rosi paydo» deb ta'riflaydi?

- A) Qaysni                        **B) Farhodni**  
C) Laylini                      D) Shirinni

### 23-variant

1. Qaysi javobda vazifadoshlik usulida ma'nosи ko'chgan so'z qatnashgan gap berilgan?

- A) Ishoning, dada, Karomatni boshimda ko'taraman.  
B) To'rt egat palak ekdim.

C) Shu qora ko'zlarning kelajagini o'layapman.

**D) Kechalari chiroqlar shahrimiz ko'chalarini yop-yorug' qiladi.**

2. Qaysi juftliklarda o'zaro shakldosh qo'shimchalar ishtirok etmagan?

- 1) qovurma (lag'mon) - qovurma (harakat inkori); **2)**

bog'lar (o'rin-joy oti) – bog'lar (harakat); 3) terim (tanadan ajralib chiquvchi suyuqlik) - terim (faoliyat-jarayon oti); **4) ko'zlar (inson a'zosi) - ko'zlar (harakat); 5) qaynatma (sho'rva) - qaynatma (harakat inkori).**

- A) 3, 4    B) 1, 2, 3, 4, 5    **C) 2, 4**    D) 2, 3, 5

3. Ogahiy quyidagi qaysi g'azalida tog'lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go'zalga o'xshatadi?

- A) «Navro'z bo'lsin»

**B) «Bahor»**

C) «Mujda keldi...»

D) «Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z»

4. Qaysi so'zlarda sifat yasovchi qo'shimcha bilan ham, shakl yasovchi qo'shimcha bilan ham omonimlik hosil qila oladigan ot yasovchi qo'shimcha qatnashgan?

- 1) o'yinchoq; 2) quvonch; 3) qahqaha; 4) yog'in; 5) sholikor.

- A) 1, 3, 4, 5    **B) 1, 3, 4**    C) 1, 4, 5    D) 1, 2, 4

5. M. Shayxzoda «Toshkentnomá» dostonida kimni "Asl shoir edi, she'ri - kurash, baxt va umid!", — deb ta'riflaydi?

- A) G'. G'ulomni                    B) Oybekni

**C) A. Muxtor**    **D) H. Olimjonni**

6. Ogahiy qaysi g'azalida o'xshatish uchun

bog'dorchilikdagi «payvand» usulini g'azalga olib kiradi?

- A) «O'yla yetkurdji jahong'a ziynat-u oro bahor» g'azalida

B) «Aylansun» radifli g'azalida

C) «Navro'z» radifli g'azalida

**D) «Ustina» radifli g'azalida**

7. «Kichik-kichik, tushunib bo'lmaydigan qora harflar, yelkalarida «i», «o», va «r» harflarining belgilarini ko'tarib, go'yo sirli bir olamning darvozasi oldidagi qorovullarday yonma- yon turardilar...»

Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Hayrat ul-abror», Navoiy

**B) «Nur va soyalar» Robindranath Thokur**

C) "Zarbulmasal", Gulxaniy

D) «Nasihatlar», Abay

8. Qaysi gapda qo'llanilgan bog'lovchining tahlili noto'g'ri?  
A) Hamdardlik - bir odamning qayg'u-hasratlariga achinib, o'zida ham qayg'u hosil qilishidir, lekin quruq hamdardlik foyda bermaydi. Lekin - bog'lovchi, teng bog'lovchi, zidlov bog'lovchisi yakka holda qo'llangan, 2 ta gapni bog'lash uchun xizmat qilgan.

B) Aql va farosat quyoshga o'xshaydi, beparvolik tufayli tushish mumkin bo'lgan dog'larga o'rin qoldirmaydi. va teng bog'lovchi, biriktiruv bog'lovchisi yakka holda qo'llangan, ikki so'zni bog'lagan.

**C) Mol-u davlatingiz bilan emas, balki ilm-hunaringiz, go'zal xulq-atvoringiz bilan faxrlaning. Balki - teng (vazifadosh) bog'lovchi, zidlov bog'lovchisi yakka holda qo'llangan, 2 ta gapni bog'lash uchun xizmat qilgan.**

D) Uning goh yig'lagisi, goh kulgisi, goh butun kechanı ostin-ustun qilib qo'shiq aytgisi kelardi. Goh - teng bog'lovchi, ayiruv bog'lovchisi takror holda qo'llangan, 3 ta gap bo'lagini bog'lash uchun xizmat qilgan.

9. Qaysi asar(-lar)da ilmoqda osilib turgan go'shtga (quyruqqa) yetolmay «puf, sassiq» degan mushuk holati misol tariqasida keltirilgan?

1) "Zarbulmasal" asarida; 2) «Bahor qaytmaydi» asarida; 3) «Rohati dil» asarida; 4) «Jamila» asarida; 5) «Alvido, bolalik» asarida.

- A) 1, 2    B) 1,3    **C) 1,4**    D) faqat 5

10. «Bolaning ko'ngli podsho» hikoyasida kimning «Ah,

shirin handalak» degan maqtovidan keyin «poq-poq» o‘ynab o‘tirgan Muso Mirahmad otaning uyiga otilib kirib ketadi?

- A) Qosim cho’loq      B) Ahmad  
C) A’zam                  D) Turg‘un

11. Odamlarning ma’naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish, bar bir fuqaroning uni yoshidan qat’i nazar, shu maydonni qatnashchisiga aylantirish bizni eng samarali yo’limizdir. Berilgan gapdagi kelishiklar bilan bog‘liq uslubiy xatolarni tuzatib, gapdagi vositasiz to’ldiruvchilar miqdorini aniqlang.

- A) 3 ta    B) 2 ta    C) 1 ta    4 ta

12. “Zarbulmasal” asaridagi hikoyatda berilgan qaysi qahramon bozorga borib xotiniga kavush sotib oladi va oyog‘iga to‘g‘ri kelish-kelmasligini bozordagi bir notanish qassobdan so‘raydi?

- A) Zokirboy jomafurush  
B) Muhammad Amin Xo‘ja mufti  
C) Xolboqi miskar  
D) Otaboy amin

13. N(1) . Jo‘rayev(2) . Agar ogoh sen... (3) : Portretga chizgilar(4): Siyosiy esse. (5) — T.(6) : «Sharq»(7), 1998. Jo‘rayev N. Agar ogoh sen... : Portretga chizgilar: Siyosiy esse. — T.: «Sharq», 1998.

Berilgan gapga qavs ichida berilgan raqamlarning o‘rniga mos tinish belgilarini qo‘ying.

- A) nuqta, nuqta, ikki nuqta, ikki nuqta, tire, vergul, (ikki nuqta), vergul

B) nuqta, nuqta, ikki nuqta, nuqtali vergul, tire, vergul, vergul

C) nuqta, tire, ikki nuqta, ikki nuqta, tire, vergul, tire

D) undov, tire, ikki nuqta, ikki nuqta, tire, vergul, vergul

14. Keyingi ma’lumotlarga binoan u endi poytaxtga kelmoqqa jazm qilgan.

Berilgan gapda ishtirok etgan so‘z turkumlari va ularning tartibi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

- A) sifat, ot, ko‘makchi, olmosh, ravish, fe’l, fe’l  
B) ravish, ot, modal so‘z, olmosh, ravish, ot, fe’l, fe’l  
C) modal so‘z, ot, ko‘makchi, olmosh, ravish, ot, fe’l, ot, fe’l

D) sifat, ot, ko‘makchi, olmosh, ravish, ot, fe’l, fe’l

15. Ushbu gapda ravish turkumiga oid so‘z necha o‘rinda qo‘llangan?

U bugun juda charchagan edi, kechki taomda ham zo‘rg‘a o‘tirdi, yostiqqa boshini qo‘ydi-yu, darhol uyquga ketdi.

Bir mahal endigina orom olib uxlayotganda kimdir hovli eshigini ochib ohista kirib keldi, garchi charchoq kuchli bo‘lsa-da, ozgina shovqindan ham uyg‘onib ketishga odatlangan yigitning bu ovozdan so‘ng uyqusi butunlay qochdi, boyagi uyqu istagi uni bir zumda tark etdi.

- A) 12 ta      B) 11 ta      C) 10 ta      D) 9 ta

16. Quyidagi qaysi nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gap(lar)da nisbiy so‘zlar bir xil gap bo‘lagi vazifasini bajarmagan?

1) Siz Hindistonda neniki ko‘rgan bo‘lsangiz, ularni jam etgan holda bir kitob yozmog‘ingiz darkor. 2) Birinchi qaldirg‘och parvozini ko‘rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi. 3) Kimki boshqalarga rahm-u shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi. 4) Kimki o‘zining ma’naviy quvvatidan foydalanmasa, bu quvvat uni tark etadi.

- A) 4      B) 2,3,4      C) 1,4      D) 3, 4

17. O‘qqo‘rg‘on, makkajo‘xori, bodomnusxa, izzattalab,

tinchliksevar. Berilgan so‘zlardan qator undoshli so‘zlar sonini aniqlang.

- A) 1 ta    B) 2 ta    C) 3 ta    D) 4 ta

18. Bu cholni butun yurt izzat qilardi. Ushbu gapga oid to‘g‘ri ta’riflarni ajrating.

1) 1 ta turlangan, 1 ta tuslangan so‘z qatnashgan; 2) 1 ta fe’l, 2 ta ot, 1 ta olmosh, 1 ta sifat qatnashgan; 3) 1 ta fe’l, 2 ta ot, 2 ta olmosh qatnashgan; 4) ismlar guruhiga mansub so‘zlar soni 4 ta; 5) 1 ta otlashgan so‘z qatnashgan; 6) 1 ta ko‘chma ma’noli so‘z qatnashgan; 7) asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan 1 ta so‘z qatnashgan; 8) asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan 2 ta so‘z qatnashgan; 9) aniqlovchi + to’ldiruvchi + aniqlovchi + ega + kesim tartibli gap; 10) grammatik bog‘lanishlar soni 5 ta, so‘z birikmalar soni 3 ta.

- A) 1, 2, 4, 5, 6, 8, 9, 10    B) 2, 4, 6, 8, 9, 10

- C) 1, 3, 4, 5, 7, 9      D) 1, 3, 4, 6, 8, 9

19. Odamlarning ma’naviy, madaniy, siyosiy maydonlarga tortish, har hir fuqaroning uni yoshidan qat’i nazar, shu maydonni qatnashchisiga aylantirish bizni eng samarali yo’limizdir.

Berilgan gapdagi uslubiy xatolarni tuzatib, undagi qaratqich aniqlovchilar miqdorini aniqlang.

- A) 4 ta    B) 3 ta    C) 5 ta    D) 2 ta

20. Qaysi qatorda omonim qo‘srimchalar qo‘llanmagan?

- A) chiziq - tiniq, bosqin – sotqin

- B) yozgi - qadimgi, otashin – erkin

- C) qirg‘in - so‘lg‘in, chirik – elak

- D) Dilafro‘xon - kitobxon, do’sti – boyi

21. Noto‘g‘ri yozilgan so‘zni toping.

- A) kores      B) ukrain

- C) nomzod      D) kariyes

22. Tohir Malikning «Alvido, bolalik» asarida kimning laqabi «professor» edi?

- A) Shomilning    B) Qamariddinning

- C) Ergashning    D) Asrorning

23. opson so‘zining ma’nosini qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

A) Birjada yetkazib berish vaqtini o‘tib ketgan tayyor molni sotish va sotib olish bitimlari. (forword)

B) Bir qolipdagiligi mollarni sotish yoki sotib olish bitimlari. (fyuchers)

C) Kelajakda sotib olish bo‘yicha oldi-sotdi bitimlari.

D) Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash fondi.

24. Nodiraning qaysi g‘azalida yorga «sarvi ozodim», «sarvi nozim», «parizodim», «tab‘i noshodim» undalmalari bilan murojaat qilinadi?

- A) «Kel, dahrni imtihon etib ket...» g‘azalida

- B) «Doda keldim...» g‘azalida

- C) «Vasl uyin obod qildim...» g‘azalida

- D) «Qilmag‘il zinhor izhor ehtiyoj...» g‘azalida

25. Qaysi javobdagi so‘zlarda hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra hamda hosil bo‘lish usuliga farqlovchi ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra birlashtiruvchi belgilarga ega fonema qatnashgan?

- A) dor-tor      B) toq-tog‘

- C) bo‘r-ber      D) tom-tol

26. Qaysi qatorda fonema so‘z turkumini o‘zgartirmagan?

- A) sirop - serob, soliq – solih

- B) sudxo‘r - sutxo‘r, so‘kmoq – suqmoq

- C) tang - tong, uzuk - uzik, uriah – urush

- D) undash - undosh, ana – ona

27. Muhabbat, ey go'zal iztirob,  
Ey ko'hna dard, ey ko'hna tuyg'u.  
Ko'kragimga qo'lingni tirab,  
Yuragimni to'kib qo'yding-ku. deya yozg'irgan shoir nomi  
qaysi javobda tog'ri ko'rsatilgan?
- A) Muhammad Yusuf** **B) Erkin Vohidov**  
**C) Abdulla Oripov** **D) Shavkat Rahmon**
28. Qaysi qatorda imloviy xatoga yo'l qo'yilgan?
- A) 9 may - Xotira va qadrlash kuni**  
**B) Jahon Tinchlik Kengashi**  
**C) Qor yog'di, don yog'di**  
**D) Oy Yer atrofida aylanadi**
29. Qaysi gap juftligida shakldosh so'z qo'llangan?
- A) Tomog'i qora tovuq. Alim buva gapirmoqchi bo'lib**  
tomog'ini qirib qo'ydi.  
**B) Tulki tumshug'idan ilinar. Ko'zbo'yamachi tulki bo'ladi,**  
xalq ichida kulgi bo'ladi.  
**C) Cholg'umning tori tarang, meni ko'rgan yov garang.**  
Qo'lga olsam torimni, beixtiyor eslaydurman yorimni.  
**D) Suv ketar, tosh qolar. Bektemirning yuragini ezgan**  
qandaydir bir tosh go'yo erib ketdi.
30. **Odobli** va go'zal **xulqli** odamlar **ko'payaversa**, xalqning  
**do'stligi**, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan  
sari **rivoj topadi**. Ushbu gapdag'i yasama so'zlar haqidagi  
to'g'ri hukmlarni belgilang.
- 1) 4 o'rinda yasama so'z qo'llangan; **2)** yasama so'zlar ot,  
sifat, fe'l turkumlariga mansub; **3)** 2 o'rinda otdan sifat  
yasalgan; **4)** yasama so'zlar aniqlovchi, ega, hol, kesim  
vazifalarida kelgan.
- A) 1, 2, 3, 4**    **B) 2, 3, 4**    **C) 2, 3** **D) 1,4**
31. Ochsang **davronlarning kitoblarini**,  
Qancha **karvonlarning ertagi** bordir.  
Tingla **donolarning xitoblarini**:  
Egasi bor **yurting ertasi** bordir. (S. Sayyid) Ushbu she'riy  
parchadagi qaratqich aniqlovchilar qaysi bo'laklarga  
tobelangan?
- A) ega, holga**    **B) to'ldiruvchi, holga**  
**C) to'ldiruvchi, egaga**    **D) ega, kesimga**
32. "Xalqini ko'rsang agar o'lesi- yu, qoq-u xarob,  
Ochlikdan egilib qomati misli kamalak.  
**Ajirig' tomirini o'g'urida mayda tuyub,**  
**Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak".**  
Hapalak qishlog'ining sifatini bergen adib kim?
- A) Amiri**    **B) S. Olloyor**  
**C) Maximur**    **D) Huvaydo**
33. Tarkibida otlashgan so'z ishtirok etmagan qatorni  
aniqlang.
- A) Kattaga - hurmat, kichikka - izzat.**  
**B) Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat.**  
**C) Yomonni tanqid qil, yaxshiga taqlid qil.**  
**D) Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham soz so'zlar.**
34. ...Yig'layman - ko'zimga kelmaydi namlar,  
Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq!  
Bo'g'zimda alamlar, achchiq alamlar,  
Yo'lning o'tasida turibman...  
E. Vohidovning «Nido» dostonidan olingen ushbu parchada  
fonetik yozuvning yuzaga kelishiga asos bo'lgan nechta  
qo'shimcha shakldoshlik xususiyatiga ega emas?
- A) barchasi shakldoshlik xususiyatiga ega**  
**B) 2 ta** **C) 4 ta** **D) bunday qo'shimchalar berilmagan**
35. **"Turk zuhurudir ajunda bu kun, boshla ulug' yir bila**  
**turkona un". Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?**
- A) H. Xorazmiy**    **B) Xorazmiy**

- C) Gadoiy**    **D) Durbek**
36. Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq  
ko'chaga otildi. Berilgan gapda nechta hol qatnashgan va  
ularning tuzilishiga ko'ra turi qanday?
- A) 1 ta: 1 ta sodda**  
**B) 3 ta: 3 tasi murakkab**  
**C) 5 ta: 1 ta murakkab, 4 tasi sodda**  
**D) 4 ta: 3 tasi murakkab, 1 tasi sodda**
- 24-variant
1. Olmoshlar faqat to'ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi  
vazifasini bajargan gapni aniqlang.
- A) Shuni o'ziga aystsangiz ham bo'lar edi.**  
**B) Men hech kimdan hech narsa talab qilayotganim yo'q,**  
aksincha, sizning talablariningizni bajarmoqchiman.  
**C) Sizni bezovta qilmaslik uchun kecha kelmagan edik,**  
buni sizga aytib qo'ymaganimiz uchun kechirim so'raymiz.  
**D) Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, shularning  
hammasini jam qilib kitob yozishingiz kerak.**
2. «Mutlaq oqil» zotga sig'ingan ma'nosini beruvchi so'zni  
belgilang.
- A) Mitra**    **B) Visprad**  
**C) Mustahiq**    **D) Mazdaynsa**
3. "Bo'lmas edi ikki oning bir so'zi". Ushbu xususiyat qaysi  
asardagi shohga tegishli?
- A) «Dahshat» Dodxo Olimbek**  
**B) «Kuntug'mish» Buvraxon**  
**C) «Yusuf va Zulayho» Taymus shoh**  
**D) «Abulfayzxon» Abulfayzxon**
4. «Bo'talog'im, sen bilan vidolashar ekanman, sening  
so'zingni yana bir bor takrorlayman: «Salom, oq kema, bu  
men!» «Oq kema» qissasidan olingen ushbu parchada  
qo'llangan ega(-lar)ni ajrating.
- A) sen**    **B) bo'talog'im, sen oq kema, men**  
**C) bu men**    **D) bu**
5. Nodiraning qaysi g'azalida turkiy so'z radifga olinib,  
qofiyadagi so'zlarning barchasi o'zbekcha egalik  
qo'shimchalar bilan kelgan forscha-tojikcha so'zlardan  
tashkil topgan?
- A) «Kel, dahrni imtihon etib ket ...»**  
**B) «Vasl uyin obod qildim ...»**  
**C) «Doda keldim ...»**  
**D) «Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin ...»**
6. Agar sen go'daklik zamoningda onang sen bilan qanday  
hayot kechirganini, o'zingning esa osmon bilan yerning  
farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganiningni bilishni  
**istasang**, atrofingdagi onalarga **qara**, ularning qo'llaridagi  
chaqaloqlarga **nazar sol**, shunda sen o'z go'dakligingni  
yorqin **tasavvur qilasan** va o'zing  
bundan **xulosa chiqarib olasan**. Ushbu murakkab qo'shma  
gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlarida fe'lning  
munosabat shakli orqali ifodalangan qaysi grammatik  
ma'nolar barcha kesimlarda bir xil?
- A) zamon va shaxs-son ma'nos**  
**B) mayl va shaxs-son ma'nos**  
**C) mayl, shaxs-son va zamon ma'nos**  
**D) zamon va mayl ma'nos**
7. Humoyun Nizomga "...hozir siz menga tug'ishgan  
inimdan ham azizroqsiz" deb, nomingizni kim kabi  
ulug'lasam arziyi deydi?
- A) Bobur**    **B) Xo'ja Husayn**  
**C) Amir Bahlul** **D) Nizomiddin avliyo**
8. Alisher Navoiyning «Xamsa» asaridagi qaysi qahramon  
«lu'bati shang» – "sho'x qo'g'irchoq" deya ta'riflangan?

A) Shirin      B) Layli      C) Dilorom      D) Mehr  
9. 1) «Chashma»; 2) «Laylo»; 3) “Tug‘yon”; 4) «Yangroq hayot»; 5) «Izlar va hislar»; 6) «Toshkent bilan suhbat»; 7) «Na‘mata». Ushbu berilgan asarlar qatoridan Xayriddin Salohning dostonlarini aniqlang.

- A) 2, 4, 6, 7      B) 1, 2, 6      C) 2, 4, 6      D) 1, 3, 5  
10. 1) *Ezgulikning cheki yo‘q*. 2) *Bahorgi harakat - kuzgi barakat*. 3) *Go‘zallik ilm-u ma‘rifatda*. 4) *Mard maydonda bilinadi, nomard - ishda*. 5) *Do‘slik barcha boylikdan afzal*. 6) *Qo‘rqoqda uyat bo‘lmas*. 7) *Nomard non ustida ham nolishini qo‘ymas*. *Novvoyga non aziz, tegirmonchiga - un*. 8) *Yo‘ldoshini tashlagan yo‘lda qolur*.  
9) *Qalbaki do‘s ochiq dushmanidan yomon*.

Qaysi gaplarda ikkitadan yasama so‘z bor?

- A) 1, 4, 6      B) 2, 4, 6, 8  
C) 2, 4, 5, 8      D) 2, 5, 7, 9

11. 1) Bek istar-istamas chiqib, yumshoq o‘rindiqqa o‘tirdi. Bu yumshoq muomala davradagilarni o‘ziga qaratdi. 2) Tog‘ning ko‘rki - tosh bilan, odamning ko‘rki - bosh bilan. Yarim toshdan mo‘lroq yo‘l yurildi haraki, bekat ko‘rinmaydi. 3) Mol olasi tashda, odam olasi ichda. Ko‘chat ola chiqsa, kimga foyda, kimga ziyon. 4) Uning matematikadan dumi bor. Bir kuni paxta chopib tursam, bitta qovun «meni ye!» deb dum berib turibdi. 5) Butun oilasi bu yerga pomidor, piyoz, rediska, karam va boshqa sabzavotlar ekishdi. Tangrining karamiga sig‘inib, ularni Astrobodga jo‘natdim. 6) Chapga burilib chap ko‘zi - shisha ko‘zini olib, ro‘molchasi bilan artdi. O‘qlardan biri chiroq shishasini sindirdi. 7) Sen gapirganda hamma jum o‘tirgan edi, kimdir luqma tashladi. Javob berishi lozimligini bilgan Usmon og‘zidagi luqmani tez-tez yutib oldi.

Qaysi gap juftliklarida shakldosh so‘zlar qo‘llangan?

- A) 1, 3, 4, 6      B) 2, 3, 4, 5  
C) 2, 5, 7      D) 1, 2, 5, 7

12. Berilgan ergash gapli qo‘shma gapning har ikkala qismida ega ishtirok etgan javobni aniqlang.

- A) Maktab deb qurdik bino, hamma ilm olsin deb.  
B) Bug‘doy ekkan bug‘doy, arpa ekkan arpa o‘radi.  
C) Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.  
D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

### 13. Navoiyning «G‘aroyib us-sig‘ar» devoniga kirgan g‘azallarni ajrating.

1) «Kelmadi»; 2) «Qilg‘il»; 3) «Jong‘a chun dermen»; 4) «Bo‘ldum sanga»; 5) «Yo‘q»; 6) «Deyin»; 7) «Bo‘l».

- A) 1, 3, 6, 7      B) 4, 5, 6, 7  
C) 1, 2, 3, 4      D) 2, 4, 5, 7

### 14. Bizda ota-onha o‘g‘il-qizini voyaga yetkazadi, yelib-yugurib ularni oilali qiladi, bir umr bola-chaqasi uchun umri o‘tganini bilmay qoladi.

Ushbu gapdagagi juft so‘zlarnimng sintaktik vazifasini aniqlang.

- A) ega, vositali to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol  
B) ega, vositasiz to‘ldiruvchi, vositasiz to‘ldiruvchi  
C) ega, vositasiz to‘ldiruvchi, hol, hol  
D) ega, vositasiz to‘ldiruvchi, hol, vositali to‘ldiruvchi

15. Haynrix Haynening «She’rlar» deb nomlangan she’rini kim o‘zbekchallashtirgan?

- A) Xayriddin Saloh      B) Xayriddin Sulton  
C) Ahmad Hojibek      D) Sirojiddin Ahmedov

16. Non-pon, choy-poy, dam- badam, uncha-muncha berilgan so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turini aniqlang?

- A) takroriy so‘zlar      B) qisqartma so‘zlar

C) qo‘shma so‘zlar      D) juft so‘zlar  
17. Qaysi qatorda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi ishtirot etmagan?

- A) Ko‘z milklari yallig‘lanishi va ko‘z olmasining qizarishi vitaminlar yetishmasligi natijasida paydo bo‘lishi mumkin  
B) Tog‘lar loqayd bir ulug‘vorlik bilan sukut saqlashar va bag‘ridagi odamlarning yaxshi- yomon ishlariga til siz guvoh bo‘lib turishar edi.

C) Yerdan aziz narsa yo‘q! Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan narilar - hammasi bir shapaloq yerdan rizqini chiqarib kelgan...

D) Shundoq bekat ro‘parasida ikki qavatli univermag oynavand eshiklarini ochgan, xaridorlar chumoliday g‘imirlashib kirib-chiqib turishardi.

18. Omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan qo‘shimchalar qo‘shilishidan hosil bo‘lgan asosdosh so‘zlar qatorini belgilang.

- A) ishing ishing      B) oqla, oqmoq  
C) kechik, kechki      D) odobsiz, odobli

19. O‘lim yaxshi, odam agar shunday xor bo‘lsa!

Bir parcha non nima o‘zi! Shunga zor bo‘lsa!  
Insomning qadr va qimmati uchun jon kuydirilgan ushbu misralar muallifi kim?

- A) Usmon Nosir, «Monolog»  
B) Usmon Nosir, «Nil va Rim»  
C) Cho‘lpon, «Vijdon erki»  
D) Abdulla Oripov, «Genetika»

20. Qaysi asarda tonug‘luq, dalil; aql, xirad; pand, nasihat, o‘git singari sinonimlardan o‘rinli foydalaniilgan?

- A) «Hibat ul-haqoyiq» B) «Devonu lug‘ot it-turk»  
C) «Guliston bit-turkiy» D) «Yatimat ad-dahr»

21. O‘zbek so‘zi qachondan urug‘ nomidan butun xalq nomiga aylandi?

- A) XII asrdan B) XIII asrdan  
C) XVI asrdan D) X asrdan

22. Berilgan qaysi so‘zlarda «i» cho‘ziqroq aytildi?

- A) ommaviy, Lutfiy B) bilim, tilak  
C) har xil, badiiy D) qism, bilan

23. Ismlar guruhiга mansub bo‘lgan, metafora usulida ma‘nosи ko‘chgan yasama so‘z qatnashmagan gapni belgilang.

A) Yuragi qattiq ura boshladи.

B) Tiyrak Hamidning nursiz hayotini bezagan birdan-bir narsa onasi Komila opaning so‘zlagan ertaklari bo‘ldi.  
C) Loyqa xayolotlar chashmaday tindi.

D) Har holda Toshkent ustiga yana qonli bulutlar chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlanar, bu bir xudoga ma‘lumdir.

24. O‘lmas Umarbekovning milliy kinematografiya taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan kinosseniaryilarini aniqlang.

A) «Yuksak qorliklardagi uchrashuv», “Ikki soldat haqida qissa”, “Sevgi afsonasi», «Changalzor qonuni»

B) «Oq qaldirg‘och», «Sevgim, sevgilim», «Yigit va qiz», «Sevgi afsonasi»

C) «Qiyomat qarz», «Shoshma, quyosh», «Yer yonganda», «Arizasiga ko‘ra»,

D) «Komissiya», «Arizasiga ko‘ra», «Charos», «Urush farzandi»

25. Quyida berilgan so‘zlardan nechtasida qo‘sh undoshlar to‘g‘ri qo‘llangan?

gallaktika, inkassator, kilovatt, gippoteza, plastillin, kristall.

- A) 4 tasida      B) 8 tasida

C) 6 tasida      D) 3 tasida

26. To'tini o'z **ismini** aytishga o'rgatishadi. **Ismni** ko'p qaytarishadi. Bir kuni, ehtimol, bexosdanmi yoki o'z **kayfiyatini** bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan **so'zni** aytadi va shu ondayoq mukofotlanadi.

Berilgan parchada ot turkumiga mansub so'zlar necha o'rinda qo'llangan?

A) 6    B) 8    C) 7    D) 5

27. Mirtemirning boshdan oyoq ohanglari almashinib turadigan she'rini belgilang.

A) "Toshbu"    B) «Betobligimda»

**C)** «Onaginam» D) «Bulut»

28. Omonimlik xususiyatiga ega bo'lмаган polisemantik so'zlarni aniqlang.

1) davlat; 2) og'iz; 3) urush; 4) bo'lmoq; 5) bo'g'moq; 6) dunyo.

**A)** 3, 5    B) 1, 2, 4, 6    C) 1, 2, 3, 6    D) 2, 4, 5, 6

29. Munisning «Falak shabgun ko'ngul dudin namoyon etdigumdanadir» deb boshlanadigan she'rni kimning g'azaliga bog'langan muxammas hisoblanadi?

A) Bobur    B) Mashrab    **C)** Fuzuliy D) Navoiy

30. «Kitobimni o'qigan, ko'rgan, eshitgan kishi shohimni duo bilan yod qilsin deb (yozdim), Kelgusi avlodlar uchun uning nomi mangu esdalik bo'lsin deb (yozdim). Uning muhabbat bilan ko'ngillar to'lib, yodi bilan dunyo to'lsin deb (yozdim)... Men buni muhabbatimni yaxshi, (tugal) bilsin deb shohimga tortiq qildim». Ushbu parchada qaysi asarning yozilish sababi va zarurati haqida fikr yuritilgan?

A) "Qissasi Rabg'uziy"    **B)** «Hibatul-haqoyiq»

C) «Devonu lug'otit-turk»    D) «Qutadg'u bilig»

31. Darhaqiqat, o'g'lim, bizdan ko'nglingiz to'q bo'lsin, xalqimiz inoq va serg'ayrat, yuzlaringizni shuvut qilmaydi. Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukm(-lar)ni aniqlang.

1) ikkita so'z boshqa bo'laklar bilan grammatic aloqaga kirishmaydi; 2) gapda uyushgan sifatlovchi aniqlovchilar mavjud; 3) vositasiz to'ldiruvchi tarkibida uchta ko'makchi morfema qatnashgan; 4) ikkita yasama sifat ishtirot etgan; 5) ikkita so'z fonetik yozuv asosida yozilgan; 6) old qo'shimcha shakldoshlik xususiyatiga ega.

A) 2, 4, 5    B) 1, 3, 4, 5, 6

**C)** 1, 3, 5    D) 1, 2, 3, 4, 5

32. O'lim yaxshi, odam agar shunday xor bo'lsa!

Bir parcha non nima o'zi!

Shunga zor bo'lsa! - deya inson qadri yo'qligidan kuyinib yozilgan dardli satrlar muallifi kim?

A) Musa Jalil    **B)** Usmon Nosir

C) G'afur G'ulom    D) Maqsud Shayxzoda

33. Bir qop un, ichida ustun. Topishmoqning javobi tarkibidagi birinchi tovushga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.

A) til oldi, o'rta keng, lablangan qnli tovush

B) lab-lab, potlovchi, jarangsiz undosh tovush

**C)** til oldi, potlovchi, jarangli undosh tovush

D) til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush

34. O'g'il ham qiz ham kim bo'lishidan qat'i nazar o'qishda, mehnatda, safarda o'ziga fe'li muomalasi bilan yoqib qolgan kishi bilan do'stlashadi. Ushbu gapda necha o'rinda tinish belgisi tushirib qoldirilgan? (11-sinf 142-m)

A) 7 ta B) 5 ta **C)** 4 ta D) 6 ta

35. Qaysi yozuvchi «O'zing bilmagan narsani yozma», «Boshqalar yurgan yo'ldan yurma, o'z yo'lingni top» degan qoidaga hamisha amal qilgan?

A) Ch. Aytmatov    B) M. Yusuf

C) S. Sheroziy

**D)** T. Malik

36. Sodda ko'rinishdagi insho rejalar tuzilayotganda, undagi gaplar tarkibini raqamlash haqidagi qaysi fikr noto'g'ri?

A) 1), 2), 3) ... shaklida arabcha raqamlar bilan belgilansa, ulardan keyin yopiluvchi qavsni qo'yish tavsiya etilmaydi.

**B)** a), b), d) tarzida belgilanib, ulardan keyin yopiluvchi qavsni qo'yish tavsiya etiladi.

C) Tartibni belgilashda arab raqamlarini qo'yib, ulardan so'ng nuqta ishlatish tavsiya etiladi.

D) a), b), d) tarzida belgilash tavsiya etilmaydi.

## 25-varlant

1. ...**(1)** fors-tojik tilida yozilgan. Adib ayni shu g'oyalarni turkiy tilda yaratish zarurligini sezganligi uchun ham asarni ...**(2)** nomi bilan boshqatdan yaratadi. **Berilgan parcha So'fi Olloyorning qaysi asari haqida?**  
A) 1 - «Maxzan ul-muteyin», 2 - «Maslak ul-muttaqiyin»  
B) 1 - «Murod ul-orifin», 2 - «Sabot ul-ojizin»  
C) 1 - «Maxzan ul-muteyin», 2 - «Murod ul-orifin»  
**D) 1** - «Maslak ul-muttaqiyin», 2 - «Sabot ul-ojizin»

2. Oshxonamizda tayyorlanayotgan turli-tuman shirin milliy taomlar, qulay sharoitlar va yuqori darajada ko'rsatilayotgan xizmatimiz sizga yoqishiga ishonchingiz yanada ortadi. Ushbu gapda ishtirok etgan ismlar guruhiiga kiruvchi yasama so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasini bajargan?  
A) sifatlovchi aniqlovchi, ravish holi, o'rinni holi, vositali to'ldiruvchi, ega  
B) ega, to'ldiruvchi, kesim  
**C) sifatlovchi aniqlovchi, ega, o'rinni holi**  
D) sifatlovchi aniqlovchi, vositasiz to'ldiruvchi, ega

3. Tishlarimni ko'rmaq istasang,  
Tushlaringni marvaridga ayt,  
Gar o'zimni ko'rmaq istasang,  
Yovni yengib, tezroq qayt.

Ushbu parchadagi fonema(-lar)ni aniqlang.

- A) i, u, q**    B) t, k, y    C) sh, k, t    D) a, i, o'  
4. Qabristondan **ancha** uzoqlashgandan keyin **yana** otlariga minib yo'rtib ketishdi. Ushbu gapda qatnashgan ravishlar haqida berilgan hukmlardan qaysi biri noto'g'ri hukm sanaladi?

- A) gapda qatnashgan ravishlar sodda tub ravishlar sanaladi  
**B) gapda** 3 ta ravish qatnashgan  
C) gapda 2 ta ravish qatnashgan  
D) ravishlar fe'llarga bog'lanib kelgan

5. Voqealar tizimidan sal ilgarilab ketdim, shekilli, bu haqda maktubimning keyingi sahifalaridan birida alohida to'xtab o'tarman. Berilgan gapda mustaqil so'z turkumlaridan qaysi biri ishtirok etmagan?

- A) sifat B) son C) olmosh    **D) mustaqil so'z**  
turkumlarining barchasi ishtirok etgan

6. Bu tola o'zining chidamliligi bilan boshqa tolalardan farq qilishi aniqlangan.

Berilgan gap haqida berilgan noto'g'ri hukmlarni toping.

- 1)** ega sifatlovchi aniqlovchini tobelantrib kelgan; **2)** kesim uchta gap bo'lagini bevosita o'ziga tobelantirgan; **3)** qaratqich aniqlovchining sifatlovchi aniqlovchini tobelantrishi va egaga tobelanish holati kuzatiladi; **4)** sifatlovchi aniqlovchilar qaratqich aniqlovchi va vositali to'ldiruvchiga tobelanib kelgan.

- A) 1, 3, 4    B) 1,4    **C) 1,2**    D) 3,4

7. «Og'zining tanobi uzoq sayohatlarni ixtiyor qilgan» obraz aks etgan asar qahramonning nomi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlangan.

- A) «Kecha va kunduz», Razzoq so'fi  
B) «Dahshat», Olimbek dodxo  
C) "Qutlug" qon», Mirzakarimboy  
**D) "Mehrobdan chayon"**, Solih Maxdum

8. Tut, **yut, oq, rasm**, yot, **qovoq, chop**, uch. Ushbu shakldosh so'zlarning nechtasi qo'shimcha qo'shilgandan keyin ham shakldoshlik xususiyatini saqlab qolishi mumkin?

- A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta **D) 4 ta**

9. Meniki-seniki deb tortishib, necha marta **burni** qonadi hamki, **og'zini tiyolmasdi**. Ushbu gapda nechta o'rinda tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?

- A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta **D) 6 ta (7 ta)**  
10. Quyidagi qaysi gap(-lar) tarkibida qo'llanishiga ko'ra berilgan boshqa bog'lovchilardan farq qiluvchi bog'lovchi(-lar) ishtirok etgan?

- 1) Haqiqat tikanli gulga o'xshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi. 2) Aql va farosat quyoshga o'xshaydi, beparvolik tufayli tushishi mumkin bo'lgan dog'larga o'rinni qoldirmaydi. 3) Mol-u davlatingiz bilan emas, bajki ilm-hunaringiz, go'zal xulq-atvoringiz bilan faxrlaning. 4) Birov odob o'rgatsa, o'rganmagan kishi hayvon, ammo uzr so'rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir. 5) Muallifning Vatan, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyati shu qadar yuksakki, shaxsiy manfaat, mukofot ilinjiga o'rinni qolmasin. 6) Uning goh yiglagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostin-ustun qilib qo'shiq aytgisi kelardi.

- A) 3, 4 B) 1, 2, 5    **C) faqat 6**    D) faqat 4

11. **Har bir inson o'z muallimi** va **ustozini e'zozlashi**, **shogirdlik burchi** va **sadoqatini** ado qilishi shartdir.

Ushbu gapda aniqlovchili so'z birikmalari necha o'rinda qatnashgan?

- A) 4 o'rinda    B) 6 o'rinda  
**C) 5 o'rinda**    D) 3 o'rinda

12. Birov odob o'rgatsa, o'rganmagan kishi hayvon, ammo uzr so'rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir.

Ushbu gap...

- A) aralash murakkab qo'shma gap**  
B) bog'langan qo'shma gap  
C) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap  
D) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap

13. **O'tgan** avlod-ajdodlarimiz bizga Vatanni chin yurakdan **sevishni**, unga fidokorlik bilan **xizmat qilishni**, uning husniga husn, boyligiga boylik **qo'shishni** ham meros **goldirishgan**. (O. Sharafiddinov)

Gapda qo'llangan fe'lning vazifa shakllari bajargan sintaktik vazifasini aniqlang.

- A) ega, hol, to'ldiruvchi, kesim  
B) to'ldiruvchi, kesim  
**C) aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim**

- D) aniqlovchi, hoi, to'ldiruvchi, kesim

14. Qaysi adib «men Pushkinning ko'p she'rlarini yoddan bilardim va ularni o'z o'rtoqlarimga o'qib berardim», - deb aytadi?

- A) H. Olimjon** B) A. Qahhor  
C) M. Yusuf    D) Oybek

15. Ot va sifat yasovchi sifatida omonim bo'la oladigan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashmagan gapni aniqlangan.

- A) Bilimdon va tadbirkor yoshlar Vatanimizning kelajagi sanaladi.

- B) Hunar ado bo'lmas boylikdir.

- C) Qaqrab yotgan cho'llar bag'ri mevazorga aylandi.**

- D) Kechki salqinda biroz sayr qildik.

16. Bir kuni ninachilarining nafarmon, yashil, malla tuslarini uyga keltirib, otamga maqtandim. Berilgan gapda qanday qo'shimchalar o'rtasida shakldoshlik yuzaga kelgan?

- A) so'z yasovchi va sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar o'rtasida

- B) so'z yasovchi qo'shimchalar o'rtasida

- C) sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar o'rtasida**

- D) lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar o'rtasida

17. Qaysi qatorda harakatga nisbatan ma'nosi ko'chgan so'z qatnashgan?
- A) oltin kuz      B) temir intizom  
 C) jannati inson      D) qo'li gul
18. Ot + ot kompozitsiyasidan hosil qilingan, narsani boshqa narsaga qiyoslash ma'nosini anglatuvchi, tarkibida undoshlar va og'izning ochilish darajasiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'lgan unlilargina qatnashgan ot(lar)ni aniqlang.
- 1) ko'zoynak; 2) oshqovoq; 3) oybolta; 4) qo'yko'z; 5) toshbag'ir.  
 A) 2, 3, 4, 5      B) 3      C) 1, 2, 3, 4, 5      D) 2, 3
19. Aytilmagan bir qo'shiqsan, Jayxundirsan, Sayxundirsan, Sen-da Sug'dsan, Sen-da Shoshsan, Ko'hna Turon - ona tilim.  
 Ushbu matnda qo'llanilishi lozim bo'lgan urg'ular haqidagi qaysi fikr to'g'ri?  
 A) 1-, 2-, 3-misradagi barcha so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushgan.  
 B) 1-, 2-, 3-misradagi barcha so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushgan.  
 C) faqat 3-misradagi barcha so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushgan.  
 D) 2- va 3-misradagi barcha so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushgan.
20. Qaysi javobdagi so'zlarda tilda hosil bo'lishiga ko'ra hamda portlovchi-sirg'aluvchiligiga ko'ra birlashtiruvchi, jarangli-jarangsizligiga ko'ra farqlovchi belgilarga ega fonema qatnashgan?
- A) dor-tor      B) toq-tog'  
 C) bo'r-ber      D) tom-tol
21. Aniqlov bog'lovchilar haqidagi to'g'ri hukmni ajrating.  
 1) ajratilgan bo'laklarni ajratilmish bo'lakka bog'laydi; 2) ergash gapni bosh gapga bog'lab keladi; 3) oddiy so'zlashuv uslubida ko'proq ishlatiladi; 4) faqat yozma nutq uslubida qo'llaniladi.  
 A) 1, 2      B) faqat 2      C) 1, 2, 4      D) 1, 2, 3
22. Qaysi juftlikda shakldosh so'z ma'nosini urg'u farqlaydi?
- A) mardlarcha - mardlar kabi  
 B) yosh yigitcha - yigitcha ishladi  
 C) qishloqcha bor - kichkina qishloqcha  
 D) yovuzlar singari – yovuzlarcha
23. **Agar** sizga salom berilsa, siz undan yaxshiroq **yoki xuddi** o'zidek qilib javob qiling. Berilgan gapda yordamchi so'z turkumiga mansub nechta birlik ishtirot etganini va bosh gap kesimi qaysi nisbatda ekanligini aniqlang.  
 A) 3 ta, aniq nisbatda  
 B) 3 ta, majhul nisbatda  
 C) 4 ta, aniq nisbatda  
 D) 3 ta, o'zlik nisbatda
24. Shakldoshlik xususiyatiga ega qaysi so'zlar o'z shakldoshi bilan bir xil shaklda morfemaga ajralmaydi?
- 1) gullar; 2) bolalar; 3) isitma; 4) aylanma.  
 A) 2, 3      B) 1, 2, 3, 4      C) 3, 4      D) 1, 2
25. Ona zamin qish uyqusidan uyg'ondi.  
 Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi turi kuzatiladi?
- A) vazifadoshlik      B) sinekdoxa  
 C) metonimiya      D) metafora
26. "Qanda" so'roq olmoshi, «anda» o'rin ravishi va «banda» otlashgan sifatni o'zining g'azalida qo'llagan adib kim?  
 A) Lutfiy, "Jononima ayting"
- B) Atoiy, «Jamoling vasfini»  
 C) Sakkokiy, «Kim ermas ul oy mubtalosi»  
 D) Atoiy, "Ko'ngulni olg'ali"
27. Ellik sakkizni rosa kutdim, kelmadi - piyoda ketdim. Ma'no ko'chishining turini toping.
- A) metafora      B) sinekdoxa  
 C) metonimiya      D) vazifadoshlik
28. 1) Mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turgan grammatick vositalardir. 2) So'zlarining o'zaro grammatick va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladi. 3) Tarixan mustaqil so'zlar bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatick ma'no ifodalashga o'tgan so'zlardir. 4) Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra sof va vazifadoshga bo'linadi. 5) Gap bo'lagi va gaplarni qanday bog'lashiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Ko'makchilar haqidagi qaysi fikrlar to'g'ri?  
 A) 1, 2, 4      B) 1, 2, 3, 4  
 C) 2, 4, 5      D) 1, 2, 3, 4, 5
29. Tasavvuf adabiyotida komil inson timsoli sifatida qaysi istiloh ishlatilgan?
- A) may      B) ko'z      C) jom      D) lab
30. Qaysi adib o'z adabiy qahramoniga qo'shilib og'ir-og'ir, ayni choqda yozuvchi uchun xavfli-xavfli o'ylarga cho'madi?
- A) Tohir Malik      B) Nazar Eshonqul  
 C) Pirimqul Qodirov      D) Tog'ay Murod
31. Inson ruhi ko'zga ko'rinas, latif markazlardan iborat ekanligini kashf etgan, ya'ni «latoyif nazariyasi»ni ishlab chiqqan adib kim?
- A) N. Kubro      B) J. Rumiy  
 C) A. Jomiy      D) A. Yassaviy
32. Orazidin shams-u qamardur xijil, So'zlaridin shaxd-u shakar munfail.  
 Hosili umri erdi ul boyni  
 Oti ... erdi o'shal oyni. Nuqtalar o'rnini ta'rifi keltirilgan go'zal nomi bilan to'ldiring.
- A) Guldursun      B) Shirin  
 C) Layli      D) Gunashbonu
33. **-kor, -dor, bo-, ba-, ser, -shunos, -kash, -siz, be-, no-**  
 Berilgan qo'shimchalardan nechta -chi qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi?
- A) 4 tasi      B) 2 tasi      C) 5 tasi      D) 3 tasi
34. Ma'no ko'chishining qaysi turi fikrimizni lo'nda, ifodalni, ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi?
- A) metonimiya      B) sinekdoxa  
 C) metafora      D) vazifadoshlik
35. Turdi Farog'iy «Tor ko'ngullik beklar...» g'azalida o'zidan kechib maydonta lab bo'lolmaydigan, ammo turli gap va ig'volar bilan el orasini buzadigan kimsalarni nimaga o'xshatadi?
- A) satang ayollarga      B) ko'chmanchi qabilaga  
 C) omonat binoga      D) quyon va tulkilarga
36. O'qituvchilik so'zi haqidagi to'g'ri hukmni toping.
- A) narsa oti      B) tub ot  
 C) faoliyat jarayon oti      D) shaxs oti
- 26-variant**
1. Berilgan gaplarning qaysi birida to'ldiruvchini aniqlab kelgan ajratilgan sifatlovchi aniqlovchi mavjud?  
 A) Biri olim - xushfe'l, yoqimli.  
 B) Ko'kdagi oy tanhodir, yakka-yu yolg'iz.  
 C) Yo'lim boshladi to kezdim dala-tog', Kezdim **ne yurtlarni - chiroyi tengsiz**.  
 D) Qozoq sahrosi - bu beedad sahro,

Xayolday bepoyon, cheksiz va yiroq.

2. Hokim qismidagi morfemalar omonimlik xususiyatiga ega so‘z birikmalarini belgilang.

1) cho‘llarda kezmoq; 2) darsga kechikmoq; 3) ochiq eshik; 4) ajdodlar qoni; 5) azob chekmoq; 6) esga olmoq.

A) 2, 5, 6      B) 2, 3, 4, 5      C) 1, 2, 4, 6      D) 1, 2, 4

3. Qaratqich va qaralmish o‘rtasida so‘z qo‘llansa, qaratqich belgili qo‘llanadi.

Ushbu qoidaga mos kelmagan gap qaysi qatorda berilgan?

A) «Har kimning tug‘ilgan yeri - Misr» degan maqol Ibroyim Yusupovning «Qadrdon so‘qmoqlar» she’riga epigraf qilib olingan.

B) Viqorla o‘shshaygan qoya labida Nafis chayqaladi bir tup na’matak.

C) O‘quvchilar maktab bo‘gida olma va anor ko‘chatlarining tagini yumshatdilar.

D) «Avesto»da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo‘lishni, mol boqa olishni, chorvani qaroqchi va yirtqich hayvonlardan himoya qilishni o‘rganishlarining shartligi aytilgan.

4. Qaysi asar Arslon Xhu90‘ja Tarxon tomonidan oqqa ko‘chirtilgan?

A) «Yatimat ad-dahr»    B) «Qutadg‘u bilig»

C) “Guliston bit-turkiy” D) «Hibatul-haqoqiyq»

5. *«To‘rt o‘g‘il o‘stirgan onang ham hayron,  
Soatlاب bechora o‘tirardi tek.*

*Akang ketgan edi, ukang ham ketdi,*

*Behassa bukridek qoldi egilib,*

*Bu kunni ko‘rguncha ming rozi edim,*

*Kindir badanimga tuz sepsa tilib».*

Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

A) Mirtemir, «Betobligimda»

B) Mirtemir, «Onaginam»

C) X. Saloh, «Toshkent bilan suhbat»

D) E. Vohidov, (S. Zunnunova) “Ruh bilan suhbat»

6. Qaralmish kesim vazifasida kelgan qo‘shma gapni toping.

A) Mirtemirning onasi so‘zga g‘oyat chechan, zukko, kayvoni onalardan edi.

B) Odamlarni ma‘naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish, har bir fuqaroni, uning yoshidan qat’i nazar, shu maydonning qatnashchisiga aylantirish bizning eng samarali yo‘limizdir.

C) Noming qalbim so‘rog‘indadur, jamoling ko‘z qarog‘imdadur.

D) Hayotim lazzati, qalbim qo‘risan, Vatanim!

7. O‘zbek adabiyoti yarixida «Dedim... Dedi... «savol-javob tarzida ruboiy yozgan adib kim?

A) Lutfiy      B) A. Navoiy

C) Pahlavon Mahmud    D) Xo‘jandiy

8. Barqaror birikmalar frazeologizmlar, maqol va matallar, aforizmlar qaysi xususiyatiga ko‘ra tasnif qilinadi?

A) Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishiga ko‘ra

B) tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra

C) ma‘no butunligi nuqtayi nazaridan turlichaligiga ko‘ra

D) mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltirishiga ko‘ra

9. Qizilroq, kechroq, biroq,

Ertaroq, ko‘kroq, quroq

Har so‘z oxirida -roq

Turkumim toping tezroq.

A) qizilroq, ko‘kroq, quroq - sifat, biroq - bogiovchi, ertaroq, tezroq – ravish

B) qizilroq, ko‘kroq, - sifat, quroq - ot, biroq - bog‘lovchi,

ertaroq, kechroq, tezroq – ravish

C) qizilroq, ko‘kroq, quroq - sifat, biroq - modal so‘z, ertaroq, tezroq – ravish

D) qizilroq, ko‘kroq, - sifat, quroq - ot, biroq - modal so‘z, ertaroq, kechrpq, tezroq – ravish

10. «Qo‘yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo‘q.

Agar yovuz ersa tildin, yurakdin yovuzroq yo‘q». Parcha qaysi asardan olingan?

A) “Sulaymon va chumoli”

B) «Zarbmasal»

C) «Luqmon va uning xojasi»

D) “Ilon va qarlug‘och”

11. O‘zbek adiblari orasida birinchi bo‘lib Rossianing ikki yirik shaharlari: Peterburg va Moskvada bo‘lgan ijodkor kim?

A) Komil Xorazmiy      B) Ogahiy

C) Munis      D) Avaz O‘tar

12. «Xamsa»ning «Sab’ai sayyor dostonida Bahromga dushmanba kuni qayerdan kelgan musofir hikoyat aytadi?

A) Adan      B) Iroq C) Xorazm      D) Shahrisabz

13. Tarkibida fe‘ldan yasalgan so‘zning turlangan so‘zga tobe bo‘lib kelishi kuzatiladigan gapni aniqlang.

A) Donishmandlar yalqovlik muhtojlik eshigi ekanligini uqtirganlar.

B) Tog‘ etaklari hali ham ko‘m- ko‘k bo‘lib, turli go‘zalliklar bilan: sariq va qizg‘ish tusdagи boychechaklar, chuchmomalar, qoshlariga qop-qora o‘sma qo‘ygan lolalar bilan yasangan edi.

C) Bugungi kunda milliy g‘urur tuyg‘usi haqida ko‘p gapiriladi.

D) Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vazmin, maroqli gurunglari yo‘l tanobini tortar, huvullagan, fayzsiz cho‘lning o‘lik manzarasiga bir qadar jonlanish bag‘ishlagandek bo‘lar edi.

14. Qozon qaynab chiqsa, ovqatni pasaytirib qo‘y- Ma’no ko‘chish turini aniqlang.

A) metonimiya B) metafora

C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

15. Shoir Faxriyorning ikkitagina so‘zdan iborat she’ri qaysi javobda berilgan?

A) oy bolta      B) oq va qora

C) tush va yo‘l D) gul tikan

16. Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallagan, o‘z yurti, o‘z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo‘lgan, har tomonlama sog‘lom avlodni yengib bo‘ladimi?

Ushbu gap haqida berilgan fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri emas?

A) gapdagi uyushiq bo‘laklar faqat ohang yordamda bog‘langan

B) uyushiq aniqlovchi to‘ldiruvchiga tobelangan

C) uyushiq bo‘laklar bitishuv va boshqaruв usulida hokim bo‘lakka tobelangan

D) gapdagi juft so‘zlar bilan ifodalangan uyushiq bo‘lak aniqlovchiga tobelanib kelgan

17. «...bilan basta eshikdur kushod,

... bilan topdi eranlar murod.

... sening dardingga darmon bo‘lur.

... bilan xor guliston bo‘lur»

Gulxaniyning «Zarbmasal» asarida keltirilgan ushbu ta‘rifida qaysi so‘z tushib qolganini toping.

A) mehnat      B) ishonch      C) g‘ayrat

D) sabr

18. To‘g‘ri, u aravani quruq olib qochadigan

maqtanchoqlardan emas. Berilgan gap qaysi qatorda to‘g‘ri tahlil qilingan.

- A) kiritma, ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim.  
B) kiritma, ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, kesim.  
C) kiritma, ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hoi, toidiruvchi, kesim.

D) kiritma, ega, aniqlovchi, kesim.

19. Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida Mirzo Boburning butun mamlakatda may ichishni man etuvchi amri haqida “bizga ma’qul kelmadi” deb munosabat bildirgan qahramon kim edi?

- A) Shayboniyxonning elchisi  
B) Ko‘chkinchixonning elchisi  
C) Ismoil Safaviyning elchisi  
D) Shoh Taxmaspning elchisi

20. Qaysi javobdagi so‘zlarda hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra birlashtiruvchi, hosil bo‘lish usuliga hamda ovoz va shovqinning ishtirotkiga ko‘ra farqlovchi belgilari ega fonema qatnashgan?

- A) dor-tor      B) toq-tog‘  
C) bo‘r-ber      D) tom-tol

21. *Mudir xalatining tugmalarini yechib yuborgan, ingichka bo‘ynidagi guldor galstugining bog‘ichini bo‘shatib qo‘ygan, tez yurib kelganidan bo‘lsa kerak, yonoqlari turrib chiqqan, yuzi qizarib ketgan edi.*

Matnda nechta ko‘makchi fe‘l ishtirot etgan?

A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) ko‘makchi fe‘l qatnashmagan

22. Quyidagi nechta qo‘srimcha ismning va fe‘lning

munosabat shakli sifatida o‘zaro omonim bo‘la oladi?

-sa, -k, -m, -ng, -miz, -dir, -ing, -ngiz.

A) 7 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 6 ta

23. *“Ayollar sochi uzun, aqli qisqadur”, degonlarg‘a, Tovuqcha aqli yo‘q, axlatni titkonlarg‘a o‘t tushsin. «Xotunlar mol qatori sotilur», deb mushtiparlarni, Zulayho, Layli, Shirinni tan olmag‘onlarga o‘t tushsin».*

Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?

- A) Uvaysiy      B) Nodira  
C) Dilshodi Barno      D) Anbar Otin

24. Oybekning «Navoiy» romanida Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga kimni vazir sifatida tavsiya etadi?

A) Xo‘ja Afzalni      B) Mavlono Fazliddinni

C) Nizomulmulkni      D) Darveshalini

25. Nutqda jarangli undoshlarning jarangsizlashishi natijasida yuzaga keladigan omofonlar qatnashgan gapni toping.

A) Erkin yettiga yetdi. B) Tursun tomda tursin.

C) Guvoh sudga ketdi, qo‘srim sutga ketdi. D) A, C

26. Qaysi gapda bo‘lishsizlik qo‘srimchasi ko‘makchi fe‘l tarkibida kelgan?

A) Inson sirliligicha qolaveradi, ammo odamzod bir-birini anglab yetmaguncha olam tinch bo‘lmaydi.

B) Bu shunchaki bir hikoyat va yo rivoyat, yoxud tiriklik ko‘yida aytilgan qo‘sishq emas.

C) Bo‘lmasa ishq ikki jahon bo‘lmasin, ikki jahon demaki jon bo‘lmasin.

D) Odam o‘zidan ketmasligi kerak.

27. 1) «...xushxulq va darveshvash, munbasit (oqko‘ngil) kishi erdi...»; 2) «...shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg‘oyat...»; 3) «...latif g‘azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyat durur...»; Alisher Navoiyning yuqorida berilgan ta‘riflari qaysi shoirlar haqida?

a) Lutfiy; b) Sakkociy; c) Atoiy.

D) 1-c, 2-b, 3-a B) 1-a, 2-b, 3-c

C) 1-a, 2-c, 3-b D) 1-c, 2-a, 3-b

28. Kesimi shaklan 3-shaxs, mazmunan 1-shaxsga tegishli bo‘lgan gap(-lar)ni aniqlang.

A) Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan.

B) Kamina bu masala xususida huzuringizga bormoqchi edilar.

C) Onang o‘lsin, bolam, seni bu yerga yolg‘iz yubormay.

D) B va C javoblar to‘g‘ri.

29. Choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasiini yorib qo‘ygan qahramon kim va u qaysi asarda uchraydi?

A) “Sariq devni minib” romanidagi Hoshimjon

B) «Yo, Jamshid» hikoyasidagi Islomboy

C) «Shum bola» qissasidagi Sariboy

D) «Yo, Jamshid» hikoyasidagi O‘rinboy

30. *Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?*

Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol.

Nechun qora libos, sochlaringda oq,

Nechun bu ko‘klamda **sen** parishonhol? She’riy parchada olmosh turkumiga oid so‘zlar qanday sintaktik vazifa bajargan?

1) kesim; 2) ega; 3) to‘ldiruvchi; 4) aniqlovchi; 5) hol.

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 4, 5

C) 1, 2, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4

31. O‘z **Vatanini sevgan kishi** shu **Vatanning ravnaqi** uchun kurashadi. Ushbu gapda nechta so‘z ham hokim, ham tobe qism vazifasini bajara oladi?

A) 5 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 3 ta

32. Qaysi adibning tarjimayi holi «Mashaqqatli safar» deb nomlangan?

A) Muqimiy B) O‘. Hoshimov

C) A. Muxtor D) A. Qahhor

33. Kumush qishdan, zumrad bahordan qolishmaydi kuzning ziynati. Berilgan gapdagi tobe bog‘lanishlar va bir so‘z turkumiga mansub so‘zlar soni teng kelgan javobni aniqlang.

A) 7 B) 5 C) 6 D) 4

34. O‘tkir Hoshimov va Murod Muhammad Do’st ijodiga mos keladigan asar qahramoni va janrini toping.

A) Hakima aya – qissa B) Ilhom samovarchi – hikoya

C) Hakimaya aya – hikoya D) Xadicha – hikoya

35. *“Shoir qalbidan sizib chiqayotgan ma’sum tuyg‘ular go‘yo sirli, sehrli so‘zlarga aylanadi. Shoir ukparday mayin bu so‘zlarni to‘zg‘itib o‘ynaydi-yu, ulardan go‘zal, o‘ynoqi ohanglar yaratadi, so‘ngra esa ular asta o‘rnior‘niga tushadi, xuddi dastgohdan chiqayotganday, quyma, betakror satrlar paydo bo‘layotganday taassurot goldiradi kishida”.*

Ushbu matn qaysi shoir haqida?

A) Mirtemir B) U. Nosir C) A. Oripov D) E. Vohidov

36. Holat fe’llarini ajrating.

1) yalinmoq; 2) semirmoq; 3) bo‘yamoq; 4) gavdalanimoq; 5) o‘ylamoq; 6) ranjimoq; 7) jovdiramoq.

A) 1, 2, 4, 5, 6, 7 B) 1, 2, 3, 6, 7

C) 2, 6, 7 D) 1, 2, 3, 4, 6, 7

Har tun bir iqlimdan kelgan musofirdan hikoyalar tinglaydi: shanha kuni qora qasrsa Farrux va saxiy Axiy hikoyasini, yakshanba kuni Zayd Zahhob sarguzashtini sariq qasrsa, uchinchi hikoya bo‘lmish Sa’d jasoratini dushanba kuni yashil qasrsa, shoh Jo‘na va saxiy Mas‘ud hikoyasini seshanba kuni .gulgun qasrsa, moviy qasrsa aytilgan beshinchi Mehr va Suhayl qissasini chorshanba kuni tinglaydi. Nihoyat. juma kuni oq qasrsa Xorazmda kelgan musofirdan yettinchi hikoyani tinglaydi va Diloromning

daragini eshitadi.

## 27-variant

1. Qaysi gapda beshta morfemadan iborat yasama so‘z mavjud?

- A) Ona tabiat, donoligingga tan bermay ilojimiz yo‘q.  
B) Hammamizning yo akamiz, yo otamiz urushda bo‘lgan zamonlar edi.

C) Shu boisdan u o‘ttizinchi yillarning boshida adabiyotdan chetlatilgan.

D) O‘zligini anglamagan odamlar bilan yangi jamiyat qurib bo‘lmaydi.

2. Berilgan so‘zlarning nechtasida lablangan, tor unlilar qo‘llanishi lozim?

**Min..s, parf..meriya, simpoz.. um, vol.ybol, sup..rgi, majmu.., a..ditorya, suver..nitet.**

A) 4 ta B) 3 ta C) 5 ta D) 2 ta

3. Berilgan qaysi juftliklarda birinchi so‘zning birinchi bo‘g‘ini urg‘uli hisoblanadi?

A) hozir (davraka keldi) - hozir (ketishga hozir bo‘ldi)

B) yangi (yangi kitob) - yangi (yangi keldi)

C) etik (oyoq kiyim) - etik (axloq normalari)

D) akademik (shoir) - akademik (litsey)

4. -la qo‘shimchasi otlarga qo‘shilib fe‘l yasaganda, yasashga asos qismidan anglashilgan narsa - predmet bilan ta‘minlash ma‘nosini bildirgan javobni toping.

A) o‘g‘itla, moyla B) urug‘la, bolala

C) qaychila, arrala D) ketmonla, tozala

5. O‘zbek tilida jarangli portlovchi til undoshlari soni nechta?

A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 5 ta

6. Har bir inson o‘z muallimi va ustozini e‘zozlashi, shogirdlik burchi va sadoqatini ado qilishi shartdir.

Ushbu gapda uyushgan bo‘laklar qaysi gap bo‘laklariga nisbatan hokim qism vazifasini bajargan?

A) ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi

B) aniqlovchi, to‘ldiruvchi

C) ega, aniqlovchi

D) ega, to‘ldiruvchi

7. Tovushlarning hidi, bo‘yi bor.

Tovushlarning sovuq, ilig‘i.

Tovushlarning rang-ro‘yi bor.

Tovushlarning shirin-achchig‘i,

Bordir hatto yumshoq, qattig‘i,

Shoir rassom bo‘lsa agar,

Chizar edi shunday lavhalar.

Berilgan parcha haqidagi to‘g‘ri hukmlarni aniqlang.

- 1) 6 o‘rinda tovush o‘zgarishi sodir bo‘lgan; 2) 1-misrada shakldoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan 2 ta so‘z qo‘llangan; 3) 4 ta yasama so‘zda tovush almashinishi sodir bo‘lgan; 4) qo‘sh undoshlar soni 3 (4) ta; 5) 1 ta ko‘makchi, 1 ta bog‘lovchi, 1 ta yuklama ishtirot etgan; 6) 1 ta hol ergash gapli qo‘shma gap mavjud; 7) jarangli undosh bilan tugagan yopiq bo‘g‘inlar 24 o‘rinda qo‘llangan; 8) til orqa, o‘rta keng, lablangan unli bilan tugagan ochiq bo‘g‘inlar 3 o‘rinda qo‘llangan; 9) 18 (23) o‘rinda ko‘makchi morfema ishtirot etgan; 10) 3 o‘rinda otlashgan so‘z ishtirot etgan.

A) 1, 4, 6, 7, 8, 9, 10 B) 2, 3, 4, 6, 7, 9

C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9 D) 4, 6, 7, 8, 9

8. “Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostonida qamishlar kimga yoki nimaga o‘xshatilgan?

A) Iskandarning shoxiga

B) pichoqqa

C) Rum lashkarlariga

D) qaychiga

9. Chindan ham yangamni hech kimga ravo ko‘rmay rashk qilardim, uning quvnoqligi, o‘zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. Nega **shundayligini** o‘zim ham bilmas edim. Ushbu parchadagi ikki marta tovush o‘zgarishi kuzatilgan so‘zlar qaysi gap bo‘laklari vazifasini bajargan?

A) ega, to‘ldiruvchi, kesim

B) to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi

C) to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi, kesim

D) to‘ldiruvchi, kesim, kesim

10. Z.M. Bobur o‘zida qanday paydo bo‘lgan jarohatni bir Rumiy davolaganini yozadi?

A) kark B) obila C) sabohi D) quyanchiq

11. Qaysi satrda yashirin qarshilantirish borligini ko‘rishimiz mumkin?

A) «Barig‘lik turur bu ajun qalg‘usiz,

O‘zung edgulik qil yitib barg‘usiz»

B) «Boqib ko‘z uchidin pinhon fosh etding tag‘ofillar,

Yo‘q-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansun»

C) «Orzu qildim: «Tutarmen», - deb visoli domanin, Pora bo‘ldi hajr ilgida giribon oqibat»

D) «Qovoq solib osmon ko‘zi yosh sochar,

Chechak-maysa quvnoq kulib yuz ochar»

12. Qaysi fikr noto‘g‘ri?

A) Sust, past singari so‘zlarga -ay yasovchi vositasi qo‘shilganda, yasashga asos qismda mavjud bo‘lgan oxirgi “t” undoshi tushib qoladi.

B) Son, yosh, ong kabi so‘zlarga fe‘l yasovchi -a yoki -la qo‘shimchasi qo‘shilganda, asos qismda tovush tushishi ro‘y beradi.

C) O‘yin, qiyin kabi ikki bo‘g‘inli so‘zlarga -a yasovchi qo‘shimchasi qo‘shilganda, yasashga asos qismning ikkinchi bo‘g‘inidagi «i» unlisi tushib qoladi.

D) Qizil, sariq kabi ikki bo‘g‘inli so‘zlardan -ar, -ay yasovchi vositalari yordamida yangi so‘z yasalganda, yasashga asos qism bo‘lgan qizilning «il» qismi va sariqning ikkinchi bo‘g‘inidagi «i» unlisi tushib qoladi.

13. Qaysi adib ijodini tinglagan hokim hatto etigini ham kiymasdan otga minadi va yurtga qaytish haqida farmon beradi?

A) Xo‘jandiy B) Rudakiy

C) Sayfi Saroyi D) Firdavsiy

14. Ba‘zi kishilar borki, tanqidni yoqtirmaydilar. Qo‘shma gapning turini aniqlang.

A) ega ergash gapli qo‘shma gap

B) kesim ergash gapli qo‘shma gap

C) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap

D) aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap

15. **Raxshi himmat men tutub mahkam yolin,**

**Yor izidin yet, karam qil, deb yolin.**

**Yo‘q-u borimni yoqib kul ayladi,**

**Ishq o‘tidin ko‘kka chirmoshg‘on yolin.**

Matndagi tagiga chizilgan so‘zning ma’nolari ketma-ketligi to‘g‘ri berilgan qatorni toping.

A) otning yoli, yalindim, olov

B) yolqin, yosh bola, yalindim

C) otning yoli, yosh, yorqin

D) yoshlik, yolqin, olov

16. guloroy, gulbang so‘zlarining ma’nolari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) gul bilan bezangan, yoqimli ovoz  
 B) gul to'kuvchi, gul yopingan, qip-qizil gulday kiyingan  
 C) bulbul ovozi, majozan quyosh nurlari  
 D) gul to'kuvchi, yoqimli ovoz
17. Tarkibida gap bo'laklarining barcha turi ishtirok etgan sodda uyushiq bo'lakli gapni toping.  
 A) "Avesto"da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo'lishni, mol boqa olishni, chorvani hayvon va qaroqchilardan muhofaza qila bilishni o'rganishlari shartligi aytildi.  
 B) Barchamiz milliy qadriyatlarimizning mazmuni va mohiyatini chuqur, bataysil o'rganishga harakat qilaylik.  
 C) Uning kulgisi ham o'ziga o'xshash shiringina edi, qonib, yoyilib kuldi.  
 D) Qalbingizga toshqinlarning g'uborlari hech qachon qo'nmasin, gard yuqmasin.
18. Qaysi gapda ishtirok etgan harakat bajaruvchisi ega vazifasida kelgan?  
 A) Tursunboyni boshqa ishga o'tkazish haqida yozma buyruq chiqarildi.  
 B) Gaz quvurlari o'tkazildi, uylar qurildi, elektrlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazildi.  
 C) Majlisda ko'rilgan masalalar ota-onalar tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.  
 D) Qizlar uni yaxshi ko'rishib, Mayna deb ism qo'yishibdi.
19. Qaysi baytda mubolag'a san'ati qo'llangan?  
 A) Tilar vaslingni, Lutfiy, qil ijobat, Ki ayturlar: «Tiloganni - tilogu»  
 B) Bobur seni chun yor dedi, yorlig' etgil, Olamda kishiga yo'q esa, yor topilmas.  
 C) Sendek menga bir yori jafokor topilmas, Mendek senga bir zori vafodor topilmas.  
 D) Bu shakl-u shamoyil birla xud hur-u parisen Kim, jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.
20. **"Ko'zung balosi bilan jonga tegdi, Sakkokiy, Dag'i ne qilg'usi, bilmon, oxir bu makkora".**  
 Qanday san'at qo'llangan?  
 A) mubolag'a    B) tasdir    C) iyhom    D) tajnis
- 21.1) Halol ish - lazzatli yemish. 2) Vaqtin ketdi - baxting ketdi. 3) Erga navbat - sherga navbat. 4) Bilim - kuchda, kuch - bilimda. 5) Olamni quyosh yoritadi, insonni - ilm. 6) Ilm - yorug'lik, jaholat - zulmat. 7) - Tinchlik, - dedi Samandarov. 8) O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik - barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz. 9) Mard bir o'lar, nomard - ming. 10) Biz - yoshlar - millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz.**
- Ushbu gaplarning nechtasida tire ega va kesim o'rtasida qo'yilmagan?  
 A) 5 tasida    B) 6 tasida    C) 3 tasida    D) 4 tasida
22. Berilgan to'g'ri hukmni aniqlang.  
 A) Ajratilgan bo'lak yozuvda vergul, tire va ba'zan ikki nuqta bilan ajratiladi.  
 B) Ajratilgan izohlovchilar, asosan, izohlanmishdan keyin keladi.  
 C) Ajratilgan izohlovchilar, ko'pincha, aniqlovchiga taalluqli bo'ladi.  
 D) Ajratilgan bo'lak yozuvda vergul, tire va ba'zan qo'shtirnoq bilan ajratiladi.
23. Inson boshi **to'kinlikni** ham, **ochlikni** ham, **sevinch** va dahshatni ham, **kulgi** va yig'ini ham ko'rар ekan. Berilgan gapdagi yasama so'zlarning yopiq bo'g'in(-lar)i tarkibida shovqinlilar guruhiba kiruvchi undosh tovushlar soni nechta?
- A) 3 ta    B) 5 ta    C) 7 ta    D) 9 ta
24. Qaysi gapda // belgisi o'rnida ikki nuqta ishlatilmaydi?  
 A) Abror qizni darrov tanidi // u qo'shni mahalladagi do'konda ishlar edi.  
 B) Qor yog'di // don yog'di.  
 C) Oltmisga kirib bildim // umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman.  
 D) Rasadxona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining ko'zlar darrov ko'rdi // poygakda bir kishi eshikni gavdasi bilan to'sib, qaqqayib turardi.
25. Sizlar bosh qo'yg'an bu ulug' tuproqni Xo'rlasak va yoki bersak birovga Bo'lganimiz yaxshi o'zimiz ham xok. O'liklar quchoqlab yotsa-yu mahkam, Nahotki, tiriklar turadi loqayd Unaqa tiriklik nimaga malham, Unaqa tiriklik kimga kerak ayt! Ushbu she'riy parcha qaysi asardan olingen?  
 A) «Mardlik afsonasi»    B) «Surat»  
 C) «Ruh bilan suhbat»    D) «Toshbu»
26. Uyga kirishi bilan gapirayotganlar birdan to'xtab qolishdi. Ushbu gapdag'i so'z birikmalari haqida berilgan nechta hukm to'g'ri emas?  
 1) 4 ta holli so'z birikmasi qatnashgan; 2) 4 ta fe'lli so'z birikmasi qatnashgan; 3) 2 ta so'z birikmasining ham tobe, ham hokim qismlari fe'l bilan ifodalangan; 4) ushbu gapda otli so'z birikmasi qatnashmagan.  
 A) 3 ta    B) 1 ta    C) 2 ta    D) 4 ta
27. O'limas Umarbekovning syujet to'qimasining murakkabligi, voqealar ta'sirining favqulodda keskinligi, ifoda maromining shiddatkorligi bilan e'tiborni tortadigan asarini belgilang.  
 A) «Urush farzandi»    B) «Oq qaldirg'och»  
 C) "Yoz yomg'iri"    D) "Cho'li iroq"
28. Qaysi gapda kompozitsion usul bilan yasalgan sifat yasama so'zga tobelangan?  
 A) Majnuntolning barglari sarg'ayib to'kilmoqda.  
 B) Boychechakning tovlanib turgan gulbarglari hammaning ko'ngildagi gina-adovatga barham berdi.  
 C) Ko'z oldimdan **ichakuzdi qiliqlar** qilayotgan qiziqchilar, toshlarni osmonga irg'itib o'ynayotgan polvonlar ketmasdi.  
 D) Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi: hamma ulardan bahra oladi.
29. O'z tilini unutgan **xalqning**  
 Bog'larida o'sgan **gullarin**  
 Chirmab uxlar zaharli **ilon**. (Xurshid Davron)  
 Berilgan she'riy parchada sifatlanmishlar qaysi bo'lak vazifasida kelgan?  
 A) to'ldiruvchi, hol, ega  
 B) hol, aniqlovchi, kesim  
 C) aniqlovchi, to'ldiruvchi, ega  
 D) aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim
30. 1) Bu kosaga sho'rva suzma. 2) Suvda uzoqqa suzma. 3) Suzong'ich sigir bo'lsang ham, egangni suzma.  
 Ushbu gaplardagi suzma so'zi haqidagi to'g'ri fikrlarni aniqlang.  
 A) 1- va 3-gapdag'i suzma so'zi bir so'zning turli ma'nolarini ifodalovchi so'z bo'lib, ushbu so'zlar 2-gapdag'i suzma so'ziga nisbatan shakldosh sanaladi  
 B) 1-, 2-, 3-gaplardagi suzma so'zi bir so'zning turli ma'nolari sanaladi  
 C) 1-, 2-, 3-gaplardagi suzma so'zi o'zaro shakldosh sanaladi

D) 1- va 2-gapdag suzma so'zi bir so'zning turli ma'nolarini ifodalovchi so'z bo'lib, ushbu so'zlar 3-gapdag suzma so'ziga nisbatan shakldosh sanaladi

31. Sohilda o'tkir hidli qoramir yalpizlar, sershox jambillar o'sib yotibdi. Berilgan gapdag qo'shimchalarining turi va sonini aniqlang.

A) 1 ta so'z yasovchi, 4 ta lug'aviy shakl yasovchi, 3 ta munosabat shakli

B) 2 ta so'z yasovchi, 5 ta lug'aviy shakl yasovchi, 3 ta munosabat shakli

C) 3 ta so'z yasovchi, 5 ta lug'aviy shakl yasovchi, 2 ta munosabat shakli

D) 4 ta so'z yasovchi, 4 ta lug'aviy shakl yasovchi, 2 ta munosabat shakli

32. Qaysi asarda «...og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo'yndida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi...» jumlalari o'rinn olgan?

A) «Qiyomat qarz»      B) «Alvido, bolalik!»

C) «Bahor qaytmaydi» D) «To'qqizinchi palata»

33. ... *Albatta ... ... dedi Anvar ... ... boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib ... musulmonchiliqdan chiqqach ... men musulmonchiliq bilan o'lishni, o'bdan bildim...*

Nuqtalar o'miga tinish belgilarini qo'ying.

A) tire, vergul, tire, vergul, tire, vergul, nuqtali vergul, undov

B) tire, vergul, tire, vergul, tire, vergul, vergul, nuqta

C) tire, undov, undov, vergul, tire; vergul, vergul, nuqta

D) tire, undov, tire, vergul, tire, vergul, vergul, undov

- Albatta! - dedi Anvar. - Boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib, pusulmonchilikdan chiqqach, men pusulmonlik bilan o'lishni o'bdan bildim!

34. Qaysi asar qahramoni bo'lmish shoh ov ketidan quvib o'z sipohidan ayrıldi?

A) «Mehr va Suhayl», Navdar

B) «Mehr va Suhayl», Nu'mon

C) «Farhod va Shirin», Xisrav

D) «Saddi Iskandariy», Iskandar

35. Turdi Farog'iyning "Tor ko'ngullik beklar..." g'azalining uchinchi baytida qaysi so'z bir maromda besh marotaba takrorlangan?

A) boshB) yaqoC) bir D) yuz

36. Rasmiy uslub noto'g'ri fikrni toping.

A) Bu uslubda matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalanadi.

B) Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatic xususiyatlari mavjud.

C) Buyruqda faqat da'vat etish o'z aksini topgan bo'ladi.

D) Ma'lumotnomada birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Ya'ni: guloroy – gul bilan bezangan, gulrez – gul to'kuvchi, gulpo'sh – gul yopingan, qip-qizil gulday kiyingan, gulbang – yoqimli ovoz, bulbul ovozi, guldastaband – majozan quyosh nurlari kabi iboralar Navoiy asarlarining mazmunini ochib berishda mislsiz zo'r xizmat qiladi.

## 28-variant

1. Abdulla Oripov odamlarning zilzila paytidagi ruhiy holatini qaysi misralarda aks ettirgan?

A) «Yiroq-yiroqlardan mungli va uzun

Turnalar tovushin tinglardim faqat»

B) "Sonsiz egatlarga sochilmish, ana,

Mening orzularim, mening o'ylarim"

C) «Asablar tuproqqa cho'kkani edi tiz»

D) «Qaro sochlaringda oppoq alanga»

2. Qaysi gapda teng bog'lovchining ikki xil mazmuniy munosabatiga mansub turi ishtirot etgan?

A) Mustaqillik! Seni hayotim bilan ham, san'atim, she'rim bilan ham asrayman.

B) Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan orttirgan boyligini nafaqat fizik hamda ximiklarga, balki vrachlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvarlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi.

C) Agar vaqt kelsa, tog'lar ham yemiriladi, lekin yoshlikda inson qalbiga ekilgan ezbilik urug'lari toabad zavol topmaydi, chunki ular inson umrining unutilmas davrida erishgan bebaho ne'matlardir.

D) Ipak kiyim-kechaklar dazmollanmasligi ma'qul, agar zarur bo'lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig'ir tolasidan to'qilgan mato qo'yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmollanadi.

3. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir // tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz. // belgisi o'rniga qo'yiladigan tinish belgisini aniqlang.

A) tire B) vergul      C) ikki nuqta      D) nuqtali vergul

4. Odamlar kasal bo'laveribdi, ulardan qanchasi o'laveribdiyu, sen bu dorilarni bosib yotaveribsanda, noinsof! Ushbu gap haqida berilgan hukmlarning qaysi biri to'g'ri sanaladi?

A) tarkibida sof bog'lovchi qatnashgan shaxsi umumlashgan

B) tarkibida undalma qatnashgan aralash murakkab qo'shma gap

C) tarkibida kiritma qatnashgan qismlari uyushgan

D) tarkibida vazifadosh modal so'z qatnashgan bog'langan qo'shma gap

5. To'ra Sulaymon "Armon" she'rida armonni ketma-ket nimalarga o'xshatadi?

A) nor, qor, tor, ro'zg'orga

B) nor, sor, g'or, qorga

C) qor, tor, g'or, ro'zg'orga

D) nor, qor, tor, dorga

6. Qaysi ijodkor o'z she'rida agar Vatan chorlasa, qo'lyozmalarini tashlab shinel kiyishga tayyorligini aytadi?

A) Shuhrat      B) Usmon Nosir

C) Mirtemir      D) Musa Jalil

7. Davlat qo'nsa bir chibinning boshig'a, Semurg' qushlar salom berar qoshig'a...

Ushbu bayt xalq dostonlaridagi qaysi qahramon tilidan aytilgan?

A) Kuntug'mish      B) Boybo'ri

C) Boysari      D) Alpomish

8. Kimki qasd etsa anga, kiysin pushaymondan kafan.

Berilgan ergash gapli qo'shma gapning turini aniqlang.

A) ega ergash gapli qo'shma gap

B) kesim ergash gapli qo'shma **gap**

C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

D) aniqlovcui jrgash gapli qo'shma gap

9. Abay «Nasihatlar» asarida g'ayratsiz jahl, qayg'usiz oshiq, shogirdsiz olimlarni kimga yoki nimaga o'xshatadi?

A) soyaga      B) qahraton qishga

C) qurigan ko'lga      D) tulga

10. «Sayding qo'ya ber, sayyod, eayyora ekan mendek, Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek» baytida qaysi she'riy san'atlar qo'llangan?

A) tashbih, tanosub      B) irsolli masal, tazod

C) tajnis, mubolag‘a D) tashbih, tashxis

11. Qaysi so‘z birikmasining ikkala qismi ham yasama otdan iborat?

- A) hamshahar qadrdonlar B) hamfikr odamlar  
**C) hamyurtlarimga tilagim** D) hamnafas do‘stim

12. Ovda-dovda, ko‘p yuraman dalada,

Podsholik sultanat menga nima-da:

O‘z yurganim menga endi bo‘ladi,

Podsholiging menga ma’qul bo‘lmadi».

Ushbu parcha qaysi dostondan olingan?

- A) «Kuntug’mish» B) «Ravshan»  
C) «Alpomish» **D) «Rustamxon»**

13. Qaysi gapda yasama otdan hosil bo‘lgan sifat ishtirok etgan?

- A) Sergaplik odamlar ichida qadringni tushiradi.  
B) Tinchlik oliv ne’mat ekanligini unutmang.

**C) Kutilmagan quvonchli** xabardan boshi aylanib ketdi.

D) Menga o‘xshagan esli-hushli bolaga zoriqib o‘tirgan ekan.

14. Radioeshittirishlar va televide niye ko‘rsatuvlari qanday uslubda olib boriladi?

A) Adabiy so‘zlashuv uslubida

B) Oddiy so‘zlashuv uslubida

**C) Publitsistik uslubda**

D) Badiiy uslubda

15. Qaysi gapda uch turkumga oid yasama so‘zlar ishtirok etgan?

**A) Odam oqil, obro‘-e’tiborli, iste’dodli, sadoqatli do‘stlari bilan faxrlanadi, ammo do‘stlik mezoni faqat shular bilan o‘lchanmaydi.**

B) Ular o‘zlarining eng nodir asarlarida do‘stlikni, insonparvarlikni, mehr- muhabbatni ulug‘laganlar.

C) Vatanning kun sayin obod bo‘layotgani, yangi yo‘llar, muhtasham binolar barpo etilayotgani yurtdoshlarimiz qalbiga faxr baxsh etmoqda.

D) Odamning do‘stlari oldida burch va mas’uliyatlari borki, ularni ado etolmasa, do‘stlari uning do‘stligini e’tirof etmaydilar, tan olmaydilar.

16. *Kimki menga zulm emas, mehr ko‘rsata olsa, unga ham mehrim baland bo‘ladi, u insonlar orasidagi eng yaqin do‘stim bo‘ladi.*

Ushbu gap murakkab qo‘shma gaplarning qaysi turiga mansub?

**A) bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap**

B) bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap

C) aralash murakkab qo‘shma gap

D) qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gap

17. «Avesto» so‘zining o‘zagini belgilang.

- A) «to» B) «ave» **C) “sto”** D) «vest»

18. Qaysi gapda vazifadosh bog‘lovchi qo‘shma gap

qismlarini bog‘lab kelgan?

**A) O‘ylamoq yaxshi-yu, xayolparast bo‘lish zararlidir.**

B) Mol-u puling ketsa-ketsin, ammo g‘ururing ketmasin.

C) Xalqqa xayr-u ehson qilish ulug‘ fazilat, biroq bu beg‘araz bo‘lsa yaxshi.

D) Qilgan xatolaringni ko‘z o‘ngingda tut, lekin qilgan yaxshiliklarimga unut.

19. Vazifadosh ko‘makchi qo‘llangan gapni toping.

A) Yaxshi kitob muallifning odamzod **uchun** atalgan tortig‘idir.

B) Ilm va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari **bilan** podshohlarga yordam berib kelganlar.

C) «Ey farzand, ilm olmoqning fazilatlari ko‘pdirkim, ilm

**orqali** hayoting farog‘atda, yurish- turishing hurmatda bo‘lur».

**D) Xudbin odam adolat **yuzasidan** emas, shaxsiy manfaatlari, injiqligi va xudbinligidan kelib chiqib harakat qiladi.**

20. Atoyi g‘azalida “Ajab ayyori Turkistonmudur bu?”, - deb nimani tasvirlaydi?

- A) sochB) qo‘l C) til **D) ko‘z**

21. Uning o‘z bisotida bir shapaloqqina sholipoyasi bor; u ham marhum qaynatasidan tekkan... Ushbu ta’rif qaysi adabiy qahramon haqida?

A) O‘sar aka (“Jinlar bazmi” hikoyasi)

**B) Xolmat** («Kecha va kunduz» romanı)

C) Egamberdi («Advokatlik osonmi?» dramasi)

D) Ziyodulla kal («Ot kishnagan oqshom»)

22.... suzilib, buyiri-buyiriga qapishib, qorni qorniga yopishib ter bilan qotgan changlar yong‘oqday dumaloq bo‘lib... - qaysi ot ta’rifi?

- A) Boychibor **B) G‘irko‘k**

C) Ko‘kdo‘nan D) Jiyronqush

23. Umr bo‘yi g‘oyat notinch va tartibsiz yashagan adib...

A) Haynrix Hayne **B) Aleksandr Pushkin**

C) Sergey Yesenin D) Vilyam Shekspir

24. Olamning cheksiz sirlarini bilish va inson ehtiyojlarini qondirishda aqlga teng keladigan kuch yo‘q.

Ushbu gapda aniqlovchili birikmalar soni nechta?

- A) 5 ta **B) 4** ta C) 3 ta D) 2 ta

25. Qaysi gapda qo‘shma fe‘l ishtirok etgan?

A) Gapirganda ovozi xuddi xumning ichidan chiqqanday guldurab, jaranglab eshitiladi.

B) U Marg‘ilonga yaqinlashib qolganda, kun og‘ib qolgan edi.

C) O‘yin-kulgi, askiya yarim kechgacha cho‘zilib ketdi.

**D) Kabob** uchun shahardon zira- piralarni ham olib keldik.

26. “Bir qarasangiz, o‘zidan o‘zi kampirlarga suykalib erkalanar, yo bo‘lmasa birdan qah-qah urib kular, yoki ko‘chadan kirib kelayotganida xuddi yosh qizchalardek ariqdan lorsillab sakrab o‘tar, yoxud o‘zicha xirgoysi qilib yurardi.”

Ta’rif qaysi asardan olingan va kim haqida?

A) “Qutlug‘ qon”, Unsin **B) “Jamila”, Jamila**

C) «Dahshat», Unsin D) «Kecha va kunduz», Zebi

27. Aytolmaganaliklariningizdandir- da. Berilgan misol tarkibida nechta morfema qo‘llangan?

- A) 8 ta **B) 10** ta C) 7 ta D) 9 ta

28. Ozaymoq, ko‘paymoq, **qizarmoq**, bo‘zarmoq, **pasaymoq**, **susaymoq**, sayramoq, **yig‘loqi**, **dumaloq**, toshloq, pishloq, qishloq, boshla, ishla, beodob, **angla**, **sana**, jo‘na, noqulay, qiyma, **qiyna**, gapir, chaqir, tinch, qarmoq, **yashar**.

Berilgan so‘zlarning nechtasida fuziya elementlari uchraydi?

- A) 8 ta **B) 9** ta C) 10 ta D) 11 ta

29. Bobo Qambar degan nom qaysi xalq dostonida uchraydi?

A) ”Ravshan” **B) «Kuntug’mish»**

C) «Rustamxon» **D) «Alpomish»**

30. Qaysi qatorda ravishdosh gapning markazini ifodalab kelmagan?

A) To‘satdan onamning jahli chiqib ketdi.

B) Razm solsangiz, bu rastada ko‘p narsani ko‘ra olasiz.

C) Sen yig‘lasang, men ham yig‘lab yuboraman.

**D) Mehmonlar hamma bilan quchoqlashib ko‘rishdilar.**

31. O‘lmas Umarbekovning qaysi asari voqealar rivojining

sirliligi, personajlar xatti-harakatlarining kutilmaganligi, ayni vaqtida, chuqur hayotiy asoslarga egaligi, tasvirning samimiyligi bilan e'tiborni tortadi?

A) «Urush farzandi»    B) «Oq qaldirg'och»

C) «Yoz yomg'iri»    D) «Cho'li iroq»

32. Qaysi gapda sifatdoshga bog'lanib kelgan sof ko'makchi sabab holini shakllantirgan?

A) Maktabga o'qigani kelgani haqida gapirdi.

B) Ba'zilar ovqatlanish uchun yashaydilar.

C) Uydan ketib qolgani sababini tushuntirdi.

D) Yaxshi o'qigani uchun u mukofotlandi.

33. Til va nutqni farqlang.

Til - a; Nutq - b:

1) aloqa materiali; 2) hajmi noaniq; 3) aloqa shakli; 4) millat yaratadi; 5) shaxs yaratadi; 6) nisbatan turg'un; 7) doim harakatda, o'zgaruvchan; 8) hajmi aniq; 9) umumiy; 10) xususiy; 11) imkoniyat; 12) voqelik; 13) mohiyat; 14) hodisa.

A) a-1, 3, 6, 7, 9, 11, 13;    b-2, 4, 6, 8, 10, 12, 14

B) a-1, 2, 3, 4, 5, 6, 7;    b-8, 9, 10, 11, 12, 13, 14

C) a-1, 2, 4, 6, 9, 11, 13;    b-3, 5, 7, 8, 10, 12, 14

D) a-3, 5, 7, 8, 10, 12, 14; b-1, 2, 4, 6, 9, 11, 13

34. Undoshlarning uch tasnifiga ko'ra ham farqlovchi belgilariga ega fonemalar ma'no farqlagan so'zlar qatorini toping.

A) ko'rik, katak    B) kerak, kesak

C) ko'sak, ko'mak    D) kepak, kesak

35. Alisher Navoiy diqqatini o'ziga tortgan Samarqandning ma'rifatparvar hokimi Ahmad Hojibekning taxallusi qanday?

A) Shifoiy    B) Xalosiy    C) Vafoiy    D) Hiloliy

36. Qaysi gapda ravishning faqat bir ma'no turiga oid so'zlar ishtirok etgan?

A) Ular u yerni ham, bu yerni ham kovlab kirolmabdilar, bir zumda allaqancha yerni o'yib yuboribdilar.

B) Shu payt uydan - yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladи.

C) – Keyin u yoqqa olamiz, – deb o'ng tarafdagи oynavand uya ishora qildi.

D) Bular piyoda asta-sekin O'rdaga bordilar.

## 29-variant

1. E. Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asarida qora aylirni otib o'dirish imkonini bo'la turib, bu imkondan foydalanmagan qahramonni yo'rg'ani otishga undagan kim?

A) Kurka Iz    B) Charli    C) Foster    D) Jek

2. Qaysi gaplarda narsaning o'lchovini ifodalash uchun qo'llangan hisob so'z alohida olinganda predmetlik ma'nosini bildira olmaydi?

1) Shu payt bir bog' o'tinni yelkasiga ortgancha eshikdan akam kirib keldi. 2) U darrov hushini yig'ib oldi, qo'lini yuvdi-da, bir litr suv solingen idishni ko'tarib oshxonadan chiqdi. 3) Bundan burunga kuniga 3-4 tomchi tomizib turish kerak. 4) Yuz gramm unni idishga solib, ustidan uchta tuxum chaqib soling va ikkovini yaxshilab aralashitiring.

A) 2, 4 B) 1, 3, 4    C) 1, 3 D) 1, 2, 3

3. Qaysi javobda -chi qo'shimchasi bilan ma'nodosh bo'la oladigan omonim xarakterga ega qo'shimchalar ko'rsatilgan?

1) -kash; 2) -shunos; 3) -kor.

A) 1, 2, 3    B) 1, 3 C) 2, 3 D) 1, 2

4. Vaqtি kelsa, tog'lar ham yemiriladi, ammo yoshlikda inson qalbiga ekilgan ezgulik urug'lari toabad zavol

**bilmaydi.** Berilgan gapda qo'llangan fe'llarning nisbati to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) o'zlik, majhul, aniq    B) majhul, majhul, aniq

C) aniq, o'zlik, aniq    D) o'zlik o'zlik, aniq

5. Qaysi gap justligida o'z va ko'chma ma'noli so'z qo'llangan?

A) Gorizont tekisligini shayton yordami bilan bilish mumkin. Odammisan, hayvon? Ajinamisan, shayton?

B) Sen gapirganda hamma jum o'tirgan edi, kimdir luqma tashladi. Javob berishi lozimligini bilgan Usmon og'zidagi luqmani tez-tez yutib oldi.

C) Yukning og'irligidanmi aravalari g'irchillab , o'z musiqasi o'zi bilan jadal bormoqda. Botirali og'irlik bilan onasiga qaradi.

D) Tog'ning ko'rkisi - tosh bilan, odamning ko'rkisi - bosh bilan. Yarim toshdan mo'lroq yo'l yurildi hamki, bekat ko'rimaydi.

6. Qaysi javobda bo'g'iz undoshi bilan boshlanuvchi tub so'zlar ko'rsatilgan?

1) ..afalashish; 2) ..ovli; 3) ..arajat; 4) ..ayajon; 5) ..ato.

A) 2, 3, 4, 5    B) 1, 2, 3, 5    C) 2, 4    D) 2, 4, 5

7. ... Issiq uyda, yumshoq to'shakda yotgan to'q bir odamni: och-yalang'och, to'shaksiz sovuqda qolgan kambag'alning holi nima kechdi ekan, deb o'ylantirib, uni u yonidan bu yoniga ag'anatadigan, uygusini qochirib, jonini achitadigan ham-menman. Abayning "Nasihatlar" asaridan olingen ushbu parchada so'z yasovchi qo'shimchalar necha o'rinda qo'llanganini aniqlang.

A) 3 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 9 ta

8. Qaysi qatorda tajnis - omonim yuzaga kelgan?

A) «Barig'lik turur bu ajun qalg'usiz,

O'zung edgulik qil yitib barg'usiz»

B) «Kishilikni ko'r, at urundi kishi,  
Kishilik bila at ko'turdi kishi»

C) «Atasi beg ersa o'g'ul tug'di beg,  
O'g'ul tug'sa beg ham atalariteg»

D) «Saqish saqligin bo'ldi ati saqish,  
Ko'ru bersa saqish edi - o'ksaq ish»

9. "Gezi - gezi bilan Jizzaxga borib, ularga qo'nardim, bir hafta, ikki hafta turib, qadrdonlarimga qo'shiq aytib kelardim. Ular bilan dardlashib, o'zimning ham ko'nglimni yozib qaytardim", - deb xalq baxshisi Fozil shoir kimning oilasi haqida gapirib o'tgan?

A) E. Vohidov    B) H. Olimjon

C) O'. Hoshimov    D) A. Oripov

10. N(1) . Jo'rayev(2) . Agar ogoh sen... (3) : Portretga chizgilar(4): Siyosiy esse. (5) — T.(6) : «Sharq»(7) , 1998.

Jo'rayev N. Agar ogoh sen... : Portretga chizgilar: Siyosiy esse. — T.: «Sharq», 1998.

Berilgan gapga qavs ichida berilgan raqamlarning o'rniga mos tinish belgilarini qo'ying.

A) nuqta, nuqta, ikki nuqta, ikki nuqta, tire, vergul, (ikki nuqta), vergul

B) nuqta, nuqta, ikki nuqta, nuqtali vergul, tire, vergul, vergul

C) nuqta, tire, ikki nuqta, ikki nuqta, tire, vergul, tire

D) undov, tire, ikki nuqta, ikki nuqta, tire, vergul, vergul

11. Qaysi ijodkor o'z muxammasida «Boshimda hushim yo'q», Yetim qo'zi kabi nololig'im», "Biyobon gardiman Majnun kabi bir Layli yodida" kabi misralar orqali o'z holini sharh etadi?

A) Mashrab    B) Zavqiy    C) Ogahiy D) Furqat

12. Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatga ruju

qo'yishlarida, avvalo, ota-onas, mahalla-ko'y bir so'z bilan aytganda, o'zimizning bilib-bilmay qilgan xatti-harakatimiz bosh omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu gaplardagi vergullarning qo'yilish sababi noto'g'ri izohlangan javobni toping.

A) qo'shma gapning ergash va bosh gap qismlari vergul bilan ajratilgan

B) bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini ajratish uchun vergul qo'llangan

C) gapda kirish so'z mavjudligi uchun vergul qo'llangan

D) gapda uyushiq bo'laklar mavjudligi uchun vergul qo'llangan

13. Durroj yolg'on so'zlagani, noto'g'ri gapirgani uchun tuzoqqa tushdi. Berilgan gapda yasama so'zlar asosidagi portlovchi undosh tovushlar miqdori nechta?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

14. Besh o'rinda yasama so'z ishtirok etgan, yasama so'zlardan birining asosi ikki xil yuqori tor unlilaridan iborat bo'lgan gapni toping.

A) Uning goh yig'lagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostin-ustun qilib qo'shiq aytgisi kelardi.

B) Ipak kiyim-kechaklar dazmullanmasligi ma'qul, agar zarur bo'lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig'ir tolasidan to'qilgan mato qo'yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmullanadi.

C) Qo'zg'algan kasallikni yengish uchun tirik tanda «antitanacha»lar hosil bo'ladi, ammo bu kasallikni yengish uchun har doim ham mikroorganizmlarning samaradorligi sezilarli bo'lmasligi mumkin.

D) Hamdardlik - bir odamning qayg'u-hasratlariga achinib, o'zida ham qayg'u hosil qilishidir, lekin quruq hamdardlik foyda bermaydi.

15. "Axir, u, otmas, odam edi". Ushbu parcha kimning qaysi asaridan olingan?

A) A. Qodiriy, "Uloqda" hikoyasi

B) T. To'la, «Do'nan» hikoyasi

C) Tog'ay Murod, "Ot kishnagan oqshom" qissasi

D) Seton Tompson, «Yovvoyi yo'rg'a» hikoyasi

16. To'y tarqay deb turgan edi. Birdan shamol ko'tarildi-yu, zum o'tmay bo'ronga aylandi. Shamol shiddat bilan hovlidagi olchalarining shoxlarini qarsillatib, ayzash-uyqash qilar, uzun stol ustidagi dasturxonlarni sharitta ko'tarib, taqsimchalarni chil-chil qilib yuboradi. Odamlar chuvillab qolishdi. Kuyov-kelin o'tirgan joydagagi palak uzilib tushdi... (O'tkir Hoshimov)

Ushbu parchada fe'lning nisbat qo'shimchalari necha o'rinda qo'llangan?

A) 7 B) 6 C) 4 D) 5

17. Berilgan qaysi gapda vazifadosh ko'makchi ishtirok etmagan?

A) Toshkentga qarab yurdi B) Devordan bo'ylab qaradi

C) Mehnatsevarligi uchun xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi

D) Televizor ustida janjallahdi

18. Yaxshi bo'lgan, hatto dushmaning oson

Seni deyolmasin yaramas-yomon.

Tanburning ovozi soz chiqib tursa,

Qulog'in buramas sozchi hech qachon. (Sa'diy Sherazi)

Ushbu misralardagi fonetik o'zgarishga uchragan

portlovchi-jarangli undosh tovush(-lar) sonini aniqlang.

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

19. Qaysi ijodkor o'z ota-onasi haqida «Alar belboqchi-

bo'zchi erdi kasbi,

Hamesha Makkadin erdi noni» deya bayt bitgan?

A) Anbar Otin

B) Avaz O'tar

C) Dilshodi Barno

D) Zavqiy

20. Abdulla Oripov o'zbek xalqining yig'ma obrazini qaysi misralarda umumlashtiradi?

A) «Yiroq-yiroqlardan mungli va uzun Turnalar tovushin tinglardim faqat»

B) «Sonsiz egatlarga sochilmish,. ana, Mening orzularim, mening o'ylarim»

C) «Asablar tuproqqa cho'kkani edi tiz»

D) «Qaro sochlaringda oppoq alanga»

21. *"Otam frontda ekanida onam qishloq kengashida kotiba bo'lib ishlar, qiyinchilik bilan kun kechirar edik. Jo'xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo'shilib kunjara yeganim uchun onam yuzimga. shapaloq urgani va o'zi kechgacha yig'laganini unutmayman".* Kimning hayoti va ijodiga tegishli?

A) M. Jalil B) Shuhrat C) E. Vohidov D) U. Nosir

22. Asqad Muxtorning birinchi qissasi qanday nomlangan?

A) «Daryolar tutashgan joyda»

B) «Karvon qo'ng'irog'i»

C) «Davr mening taqdirimda»

D) «Qishloq hukm ostida»

23. Ota // quyosh // ona // oy // Bu // men // oyijon // Tushib qolgan tinish belgilarining mosini toping.

A) vergul, tire, vergul, nuqta, tire, vergul, nuqta

B) tire, vergul, tire, nuqta, tire, vergul, nuqta

C) vergul, nuqtali vergul, vergul, nuqtali vergul, tire, vergul, nuqta

D) tire, nuqtali vergul, vergul, nuqta, tire, vergul, nuqta

24. Qaysi gapda yasama sifatdan yasalgan ot aniqlovchi vazifasini bajargan?

A) Bola ovchilar tomonidan jarohatlangan oqqushni davolabdi.

B) Bahor barchanining diliiga ajib bir harorat, iliqlik olib kirdi.

C) Ukasi Husanning harakatlari unga juda yoqdi.

D) Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan.

25. Turkman xalqiga xos g'urur, oriyat, ittifoqlik tuyg'ulari haqida iftixor bilan yozilgan "Turkman binosi" she'rining muallifi kim?

A) Zavqiy B) Mirtemir

C) Mirmuhsin D) R. Hamzatov E) Maxtumquli

26. *Jamila ... ga yeb qo'ygudek bo'lib qaradi, unga bir narsa demoqchi bo'lib og'iz.juftladi-yu, lekin «Shu ahmoq bilan aytishib nima obro' topdim», - deb o'yladi.*

(«Jamila», Ch. Aytmatov) Kim nazarda tutilgan?

A) Doniyor B) Usmon

C) Sodiq D) Seit

27. Dunyo odam kabi yasanib, jilva qilib mardona so'fiy oldiga kelishi, lekin Haq oshig'ini o'ziga qarata olmagach, ayyor, makkor dushman qiyofasida gavdalaniishi Mashrabning qaysi g'azalida tasvirlangan?

A) "0'rtar" radifli g'azalida B) «Na qilay?» radifli g'azalida

C) «Chidayolmas» radifli g'azalida

D) «O'ttum» radifli g'azalida

28. Unsinostonadan hatlashi bilan paranjisini yig'ishtirib oldi, qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketishdi.

Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukm(-lar)ni toping.

1) ikkita yasama fe'l qo'llangan; 2) ikkita ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qo'llangan; 3) bitta fe'lning yasalish asosi ot so'z turkumi; 4) fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalangan uchta ravish holi qo'llangan; 5) bog'lovchisiz

bog'langan qo'shma gap; 6) sodda yoyiq gap; 7) ikki o'rinda nisbat qo'shimchasi qo'llangan.

A) 1, 4, 5, 7      B) 1, 2, 3, 4, 5, 7

C) 2, 4, 6      D) (1), 2, 3, 5, (7)

29. «Bildimki, oni dushmani makkorai ayyor, «Lo» - tirnog'i birla yuzini tirmalab o'ttum» Ushbu bayt kimning qalamiga mansub va unda qanday san'at qo'llangan?

A) Mashrab, kitobat      B) Ogahiy, tazod

C) Furqat, iyhom      D) Navoiy, mubolag'la

30. Qaysi javobda asliy sifat ishtirok etmagan?

A) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

B) Xonaga beqasam to'n kiygan do'ppili kishi kirib keldi.

C) Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin!

D) Afting qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama!

31. Qaysi gaplarda daraja-miqdor ravishi qatnashgan?

1) Qaddini rostlab eshikni taqillatib **ancha** turdi. 2)

Abdushukur bu yerdan tez chiqib ketish payiga tushdi. 3)

Mehmondorchilik tugagach, u **uzundan-uzun** duo qilib

o'rnidan turibdi. 4) Chol va kampir **behad** sevinishibdi. 5)

Xo'roz arang qochib qutilibdi.

A) 1, 2, 3, 4, 5      B) 1, 2, 3, 4, 5      C) 1, 2, 3, 4      D) 1, 3, 4

32. Qaysi gapda fonetik yozuvda yozilgan so'z ko'p

qo'llangan?

A) Yolg'on o'rmonga o'xshaydi: o'rmonga qanchalik kirib boraversa, undan chiqib olishga ham shunchalik qiyinalishadi.

B) Kamtar bo'l, barchani etgil bahramand, Sening ham martabang bo'lg'usi baland.

C) Urug' aralashib avval tuproqqa, So'ngra bo'y cho'zadi osmon-falakka.

D) Kuchni ishga solish badanni, shu bilan birga, ruhni ham chiniqtiradi.

33. **Uya** qaytishni istamadi, lekin **gapga borishga** hali vaqt **erta** edi. Berilgan gapda asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar soni nechta?

A) 2 ta      B) 3 ta      C) 4 ta      D) 5 ta

34. 1) O'zbekiston Respublikasi don mahsulotlari konserni.

2) O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti. 3)

Toshkent Aviatsiya instituti. 4) Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi. 5) Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti. 6)

Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti. 7) Fan va texnika davlat qo'mitasi. 8) Xalqaro Gumanitar huquq. 9)

Jahon Intellektual mulk tashkiloti. Barqaror birikmalarning qaysilari xato yozilgan?

A) 1, 2, 4, 6, 8, 9      B) 3, 5, 7

C) 2, 3, 4, 6, 8      D) 1, 2, 3, 4, 6, 8

35. Nutqda tor unlilarni almashtirish natijasida yuzaga keladigan omofonlar qatnashgan gapni toping.

A) Erkin yettiga yetdi.      B) Tursun tomda tursin.

C) Guvoh sudga ketdi, qo'shnim sutga ketdi.      D) A, C

36. Shubhasiz, barkamol avlodning buguni va ertasi bor.

Berilgan gap tarkibida nechta grammatik bog'lanish bor ekanligini aniqlang.

A) 3 ta      B) 4 ta      C) 5 ta      D) 6 ta

### 30-variant

1. Qaysi javobda keltirilgan gapda birgalik nisbatdagi fe'l ishtirok etmagan?

A) Berilgan barcha gapda birgalik nisbatdagi fe'l ishtirok etgan.

B) Vodil qishlog'inining choyxonasi yo'l boshidagi ikkita katta keksa chinorning soyasida joylashgan.

C) Bir burchakda katta stol atrofida yoshlari o'tirib gazeta, jurnal va kitob o'qishadi, bir burchakda radiodan so'nggi xabar eshitishadi.

D) O'tgan yili qishloq keksalari choyxonani ta'mirlashdi.

2. Qaysi gap juftligida shakldosh so'z qo'llangan?

A) Tomog'i qora tovuq. Alim buva gapirmoqchi bo'ib tomog'ini qirib qo'ydi.

B) Tulki tumshug'idan ilinar. Ko'zbo'yamachi tulki bo'ladi, xalq ichida kulgi bo'ladi.

C) Cholg'umning tori tarang, meni ko'rgan yov garang.

Qo'lga olsam torimni, beixtiyor eslaydurman yorimni.

D) Suv ketar, tosh qolar. Bektemirning yuragini ezgan qandaydir bir tosh go'yo erib ketdi.

3. Qaysi qatorda sintagma to'g'ri qo'yilgan?

A) Eng buyuk jihod: insonning: nafsi bilan: shayton bilan: qilgan jihodidir: Sen ham: doim: ularga qarshi kurash.

B) Eng buyuk jihod: insonning nafsi bilan: shayton bilan: qilgan jihodidir: Sen ham: doim: ularga qarshi kurash.

C) Eng buyuk: jihod insonning: nafsi bilan: shayton bilan qilgan jihodidir: Sen ham: doim ularga qarshi: kurash.

D) Eng buyuk jihod: insonning nafsi bilan: shayton bilan qilgan: jihodidir: Sen ham: doim: ularga qarshi kurash.

4. Qaysi so'zdan fe'lning mayl shakllaridan biri bilan shakldosh bo'la oladigan qo'shimcha orqali fe'l yasash mumkin?

A) suv      B) ikki      C) boy      D) sava

5. Dimariq hali hech kim va hech nima loyqalatib ulgurmagan uchun tip-tiniq, mayin oqmoqda.

Ushbu gapda ismlar guruhiga kiradigan birliklar soni nechta?

A) 4 ta      B) 6 ta      C) 5 ta      D) 3 ta

6. Quyida berilgan so'zlardan uch o'rinda omonim bo'la oladigan barcha so'zlarni aniqlang.

1) yot; 2) bor; 3) qur; 4) bitmoq; 5) un; 6) o'ch.

A) 2, 3, 5, 6      B) 1, 4, 5, 6      C) 2, 3, 4, 5, 6      D) 5, 6

7. To'g'ri javoblarni ajrating.

1) Xorazmda birinchi bosmaxona Komil Xorazmiy nomi bilan bog'liq; 2) Komil Xorazmiy Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib tashbosmaxona tashkil qiladi; 3) Feruz Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib tashbosmaxona tashkil qiladi; 4) Feruz Markaziy Osiyoda fotografiya ishlarini yo'lga qo'yishda bosh-qosh bo'ladi; 5) Furqat o'zbek publisistikasining asoschilaridan biridir; 6) Furqat Toshkentga borib ilm-fan, texnika va san'atdagi yangiliklarni ko'radi.

A) 2, 4, 5, 6      B) 1, 4, 5, 6

C) 2, 3      D) 1, 3, 4, 5, 6

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi. U necha bo'lim, necha banddan iborat?

A) 8 bo'lim, 82 band      B) 6 bo'lim, 72 band

C) 9 bo'lim, 52 band      D) 7 bo'lim, 82 band

9. Nodiraning «Doda keldim...» g'azali haqidagi to'g'ri hukmlarni belgilang.

1) g'azalda tajnis san'atining go'zal namunalari uchraydi; 2) g'azalda turkiy so'z radifga olingan; 3) qofiyadagi so'zlarning barchasi o'zbekcha egalik qo'shimchasi bilan kelgan forscha-tojikcha so'zlardan tashkil topgan; 4) mavjud yetti baytning har birida undalmalar qo'llangan.

A) 1, 2, 4      B) 2, 3    C) 1, 2, 3      D) 1, 3

10. **-kor, -dor, bo-, ba-, ser**, -shunos, -kash, -siz, be-, no-Berilgan qo'shimchalardan nechta -li qo'shimchasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi?

A) 4 tasi              B) 2 tasi              C) 5 tasi  
D) 3 tasi

11. *Shuhratparastlik, takabburlilik habi illatlar qattiq qoralanadi. Erishgan muvaffaqiyatlardan boshi aylanib hech kimni pisand qilmaydigan kimsaga aylanadi, hatto xudoni ham tan olmaydi. Qaysi asar qahramoni haqida gap boryapti?*

A) «Namrud», Namrud  
B) «Kecha va kunduz», Akbarali  
C) «Ruhlar isyon», Avrangzeb  
D) «Abulfayzxon», Abulfayzxon

12. Komil Xorazmiy o'zbek tiliga tarjima qilgan «Mahbub ul-qulub» asarining muallifi kim?

A) Farohiy      B) A. Navoiy  
C) Ogahiy      D) Faxriddin Ali Safiy

13. Zulfiya «Bog'lar qiyg'os gullaganda» she'rida «orqa tog'»deb kimni yoki nimani aytadi?

A) o'tgan umrni      B) o'zbek xalqini  
C) bog'dagi daraxtlarni      D) yozgan she'rлarini

14. Sakkokiy o'zining Ulug'bek madhida qanday san'atlarni ko'p qo'llagan?

A) tashbeh, istiora      B) tajnis, iyhom  
C) husni ta'lil, tashbeh      D) tazod, mubolag'a

15. «*Ulus ichinda turur o'z begin qiyo ko'zluk, Xayoli to'qtamish andin ko'ngil saroyinda*».

Qanday badiiy san'at qo'llangan?

A) tajnis      B) tajohil-ul orif  
C) iyhom      D) ta'did

16. Muhammad Rahimxon Feruz kimlarni ustoz va pir tutgan?

A) Ogahiy va Maxmurni  
B) K. Xorazmiyni va Salimxon Matpona o'g'lini  
C) X. Huvaydo va S. Olloyorni  
D) Ogahiyini va Salimoxun Matpona o'g'lini

17. Kishi moliga suq podsholarni ko'p ko'rgan **Binoiy** o'n olti yoshli Boburning bunchalik **halolligidan** juda qattiq **ta'sirlandi**. Ushbu parchada ot turkumiga mansub so'z necha o'rinda kesimga tobelangan?

A) 1 ta      B) 2 ta      C) 3 ta      D) 4 ta

18. Qaysi javobda qo'shma gapning ikkinchi qismida qo'llanadigan bog'lovchilar keltirilgan?

A) ammo, lekin, agar, chunki, negaki  
B) chunki, negaki, goh... goh, balki, mabodo  
C) chunki, negaki, balki, ammo, lekin, biroq, ya'ni  
D) toki, shuning uchun, bilan, hamda, basharti

19. Qaysi javobda fikri xulosalash ma'nosи ifodalangan sof modal so'z qatnashgan shaxsi noma'lum gap keltirilgan?

A) To'g'ri, g'alabaga qurbonsiz erishib bo'lmaydi.  
B) Shubhasiz, bunga ishonish kerak.

C) Xullas, bu yerda o'rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak.

D) Avvalo, bu litsey binosi edi.

20. **-t, -ch, -uq, -gi** berilgan qo'shimchalar asosida omonim juftliklar to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

A) to'lat-to'lat, tinch-sevinch, yutuq-uzuq, sezgi-yozgi  
B) to'lat-so'rat, tinch-quvonch, uzuq-yuluq, **yozgi-qadimgi**  
C) **qurt-qulat**, ishonch-quvonch, yutuq-yuluq, supurgi-kulgi  
D) to'lat-to'lat, ishonch-tinch, yutuq-yuluq, **burungi-bugungi**

21. Qaysi qatorda quyi tor unlilar fonema vazifasini bajargan?

A) sirop - serob, soliq – solih  
B) sudxo'r - sutxo'r, so'kmoq – suqmoq  
C) tang - tong, uzuk - uzik, urish – urush  
D) undash - undosh, ana – ona

22. «Davlat tili haqida»gi Qonunning nechanchi moddasida «Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrleri, tamg'alarli, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida amalgalashiriladi» deb yozib qo'yilgan?

A) 2-moddada      B) 10-moddada  
C) 14-moddada      D) 19-moddada

23. Ulug'learning aytishicha, tutunsiz o'tin yo'q, xatosiz - odam. Berilgan gap haqidagi to'g'ri hukm(-lar)ni aniqlang.

1) aytishicha, yo'q, odam so'zları gapda kesim vazifasida kelgan; 2) o'tin, odam so'zları gapda ega vazifasida kelgan; 3) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap; 4) bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap; 5) fikrning kimiga qarashli ekanligini ifodalovchi kiritma ishtirok etgan; 6) kiritma tarkibida otlashgan so'z mavjud.

A) 2, 4, 5, 6      B) 1, 3, 4, 5, 6  
C) 2, 3, 5, 6      D) 1, 2, 3, 5, 6

24. Qaysi javobda hosil bo'lish usuliga ko'ra farqlanuvchi tovushlar orqali paronim juftlik hosil qila oladigan so'z(lar) ko'rsatilgan?

1) afzal 2) adib; 3) hiyla; 4) qayt; 5) darz; 6) tanbur.

A) 1      B) 2, 3, 4, 5, 6      C) 1, 6      D) 2, 3, 4, 5

25. «Bu faqirg'a xudoysi taolo inoyat qilib ko'b nimarsa bergen turur. Xususan, uch hunar bergen turur. Avval, sipohiylikning qonuni... Ikkinci ... barcha ash'omi fahmlamaklik ... Uchinchi ... o'tgan podsholarning otlari va umurlarining va sultanatlarining kam va ziyodin bilmaklik» Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

A) «Shajarayi turk»      B) «Shaybonynoma»  
C) «Boburnoma»      D) «Sabot ul-ojizin»

26. Ergash gap bosh gapdan keyin kelgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

A) Bu oqpadar o'g'il bilmaydiki, o'zi jerkib, yerga urayotgan kishisi - otasi!  
B) Kim mendan sir yashirsa, o'shang aqiziqa veraman.  
C) Kim umumning manfaati uchun xizmat qilsa, uni xalq hamisha qo'llab-quvvatlaydi.  
D) Alam qiladigan yeri shuki, bu qo'rg'oni ko'z oldimizda tiklashdi.

27. Navoiy Mehrning beqiyos go'zalligini necha baytda chizib ko'rsatgan?

A) 5      B) 6      C) 7      D) 8

28. Qaysi javobda turkiy tillarning qipchoq guruhiga kirmaydigan tillar qatori berilgan?

A) tatar, turkman, qozoq  
B) qirg'iz, yoqut, qo'miq  
C) qoraqalpoq, boshqird, tojik  
D) o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon

29. Yuragimda ko'pdir alamli dardlar, Mening qizim - sening singling, nomardlar. Qizing ber, deb mening ko'nglim bo'lasan,

Suyagimni yongan o'tga solasan. Keltirilgan parchadagi so'zlar imlosida kuzatilgan fonetik o'zgarishlar soni va turi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) 2 o'rinda tovush almashishi va 4 o'rinda tovush ortishi  
B) 3 o'rinda tovush almashishi va 4 o'rinda tovush tushishi  
**C) 2 o'rinda tovush almashishi va 5 o'rinda tovush tushishi**  
D) 3 o'rinda tovush ortishi va 3 o'rinda tovush tushishi  
30. Navoiyning qaysi g'azali ramali musammani mahzuf yoki maqsur vaznida bitilmagan?

- A) "Kelmadi" radifli g'azali  
**B) "Qilg'il" radifli g'azali (mujtassi musammani maxbun va maxbuni maqtu')**

C) «Yorga chun derman»: «Ne erdi olmakim kayfiyati?» matla'li g'azali

- D) «Bo'ldum sanga» radifli g'azali

31. Ega uyushib kelgan gapni aniqlang.

- A) Ona-Vatanga muhabbat, xalq, millat birligi, uning kelajak istiqboli, hayot farovonligi va tinchligini dildan jo'shib kuyladilar.

**B) Ikki kundan so'ng uning Konasiga hali yigirmaga to'Imagan qiz bilan yoshi ellikdan oshgan, odmi kiyangan, qotmadan kelgan ayol kirib keldi.**

C) Sochlari jingalak, rangi oq- sariqqa moyil, ko'zları o'tkir ooquvchi tabib yigit: «Nima gap? Qayeringiz og'riyapti?», - deb ham o'tirmay, avval Zaynabning ikki kaftini ko'rdi, tirnoqlarini ohista ezdi, so'ng bilak tomirini ishlab, boshini quiyi egganicha, nimanidir ziyraklik bilan tinglayotganday jim qoldi.

D) Bevaning, ayniqsa, tirnoqqa zor bevaning zorli, g'amli ohlariga zamin qanday chidar ekan, samo qanday chidar ekan?

32. Qaysi javobda fe'llar so'zlovchining fe'ldan anglashilgan harakat-holatga munosabatini bildirishga ko'ra farqlanadi?

- A) ichdi, ichgan, ichib **B) ich, ichdim, ichsa**  
C) ichir, ichmoq, ichsin D) ichdim, ichding, ichdi

33. «Men ... ko'chasida To'xtab turdim hayajonli.

Xiyobonning chekkasida Ko'rdim Hamid Olimjonni», - deb shoirni kim va qayerda ko'rishganini aytadi?

- A) M. Shayxzoda, Salomobod  
B) Mirtemir, Chotqol  
**C) M. Shayxzoda, Lohutiy**

D) Oybek, Samarqand darvoza

34. Qaysi javobda ega qatnashgan undalmali gap berilgan?

- A) Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang?  
B) Yetar, ey cholg'uvchi, bas qil sozingni.  
C) Qani, ayt, maqsading nimadir sening?  
**D) Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?**

35. M. Shayxzoda necha bobda **«Toshkent taqdirida kelajak ayon, Dilda kelajakni tuyganimdandir»**, - deb kuylaydi?

- A) yigirma      **B) o'n sakkiz**  
C) yigirma ikki D) besh

**36. Ozod va obod yurtda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarning uylari ham, hayoti, turmushi ham go'zal va farovon bo'lishi kerak.**

Ushbu gapdagagi uyushiq bo'laklarning tobelanishi haqida noto'g'ri izoh berilgan javobni aniqlang.

- A) gapda uyushiq bo'laklarning qaratqich aniqlovchiga tobelanishi kuzatiladi.

**B) gapda uyushiq bo'laklarning mustaqil holga tobelanishi kuzatiladi.**

C) tobe va hokim qismlari uyushiq bo'lak bilan ifodalangan moslashuvli tobe bog'lanish qatnashgan.

D) gapdagagi barcha uyushiq bo'laklar uyushiq kesimga bilvosita tobelangan.